

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro`yxatga olindi:

№ _____

2019-yil _____

«TASDIQLAYMAN»

O`quv ishlari bo`yicha prorektor:
prof. Soleyev A.

2019-yil _____

TANLOV FAN
(“Bobur va boburiylar davri adabiy muhiti”)
fanidan

O`QUV-USLUBIY MAJMUA

Samarqand – 2019

MUNDARIJA:

1. Fanning annotatsiyasi.....	
2. Mualliflar haqida ma`lumot.....	
3. Normatif hujjatlar.....	
1. Davlat ta`lim standart.....	
2. O`quv reja.....	
3. Ishchi o`quv reja.....	
4. O`quv dasturi.....	
5. Ishchi o`quv dasturi.....	
6. Kalendar –tematik reja.....	
7. Modul	
4. Ta`lim texnologiyasi.....	
1. Mashg`ulotlarning pedagogik texnologiyasi.....	
2. Mashg`ulotlarning texnologik xaritasi.....	
5. Nazorat materiallari.....	
1. Topshiriqlar mazmuni.....	
2. O.N. va Ya.N. uchun testlar.....	
3. Yozma ish va og`zaki nazorat savollari (variantlar).....	
6. O`quv materiallari.....	
1. Ma`ruza matni.....	
7. Amaliyot va seminar mashg`ulotlarining ishlanmalari, ularni o`tkazish bo`yicha uslubiy tavsiyalar.....	
8. Tarqatma materiallar (referat mavzulari, adabiyotlar ro`yxati, baholash mezonlari, horijiy manbalar).....	
9. Mustaqil ish mavzulari va uni bajarish bo`yicha uslubiy tavsiyalar.....	
10. Kurs ishi mavzulari va uni bajarish bo`yicha uslubiy tavsiyalar.....	
11. BMI mavzulari banki va uni bajarish bo`yicha uslubiy tavsiyalar.....	
12. Glossariy.....	
13. Ilovalar.....	
14. Ishchi o`quv rejada ko`rsatilgan darsliklar, o`quv qo`llanmalar.....	
15. Uslubiy qo`llanmalar, uslubiy ko`rsatmalar.....	
16. Elektron darsliklar va boshqa elektron o`quv materiallar.....	

ANNOTATSIYA

Mazkur o`quv-uslubiy majmuada ko`zda tutilgan asosiy maqsad badiiy adabiyot tarixi va adabiy-nazariy tafakkur tadrijining shaxs va jamiyat hayotidagi o`rni va ahamiyatini ko`rsatib berish, talabalarning adabiy-estetik tafakkurini, yuksaltirish, ilmiy mushohadaning vujudga kelishi ko`nikmalarini hosil qilish, faol ijodkorlik ruhi va mas`uliyatini shakllantirishdan iborat.

Hindistonda boburiylar davlatining tashkil topishi bilan Movarounnahr-Hindiston xalqlarining savdo-iqtisodiy, diplomatic va siyosiy munosabatlari kabi madaniy aloqalari ham rivojlandi. Bu davr hind badiiyati mulkida turkiyzabon adabiyotining bunyod etilishi, shakllanishi va rivojlanishi uzoq o`tmishdan mavjud adabiy aloqalarimizning amaliy tantanasi edi.

Boburiylar sulolasi yirik vakillarining mahalliy va xorijiy ijodkorlarga ko`rsatgan iltifoti va homiyliklari saltanatda "hind-musulmon madaniyati"dagi o`zaro mushtarak jihatlarning jadallashuvini ta`minladi. Aftidan, bu jarayonada boburiylar davlatidagi madaniy muhit va ijod uvhun mavjud imtiyozlar, ko`plab movarounnahrlik shoir, fozil, muarrix, musavvir, xattot va boshqa soha san`atkorlarining Hindistonga kelishida yetakchi rol o`ynadi. Yana, mamlakatda hind va musulmonlarning o`zaro birlashuviga da`vat etuvchi bhaktiy va tasavvuf g`oyalarining jamiyatdagi ustuvorligi ichki siyosatning g`oyaviy jihatdan mustahkamlanishi va ma`rifatning ravnaq topishida hal qiluvchi omillardan biri vazifasini o`tadi.

Bobur, Bayramxon, Humoyun, Komron, Forig`iy, Diyda, Johila, Yusuf Faryobiy, Fahm, Abdurahmon xoni xonon, Azfariylar ijodiy merosining yaxlit ilmiy asosda tadqiq etilishi, mazkur shoirlar salafining hind va turkiy xalqlar adabiyoti tarixida yangi bir bob sifatida o`rganilishi ushbu kursning maqsadini tashkil etadi.

Tuzuvchi:
Isroil Sulaymonov

Taqrizchi:
dots. E.Musurmonov
dots. U.Qobilov

O`QUV – USLUBIY MAJMUA

Mumtoz adabiyot tarixi kafedrasining 2019-yil _____ - avgustdagi № 1-sonli yig`ilishida muhokama qilingan va o`quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya qilingan.

Samarqand-2019

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT

**Isroil SULAYMONOV,
Filologiya fanlari nomzodi**



Sulaymonov Isroil Isomiddinovich 1981-yilda Samarqand viloyati, Urgut tumanida tug`ilgan. 1999-2003 yillarda Samarqand davlat universiteti talabasi, 2003-2005-yillarda SamDU magistranti, 2005-2008-yillarda SamDU aspiranti, 2007-2015-yillarda Samarqand davlat universiteti O`zbek adabiyoti tarixi kafedrasida o`qituvchisi, 2015-yil 3-yanvardan O`zbek tili va adabiyoti kafedrasida katta ilmiy xodim-izlanuvchisi.

2010-yilda prof. M.Muhiddinov rahbarligida “Mulla Mahmud Qoriy va uning poetik merosi” mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. U hozirga qadar 1 ta monografiya, 50 ga yaqin ilmiy hamda ilmiy-uslubiy maqolalar muallifidir.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OILY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

MUMTOZ ADABIYOT TARIXI KAFEDRASI

**TANLON FAN
(“Bobur va boburiylar davri adabiy muhiti”)**

FANINI O‘RGANISH BO‘YICHA

NORMATIV HUJJATLAR

ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТ СТАНДАРТИ

Ўзбекистон узлуксиз таълимининг
давлат таълим стандартлари

Олий таълимнинг давлат таълим стандарти

120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳасининг давлат таълим
стандарти

Расмий нашр

ГОСУДАРСТВЕННЫЙ СТАНДАРТ УЗБЕКИСТАНА

Государственные образовательные стандарты
непрерывного образования Узбекистана

Государственный образовательный стандарт высшего образования

Государственный образовательный стандарт для области образования
120000 – Гуманитарные науки

Издание официальное

Ўзбекистон Республикаси
Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги

Тошкент

ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТ СТАНДАРТИ

Ўзбекистон узлуксиз таълимининг
давлат таълим стандартлари

Олий таълимнинг давлат таълим стандарти

120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳасининг давлат таълим
стандарти

Расмий нашр

Ўзбекистон Республикаси
Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги

Тошкент

I

СЎЗ БОШИ**1. ИШЛАБ ЧИҚИЛГАН ВА КИРИТИЛГАН:**

- Олий ва ўрта махсус, касб-хунар таълимини ривожлантириш маркази;
- Тошкент давлат шарқшунослик институти;
- Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий Университети ;
- Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;
- Тошкент ислом университети;
- Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;
- Қорақалпоқ давлат университети;
- Самарканд давлат университети.

2. ТАСДИҚЛАНГАН ВА АМАЛГА КИРИТИЛГАН:

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг
2015 йил «__» _____ даги ____ - сонли буйруғи.

3. ЖОРИЙ ЭТИЛГАН:

Ўзбекистон стандартлаштириш, метрология ва сертификатлаштириш агентлиги.

4. ИЛК БОР КИРИТИЛИШИ

Мазкур стандарт Ўзбекистон Республикаси ҳудудида амалда қўлланилиши (амал қилишининг тўхтатилиши) ва унга ўзгартиришлар киритилиши тўғрисидаги маълумотлар «Ўзстандарт» агентлиги томонидан нашр этилувчи курсаткичларда чоп этилади.

Мазкур стандарт Ўзбекистон Республикаси ҳудудида расмий чоп этиш ҳукуки Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги билан келишилиб Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигига тегишлидир.

U'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
STANDARTLASHTIRISH, DAVLAT
NAZORATINI MUVOFIQLASHTIRISH VA
AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI
JORIY ETISH BOSHQARMASI

II

МУНДАРИЖА

T/p	бет
Кириш	1
I. 120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳасининг умумий таснифи	1
1.1. Давлат таълим стандартини ишлаб чиқиш асослари	2
1.2. Қўлланиш соҳаси	3
1.3. Атамалар, таърифлар, қисқартмалар	4
1.4 120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳаси битирувчиларининг касбий фаолиятлари таснифи	4
1-қисм	
II. 120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳаси бакалаврият таълим йўналишлари битирувчиларининг тайёргарлик даражасига қўйиладиган умумий малака талаблари	7
2.1. 120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳаси бакалаврият таълим йўналишлари битирувчиларига қўйиладиган умумий малака талаблари	7
2.2. 120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳаси бакалаврият таълим йўналишлари битирувчилари касбий фаолиятининг асосий турларига умумий талаблар	7
2.3. 120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳаси бакалаврият таълим йўналишлари малака амалиётларига қўйиладиган умумий талаблар	9
2.4. Битирув малакавий ишга қўйиладиган талаблар.....	10
III. 120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳаси бакалаврият таълим йўналишлари ўқув режалари тузилмаси	10
3.1. 120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳаси бакалаврият таълим йўналишлари ўқув режалари ва фан дастурлари мазмунига қўйиладиган умумий талаблар ...	10
3.2. Ўқув режа фанлари блоклари мазмунига қўйиладиган умумий талаблар	11
3.3. 120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳаси бакалаврият таълим йўналишлари ўқув режасидаги юклама ҳажми	12
2-қисм	
IV. 120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳаси магистратура мутахассисликлари битирувчиларининг тайёргарлик даражасига қўйиладиган умумий талаблар	13
4.1. 120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳаси магистратура мутахассисликлари битирувчиларига қўйиладиган умумий малака талаблари	13
4.2. 120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳаси магистратура мутахассисликлари битирувчилари касбий фаолиятининг асосий турларига қўйиладиган умумий талаблар	13
4.3. 120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳаси магистратура мутахассисликлари малака амалиётларига қўйиладиган умумий талаблар	16

HAZORATIN!
AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI
JAM'IY KITI SH BO'YONADIMIZ!

4.4.	Магистрлик диссертациясига қўйиладиган талаблар.....	17
V.	<i>120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳаси бўйича магистратура мутахассисликлари ўқув режалари тузилмаси</i>	17
5.1.	<i>120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳаси магистратура мутахассисликлари ўқув режалари ва фан дастурлари мазмунига қўйиладиган умумий талаблар...</i>	17
5.2.	Ўқув режа фанлари блоклари мазмунига қўйиладиган умумий талаблар.....	18
5.3.	<i>120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳаси магистратура мутахассисликлари ўқув режасидаги юклама ҳажми</i>	19
VI.	<i>120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳаси бўйича кадрлар тайёрлаш сифатини баҳолаш</i>	20
6.1.	<i>120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳаси бакалавриат таълим йўналишлари ва магистратура мутахассисликлари профессор-ўқитувчилари таркибига қўйиладиган умумий талаблар</i>	20
6.2.	ОТМ моддий-техник базасига қўйиладиган умумий талаблар	21
6.3.	<i>120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳаси бўйича кадрлар тайёрлаш сифатини назорат қилиш</i>	21
	Эслатма	21
	Иловалар	23

U ZSIANDANI KUCH-K.

HAZORATIN MUVOFIQ ISHTIRAKI
AXBOROT TEXNOLOGIYALAR NI
JONIV ETI BN NORMADIRASI

ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТ СТАНДАРТИ

**Ўзбекистон узлуксиз таълимнинг
давлат таълим стандартлари
Олий таълимнинг давлат таълим стандарти
120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳасининг давлат таълим стандарти**

**Государственные образовательные стандарты
непрерывного образования Узбекистана
Государственный образовательный стандарт высшего образования
Государственный образовательный стандарт для области образования
120000 – Гуманитарные науки**

**State Educational Standards of Continuous Education of Uzbekistan
State Educational Standards of Higher Education
State Educational Standard
120000-The Humanities**

Амал қилиш муддати 2016 йил « 12 » 01 дан

Кириш

120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳаси давлат таълим стандарти «Таълим тўғрисида», «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг қонунлари, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2001 йил 16 августдаги «Олий таълимнинг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида»ги 343-сон қарори ва олий таълим соҳасини тартибга солишчи бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга ҳамда халқаро тажрибаларга мувофиқ ишлаб чиқилган.

120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳаси давлат таълим стандарти (ДТС) ўқув жараёнини, таълим муассасалари фаолиятини, кадрлар, дарслик ва ўқув қўлланмалар тайёрлаш сифатини баҳолашни тартибга солишчи тегишли норматив ҳужжатлар: бакалаврият таълим йўналишлари ва магистратура мутахассисликлари учун малака талаблари, ўқув режалари, фанлар дастурлари ва б.ларни яратиш учун асос ҳисобланади.

I. 120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳасининг умумий таснифи

120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳасининг муайян бакалаврият таълим йўналишлари бўйича бакалаврлар тайёрлаш олий таълимнинг малака талаблари, ўқув режа ва фан дастури асосида амалга оширилади. Фан дастурларининг назарий ва амалий машғулотларини тўлиқ ўзлаштирган, якуний давлат аттестациясидан муваффақиятли ўтган шахсга «бакалавр» даражаси ҳамда олий маълумот тўғрисидаги давлат намунасидаги расмий ҳужжат берилади.

Ўқув режа ва фан дастурининг меъёрий муддати, ўқиш шакли ва мос даражаси 1-жадвалда келтирилган.

Ўқув режа ва фан дастурининг муддати, ўқиш шакли ва битирувчиларнинг малака(даража)си

Ўқув режа ва фан дастури	Малака даражаси	Ўқув режа ва фан дастурини ўзлаштиришнинг меъёрий муддати
Муайян бакалаврият таълим йўналишининг ўқув режа ва фан дастурлари асосида	Бакалавр	4 йил (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университетида 5 йил)

120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳасининг муайян магистратура мутахассисликлари бўйича магистрлар тайёрлаш олий таълимнинг малака талаблари, ўқув режа ва фан дастури асосида амалга оширилади. Фан дастурларининг назарий ва амалий машғулотларини тўлиқ ўзлаштирган, магистрлик диссертациясини муваффақиятли ҳимоя қилган, якуний давлат аттестациясидан муваффақиятли ўтган шахсга «магистр» даражаси ҳамда олий маълумот тўғрисидаги давлат намунасидаги расмий ҳужжат берилди.

Ўқув режа ва фан дастурининг меъёрий муддати, ўқиш шакли ва мос даражаси 2- жадвалда келтирилган.

Ўқув режа ва фан дастурининг муддати, ўқиш шакли ва битирувчиларнинг малака(даража)си

Ўқув режа ва фан дастури	Малака даражаси	Ўқув режа ва фан дастурини ўзлаштиришнинг меъёрий муддати
Муайян магистратура мутахассислигининг ўқув режа ва фан дастурлари асосида	Магистр	2 йил

1.1. Давлат таълим стандартини ишлаб чиқиш асослари

Мазкур таълим соҳаси учун давлат таълим стандартини ишлаб чиқишда қуйидаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга асосланилди:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни. Тошкент, 1997 й., 29 август, № 463-1.

2. Ўзбекистон Республикасининг “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”. Тошкент, 1997 й., 29 август, № 463-1.

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 5 январдаги “Ўзбекистон Республикасида таълим тизими учун давлат таълим стандартларини ишлаб чиқиш ва жорий этиш тўғрисида”ги 5- сонли Қарори.

4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2001 йил 16 августдаги “Олий таълимнинг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 343- сонли Қарори.

5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида”ги 2004 йил 20 июлидаги 341- сонли Қарори.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2011 йил 20 майдаги “Олий таълим муассасаларининг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш ва юқори малакали мутахассислар тайёрлаш сифатини тубдан яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-1533- сонли Қарори.

U'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
STANDARTLASHTIRISH, DAVLAT
RAZORATI MUHOFIQSHTIRISH
TASHKOTI TEXNOLOGIYALARINI
ETI EN JONNABAMASI

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар тайёрлаш ва аттестациядан ўтказиш тизимини янада такомиллаштириш тўғрисида» 2012 йил 24 июлдаги ПФ-4456- сонли Фармони.

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 10 декабрдаги «Чет тилларни ўрганиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-1875- сонли Қарори.

9. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2012 йил 28 декабрдаги «Олий ўқув юртидан кейинги таълим ҳамда олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрларни аттестациядан ўтказиш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 365- сонли Қарори.

10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2013 йил 26 мартдаги «Ахборот-коммуникация технологиялари соҳасида кадрлар тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-1942- сонли Қарори.

11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2014 йил 8 июлдаги «Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси тузилмасини янада мақбуллаштириш ҳамда Республика академик илм-фани ва олий таълимнинг интеграциясини мустаҳкамлаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-2204- сон қарори.

12. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2015 йил 10 январдаги «Олий таълимнинг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида» 2001 йил 16 августдаги 343- сон қарорига киритиладиган ўзгартириш ва қўшимчалар ҳақида»ги 3-сон Қарори.

13. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2015 йил 15 январдаги «Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2015 йил 10 январдаги 3-сон қарори ижросини таъминлаш тўғрисида»ги 12- сонли буйруғи.

1.2. Қўлланish соҳаси

Мазкур ДТС *120000 - Гуманитар фанлар* таълим соҳаси бўйича олий маълумотли бакалавр (магистр)лар тайёрловчи Ўзбекистон Республикаси ҳудудидаги олий таълим муассасалари учун умумий талаблар мажмуини ифодалайди.

Олий таълим муассасаси *120000 - Гуманитар фанлар* таълим соҳаси бўйича кадрлар тайёрлаш ваколатига эга бўлганда ушбу ДТС ва алоҳида ишлаб чиқилган малака талаблари асосида тайёрланган ўқув режа ва фан дастурларини амалга ошириш ҳуқуқига эга деб ҳисобланади.

ДТСнинг асосий фойдаланувчилари:

- мазкур таълим соҳасининг бакалаврият таълим йўналишлари ва магистратура мутахассисликлари бўйича фан, техника ва ижтимоий соҳа ютуқларини ҳисобга олган ҳолда ўқув режа ва фан дастурларини сифатли ишлаб чиқиш, самарали амалга ошириш ва янгилаш учун масъул олий таълим муассасаларининг профессор-ўқитувчилари;

- таълим соҳаси бакалаврият таълим йўналишлари ва магистратура мутахассисликларнинг ўқув режа ва фан дастурларини ўзлаштириш бўйича ўқув-тарбия фаолиятини самарали амалга оширувчи барча ходимлари ва талабалари;

- ўз ваколат доирасида битирувчиларнинг тайёргарлик даражасига жавоб берадиган олий таълим муассасаларининг бошқарув ходимлари (ректор, проректорлар, ўқув бўлими бошлиғи, деканлар ва кафедра мудирлари);

- битирувчиларнинг тайёргарлик даражасини баҳолашни амалга оширувчи Давлат аттестация ва имтиҳон комиссиялари;

- олий таълим муассасасини молиялаштиришни таъминловчи органлар;

- олий таълим тизимини аккредитация ва сифатини назорат қилувчи ваколатли Давлат органлари;

- таълим соҳаси(таркиби)нинг бакалаврият таълим йўналишлари ва магистратура мутахассисликларидан бирини ихтиёрий танлаш ҳуқуқига эга бўлган абитуриентлар (бакалаврлар) ва бошқа манфаатдорлар;

- абитуриентлар, ота-оналар ва бошқа манфаатдор шахслар.



1.3. Атамалар, таърифлар, қисқартмалар

Мазкур ДТСда Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни, Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури ҳамда олий таълим соҳасидаги халқаро ҳужжатларга мос равишда қуйидаги атамалар ва таърифлардан фойдаланилган:

касбий фаолият тури – таълим йўналишига ўзгаришлар киритиш мақсадида касбий фаолият объектига таъсир қилишнинг усуллари, услублари ва тавсифи;

компетенция – тегишли соҳада касбий фаолият юритиш учун зарур бўлган билим, кўникма, малака ва шахсий сифатлар мажмуи;

модуль – тарбиялаш ва ўқитишга йўналтирилган мақсадлар ва натижаларга нисбатан муайян мантикий тугалланган ўқув фани (курси) ёки ўқув фанлари (курслари)нинг маълум бир қисми;

касбий фаолият объекти – предметлар, воқеликлар, жараёнлар ва фаолият доирасида ҳаракатга йўналтирилган тизимлар;

касбий фаолият соҳаси – илмий, ижтимоий, иқтисодий, ишлаб чиқаришда намоён бўладиган касбий фаолият объектларининг мажмуи;

профиль – таълим дастурининг аниқ касбий фаолиятнинг муайян тури ёки объектига йўналганлиги;

ДТС - Давлат таълим стандарти;

АРМ - ахборот ресурс маркази;

ИТИ - илмий тадқиқот институтлари;

ОТМ - олий таълим муассасаси.

1.4. 120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳаси битирувчилари касбий фаолиятларининг таснифи

120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳаси битирувчиларининг касбий фаолиятлари таснифида бакалаврият таълим йўналишлари ва магистратура мутахассисликлари битирувчиларининг касбий фаолиятлари:

соҳалари;

объектлари;

асосий турлари;

ҳамда касбий мослашув ва таълимни давом эттириш имкониятлари келтирилади.

Бакалаврият таълим йўналишлари битирувчилари касбий фаолиятларининг соҳалари:

жамиyat гуманитар соҳасининг барча йўналишларида комплекс масалаларни ечиш;

давлат ва маҳаллий бошқарув органлари, давлат корхона, ташкилотлари, турли фондлар ва лойиҳаларда ҳамда турли мулкчилик шаклидаги корхоналарда гуманитар соҳа билан боғлиқ ташкилий жараёнларни ташкил этиш ва бошқариш;

илмий-тадқиқот муассасаси ва марказларида тегишли соҳалар бўйича мустақил илмий фаолият олиб бориш кабиларни қамраб олади.

Соҳа бўйича фан, техника ва технологияларнинг замонавий ютуқлари, мулк шаклидан қатъий назар буюртмачиларнинг талабларидан келиб чиққан ҳолда бакалаврларнинг касбий фаолият соҳаларида қўшимча ва ўзгаришлар бўлиши мумкин. Ушбу қўшимча ва ўзгаришлар муайян мутахассисликларнинг малака талаблари ва ўқув режаларини ишлаб чиқишда ҳисобга олинади.

Магистратура мутахассисликлари битирувчиларининг касбий фаолиятлари соҳалари:

тегишли бакалаврият таълим йўналишлари битирувчиларининг касбий фаолият соҳалари;

қўшимча равишда олий, малака ошириш ва қайта тайёрлаш таълим муассасаларида илмий-педагогик ҳамда ўрта махсус, касб-ҳунар таълим муассасаларида педагогик фаолият (ўрнатилган тартибда) билан шугулланиш каби комплекс масалалар мажмуасини қамраб олади.

Соҳа бўйича фан, техника ва технологияларнинг замонавий ютуқлари, мулк шаклидан қатъий назар буюртмачиларнинг

магистрларнинг касбий фаолият соҳаларида қўшимча ва ўзгартишлар бўлиши мумкин. Ушбу қўшимча ва ўзгартишлар муайян мутахассисликларнинг малака талаблари ва ўқув режаларини ишлаб чиқишда ҳисобга олинади.

Бакалаврият таълим йўналишлари битирувчиларининг касбий фаолияти асосий объектлари:

гуманитар соҳа тизимидаги жараёнлар;
гуманитар соҳага тегишли барча йўналишлар доирасидаги масалаларни ҳал этиш жараёнлари;
илмий-тадқиқот жараёнлари.
давлат бошқарув тизими органлари ва идоралари, фуқаролик жамияти институтлари, ташкилотлар, иқтисодий субъектлар, таълим, илмий тадқиқот ва илмий таҳлилий муассасалар, миллий ва халқаро ОАВ, илмий-таҳлилий нашрлар.

Соҳа бўйича фан, техника ва технологияларнинг замонавий ютуқлари, мулк шаклидан қатъий назар буюртмачиларнинг талабларидан келиб чиққан ҳолда бакалаврларнинг касбий фаолият соҳаларида қўшимча ва ўзгартишлар бўлиши мумкин. Ушбу қўшимча ва ўзгартишлар муайян мутахассисликларнинг малака талаблари ва ўқув режаларини ишлаб чиқишда ҳисобга олинади.

Магистратура мутахассисликлари битирувчиларининг касбий фаолиятлари объектлари:

гуманитар соҳа тизимидаги жараёнлар;
гуманитар соҳага тегишли барча йўналишлар доирасидаги масалаларни ҳал этиш жараёнлари;
илмий-тадқиқот жараёнлари.
олий, малака ошириш ва қайта тайёрлаш таълим муассасаларида ўқув жараёни.
давлат бошқарув тизими органлари ва идоралари, фуқаролик жамияти институтлари, ташкилотлар, иқтисодий субъектлар, таълим, илмий тадқиқот ва илмий таҳлилий муассасалар, миллий ва халқаро ОАВ, илмий-таҳлилий нашрлар.

Соҳа бўйича фан, техника ва технологияларнинг замонавий ютуқлари, мулк шаклидан қатъий назар буюртмачиларнинг талабларидан келиб чиққан ҳолда магистрларнинг касбий фаолият соҳаларида қўшимча ва ўзгартишлар бўлиши мумкин. Ушбу қўшимча ва ўзгартишлар муайян мутахассисликларнинг малака талаблари ва ўқув режаларини ишлаб чиқишда ҳисобга олинади.

Бакалаврият таълим йўналишлари битирувчилари касбий фаолиятининг асосий турлари:

- илмий-тадқиқот;
- маънавий ва маърифий;
- ташкилий-бошқарув;
- умумий ўрта, ўрта махсус, касб-ҳунар таълими муассасаларида педагогик (белгиланган тартибда педагогик цикл фанлари ўқитилган ва ўқув амалиёти ўталган ҳамда касбий таълим йўналишлари учун);

- эксперт-таҳлилий;
- лойиҳа бошқаруви фаолияти ва шу кабиларни ўз ичига олади.

Таълим соҳаси йўналишлари бўйича тайёрланган бакалаврлар касбий фаолиятларининг муайян турлари таълим жараёнининг манфаатдор иштирокчилари билан ҳамкорликда олий таълим муассасаси томонидан аниқланади.

Магистратура мутахассисликлари битирувчилари касбий фаолиятининг асосий турлари:

бакалаврият таълим йўналишлари битирувчилари касбий фаолиятининг асосий турлари;

қўшимча равишда олий, малака ошириш ва қайта тайёрлаш таълим муассасаларидаги илмий, илмий-педагогик фаолият;
эксперт-таҳлилий фаолият;
лоиҳа бошқаруви фаолияти;

консалтинг хизмати ва шу кабиларни ўз ичига олади.

Таълим соҳаси мутахассисликлари бўйича тайёрланган магистрлар касбий фаолиятларининг муайян тури таълим жараёнининг манфаатдор иштирокчилари билан ҳамкорликда олий таълим муассасаси томонидан аниқланади.

Бакалаврият таълим йўналишлари ва магистратура мутахассисликлари битирувчиларининг касбий мослашув имкониятлари:

Бакалавр:

Битирувчилар тегишли равишда умумий ўрта, ўрта махсус ва касб-хунар таълим муассасаларида таълимнинг ваколатли бошқарув органлари томонидан аниқланадиган умумкасбий ва ихтисослик фанларни ўқитиш имкониятига эга бўлади.

Магистр:

Битирувчилар олий таълим муассасалари ва илмий тадқиқот институтларида турдош фанлар бўйича ҳам илмий-педагогик фаолият юритиш имкониятига эга бўлади.

Бакалаврият таълим йўналишлари ва магистратура мутахассислиги битирувчиларининг таълимни давом эттириш имкониятлари:

Бакалавр:

120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳасининг барча тегишли бакалаврият таълим йўналишлари негизидаги магистратура мутахассисликлари бўйича икки йилдан кам бўлмаган муддатда ўқишни давом эттириши мумкин.

Шунингдек, ўрнатилган тартибда олий ўқув юртларидан кейинги таълимга қўйиладиган давлат талабларига мувофиқ мустақил изланувчилик асосида илмий-тадқиқот ишларини олиб бориши мумкин.

Магистр:

Магистратура мутахассисликлари битирувчилари магистр даражасини олгандан сўнг, олий таълим ёки илмий-тадқиқот муассасаларида олий ўқув юртларидан кейинги таълимга қўйиладиган давлат талаблари асосида катта илмий ходим-изланувчилик институтида ёки мустақил изланувчилик асосида илмий-тадқиқот ишларини олиб бориши мумкин.

1- ҚИСМ

II. 120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳаси бакалаврият таълим йуналишлари битирувчиларининг соҳа бўйича тайёргарлик даражасига қўйиладиган умумий малака талаблари

2.1. 120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳаси бакалаврият таълим йуналишлари битирувчиларига қўйиладиган умумий малака талаблари

120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳаси бакалаврият таълим йуналишлари битирувчиларига қўйилган умумий малака талаблари Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2001 йил 16 августдаги “Олий таълимнинг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 343-сонли қарори билан тасдиқланган “Олий таълимнинг давлат таълим стандарти. Асосий қондалар” 6.1.- бандида белгиланган умумий малака талабларига мувофиқ белгиланади.

2.2. 120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳаси бакалаврият таълим йуналишлари битирувчилари касбий фаолиятининг асосий турларига қўйиладиган умумий талаблар

Илмий-тадқиқот фаолиятида:

- ўтказилаётган илмий-тадқиқот ишлари мавзуси бўйича тахлилий маълумотлар йиғиш;
- гуманитар соҳада илмий текшириш институтларида мустақил изланувчилик асосида илмий-тадқиқот ишларини олиб бориш;
- илмий ҳисоботлар ва тушунтириш хатларини ишлаб чиқишда иштирок этиш;
- маънавий, миллий ва умуминсоний кадриятлар масалалари юзасидан ўз фикрини баён қила олиши ва илмий асослай билиши, миллий истиқлол ғоясига асосланган ҳаётий нуқтан назарга эга бўлиш;
- ўтказилаётган тадқиқотлар бўйича илмий обзорлар яратиш, рефератлар ва библиографиялар тузиш;
- илмий семинарлар, турли даражадаги илмий конференцияларда иштирок этиш;
- интернет тармоғида янги илмий, адабий ва лисоний янгиликлар, янги педагогик технологиялар ва эксплуатацион ютуқлар ҳақидаги маълумотларни мақсадга йўналган ҳолда излаб топиш;
- ўз илмий-тадқиқот фаолияти келажagini режалаштириш;
- турли даражадаги тадбирларда мамлакатнинг иқтисодий, ижтимоий, сиёсий, маънавий ҳаётига оид маълумотларни мантикий изчил таҳлил этишда иштирок этиш;
- илмий-тадқиқот ва ишлаб чиқариш жамоаси таркибида касбий фаолият масалаларини ечиш;
- Ўзбекистон Республикасининг миллий манфаатларининг устувор йуналишларини инновацион ёндашувга асосланиб ўрганиш, таҳлил этиш ва асослаб бериш;
- умумназарий моделлар ҳамда турли ёндашувларини қўллаган ҳолда илмий тадқиқотлар олиб бориш;
- турли даражадаги тадқиқотларда, профессионал фаолиятда ижтимоий-гуманитар ва табиий фанлар методологиясидан фойдаланиш;
- таҳлил ва мониторинг олиб бориш қобилиятини ривожлантириш ва унинг асосида ҳулоса ва тавсиялар устида ишлаш, таҳлил натижаларини англаш, баҳолаш ва тушунтириб бериш, сиёсий ва ижтимоий жараёнларни бошқариш ва башорат қилиш;
- касбий фаолиятни тизимли ёндашув асосида режалаштириш, ташкил қилиш ва амалда қўллаш **қобилиятларига эга бўлиши керак.**

Маънавий-маърифий фаолиятда:

- маданий-маърифий, ижтимоий-сиёсий ҳаёт соҳаларида илмий-фалсафий мерос, одоб-ахлоқ, кадрият ва билим асосларини реал вазиятда қўллаш олиш, амалиётга татбиқ этиш ҳамда миллий маънавият, фуқаролик маданиятини шакллантириш;

- маънавий-маърифий ишларни режалаштира олиш, уни ташкиллаштириш механизми ва методикасини эгаллаш, жамоа онгига миллий истиқлол ғоясини сингдириш;
- мафкуравий ва ахборот хуружларига қарши иммунитетни юзага келтириш метод ва технологияларини билиш;
- глобаллашув шароитида кечаётган жараёнларда ёзма маънавий мероснинг ўрни ва таъсири ҳақида тушунтириш ишларини олиб бориш;
- маҳаллаларда маънавий-ахлоқий тарбия масалалари бўйича индивидуал суҳбат ўтказиш;
- миллий урф-одат ва маросимларни ўтказишда умуминсоний қадриятлар, меҳр-мурувват, бағрикенглик, ватанпарварлик, садоқат каби юксак инсоний фазилатларни очиб бериш;
- доимий шахсий ва касбий ривожлантириш;
- ўз касбининг ижтимоий мавқеини тушуниши, касбий ва фуқаролик масъулиятини шакллантириш;
- ўз касбий ва шахсий фаолиятини танқидий баҳолаш;
- миллатлараро мулоқотнинг корпоратив маданиятини билиш, музокараларда компромисс қобилиятларига эга бўлиш;
- жамиятни умуминсоний ва демократик қадриятлар асосида такомиллаштиришга интилиш;
- кўп миллатли ва турли конфессиялар гуруҳларида ишлаш *қобилиятларига эга бўлиши керак.*

Ташкилий-бошқарув фаолиятида:

- мумтоз ёзма, моддий ва номоддий мерос, қадрият, анъаналарни ўрганиш ва оммалаштиришга оид турли тадбир, анжуман ва маърифий суҳбатларни ташкиллаштириш ва бошқариш;
- гуманитар соҳага оид таълим, касбий ҳамда фундаментал ҳамда бошқа лойиҳаларда иштирок этиш;
- АРМда ахборот технологиялари тизимини яратиш ва улардан фойдаланиш билан боғлиқ бўлган жараёнлар мониторинги ҳамда сифатини баҳолаш механизмларини ишлаб чиқиш;
- атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва меҳнат хавфсизлиги талабларига мос келиши борасида ишлаб чиқариш жараёнларини назорат қилишда қатнашиш;
- ахборот технологияларидан фойдаланган ҳолда ишлаб чиқариш жараёнлари мониторинги ва сифатини баҳолаш механизмларини ишлаб чиқиш;
- жамоада ижтимоий ва маънавий-маърифий ишларни ташкил этиш ва бошқариш;
- фикрлар ҳар хил бўлган шароитда тўғри қарор қабул қилиш;
- бажараётган фаолияти бўйича иш режасини тузиш, назорат қилиш ва амалга оширилган ишнинг натижаларини баҳолаш *қобилиятларига эга бўлиши керак.*
- турли даражадаги давлат ва нодавлат ташкилотлари ва уларнинг органларида, корхона ва муассасаларда ижроия ва маъмурий ишларни ташкил қилиш;
- турли даражадаги музокаралар, учрашув ва анжуманлар, суҳбат ва музокаралар, расмий ёзишмаларни ташкил қилиш ва уларда иштирок этиш;
- ахборотларни қабул қилиш, сақлаш, қайта ишлаш, узатиш усуллари ва воситалардан самарали фойдаланиш *қобилиятларига эга бўлиши керак.*

Умумий ўрта, ўрта махсус, касб-ҳунар таълими муассасаларида педагогик фаолиятида (белгиланган тартибда педагогик цикл фаълари ўқитилган ва ўқув амалиёти ўталган ҳамда касб таълими йўналишлари учун):

- ўқитишнинг илмий асосларини таҳлил қила бориш, методик бирлашмаларда умумий ўрта таълим, ўрта махсус, касб-ҳунар таълими мазмунида фаннинг ўрнини белгилай олиш ва унинг илмий муаммолари бўйича педагогик ўқишларда маърузалар қилиш, мактаб, академик лицей ва касб-ҳунар коллежларида дифференциал таълимни йўлга қўя олиш, ўқув жараёни билан боғлиқ барча ҳужжатларни доритини

- гуманитар соҳа фанларини ўқитишда намунавий инновацион-технологик жараёнларни ишлаб чиқиш ва уларни қўллаш;
- фанларни ўқитиш методикасини эгаллаш;
- электрон ўқитиш усулларини эгаллаш;
- замонавий ахборот ва педагогик технологиялардан фойдаланиб, ҳали оммалашиб улгурмаган ўқув машғулотларини ўтказиш;
- ўқитилаётган фанлар бўйича ўқув машғулотларини ўтказиш учун зарур бўлган ўқув-методик хужжатларни тузиш, тайёрлаш ва расмийлаштириш;
- ўқитилаётган фан бўйича ўқув машғулотларини ўтказиш учун ўқитишнинг дидактик ҳамда техник воситаларидан фойдаланиш;
- умумий ўрта, ўрта махсус, касб-хунар таълими тизимининг таълим муассасаларида мутахассисликка оид тайёргарлик йўналишида назарда тутилган ўқув фанлари бўйича назарий, амалий ва семинар машғулотларини ўтказиш;
- мустақил таълим ва ижодий изланиш натижасида ўқитилаётган фан ҳамда педагогик фаолият соҳасидаги турли усуллар, воситалар ва бошқа соҳаларда ўз-ўзини мунтазам такомиллаштириб бориш;
- узлуксиз таълим тизимининг ДТС, Малака талаблари, ўқув дастурлари ва бошқа ўқув-меъёрий хужжатларни ишлаб чиқиш **қобилиятларига эга бўлиши керак.**

Эксперт-таҳлилий фаолият:

- таҳлилий ва илмий тадқиқот ишларини тизимли ёндашув асосида олиб бориш ва компьютерли моделлаштириш, экспериментал услублардан фойдаланиш **қобилиятларига эга бўлиши керак.**

Лойиҳаларни бошқариш:

- Турли тадбир ва ташаббусларни режалаш ва ижро қилишда лойиҳавий ёндашув **қобилиятларига эга бўлиши керак.**

2.3. 120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳаси бакалаврият таълим йўналишлари малака амалиётларига қўйиладиган умумий талаблар

Амалиётлар бакалаврият таълим дастурининг мажбурий қисми ҳисобланади. Амалиётлар танишув ва ишлаб чиқариш жараёнларида иштирок этиш шаклида бўлиб, талабаларнинг касбий-амалий тайёргарлигига бевосита йўналтирилган бўлади. Бакалаврлар тайёрлашнинг таълим дастури – танишув, ўқув ёки ишлаб чиқариш ва битирув олди амалиётларидан ташкил этилиши тавсия этилади.

Танишув амалиёти ўтказилганда – талабалар гуманитар соҳага мос муассаса ва ташкилотлар билан умумий тарзда танишадилар. Амалиёт натижаси ва ҳисоботи баҳолаш мезонлари асосида баҳоланади. Касбий таълим йўналишларида талабалар умумий ўрта, ўрта махсус, касб-хунар таълим муассасалари билан ҳам танишадилар.

Ўқув амалиёти - умумкасбий фанлардан олинган назарий билимларни амалий ўзлаштиришга қаратилади ва ўрнатилган тартибда рухсат берилган ҳамда касб таълими йўналишлари учун умумий ўрта, ўрта махсус, касб-хунар муассасаларида психологик ресурсларни ўрганиш, ўқувчининг шахс портретини туза билиш, ўқув гуруҳи ичида социометрия ўтказа олиш, педагогик маҳоратини ошириш, ўқувчининг фикрлаш доирасини аниқлаш, унинг қобилиятини ошириш усулларини қўллаш билиш, педагогик мулоқотни баҳолаш билиш ва шулар асосида ўз педагогик меҳнат фаолияти учун дастур ярата билиш қўникмаларини эгаллашга мўлжалланган.

Ишлаб чиқариш амалиёти мутахассислик фанларидан ўтказилиб, талабаларни бевосита мустақил ишлашга тайёрлайди. Ўзлаштирган назарий билимларини чуқурлаштиради ва мустаҳкамлайди.

Битирув иши олди амалиёти – битирув малакавий ишни тайёрлаш учун маълумот тўплаш ва тизимлаштиришга мўлжалланган. Бунда битирувчилар ҳозирги замон фанининг долзарб масалалари бўйича Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси ва бошқа илмий ташкилотларда, кутубхоналарда ўзлаштирган назарий билимларини чуқурлаштириш ва мустаҳкамлаш орқали битирув малакавий ишини бажариш учун

ЎЗБЕКИСТОН
 ҚАЗОҚИСТОН
 АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ
 1991 ҚИТМ

ҳамда соҳа бўйича етакчи олим ва мутахассислар билан мулоқотларда илмий маслаҳатлар олади.

Малака амалиётини ташкил этиш талаблари:

Ҳар бир амалиёт тури ОТМ томонидан ишлаб чиқилган ва ўрнатилган тартибда тасдиқланган дастурга мувофиқ ўтказилади.

Амалиёт ўтказиш муддатлари ишчи ўқув режаси билан аниқланади. Амалиёт тугагандан сўнг, комиссия олдида ҳисобот берилади. Баҳолаш шакли амалиёт дастурида белгиланади.

Талабаларнинг илмий-тадқиқот иши малака амалиётининг бир бўлагини ташкил қилиши мумкин. Илмий-тадқиқот иши битирувчиларда касбий компетенцияларни шакллантириш ва мустаҳкамлашга қўмаклашади. У талабани 6 семестрда кафедранинг илмий ишида албатта иштирок этишини, курс ишларини касбий (махсус) циклнинг базавий фанлари мавзуси бўйича бажарилиши ва химоя қилинишини, талабанинг талабалар илмий жамияти йўналиши бўйича илмий ишда иштирок этишини ва битирув малакавий ишини кафедранинг илмий мавзуси бўйича бажарилишини назарда тутди.

Талабалар илмий-тадқиқот ишининг ташкил қилинишида қуйидагилар билан таъминланиши керак:

кафедра тадқиқотларининг ҳар йили янгиланадиган мавзулари ҳақида талабаларни ўз вақтида хабардор қилиш;

мутахассис тайёрловчи факультет (кафедра)нинг илмий мавзуси бўйича илмий-тадқиқот ишларини бажариши учун лабораториялар ва компьютер синфларида талабаларни иш жойи билан таъминлаш;

ОТМнинг Ахборот-ресурс марказида мустақил илмий-тадқиқот ишини олиб бориш имкониятини тақдим этиш;

талабалар илмий жамиятининг конференцияларини ташкил қилиш;

талабалар илмий конференцияси голибларига мамлакатнинг бошқа ОТМларига маърузалар билан чиқиш имкониятларини тақдим этиш.

2.4. 120 000 – Гуманитар фанлар таълим соҳаси битирув малакавий ишига қўйиладиган малакавий талаблар.

Талабаларнинг битирув малакавий иши мавзуси ОТМ буйруғи билан расмийлаштирилади.

Битирув малакавий иш мавзулари соҳанинг ривожланиш истикболи ва фан, таълим, техника, технология, иқтисодиётдаги замонавий ютуқлар ҳамда кадрлар буюртмачиларининг талабларини ҳисобга олган ҳолда олий таълим муассасасининг бакалаврлар тайёрловчи кафедраси томонидан белгиланади.

Битирув малакавий иш мавзулари назарий (рефератив) ёки илмий-тадқиқот йўналишида бўлиши ҳам мумкин.

Битирув малакавий иш топшириғи, одатда талабаларга учинчи курс тугатганидан кейин берилади. Битирув малакавий иш умумкасбий ва ихтисослик фанларини ўзлаштирганлик даражаси бўйича тўртинчи курсда, шунингдек унинг бажарилиши учун ушбу стандарт томонидан белгиланган вақт давомида бажарилади.

Битирув малакавий ишининг мазмуни, ҳажми ва тузилмасига бўлган талаблар битирувчиларнинг якуний давлат аттестацияси ўтказиш ҳақидаги Низом асосида белгиланади.

III. 120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳаси бакалаврият таълим йўналишлари бўйича ўқув режалари тузилмаси

3.1 120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳаси бакалаврият таълим йўналишлари ўқув режалари ва фан дастурлари мазмунига қўйиладиган умумий талаблар

120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳаси бакалаврият таълим йўналишлари ўқув режалари ва фанлар дастурлари умумий ўрта, ўрта махсус таълим билан

10
SHTIRISH VA
TARJIMA
1998 YILI
O'ZBOKISTON RESPUBLIKASI
TIL VA ADABIYAT
MARKAZI

узлуксизлик ва узвийлик таъминланишини инобатга олган ҳолда ишлаб чиқиши ва талабаларнинг куйидаги мажбурий фанлар блокларини узлаштиришини назарда тутиши зарур:

- гуманитар ва ижтимоий-иқтисодий;
- математик ва табиий-илмий;
- умумкасбий;
- ихтисослик;
- қўшимча.

Касб фаолияти кўникмаларини эгаллаш учун малака амалиёти ўтилиши назарда тутилади.

Ўқув режалар мажбурий ўқув фанлари билан бир қаторда, талабалар танлаган фанларни ҳам ўз ичига олиши керак.

Бакалаврият таълим йўналиши ўқув режалари ва фанлар дастурини ўлаштиришда талабаларнинг ўқув фанларига оид бир қанча масалалар ва муаммолар бўйича мустақил билим олиши назарда тутилиши лозим.

Бакалаврият таълим йўналишлари унинг ўқув режаларига мувофиқ равишда якуний давлат аттестацияси билан тугалланади.

3.2. Ўқув режа фанлари блоклари мазмунига қўйиладиган умумий талаблар

Гуманитар ва ижтимоий-иқтисодий фанлар блоки:

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги томонидан тасдиқланадиган олий таълимнинг бакалаврият таълим йўналишлари ўқув режаларидаги гуманитар ва ижтимоий-иқтисодий фанлар блокига қўйиладиган умумий талаблар асосида ва фанларро алоқаларни ҳисобга белгиланади.

Математик ва табиий-илмий фанлар блоки:

- умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълими билан узвийлик ҳамда узлуксизликни инобатга олган ҳолда математик усуллари, информатика ҳамда ахборот тўплаш, уларни қайта ишлаш ва узатиш усуллари билишнинг телекоммуникация соҳасидаги ўрни ва аҳамияти ҳақида олий даражадаги тасавурларни шакллантириши;

- математик моделлаштириш ва башорат қилиш, табиий-илмий тадқиқот усуллари қўллаш, тизимли таҳлил ҳамда қарор қабул қилиш ва тадқиқотларни оптималлаштириш усулларидан фойдаланиши;

- коинотнинг табиий объект эканлиги ва унинг эволюцияси; табиий фанларнинг ўзаро фундаментал бирлиги; замонавий табиий ҳодисаларни тадқиқ этиш концепцияси; табиатдан оқилона фойдаланиш ва инсон фаолиятининг экологик тамойиллари; табиатга путур етказмайдиган технологиялар яратиш истикболлари ҳақидаги илмий тасавурларни шакллантириши;

- гуманитар фанлар таълим соҳасининг барча йўналишлари учун зарур бўлган фундаментал фанларни чуқур ўрганишнинг илмий ва назарий асосларини таъминлаши лозим.

Умумкасбий фанлар блоки:

- математик ва табиий-илмий фанлар билан гуманитар фанлар таълим соҳаси йўналишларидаги ихтисослик фанлари ўртасида илмий ва назарий боғлиқликни таъминлаши;

- гуманитар фанлар таълим йўналишларидаги ихтисослик фанларни ўрганиш ва чуқур эгаллаш учун зарур бўлган фундаментал умумкасбий билимларни, амалий кўникма ва уқувларни шакллантириши;

- модели тасавурларни тажриба усуллари ва олинган натижаларни қайта ишлаш йўриқларига оид билимларни амалда қўллаш кўникмаларини таъминлаши лозим.

Ихтисослик фанлар блоки:

- гуманитар фанлар соҳасидаги бакалаврият таълим йўналишлари бўйича касб фаолияти соҳаларида эришилган асосий ютуқлар, муаммолар ва уларнинг ривожланиш истикболлари ҳақида тасаввур ҳосил қилиши;

HAZIRATIN: MUVOF O'ZDSTIYISH
KAZHROT EXHOL-UYALARI
14 ET N BAHARABH/14

- гуманитар фанлар соҳасидаги бакалаврият таълим йўналишлари бўйича махсус билимларни, касб фаолияти кўникмалари ва уқувларини шакллантириши;
- гуманитар фанлар соҳасидаги магистратура мутахассислиги бўйича келгусида таълимни давом эттиришга оғли муносабатда бўлишига кўмаклашиши лозим.

Қушимча фанлар блоки:

- гуманитар фанлар соҳаси бакалаврият таълим йўналишлари фанлари бўйича қўшимча равишда чуқур билим олишга бўлган эҳтиёжини қондириши;
- таълим сифатига қўйилаётган талаблар ва меҳнат бозори конъюнктураси тез ўзгараётган шароитда гуманитар фанлар соҳасидаги бакалаврият таълим йўналишлари бўйича таълим дастурларининг сафарбарлиги ва мослашувчан бўлишини таъминлаши;
- аниқ ва долзарб муаммоли мавзулар, инновацион илмий ёндашувга асосланган фанлар ва замонавий илмий тадқиқотлардаги инновацион услублар ва ёндашувлар бўйича тушунчалар бериш лозим.

3.3. 120000 – Гуманитар фанлар таълим соҳаси бакалаврият таълим йўналишлари ўқув режасидаги юклама ҳажми

Барча турдаги аудитория ва аудиториядан ташқари ўқув ишларини ўз ичига олган ўқув юкламасининг энг юқори ҳажми ҳафтасига 54 соат қилиб белгиланади. Ишлаб чиқаришдан ажралган ҳолда (кундузги) ўқиш шакли учун аудитория машғулотларининг энг юқори ҳажми ҳафтасига 36 соатгача қилиб белгиланиши мумкин.

Ўқишнинг норматив муддати:

тўрт йил бўлган ҳолда ўқув жараёни 204 ҳафта;

беш йил бўлган ҳолда 256 ҳафта давом этади.

Ўқув даврининг умумий ҳажми қуйидагича тақсимланади:

назарий таълим 63 - 70%;

аттестация 8 - 10 %;

таътил 12 - 16 %;

малака амалиёти 6 - 12 %;

битирув малакавий иши 2-3%.

Назарий таълим ҳажми “Гуманитар соҳа” билим соҳасига мувофиқ фанлар блоклари бўйича қуйидагича тақсимланади:

гуманитар ва ижтимоий-иқтисодий фанлар 23 - 25 %;

математик ва табиий-илмий фанлар 8 - 25 %;

умумқасбий фанлар 33 - 50 %;

ихтисослик фанлар 9 - 10 %;

қўшимча фанлар 5 - 7 %.

Таълим йўналишининг “Умумқасбий фанлар” ёки “Ихтисослик фанлари” блоки таркибидаги фанларга мос бўлган “Гуманитар ва ижтимоий-иқтисодий фанлар” ва “Математика ва табиий-илмий фанлар” блоки фанлари учун ажратилган ўқув юклама ҳажми мазкур таълим йўналиши ўқув режасининг “Умумқасбий фанлар” ёки “Ихтисослик фанлари” блоки таркибига ўтказилиши мумкин.

Ўқув йилида таътил даврининг умумий ҳажми 6 - 10 ҳафта қилиб белгиланади.

2- ҚИСМ

**IV. 120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳаси магистратура
мутахассисликлари битирувчиларининг соҳа бўйича тайёргарлик
даражасига қўйиладиган умумий талаблар**

4.1. 120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳаси магистратура мутахассисликлари битирувчиларига қўйиладиган умумий талаблари

120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳаси бакалаврият таълим йуналишлари битирувчиларига қўйилган умумий талаблари Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2001 йил 16 августдаги «Олий таълимнинг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида»ги 343-сонли қарори билан тасдиқланган «Олий таълимнинг давлат таълим стандарти. Асосий қондалар» 6.2.-бандида белгиланган умумий талабларига мувофиқ белгиланади.

4.2. 120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳаси магистратура мутахассисликлари битирувчилари касбий фаолиятининг асосий турларига қўйиладиган умумий талаблар

Илмий-педагогик ишга бўлган талаблар

Илмий-педагогик иш ОТМ ва малака ошириш ва қайта тайёрлаш таълим муассасаларида ўтказилади. Шунингдек, мутахассислигига мос ўрта махсус, касб-ҳунар таълими муассасасида ҳам ўтказилиши мумкин. Илмий-педагогик иш икки тарафлама ва бошқа битимлар асосида хориж мамлакатлари олий таълим муассасаларида ҳам ўтказилиши мумкин.

Илмий-педагогик иш:

гуманитар фанлар соҳасидаги магистратура мутахассислик фанлари бўйича машгулотларининг ҳар хил турлари: маърузалар, лаборатория ишлари, амалий ва бошқа машгулотларни ўтказиш бўйича стажировка;

маъруза матнлари ва машгулотларни ўтказиш режаларини тузиш;

янги педагогик ва ахборот технологияларни ўрганиш ва қўллаш;

талабалар билимини баҳолашда рейтинг-назорат тизимини қўллаш;

талабалар мустақил ишини ташкилий ва ўқув-методик таъминлашни ўрганиш;

услубий кўрсатмаларни тузиш;

тарбиявий ишларни ўтказишни назарда тутати.

Илмий-тадқиқот ишга бўлган талаблар

Илмий-тадқиқот иши ОТМнинг илмий-тадқиқот лабораторияларида, Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академиясининг гуманитар соҳадаги илмий-тадқиқот институтларида, корхона ва ташкилотларнинг тадқиқот бўлинмаларида ўтказилади.

Илмий-тадқиқот ишларни таълим муассасаларида, илмий марказларда, чет эл мамлакатларининг корхоналари ва ташкилотларида икки тарафлама ёки бошқа битимлар асосида ўтказиш рухсат этилади.

Илмий-тадқиқот ишининг ҳажми, ташкилий ва илмий-методик таъминланиши кадрлар буюртмачиларининг талабларини ҳисобга олган ҳолда кадрлар тайёрловчи кафедра томонидан ишланган дастурда белгиланади.

Илмий-тадқиқот иши:

гуманитар фанлар соҳасида фундаментал, амалий ва эксперт-таҳлилий тадқиқотлар ўтказиш ва илмий усулларидадан фойдаланиш;

ахборотларни йиғиш, таҳлил қилиш ва умумлаштириш ҳамда таҳлилий ҳисоботлар тайёрлаш;

ижрочи ёки турли даражадаги раҳбар сифатида олий таълим муассасаларида илмий тадқиқот ишларини ташкил қилиш ва олиб бориш;

миллий ва халқаро илмий-тадқиқот лойиҳаларида қатнашиш ва бошқариш;

турли илмий ёндашувлар ҳамда ижтимоий-гуманитар ва табиий фанларнинг инновацион илмий услубларидан тизимли фойдаланиш;

гуманитар фанлар соҳасидаги магистратура мутахассисликлари бўйича объектлар ва жараёнларнинг намунавий моделлари ва уларни тадқиқ қилиш методикаларини ўрганиш;
 экспериментал тадқиқотларни бажаришда қўлланиладиган стендлар, замонавий аппаратуралар ва бошқа жиҳозларни ўрганиш ва баён қилиш;
 экспериментал тадқиқотларни ўтказиш;
 экспериментал тадқиқотлар натижаларига ишлов бериш, уларни таҳлил қилиш, хулосалар чиқариш ва тавсияларни ишлаб чиқиш;
 гуманитар фанлар соҳасидаги амалий дастурлар пакети ва маълумотлар базаларини тузишни назарда тутати.

Илмий-методик иш:

гуманитар фанлар соҳаси мутахассисликлари илмий-методик мавзуси бўйича илмий-тадқиқотларни ўтказиш, ҳолатини таҳлил қилиш;
 ўрганилаётган мавзу бўйича ўқув мақсадларини шакллантириш;
 мавзу бўйича ўқитишни технологиялаштириш вариантларини кўриб чиқиш ва аниқ вариантини танлаш;
 аниқ вариант бўйича ўқитиш технологиясини ишлаб чиқиш;
 талабаларни ўқитадиган ва уларнинг билимини назорат қиладиган автоматлаштирилган дастурларни ишлаб чиқиш;
 ўқув жараёнида ҳамда талабаларнинг ўқув-илмий-тадқиқотларида ахборот коммуникация технологиялардан фойдаланишни назарда тутати.

Илмий - тадқиқот фаолиятида:

гуманитар фанлар соҳасининг барча мутахассисликларига мос фундаментал-назарий изланишлар асосида концептуал ишланмалар яратиш;
 гуманитар фанлар соҳасининг барча мутахассисликларига мос янги илмий натижалар, илмий адабиётлар ёки илмий-тадқиқот лойиҳаларини таҳлил қилиш;
 гуманитар фанлар замонавий масалаларини ечиш учун янги технологиялар ва дастурлар пакетларини қўллаш ва тадқиқ қилишда инновациялардан фойдаланиш;
 гуманитар фанлар соҳасида ўтказилаётган илмий-тадқиқот лойиҳалари мавзуси бўйича моделлар, методлар, дастурий ечимлар, инструментал воситаларни тадқиқ қилиш ва ишлаб чиқиш;
 илмий тадқиқотлар ва меҳнатни ташкил қилиш методологиясини билиш, тадқиқот натижаларини таҳлил қилиш ва қайта ишлаш методикасини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш, илмий тадқиқот натижаларидан фаолиятнинг тегишли соҳаларида фойдаланишга доир амалий тавсияларни ифода қилиш ва тақдим қилиш;
 бозор иқтисодиёти шароитида ишлаб чиқариш ва илмий жамоани бошқаришни илмий асосда ташкил қила олиш;
 намунавий услублар ва бошқалар бўйича тажрибавий тадқиқотлар ўтказиш ва уларнинг натижаларини қайта ишлаш;
 илмий-техникавий ҳисоботлар тузиш;
 гуманитар фанлар соҳасида ўтказилаётган тадқиқотлар мавзуси бўйича илмий шарҳларни ишлаб чиқиш, рефератлар ва библиографиялар тузиш;
 илмий семинарларда иштирок этиш;
 ахборот оқимларидан унумли фойдаланиш, улардан муҳим факт ва ҳодисаларни ажрата олиш ва уларни мақсадга мувофиқ умумлаштира билиш;
 илмий-техникавий мавзуларда журналларга мақолалар тайёрлаш *қобилиятига эга бўлиши керак.*

Маънавий-маърифий фаолиятда:

мафкуравий иммунитетни сақлаш ва унга салбий таъсир килувчи йўналишларни бартараф этиш;
 Шарқ ва Ғарб цивилизацияси умуминсоний кадриятлари мезонларини тўғри англаш ва амалий фаолиятда қўллаш олиш;
 маданиятлараро мулоқотда модератор вазифасини бажариш;
 “тил-маданият-мулоқот” алоқаларини амалга ошириш;

YAN
MAZORATIN: MUV
AQDROT TEXNOLOGIYALAR
JAMIY ETI ON

глобаллашув жараёнида миллий-маданий меросни тарғиб қилиш;
 миллатлараро маданий алоқалар ривожда фаолият олиб бориш;
 замонавий тенденцияларни тизимли ўрганиш, уларнинг ўзгаришини башорат қилиш
 ва унда Ўзбекистон Республикасининг тутган ўрни ва ролини тушуниш;
 давлат ва жамоат ташкилотларида таржимон, катта таржимон, бўлим бошлиғи,
 референт ва уларга тенглаштирилган лавозимларда фаолият юритиш;
 маданиятлараро мулоқотнинг турли жабҳаларида муайян таржима шакллари,
 стратегия ва усуллари қўллаб таржима қилиш;
 лисоний, лингвимаданий, адекватликни ва коммуникатив мақсадни инобатга олган
 ҳолда мулоқот олиб бориш;
 ҳукумат тадбирлари, расмий йиғинлар, учрашувлар ва сайёҳлик соҳасида синхрон
 таржима ишларини амалга ошира олиш **қобилиятига эга бўлиши керак.**

Ташкилий-бошқарув фаолияти:

e-learning ва m-learning технологиялари асосида корпоратив ўқитишни ташкил
 қилиши ва корпоратив маълумотлар базасини ривожлантириш;
 таълим ва илмий фаолият сифатини бошқариш жараёнларини ишлаб чиқиш ва
 уларни амалга татбиқ қила олиш;
 таълим ва илмий жараёнларни амалга ошириш учун зарур бўлган ишлаб чиқариш
 жараёнларини режалаштириш;
 замонавий ахборот технологиялари тизимини яратиш ва улардан фойдаланиш билан
 боғлиқ бўлган фаолият жараёнлари мониторинги ва сифатини баҳолаш усуллари ва
 механизмларини ишлаб чиқиш;
 касбий мулоқотлар орқали турли даражадаги алоқаларни ўрнатиш усуллари
 билиш;
 касбий фаолият натижалари учун шахсий масъулиятни олабилиш;
 касбий қобилиятдан тадқиқот ишларини ташкил қилишда фойдаланиш;
 ностандарт вазиятларда фаолият олиб бориш кўникмасига эга бўлиш;
 қарорлар қабул қилиш жараёнини таҳлил қилиш;
 ходимлар ишини ташкил қилиш ва бошқарувга оид қарорларни қабул қилиш;
 жамоа билан конструктив фаолият олиб бориш, гуруҳда ишлаш ва гуруҳ ишини
 бошқариш;
 иш ва бошқарув жараёнларини оптимallasштириш.
 ўз касбий ва шахсий фаолиятини танқидий баҳолаш;
 замонавий жамиятнинг ривожланишида ахборотни таҳлил қилиш, уни давлат ва
 жамият ҳаётидаги конструктив ва деструктив ролини аниқлаш, уни яратиш ва узатишнинг
 технологик имкониятларини ҳамда ахборот хавфсизлигининг асосий талабларини билиш
қобилиятига эга бўлиши керак.

Олий, малака ошириш ва қайта тайёрлаш таълим муассасаларида илмий-педагогик ҳамда умумий ўрта, ўрта махсус, касб-ҳунар таълим муассасаларида педагогик фаолият:

ўқув фанларини ўқитиш методикасини эгаллаган бўлиши;
 электрон ўқитиш усуллари қўллаб олиши;
 олий ва умумий ўрта, ўрта махсус, касб-ҳунар таълими тизимининг таълим
 муассасаларида мутахассисликка оид тайёргарлик йўналишида назарда тутилган ўқув
 фанлари бўйича назарий, амалий ва лаборатория машғулотларини ўтказиши;
 замонавий ахборот ва педагогик технологиялардан фойдаланиб, анъанавий
 бўлмаган ўқув машғулотларини ўтказиши;
 ўқитилаётган фанлар бўйича дарсларни ўтказиш учун зарур бўлган ўқув-методик
 хужжатларни тузиши, тайёрлаши ва расмийлаштириши;
 ўқитилаётган фан бўйича ўқув машғулотлар ўтказиш учун ўқитишнинг техник
 воситаларидан фойдаланиши;

мустақил таълим ва ижодий кидирув натижасида ўқитилаётган фан ҳамда педагогик фаолият соҳасидаги турли усуллар, воситалар ва бошқа соҳаларда ўз-ўзини мунтазам такомиллаштириб бориши;

узлуксиз таълим тизимининг ДТС, Давлат талаблари ва бошқа ўқув-метъерий ҳужжатларни ишлаб чиқишда иштирок этиш **қобилиятига эга бўлиши керак.**

Эксперт-таҳлилий фаолият:

– тизимли фикр юритиш, умумлаштириш, таҳлил қилиш, тадқиқот мақсадини белгилаш қобилияти, муаммони ҳал қилиш йўналишини аниқлай олиш, миллий манфаатлар асосида халқаро муносабатлар йўналишини тушуниш, баҳолаш ва тегишли тавсиялар яратиш;

– Ўзбекистон Республикаси миллий манфаатларидан келиб чиқиб, ўз соҳасининг асосини комплекс англашда тизимли таҳлилни қўллаш;

– миллий ва халқаро ҳуқуқий нормалар моҳиятини англаш, мазмунини билиш ва уларнинг Ўзбекистон ташқи сиёсати таъсирини тушуниш;

– миллий манфаатлардан келиб чиқиб, жамиятнинг ривожланиш тенденцияларини мантиқан ва изчил ўрганиш;

– тизимли таҳлил ва оптимал қарор қабул қилиш усулларини ўрганиш ва самарали қўллаш олиш;

– микдорий ва сифатли таҳлил, дедуктив, статистик ва компьютерли моделлаштириш, матнларни ва сиёсий жараёнларни кузатиш асосида таҳлил қилиш ва экспериментал услублардан фойдаланиш **қобилиятларига эга бўлиши керак.**

Лойиҳаларни бошқариш фаолияти:

– лойиҳалар бўйича ташаббус кўрсатиш, уларни режалаштириш, шакллантириш, бошқариш ва баҳолашни билиш;

– лойиҳа ва лойиҳалар дастурини ташкил қилиш ва ижро этиш; касбий фаолиятни лойиҳавий ёндашув асосида режалаштириш ва ташкил этиш;

– ностандарт ечимларни топа олиш ва турли ечимлардан энг мақбулини ажрата олиш;

– ахборот тизимларида ахборот билан ишлай олиш;

– оммавий нутқ маданиятига эга бўлиш;

– касбий фаолиятда истиқболли йўналишлар ва ҳодисаларни аниқлаш, лойиҳаларни шакллантириш ва ижро этиш **қобилиятига эга бўлиши керак.**

Консалтинг хизмати фаолияти:

мутахассислик бўйича мавжуд ҳолатнинг аналитик шарҳини ишлаб чиқиши; мутахассисликка оид лойиҳаларни экспертиза қилиш бўйича эксперт гуруҳларида иштирокчи сифатида катнашиши;

ўрганилган хорижий тиллар бўйича таржимонлик фаолиятини олиб бориш; ихтисосликка мос мавзу бўйича консалтинг хизматларини кўрсатиш **қобилиятига эга бўлиши керак.**

4.3. 120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳаси магистратура мутахассисликлари малака амалиётларига қўйиладиган талаблар

Малака амалиёти зарур бўлган назарий билим асосида амалий кўникмаларни эгаллаш мақсадида гуманитар фанлар соҳасига мос бўлган жойларда ўтказилади ва қуйидагиларни:

• Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури ва кадрлар тайёрлаш миллий модели ғояси ва мазмуни асосида амалга оширишни;

• касбий фаолият бўйича барча турдаги кўникма ва малакаларни эгаллаш ҳамда дидактик ва амалиётга боғлиқ шароитларда татбиқ қилишни;

• касбий фаолият давомида амалга ошириладиган жараёнларда иштирок этиш ва ўз устида ишлашни;

• гуманитар фанлар соҳасига доир барча воситалар, усуллар ва замонавий технологияларни чуқур ўрганиш ва амалиётда мустақил қўллаш олишни;

ILIM
DAVLA
INNOVATION
TECHNOLOGIYALARINI

- гуманитар фанлар соҳаси бўйича амалиётда қўлланиладиган барча турдаги хужжатларни замон талабларига асосан юритишни;

- касбий фаолиятнинг илмий, ижтимоий-иқтисодий, маданий-маърифий, ишлаб чиқариш ва бошқа соҳаларида фаол иштирок этишни назарда тутди.

4.4. 120 000 – Гуманитар фанлар таълим соҳаси магистрлик диссертациясига бўлган талаблар.

Магистрлик диссертациясига бўлган талаблар амалдаги “Магистратура тўғрисида Низом”га мувофиқ тартибга солинади.

Магистрлик диссертацияси мавзулари олий таълим муассасалари кафедраларида кафедраларнинг профессор-ўқитувчилари таркиби, Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси илмий муассасалари, тармоқ илмий-тадқиқот ва лойиҳалаш муассасалари ходимлари томонидан шакллантирилади.

Магистрлик диссертацияларининг мавзулари, қандаг кўра, долзарб илмий-тадқиқот масалаларига ёки аниқ амалий вазифаларни ҳал этишга бағишланади.

Кафедралар томонидан тақдим этилган ва олий таълим муассасаси ёки факультет ўқув-методик кенгашида муҳокама қилинган магистратура талабаларининг магистрлик диссертациялари мавзулари ва уларнинг илмий раҳбарлари (илмий маслаҳатчилари) илмий ишлар бўйича проректор (директор ўринбосари) тақдимномасига асосан магистратура талабалари ўқиётган биринчи ўқув йилининг биринчи икки ойи ичида тегишли олий таълим муассасаси ректори (директори)нинг буйруғи билан тасдиқланади.

Магистрлик диссертациясига илмий раҳбарлик олий таълим муассасаларида ишлайдиган профессорлар, фан докторлари, доцентлар, фан номзодлари, Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси илмий муассасалари олимлари, ташкилотларнинг илмий даража ёки унвонига эга бўлган юқори малакали ва тажрибали мутахассислари, шунингдек белгиланган тартибда магистрлик, илмий даражалар ёки илмий унвонларга эга бўлган хорижий мутахассислар томонидан амалга оширилади.

Магистрлик диссертациясининг тузилиши, ҳажми, мазмуни ва дастлабки ҳамда расмий ҳимояси тартиби “Магистратура тўғрисида Низом”га асосан ташкил этилади.

V. 120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳаси бўйича магистратура мутахассисликлари ўқув режалари тузилмаси

5.1. 120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳаси магистратура мутахассисликлари ўқув режалари ва фан дастурлари мазмунига қўйиладиган умумий талаблар

Магистратура мутахассисликлари ўқув режалари ва фанлар дастурлари бакалаврият таълим йўналишларининг ўқув режалари ва фанлар дастурлари билан узлуксизлик ва узвийлик ҳамда замон талабларига мосланувчанлик таъминланишини таъминланишини инobatга олган ҳолда ишлаб чиқиши ва талабалар томонидан қуйидаги мажбурий блоклар ўзлаштирилишини назарда тутди:

умумметодологик фанлар;

мутахассислик фанлари;

илмий фаолият.

Ўқув режалар ва фанлар дастурлари мажбурий ўқув фанлари билан бир қаторда талабалар танлаган фанларни ҳам ўз ичига олади.

Талабаларнинг ўқув режалар ва фанлар дастурларини ўзлаштиришида ўқув фанларининг бир қанча масалалари ва муаммолари бўйича мустақил билим олиши назарда тутилиши зарур.

Магистратура мутахассисликлари унинг ўқув режаларига мувофиқ равишда якуний давлат аттестацияси ва магистрлик диссертациясининг ҳимояси билан тугалланади.

ОТМлар ўқув режа ва фан дастурини фан, таълим, техника, тиббиёт, иқтисодиёт, технология ва ижтимоий соҳа ривожланиши ва ўзгаришини ҳисобга олган ҳолда мунтазам равишда шакллантириши ва янгилан туриши лозим.

Уқув режа ва фан дастурини ишлаб чиқишда ОТМ томонидан битирувчиларнинг умуммаданий компетенцияларини (ижтимоий ўзаро таъсир, ўз-ўзини ташкил қилиш ва бошқариш, тизимий-фаолият тавсифидаги компетенцияларни) шакллантиришдаги имкониятлари аниқланган бўлиши керак. ОТМ ўзининг ижтимоий-маданий муҳитини шакллантиришга, шахснинг ҳар томонлама ривожланиши учун зарур бўлган шароитларни яратишга масъул.

Компетентли ёндашувни амалга ошириш ўқув машғулотларини ташкил этишда фаол ва интерфаол (компьютер симуляторлари, ишбилармонлар ўйини, муайян вазиятларни кўриб чиқиш ва х.к.) шакллари ўтказиш, талабаларнинг касбий кўникмаларини шакллантириш ва ривожлантириш мақсадида аудиториядан ташқари иш билан биргаликда жаҳон педагогик амалиётида қўлланилган замонавий педагогик технологиялар, ўқитишнинг самарали стратегиялари, методлари ва услубларини кенг қўллашни назарда тутиши керак.

Фанларнинг ўқув дастурларини шакллантиришда ОТМ талабаларнинг ҳуқуқлари ва мажбуриятлари билан таништириши, талабалар учун танлов фан (модуль, курс) лари мажбурий эканлигини тушунтириши керак.

Талабаларда билим, амалий малака ва кўникмаларни тўлиқ шакллантириш учун ўқув режа ва фан дастури ўқув фанлари (модуллари) бўйича амалий машғулотлар (лаборатория ишлари) камраб олиниши керак.

Магистратура мутахассисликлари унинг ўқув режаларига мувофиқ равишда якуний давлат аттестацияси ва магистрлик диссертациясининг ҳимояси билан тугалланиши керак.

5.2. Уқув режа фанлари блоклари ва илмий фаолият мазмунига қўйиладиган умумий талаблар

Умумметодологик фанлар блоки:

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги томонидан тасдиқланган олий таълимнинг магистратура мутахассисликлари ўқув режаларидаги умумметодологик фанлар блокига қўйиладиган умумий талаблар асосида ва соҳа талаблари асосида фанлараро алоқаларни ҳисобга олган ҳолда белгиланади.

Мутахассислик фанлари блоки:

- гуманитар фанлар соҳасидаги магистратура мутахассисликлари бўйича назарий ва амалий билимларни, уқув ва кўникмаларни шакллантириши;
- гуманитар фанлар соҳасидаги магистратура мутахассислиги бўйича билимлар базасини яратиш, жамлаш ва улардан фойдаланиш кўникмаларини ривожлантириши;
- магистратура мутахассислиги бўйича илмий-тадқиқот ишларини бажариш, касб фаолиятининг кўзланган натижаларига эришишда жараёнларни моделлаштириш ва тизимли ёндашиш борасидаги илмий билимлар, амалий маҳорат ва кўникмаларни таъминлаши;
- тадқиқот масалаларига оид ахборотларни излаш, уларни таҳлил қилиш ва тизимлаштириш, умумлаштириш, ҳаққоний ахборот манбалари ва юқори мавқеъли илмий жамиятлар каталогини тузишга ўргатишга йўналтирилган бўлиши;
- фанлар мутахассислигининг назарий асослари ва инновацион ёндашувларини чуқур билиш, тушуниш, баҳолаш ва тегишли хулоса ва тавсиялар чиқара олишни таъминлаши;
- халқаро ахборот муҳитида давлатимиз миллий манфаатларини акс эттирадиган илмий асосли маълумотларни чуқур таҳлил қилиш ва баҳолашга йўналтирилган бўлиши керак.
- гуманитар фанлардаги инновацион ёндашувларни халқаро тажрибаларини чуқур билиш ва тушуниш, баҳолаш ва тегишли хулоса ва тавсиялар бериш;
- Ўзбекистонда ва хорижда мустақил тадқиқотларни олиб бориш, чет эл муассасалари ва илмий-тадқиқот марказлари билан ўзаро алоқалар ўрнатиш ва давлатимиз манфаатларига жавоб берадиган илмий ҳамкорликни амалга ошириш;

Илмий фаолият блоки илмий тадқиқотлар методологияси ўзлаштирилишини, талабалар томонидан ихтисослашган илмий ва таълим муассасаларида алоқа,

ахборотлаштириш ва телекоммуникация технологиялари соҳасида илмий-тадқиқот ва илмий-педагогик ишлар бажарилишини назарда тутиши лозим.

Илмий-тадқиқот ишлари:

- мустақил тадқиқотчилик фаолиятининг амалий кўникмаларини ҳосил қилиши;
- ахборот технологияларининг замонавий воситаларидан фойдаланиб илмий-тадқиқотлар ўтказиш, тадқиқотлар натижаларини таҳлил қилиш ва ақс эттириш, илмий мақолалар тайёрлашга доир билимлар ва кўникмаларни шакллантириши;
- талабаларга гуманитар фанлар соҳасида фан, техника ва технологиянинг энг янги ютуқларига асосланган ахборот базаларини қўллай билиш, улардан магистрлик диссертациясини бажаришда фойдаланиш кўникмасини сингдириши;
- талабалар томонидан илмий тадқиқотлар методологиясини ўзлаштирилиши, илмий тадқиқот услубларини янги мақбул жиҳатларини татбиқ қилишга ўргатиши;
- илмий изланишларда замонавий методологиялардан фойдаланган ҳолда услубий таҳлилни амалга ошириш, қарорлар қабул қилиш механизмларини амалда қўллай олишни назарда тутиши лозим.

Илмий-педагогик ишлар:

- замонавий педагогик ва ахборот технологияларидан, ўқув-тарбия ишларининг интерактив усулларида фойдаланган ҳолда педагогик фаолият маҳорати ва кўникмаларини шакллантириши;
- ўқув жараёнини илмий-услубий жиҳатдан таъминлашни ташкил этиш уқуви ва кўникмаларини ҳосил қилиши лозим.

Стажировка:

- гуманитар фанлар соҳасида илмий тадқиқот олиб бориш, назарий ва амалий билимларни чуқурлаштириши;
- иқтисод, фан, маданият ва соғлиқни сақлаш ҳамда бошқа тармоқлардаги замонавий техника ва технологиялар билан таништириши;
- гуманитар фанлар соҳасида амалий касбий ва илмий тадқиқот компетенцияларни шакллантириши;
- касбга самарали мослашувни таъминлаши;
- давлат идоралари, уларнинг ички ва ташқи ваколатхоналарида, турли даражадаги ташкилотлар ва фуқаролик жамияти институтларида ишлаш хусусиятлари билан танишувни таъминлаши лозим.

Бунда стажировкага йўлланган магистратура талабаси ўқув жараёни жадвалини индивидуал график асосида бажариши кўзда тутилади.

Танлов фанлари:

Мутахассисликлар бўйича фан, техника ва технологияларнинг замонавий ютуқлари, кадрлар буюртмачилари талабларидан келиб чиққан ҳолда танлов фанларининг таркиби ва уларнинг мазмунига қўйилган талаблар ОТМ Кенгаши томонидан белгиланади.

5.3. 120000 - Гуманитар фанлар таълим соҳаси магистратура мутахассисликлари ўқув режасидаги юклама ҳажми

Барча турдаги аудитория ва аудиториядан ташқари ўқув ишларини ўз ичига олган ўқув юкламасининг энг юқори ҳажми ҳафтасига 54 соат қилиб белгиланади. Ишлаб чиқаришдан ажралган ҳолда (кундузги) ўқиш шаклида аудитория машғулотларининг энг юқори ҳажми ҳафтасига 36 соат қилиб белгиланиши мумкин. Қолган соатлар ҳажми мустақил таълим учун ажратилади.

Жорий, оралик ва якуний назоратларни ва якуний давлат аттестацияларини ҳисобга олган ҳолда ўқув режа ва фан дастурининг умумий ҳажми 2 йиллик ўқув даври учун ҳафталик ўқув юкламалардан келиб чиққан ҳолда белгиланади.

Магистратура мутахассисликларининг ўқув режалари ва фанлар дастури мазмуни олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар тайёрлашнинг бирламчи ва бошлангич босқичи сифатида мутахассислик бўйича чуқур фундаментал ва амалий билимлар беришни кўзда тутган ҳолда шакллантирилади.

Фаол ва интерфаол шаклларда ўтказиладиган машғулотларнинг улуши дастурнинг

HAZORATIN MUHOFAZASHTIRISH V.
OT
INNIY 9

36.2017 :201 6

Ишлаб чиқувчилар, келишилган асосий турдош олий таълим
муассасалари ҳамда кадрлар истеъмолчилари

ИШЛАБ ЧИҚУВЧИЛАР:

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги ҳузуридаги
Олий ва ўрта махсус, касб-хунар таълимини ривожлантириш маркази

Директор _____ **Б. Рахимов**

2015 йил « 2 » _____

Тошкент давлат шарқшунослик институти

Ректор _____ **А. Маннонов**

2015 йил « 23 » _____

М.У.

Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

Ректор _____ **Ғ. Мухамедов**

2015 йил « 23 » март

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети

Ректор _____ **. Қаяумов**

2015 йил « 23 » _____

Тошкент ислом университети

Ректор _____ **Р. Абдуллаев**

2015 йил « 23 » март

Жаҳон _____ ти ва дипломатия университети

_____ **А. Джуманов**

5 йил « _____ » март

ЎЗБЕКИСТОН Республикаси
STANDARTLASHTIRISH, DAVLAT
HAZIRATINI MUVOFIQLASHTIRISH
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
JAM'IY ETISH BOSHQARMASI

_____ :201 6

КЕЛИШИЛГАН:

Ўзбекистон Республикаси Таълим маркази

Директор И. Зокиров

2015 йил « 8 » _____

Ўрта махсус, касб-хунар таълими маркази

Директор У. Салимов

2015 йил « 8 » _____

Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Стратегик ва минтакавий
тадқиқотлар институти

Директор в.б. Б. Турсунов

2015 йил « 8 » _____

М.Ў.

Тимурийлар тарихи давлат музейи

Директор Х. Файзиев

2015 йил « 8 » _____

Миллий гоя ва мафкура илмий-амалий маркази

Марказ раҳбари _____

2015 йил « 8 » _____

М.У.

Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси

Раис М. Ахмедов

2015 йил « 8 » _____

ҳузуридаги Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқ қўлёзмалари маркази

Директор Мухамедов

2015 йил « 8 » _____

ЎЗБЕКИСТОН
STANDARTLASHTIRISH, DAVLAT
HAZORATINI MUHOFAZASHTIRISH
AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI
RIVOJLANTIRISH MARKAZI

2017 2016

Самарканд давлат университети

Ректор _____ А. Халмухамедов

2015 йил « _____ »

Қорақалпоқ давлат университети

Ректор _____ М. Жуманов

Бухоро давлат университети

Ректор _____ А. Тулаганов

Гулистон давлат университети

Ректор _____ Н. Баракаев

Қарши давлат университети

_____ Б. Шоимкулов

Термиз давлат университети

Ректор _____

Урганч давлат университети

Ректор в.б _____ И. Абдуллаев

STANDART AGENTLIGI
STANDARTLASHTIRISH, DAVLAT
ORATIN!
KUTUBXONA TEXNOLOGIYALARINI
JAMUOYATGA
TARQATISH

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2015 йил
10 январдаги 3-сонли қарори асосида ишлаб чиқилган “Олий таълим
йўналишлари ва мутахассисликлари Классификатори”даги 120000-Гуманитар
фанлар таълим соҳаси бўйича Давлат таълим стандартини турдош Олий
таълим муассасалари билан

КЕЛИШУВ БАЁННОМАСИ

Тошкент ш.

_____ 2015 й

Қатнашдилар:

ТДШИ дан: А.М.Маннонов – Тошкент давлат шарқшунослик институти ректори,
С.М.Умарова – ТДШИ Ўқув-услубий бўлими бошлиғи, Қ.Содиқов – Мумтоз филология
кафедраси мудири, К.Омонов – Шарқ филологияси факультети декани, И.М.Хайдаров –
МОХТ кафедраси мудири, М.М.Исхоков – МОХТ кафедраси профессори, Д.А.Пўлатова –
Шарқ фалсафаси ва маданияти кафедраси мудири, У.У.Муҳибова – ХШМА кафедраси
мудири, Н.М.Орифхўжаев – Араб филологияси кафедраси мудири, Н.Э.Каримова – Хитой
сиёсати, тарихи ва ХМдаги ўрни кафедраси мудири, З.Худойбергенова – Туркий тиллар
кафедраси профессори, Ш.Усмонова – Таржима назарияси ва амалиёти кафедраси мудири.
ЎзМУдан: Х.Э.Юнусова – Тарих кафедраси мудири, Ш.Мадаева – Фалсафа кафедраси
мудири, А.Холиқулов – Тарих кафедраси доценти, Ш.Шоназаров – Археология, этнология
кафедраси катта ўқитувчиси.

ЖИДУдан: Н.Сабуров – Ўқув бўлими бошлиғи, Ш. Урунбаев – Халқаро муносабатлар
факультети декани муовини, М.Баходиров – Халқаро муносабатлар кафедраси мудири.

ТИУдан: Ғ. Арифжонов – Ўқув-услубий бўлими бошлиғи, С.Агзамходжаев – Тарих
кафедраси мудири.

ЎзДЖТУдан: У.Ёриев – Ўқув-услубий бирлашма бошлиғи, Ф.Нишонов – Француз тили
назарияси ва амалиёти кафедраси доценти.

КУН ТАРТИБИ

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2015 йил 10 январдаги 3-сонли
Қарори асосида ТДШИ, ЎзМУ, ЎзДЖТУ, ТИУ, ЖИДУ ижодий ишчи гуруҳлари томонидан
тайёрланган “Олий таълим йўналишлари ва мутахассисликлари Классификатори”га мувофиқ
120000 – Гуманитар фанлар таълим соҳаси Давлат таълим стандарти муҳокамаси.

Сўзга чиқди: А.М.Маннонов – Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг
2013 йил 10 июлдаги “Ўзбекистон Хукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва
қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги 199-сонли қарори, 2015 йил 10 январдаги “Олий
таълимнинг Давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида” 2001 йил 16 августдаги
343-сон қарорига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақида”ги 3-сон қарори, Ўзбекистон
Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2015 йил 15 январдаги 12-сонли
буйруғи ижросини таъминлаш мақсадида тузилган ишчи гуруҳ профессор-ўқитувчилари
томонидан “Олий таълим йўналишлари ва мутахассисликлари Классификатори”га мувофиқ
120000 – Гуманитар фанлар таълим соҳаси бўйича ишлаб чиқилган ДТС ҳақида ахборот
берди, уни муҳокама қилиш ҳамда ушбу янгидан яратилган ДТС ҳақида йиғилиш
қатнашчиларидан фикр-мулоҳаза ва таклифлар билдиришларини сўради. Ушбу масала
юзасидан ОТМларда олиб борилаётган ва амалга оширилган ишлар билан танишиб чиксак.

Эшитилди: С.Умарова – Институт ўқув-услубий бўлими томонидан ЎзМУ,
ЎзДЖТУ, ТИУ, ЖИДУ ижодий ишчи гуруҳлари аъзоларини жалб этган ҳолда амалдаги
ДТСлар замонавий таълим технологиялари, энг янги ахборот ва ўқув-услубий талаблар
асосида танқидий таҳлил этилди, хорижий тажрибалар ўрганиб чиқилди. Гуманитар соҳа

бўйича таянч ҳамда турдош этиб белгиланган ОТМлар: ҚҚДУ, СамДУ, ТерДУ, БухДУ, ГулДУ, ФерДУ, АндДУ, ҚарДУ, УрДУ, НамДУларининг тегишли кафедралари билан боғланилиб, улардан таклифлар олинди ва ДТС лойиҳаси тайёрланди.

Гуманитар фанлар таълим соҳасининг давлат таълим стандарти олий таълимга қўйилган талабларни ўзида тўлиғича акс эттиради ва меъёр талабларига тўлиқ жавоб беради. Ушбу ДТС олий таълим йўналишлари ва мутахассисликлари классификаторига мос равишда республикамизда олиб борилаётган ислохотлардан келиб чиқиб, халқ хўжалигида замонавий инновацион технологиялар бўйича чуқур билим ҳамда амалий қўникмаларни бажаришга мўлжалланган.

Гуманитар фанлар таълим соҳаси бўйича давлат таълим стандарти лойиҳаси республикадаги асосий кадрлар буюртмачи ва истеъмолчиси бўлган вазирлик, идора, корхона ва ташкилотлар ҳамда Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академиясининг тармок институтлари, турдош олий таълим муассалари билан келишилган.

Қун тартибидаги мазкур масала бўйича йигилишда билдирилган фикр-мулоҳазалар ва таклифлар асосида муҳокамадан сўнг

ҚАРОР ҚИЛИНДИ:

1. 120000 – *Гуманитар фанлар* таълим соҳаси бўйича ДТС илк маротаба ишлаб чиқилишида: “Таълим тўғрисида”, “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг қонунлари, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2015 йил 10 январдаги “Вазирлар Маҳкамасининг 2001 йил 16 августдаги “Олий таълимнинг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 343-сон қарорига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақида”ги 3-сон қарори ва олий таълим соҳасини тартибга солувчи бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга ҳамда халқаро тажрибаларга мувофиқ ишлаб чиқилганлиги, таянч ва турдош ОТМлар ҳамда асосий кадрлар истеъмолчилари бўлган вазирлик, тегишли илмий-тадқиқот институтлари, Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академиясининг тармок ИТИларида экспертизадан ўтказилганлиги инобатга олинсин.

2. Гуманитар фанлар таълим соҳаси бўйича ишлаб чиқилган ДТСда турдош ОТМларининг ҳам таклиф ва эътирозлари инобатга олинганлиги қайд этилсин.

3. Ишлаб чиқилган ДТСларини ўрнатилган тартибда тасдиқланиши учун Вазирлик ҳузуридаги Олий ва ўрта махсус, касб-хунар таълимини ривожлантириш марказига топширилсин.

А.М. Маннонов

Котиба

С.М. Умарова

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Ro'yxatga olindi:

№ BD-5120100
“ ” 2019-y



Samarqand davlat universiteti
rektori:

R.I. Xalmuradov

TANLON FAN
(“Bobur va boburiylar davri adabiy muhiti”)
fanining

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:100000 – Gumanitar soha
Ta'lim sohasi:120000 – Gumanitar fanlar
Ta'lim yo'nalishi: 5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish
(o'zbek tili)

SAMARQAND – 2019

Fan dasturi Samarqand davlat universiteti Filologiya fakulteti kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2019 -yil "03" 07 dagi 10 sonli bayonnoma).

Fakultet dekani:

prof. J.Eltazarov

Fan dasturi Samarqand davlat universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

Sulaymonov I.I. – SamDU Mumtoz adabiyot tarixi kafedrası dotsenti, f.f.n.

Taqrizchilar:

Xoliqulova G – Mumtoz adabiyot tarixi kafedrası dotsenti, f.f.n.

Nosirov A – Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrası dotsenti, filologiya fanlari doktori.

2019 Fan dasturi Samarqand davlat universiteti o'quv-uslubiy kengashining
-yil "04" 06 dagi 11 -sonli majlis bayoni bilan ma'qullangan.

O'quv-uslubiy kengash raisi

prof. A.Soleyev

Fanning dolzarbligi

Ushbu dastur Filologiya fakulteti o'zbek filologiyasi yo'nalishining 3-bosqich bakalavriat yo'nalishidagi talabalariga mo'ljallangan. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning ta'limning ijtimoiylashuvi bo'limida ko'rsatib o'tilgan talabalar-yoshlarning adabiy-estetik dunyoqarashini boyitish, ularda go'zallik tuyg'ularini qaror toptirish adabiyotning tarixiy va nazariy xususiyatlarini jamiyatimizda olib borilayotgan ishlar orqali amalga oshirishga qaratilganligi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi №PF-4797 Farmonida aks etganidek, o'zbek tili va adabiyoti qadimiy va boy tarixga ega bo'lib, uning shakllanishida mintaqamiz hududida yashagan baqtriylar, so'g'diylar, xorazmiylar va boshqa elat va millatlar o'z ta'sirini ko'rsatgani haqida qadim ilmiy manbalar dalolat beradi.

Shu ma'noda mazkur fanning maqsadi – talaba yoshlarni xalqimizning boy ma'naviy merosi bilan yaqindan tanishtirish, o'sib kelayotgan avlodni sog'lom e'tiqod va yuksak axloq sohibi bo'lgan ajdodlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ular qoldirgan ma'naviy xazinani tom ma'noda qadrlashga o'rgatishdan iborat.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi

Fanning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi – o'zbek adabiyot tarixi, turkiy xalqlar adabiyoti, folklor, tasavvuf, tilshunoslik, tarix, etnogafiya, san'atshunoslik kabi fanlardagi umumiy qonuniyatlar bilan bog'liqligi kuzatiladi.

Dasturda ko'rsatilgan mavzular ma'ruza, amaliy mashg'ulot shaklida olib boriladi, shuningdek, fanning dolzarb masalalari talabalarga mustaqil ish sifatida o'zlashtirish uchun beriladi. Fan zamonaviy pedagogik texnologiyaning turli metodlari orqali o'tkaziladi.

Fanning ilm-fan, iqtisodiyot va ishlab chiqarishdagi o'rni

Talabalarda Bobur va boburiylar davri adabiy muhiti, mazkur muhit ijodkorlari, ularning lirik merosi, bu davr adabiy muhitida janrlar taraqqiyoti, an'ana va ijodiy o'ziga xoslik, xalqlar o'rtasidagi adabiy, madaniy aloqalarning shakllanishi kabi masalalarni o'rganish hamda egallangan malaka va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llay olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Fanni o'qitishdagi zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar hamda o'quv mashg'ulotlarini loyihalash

“Tanlov fan” (“Bobur va boburiylar davri adabiy muhiti”) fanini o'zlashtirishda o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informasion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Dasturda ko'rsatilgan mavzular ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar mashg'ulotlari shaklida olib boriladi, shuningdek, fanning dolzarb masalalari talabalarga mustaqil ta'lim sifatida o'zlashtirish uchun beriladi. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari,

tarqatma materiallar, texnik vositalardan foydalaniladi. Ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari zamonaviy pedagogik texnologiyaning "Keys stadi", "Insert jadvali", "Baliq skeleti", "Idrok xaritasi" konferensiyasi" singari metodlari orqali hamda slaydlar, multimedia namoyishlari bilan o'tkaziladi.

Asosiy qism

1-Modul. BOBUR VA HINDISTONDA TURKIY ADABIY MUHIT

1-mavzu. "Tanlov fan" ("Bobur va boburiylar davri adabiy muhiti") fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Hindistonda turkiy zabon adabiyot tarixi

Mazkur tanlov fanda ko'zda tutilgan asosiy maqsad Hindistonda turkiyzabon adabiyotning shakllanishi, Bobur va boburiylar davri adabiy muhitini o'rganish, bu adabiy muhit ijokorlari hayoti va ijodiy merosi haqida atroflicha ma'lumot berishdir.

2-mavzu. Bobur – hind turkiyzabon adabiyotining asoschisi

Boburning "Hind yurishi"ga qadar Hindistondagi ijtimoiy-ma'naviy muhit. Hindistonada turkiy adabiyotning paydo bo'lishi, shakllanishi, turkiyzabon ijodkorlar. Bhaqtiy va turkiyzabon adabiyotida mushtrak mavzular. Hindiston turkiygo'y shoirlarining lirikasi, badiiyati va qo'lyozma manbalar tavsifi.

3-mavzu. Bobur hayoti va ijodi. Boburshunoslik tarixi

Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, faoliyati va merosini o'rganish XVI asrning avvalidan boshlangan edi. Boshqacha qilib aytganda, bu qutlug' ishni Z.M.Boburning o'zi «Boburnoma»da boshlab bergan edi. Shundan so'ng Movarounnahr, Afg'oniston va Hindistonda yozilgan tazkira va tarixiy asarlarda Bobur haqida ma'lumot berish kuzatiladi. Bu jihatdan Boburning qizi Gulbadanbegimning «Humoyunnoma», Muhammad Haydarning «Tarixi Rashidiy» kabi asarlari, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Chunki bu mualliflar Bobur bilan bevosita muloqotda bo'lib, uning faoliyati, shaxsiyati va fazilatlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni keltirganlar. Bunday ma'lumotlar shu asrda Buxoroda Hasanxoja Nisoriy tomonidan yozilgan «Muzakkiri ahbob» da ham bor. Hindistonda Akbarshoh, Jahongirshoh, Shoh Jahon hukmdorligi davrida yaratilgan tarixiy asarlar va tazkiralarda Bobur haqida ham ma'lumotlar keltirilgan («Akbarнома» va boshqalar).

Keyinchalik, xususan, XVII asrdan boshlab, Bobur hayoti, faoliyati va merosi bilan qiziqish Evropada ham jonlanib ketdi. Uning «Boburnoma»siga bo'lgan ehtirom tufayli XIX asrda u ingliz (Elfinston, Erskin, Beveridj), frantsuz (Pave de Kurteyl) tillariga tarjima qilinib bosildi. Rus olimi N.Ilminskiy esa «Boburnoma»ning asl nusxasini nashr ettirdi. Bunday hol XX asrda ham davom etdi. Jumladan, frantsuz adibi Fernand Grenard «Bobur», Amerikalik yozuvchi Harold Lamb «Bobur-sher» asarlarini yaratdilar. Fernand Grenardning asari keyinchalik nemis (1931 y.) va turk tillariga (1970 y.) tarjima qilinib, nashr ettirildi. «Boburnoma»ning bevosita o'zbek tilidan frantsuz

(Bake Grammon, 1980y.) va ingliz (V.M.Sekston, 1996 y.) tillariga yangi tarjimalari maydonga keldi.

Afg'onistonlik olimi Shafiqa Yorqin Bobur she'riy merosining nisbatan to'liq nusxasini tuzib, katta tadqiqot bilan birga 1983 yilda «Devoni Zahiriddin Bobur» nomi bilan Kobulda nashr ettirdi. Rus olimasi I.V.Stebleva Bobur she'riyati (g'azallari) ga oid risolasini yaratdi.

XX asrning 20-80 yillari orasida mamlakatimiz-O'zbekistonda ham Bobur hayoti, faoliyati va merosini o'rganish sohasida ma'lum ishlar amalga oshirildi: 3-jildlik asarlari nashr ettirildi, tadqiqotlar yaratildi. Bu sohada Yahyo G'ulomov, Vohid Zohidov, Homil Yoqubov, Porso Shamsiev, Sabohat Azimjonova, Aziz Qayumov, Hamid Sulaymon, Saidbek Hasanov, B.Valixo'jaev va boshqalarning katta hissasi bor. Pirimqul Qodirov, Barot Boyqobilovlar esa Bobur haqida roman va dostonlar yaratdilar.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, Bobur va uning boy merosiga milliy istiqlol g'oyasi asosida munosabat bildirilmoqda; oldin nashr ettirilmagan asarlari, jumladan, «Mubayyin», to'liq nashr ettirilmoqda. Boburshunoslik sohasidagi ishlar yanada rivojlanib bormoqda. Bu jihatdan Xalqaro Bobur jamg'armasining tuzilgani va uning serqirra faoliyati alohida e'tiborga molikdir.

4-mavzu. Bobur lirikasining janriy ko'lami. Bobur lirik devonlari nusxalarining ilmiy tavsifi

Zahiriddin Muhammad Boburning manzum asarlari turli adabiy nav'larda, ya'ni g'azal, ruboiy, tuyuq, qit'a, muammo, fard, masnaviy-nomalarda yozilganlari devon holiga keltirilgan bo'lsa, masnaviy (doston) tarzida yozilgan «Mubayyin», «Volidiya»lar alohida-alohida asarlardir.

Boburning rang-barang janrlarda yozilgan manzum asarlarining mavzu doirasi ham xilma-xildir. Bu asarlarning barchasiga xos xususiyat shundan iboratki, ular sodda tilda, ravon uslubda yozilgan bo'lib, ma'rifiy va dunyoviy-hayotiy masalalardan bahs yuritadilar. Ularda Boburning shoirlik mahorati nihoyatda yaqqol namoyon bo'lganidan Boburning zamondoshi va muxlisi Mirzo Haydar o'zining «Tarixi Rashidiy» asarida shunday yozgan edi: «Turkiy she'riyatda Amir Alisher Navoiydan so'ng hech kim Boburga teng kela olmaydi». Bunday fikr boshqa mualliflar, jumladan, Hasanxoja Nisoriyning «Muzakkiri ahbob» tazkirasida ham o'ziga xos tarzda bayon etilib, misollar ham keltirilgan (Muzakkiri ahbob, 53-54-betlar).

Bobur o'zining lirik merosini ikki devonga to'plagan. Ulardan birinchisi 1519-yilda Kobulda tartib berilib, bir nusxasi o'sha vaqtning o'zida Samarqandga yuborilgan. Ikkinchisi esa 1528-1529 yilda Hindistonda tuzilgan. Bu ikki devonga kiritilgan she'rlar keyinchalik bir devon holiga keltirilgan. Bu haqda «Boburnoma»ga ilova yozgan kotib shunday xabar beradi: «(Bobur) nazm va nasr va turkiy va forsiyni bebadal aytur edi. Alaxusus turkiy devoni bordurkim, anda toza mazmunlar topib aytibdur» (Boburnoma, 460-bet). Demak, Boburning turkiy-o'zbek tilida yozilgan lirik she'rlari alohida devon shakliga keltirilgan. Bu devonga kiritilgan she'rlarni ingliz sharqshunosi Denison Ross (1910 y.), turk olimi Fuod Kupruluzoda (1912-1913 y), rus sharqshunosi A.N.Samoylovich (1917y), o'zbek olimlari S.Azimjonova va A.Qayumov (1958, 1965), Saidbek Hasanov (1982 y)lar nashr ettirdilar.

5-mavzu. “Boburnoma” – memuar janrning nodir namunasi

«Boburnoma» Boburning jahoniy shuhratini ta'minlagan shoh asarlaridan hisoblanadi. Shuning uchun u XVI asrning o'zidan hozirga qadar fors, urdu, ingliz, frantsuz, rus va boshqa tillarga to'liq yoki ayrim namunalari tarjima qilindi, uning haqida turli xildagi ilmiy tadqiqotlar yaratildi. Bu sohada Abdurahim Xonixonon (Hindiston), A.Beveridj xonim (Angliya), B.Sakston (AQSh), Pave de Kurteyl, Bakke Grammon (Frantsiya), N.Ilminskiy (Rusiya), Mirzo Nasriddin Haydar Kuragoniy, Rushan Oro begim (Pokiston), Homil Yoqubov, Porso Shamsiev, Sabohat Azimjonova (O'zbekiston) va boshqalarning xizmatlari e'tiborga sazovordir.

Bobur o'z asarini «Tarix» va «Vaqoe'» deb tilga oladi hamda uning tarjimai hollik xususiyatini alohida ta'kidlaydi. Shunday bo'lsa-da, mazkur asar avvalida «Voqeoti Boburiy», «Tuzuki Boburiy», «Tavorixi Boburiy», «Boburiya» tarzida ishlatilib kelingan bo'lsa, keyinchalik «Boburnoma» deb nomlandi va shu tarzda shuhrat qozondi.

6-mavzu. “Mubayyin”, “Volidiya” va “Muxtasar” asarlari

Zahiriddin Muhammad Bobur turli tabiiy va gumanitar ilmlar bilan bir qatorda, islomshunoslik sohasida ham katta ishlarni amalga oshirdi. Ulardan biri «Volidiya»ning tarjimasi bo'lsa, ikkinchisi «Mubayyin» asaridir.

Bobur 1520-1521-yilda o'g'illari Humoyun va Komron mirzolariga bag'ishlab, ilohiyot va islom huquqshunosligi- fiqhidan bahs yurituvchi «Mubayyin» masnaviysini yaratdi. Bu asar «Fiqhi Boburiy» yoki «Fiqhii mubayyin» nomlari bilan ham yuritiladi.

«Mubayyin» Boburning «din ishig'a ko'p ehtirom kerak»,-degan aqidasiining mahsuli bo'lib, u «E'tiqodiya», «Kitob us-salot», «Kitob uz-zakot», «Kitob us-savm» va «Kitob ul- haj» deb ataladigan bo'lim- kitoblardan iborat.

1528-yilda Bobur isitma kasaliga uchrab, ancha qiynaladi. Kasallikdan qutulish maqsadida Xoja Ahrori Vali ruhiga murojaat qilib, uning «Volidiya» nomli nasriy asarini o'zbek tiliga she'r bilan tarjima qila boshlaydi. Bu ish jarayoni 10-12 kun davom etadi. Shu orada Bobur kasallikdan ham shifo topgan. Shunisi diqqatga sazovorki, asarning yaratilish tarixi «Boburnoma»da batafsil bayon qilingan. Undan ma'lum bo'ladiki, Bobur asarni yaratish jarayonida uzluksiz ijod qilgan va hattoki, bir kuni ellik ikki baytni qog'ozga tushirgan ekan.

«Volidiya» ikki yuzu qirq uch bayt bo'lib, ilohiyot va odob-axloq masalalaridan bahs yuritadi. Asar «hamd», «Rasulluloh na'ti», «Risola nazmining sabablari», «Risola shuro'i»-boshlanishi, «Risola xotimasi» bo'limlaridan tashkil topgan.

Boburning nasriy asarlaridan biri turkiy she'riyat va aruz masalalaridan bahs yurituvchi «Aruz risolasi»dir. Asar 1523-1525-yillar orasida yozilgan. Bobur ilmiy risolasiining muallif dastxati bo'lgan nusxasi taqdiri noma'lum bo'lsa-da, ammo uning 1533-yilda samarqandlik Hoji Muhammad kotib tomonidan ko'chirilgan nusxasi bizgacha etib kelgan. Bu nusxa Parij Milliy kutubxonasida saqlanadi. Ana shu nusxadan olingan fotonusxa asosida «Aruz risolasi» Sayidbek Hasanov (Toshkent, 1970) va I.V.Stebleva (Moskva, 1970) tomonidan nashr ettirilgan.

«Aruz risolasi» XVI asrdayoq Samarqand va Buxoroda ma'lum bo'lganidan Hasanxoja Nisoriy o'zining 1565 yilda yozgan «Muzakkiri ahbob» tazkirasida uni «durru gavharga to'la dengiz» deb yuqori baholagan edi.

2-Modul. Boburiylar davri adabiy muhiti vakillari ijodi

7-mavzu. Bayramxon hayoti va ijodi. Bayramxon devoni nusxalarining ilmiy tavsifi

Zahiriddin Muhammad Boburdan keyin Hindistonda turkiy-o'zbek tilida ijod qilgan shoirlardan biri Bayramxondir. Xoni xonon (xonlar xoni) unvoniga ega bo'lgan Muhammad Bayramxon nomi (taxallusi Bayram) XVI asrning birinchi yarmi Hindiston tarixi, madaniyati va adabiyotiga bag'ishlangan deyarlik hamma manbalarda tilga olinadi, uning harbiy- siyosiy faoliyati va adabiy ijodiga yuqori baho beriladi. Jumladan, Xo'ja Nizomiddin Ahmad Hirotiy (1550-1604)ning «Tabaqoti Akbariy», Abdulqodir Badayuniyning «Maosiri Rahimi», Abul Fazl Allomiy (1551-1602)ning «Akbnoma»si va boshqa tarixiy-memuar asarlar hamda tazkiralarda Bayramxonning hayoti va ijodiy faoliyatiga doir ma'lumotlar ko'p uchraydi.

8-mavzu. Mirzo Komron hayoti va ijodi. Komron devoni nusxalarining ilmiy tavsifi

Zahiriddin Muhammad Boburning adabiy faoliyatini Hindistonda muvaffaqiyat bilan davom ettirib, xuddi Bayramxondek forsiy va turkiy tillarda ijod etgan shoirlardan biri Boburning o'g'li Komron Mirzodir. Komron Mirzo g'azal, ruboiy, qit'a, fard va masnaviy janrlarida ijod qilib, o'z davri adabiy hayotida ko'zga tashlangan va shoir sifatida tan olingan. Uning hayoti va ijodi haqida Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» va boshqa asarlarida, Gulbadanbegimning «Humoyunnoma»sida, Abul Fazl Allomiyning «Akbnoma»si va boshqa manbalarda ma'lumotlar uchraydi. Komron Mirzo hayoti va ijodini o'rganishda keyingi yillarda O'zbekistonda ancha ishlar amalga oshirildi. Jumladan, N.Nizomiddinov, N.Rahimov, R.Inomxo'jaev, J.Jo'raev, S.Do'stov, Saidbek Hasanov va boshqalarning kitoblari va ilmiy maqolalari e'lon qilindi, devoni nashr ettirildi. O'zbekistonda yashab turgan afg'on olimasi Shafiqqa Yorqin Komron Mirzo davri, hayoti, ijodi va badiiy mahoratiga doir nomzodlik dissertatsiyasi yoqladi.

9-mavzu. Gulbadanbegim hayoti va ijodi, «Humoyunnoma» asarining adabiy qimmat

Boburiylar tomonidan XVI asrda Hindistonda shakllangan madaniyat va adabiyotning ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri Gulbadanbegimdir. U Bobur xonadonidan chiqqan ayol ijodkorlar orasida otasining tarix (voqea)navislik sohasidagi faoliyatini davom ettirib, XVI asr o'rtalarida Hindiston, Afg'oniston va qisman Movarounnahrda bo'lib o'tgan voqealarni qalamga olib, kelajak uchun muhim xizmat qilgan madaniyat namoyandasidir. Gulbadanbegimning shoiraligi haqida ba'zi ma'lumotlar bo'lsa ham, undan faqatgina «Humoyunnoma» nomli asari yetib kelgan. Bu asarning yagona qo'lyozma nusxasi ma'lum. Bu nusxa Londondagi Britaniya muzeyida

saqlanadi. Bu haqda dastlab ingliz olimi Charlz Riyo xabar bergan va 1879 yilda katalogida uning dunyoda yagona nusxa ekanligini qayd etgan. Riyoning bu ma'lumotiga hozirgacha o'zgarish kiritilgan emas. Asarning qo'lyozmasi 83 varaqdan iborat. Uni ingliz olimasi Annet Beverij ingliz tiliga tarjima qilgan va so'z boshi yozib, chop etdirgan. Ana shu nashr ustida uzoq yillar davomida ishlagan o'zbek olimasi akad. Sabohat Azimjonova 1959 yilda uni o'zbek tiliga tarjimasi bilan faksimilini birga nashr qildirdi. Nashr ko'rsatkichlar va ilova bilan ta'minlangan. Sabohat Azimjonova va N.B.Baykova tomonidan yozilgan so'z boshida asarning topilishi, o'rganilishi, mazmuni va ahamiyati haqida ancha keng ma'lumot berilgan.

10-mavzu. Forig'iy hayoti va ijodi, lirikasining janriy ko'lami. Diyda hayoti va ijodi. Devoni nusxalari tavsifi

Hindiston turkiyzabon adabiyotiga xos badiiyat tushunchasi Forig'iy, Yusuf Faryobiy, Fahm, Diyda va Johila qalamida ba'zi shunday originalikka da'vogar xususiyatlar kasb etganki, bu borada ular ijodida e'tiborga loyiq misollar yetarlicha topiladi.

Agar poeziyada badiiylarni shartli ravishda g'azalxon ruhiyatini junbushga keltirish deb bilsak, bu hol Forig'iy she'rlari mutolaasida paradoksal xarakterda kechishi bilan diqqatni o'ziga tortadi.

Manbalardan ma'lumki, agar Forig'iy nomi "Boburnoma"ning ikki yerida qayd qilingan bo'lsa, boshqa bir manbada xuddi shu taxallusli shoir Abdurahim xoni xononning shogirdi ekanligi zikr etilgan. Lekin Hindistonda topilgan Forig'iy devonidagi she'rlarning birorta bayti ham XVI asrga oid tazkiralarda namuna sifatida hatto zikr etilmagan.

Diyda hayotiy faoliyati haqida deyarli ma'lumot uchramaydi, lekin uning lirik merosi jamlangan devoni nusxalari yetib kelgan.

11-mavzu. Johila hayoti va ijodi. Yusuf Faryobiy hayoti va ijodi

Boshqa turkiy xalqlar qatori turk ijodkorlari ham "hind-musulmon madaniyati" taraqqiyotiga o'z asarlari bilan salmoqli hissa qo'shganlar. Johila "Devoni hikmat"ining hind kitob javonidan topilishi umumiy turkiy badiiyat uchun yangilik hisoblansada, ammo bu "yangilik" o'z davri mahalliy adabiy muhiti uchun odatdagi bir hol.

Johila haqida hozircha shuni aytish mumkinki, shoira shubhasiz o'z ijod uslubida til imkoniyatlaridan to'la foydalanish tajribasiga ega va tanlagan mavzuiga ruhan vobasta qalam sohibasidir.

Hindistondagi turkiyko'y qalamkashlardan yana biri Yusuf Faryobiy hisoblanadi. U haqda ma'lumotlar deyarli yetib kelmagan. Undan meros qolgan devonidagi she'rlardan u Ozarbayjondan ekanini anglash mumkin.

12-mavzu. Saminiy-Fahm hayoti va ijodi. Humoyun hayoti va ijodi, lirikasining janriy ko'lami

Hindistonda forsiy va turkiy tilda ijod qilgan shoirlardan yana biri Saminiy-Fahmdir. Keying tadqiqotlar natijasida uning g'azal va ruboiylardan iborat bir devoni topiladi. Uning hayotiy faoliyati haqida ma'lumotlar unchalik ko'p emas.

Zahiriddin Muhammad Boburning to'ng'ich o'g'li Humoyun ijodi haqida ham ba'zi ma'lumotlar aniqlandi. Uning lirik she'rlari jamlangan to'plam yoki devoni mavjudligi haqida hozircha aniq mag'lumotlar mavjud emas.

13-mavzu. Hindiston turkiyzabon adabiyotida zullisonaynlik an'anasi

Hindistonga Bobur bilan yoki uning da'vatidan keyin kelgan nufuzli zotlar, qavmu qarindoshlar, xesh-aqrabolar va ilm hamda qalam ahli orasida ikki va uch tilde ijod etuvchi shoirlar bo'lgan. Shuningdek, saroy va boshqa davlat idoralari mulozimlari ichida ham yetuk zullisonayn ijodkorlar faoliyat ko'rsatgan. Bu davr adabiy muhitida zullisonayn an'anasida ijod qilgan shoirlardan Bayramxon, Forig'iy, Mirzo Komron kabi ijodkorlarni alohida ta'kidlab ko'rsatish mumkin.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha tavsiya etiladigan taxminiy mavzular:

1. Hindistonda turkiy zabon adabiyot tarixi.
2. Bobur – hind turkiyzabon adabiyotining asoschisi.
3. Bobur hayoti va ijodining o'rganilish tarixi.
4. Bobur lirikasining janriy ko'lami.
5. Bobur lirik devonlari nusxalarining ilmiy tavsifi.
6. “Boburnoma”ning topilishi, o'rganilishi, nusxalari, tarjimalari.
7. “Boburnoma”da tarixiy shaxslar, shaharlar tasviri.
8. “Mubayyin” asarida diniy ruknlar talqini.
9. “Volidiya” – Bobur tarjimonligining yorqin namunasi.
10. Bayramxon devoni nusxalarining ilmiy tavsifi.
11. Mirzo Komron hayoti va ijodi.
12. Gulbadanbegim hayoti va ijodi.
13. Forig'iy lirikasining janriy ko'lami.
14. Diyda hayoti va ijodi.
15. Johila hamda Yusuf Faryobiy hayoti va ijodi.
16. Zullisonaynlik an'anasi

Seminar mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha tavsiya etiladigan taxminiy mavzular:

1. Hind-musulmon adabiyoti: mushtaraklik va o'ziga xoslik.
2. Boburiylar davrigacha Hindistonda adabiy jarayon.
3. Boburshunoslik tarixi.
4. Bobur g'azallari tahlili.
5. Bobur ruboiylari tahlili.
6. “Boburnoma”da ijodkorlar tasviri.

7. “Boburnoma”dagi adabiy parchalar tahlili.
8. “Boburnoma”dagi maqollar tahlili.
9. “Mubayyin” asari tahlili.
10. “Volidiya” asarining badiiy qimmat.
11. Bayramxon gʻazallari tahlili.
12. Mirzo Komron lirikasi tahlili.
13. “Humoyunnoma” asari haqida.
14. Forigʻiy va Diyda lirikasi tahlili.
15. Johila hamda Yusuf Faryobiy lirikasi tahlili.
16. Boburiylar davri tarixiy asarlar tahlili

Laboratoriya ishlarini tashkil etish boʻyicha koʻrsatmalar

Fan boʻyicha laboratoriya ishlari namunaviy oʻquv rejada koʻzda tutilmagan.

Kurs ishini tashkil etish

Fan boʻyicha kurs ishi namunaviy oʻquv rejada koʻzda tutilmagan.

Mustaqil taʼlimni tashkil etishning shakli va mazmuni

“Tanlov fan” (“Bobur va boburiylar davri adabiy muhiti”) fanini oʻrganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va koʻnikma hosil qilish uchun mustaqil taʼlim tizimiga asoslanib, kafedra oʻqituvchilari rahbarligida, mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular badiiy adabiyotlarni mutolaa qiladilar, tahlil va talqin etadilar; qoʻshimcha adabiyotlar hamda Internet saytlaridan foydalanib, referatlar va ilmiy maʼruzalar tayyorlaydilar, amaliy va seminar mashgʻulotlari mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar, koʻrgazmali qurollar va slaydlar tayyorlaydilar.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanishga tavsiya etiladi:

- ☐ amaliy va seminar mashgʻulotlarga tayyorgarlik;
- ☐ darslik va oʻquv qoʻllanmalar boʻyicha fan boblari va mavzularini oʻrganish;
- ☐ tarqatma materiallar boʻyicha maʼruza qismini oʻzlashtirish;
- ☐ maxsus adabiyotlar boʻyicha fan boʻlimlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- ☐ talabaning oʻquv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bogʻliq boʻlgan fan boʻlimlari hamda mavzularni chuqur oʻrganish;
- ☐ masofaviy taʼlim.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

1. Amaliy mashgʻulotlariga tayyorgarlik koʻrish uchun kutubxonada ishlash.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur gʻazallari tahlili
3. Zahiriddin Muhammad Boburning ruboiylari tahlili.
4. “Boburnoma”da berilgan adabiy parchalar tahlili.
5. “Mubayyin”, “Volidiya” va “Muxtasar” asarlari.
6. Bayramxon gʻazallari tahlili.

7. Komron Mirzo g'azallari tahlili.
8. Gulbadanbegimning "Humoyunnoma" asarini o'qish.
9. Forig'iy g'azallari tahlili.
10. Diyda she'riyati tahlili.
11. Johila she'riyati tahlili.
12. Yusuf Faryobiy g'azallari tahlili.

Amaliy va seminar mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem. guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Dasturning axborot –uslubiy ta'minoti

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy usullari, pedagogik va axborot – kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutiladi.

Jumladan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron - didaktik texnologiyalaridan;
- amaliy mashg'ulotlarda aqliy hujum, guruhli fikrlash pedagogik texnologiyalaridan.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR

Siyosiy adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016
2. Mirziyoev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: O'zbekiston, 2017
3. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008
4. Karimov I. Istiqlool va ma'naviyat. – T.: O'zbekiston, 1994. – 160 b.

Asosiy adabiyotlar

5. Abdullaev V.A. O'zbek adabiyoti tarixi. Ikkinchi kitob. Toshkent: O'qituvchi, 1980. – 345 bet.
6. Abdullaev V. Bobur va Navoiy. Bobur va uning zamondoshlari ijodini o'rganish masalalari: Ilmiy maqolalar to'plami. – Samarqand, SamDU.
7. Abdug'afurov A. Qalb qa'ridagi qadriyatlar. Toshkent: «O'qituvchi», 1998.
8. Azimjonova S. «Boburnoma» qanday yozilgan G'G' Guliston. 2001, 8-son.
9. Bobur va boburiylar bibliografiyasi. Andijon.: «Andijon nashriyot-matbaa» MJCh, 2014. – 481 B.

10. Valixo'jaev B. XV-XIX asr o'zbek adabiy-tanqidiy qarashlari tarixidan. «O'zbek she'riyati va adabiyotshunoslik tarixidan». SamDU asarlari, Yangi seriya, 138-nashr. Samarqand, 103-117 betlar.
11. Valixo'jaev B. Zahiriddin Muhammad Bobur. O'zbek adabiyoti tarixi. Besh jildlik. 3-jild. – T.: 1978.
12. Valixo'jaev B. «Boburnoma»ning yangi tarjimasi. «Guliston», 1998, 6-son.
13. Jalilov S. Bobirning Farg'ona davlati. Toshkent: «Fan» nashriyoti, 1995.
14. Jalilov S. Bobir va Yuliy Tsezar. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001.
15. Ibrohimov A. Boburiylar merosi. – T.: Fan, 1998.
16. Yorqin Muhammad Halim, Yorqin Shafiqa. Bobur manguligi. G'G' Afg'oniston Milliy islomiy junbushi; M.H.Yorqin nashrga tayyorlagan. Shibirg'on. Javjizon madaniy kengashi, 1993. – 57 B.
17. Mashrabov Z. Bobur va boburiylar merosi. – T.: «Fan», 2008.
18. Mirzaev I. Bobur ma'rifati. Monografiya. T.: «O'qituvchi», 1996. – 87 B.
19. Nizomiddinov N. Qadimgi Hindiston tarixi, diniy e'tiqodi va madaniyati. T.: Fan va texnologiya, 2014. – 461 B.
20. Nizomiddinov N.G'. Buyuk boburiylar tarixi (XVI-XIX asr). Monografiya. Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
21. Ochilov E. Zahiriddin Muhammad Bobur. T.: «O'zbekiston», 2013. – 134 B.
22. Ochilov E. Bobur. Risola. T.: Abu matbuot konsalt, 2011. – 32 B.
23. Salohiy D. Boburning buyuk e'tiqodi. Samarqand, 2019. – 88 B.
24. Shayxzoda M. Zahiriddin Bobur Asarlar. 6 jildlik, 5-jild Toshkent: G'.G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1973. – 327 bet.
25. O'zbek adabiyoti tarixi. V tomlik. III tom. XVI asrdan XVIII asrning 70-yillarigacha. Toshkent: Fan, 1978. – 380 bet.
26. Qayumov A. Asarlar 5- jild, Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiyoti, Toshkent, «Mumtoz so'z» nashriyoti, 2009.
27. Qudratullaev H. Boburning adabiy-estetik olami. T.: Ma'naviyat, 2018. – 271 B.
28. Qudratullaev H. Boburning davlatchilik siyosati va diplomatiyasi. T.: Sharq, 2011. – 431 B.
29. Qudratullaev H. Bobur armoni – Toshkent: Sharq, 2005. 384 bet.
30. Hasanov S. Zahiriddin Muhammad Bobur. T.: «O'zbekiston», 2011. – 84 B.
31. Hasanov S. Bobirning «Aruz risolasi» asari – Toshkent: «Fan», 1981. – 96 bet.

Adabiy manbalar

32. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa'dayn va majmai bahrayn. Fors tilidan A.O'rinboev tarjimasi. – T.: «Fan».
33. Azimjonova S. Indiskiy divan Babura. Toshkent: - Fan 1966, s.85
34. Volidiya. O'zR FA ShI qo'lyozmalar bo'limida inv. № 890 – IV raqami ostida saqlanayotgan nusxa 8 varaqdan iborat. Bu asar fors tilida yozilgan bo'lib, 1240G'1825 yilda kuchirilgan (SVR. III. Toshkent: № 2443.
35. Vilyam Rashbruk, «O'n oltinchi asr bunyodkori. (inglizchadan G'ofurjon Sotimov va Xolida So'fieva o'zbek tilida tarjimasi). Toshkent: Sharq nashriyot matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2011.
36. Gulbadanbegim. Humoyunnoma. – Toshkent: Fan, - 1959.

37. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma I,II,III, kitob, Toshkent: O'zdav nashr, 1948 (249 bet), 1949 (309 bet), 1966 (301 bet).
38. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: O'z R FA nashr, 1960. -512 bet.
39. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent, «Yulduzcha», 1989. – 368 bet.
40. Zahiriddin Muhammad Bobur. «Devon» Nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi. A.Abdug'ofurov. – Toshkent: Fan 1994. 143 bet.
41. Zahiriddin Muhammad Bobur. «Mubayyin» Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2000 yil. – 184 bet.
42. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Nashrga tayyorlovchi S.Hasanov. Toshkent. Sharq. 2002.
43. Zahiriddin Muhammad Bobur entsiklopediyasi. Toshkent, Sharq, 2014.
44. Kamron Mirzo. Devon. – Toshkent: O'qituvchi 1993. – 80 bet.
45. Muhammad Haydar Mirzo. Tarixi Rashidiy. Vahob Rahmonov va Yanglish Egamova tarjimasi. Sharq nashriyot-matbaa Bosh tahririyati. Toshkent, 2010.
46. Muhammad Solih. Shayboniynoma: doston G'G' Tahrir hay'ati A.Qayumov va boshq.; nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi E.Shodiev. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.
47. Rumer Goden. Gulbadan. Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyast Bosh tahririyati. 2007.
48. Sirojiddin Sayyid. «Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur...». Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2011.
49. Sulton Xayriddin. Boburiynoma. Ma'rifiy roman. Ikkinchi nashr. T.: Ma'naviyat, 2019. – 463 B.
50. Frits Vyurtle. Andijon shahzodasi («Bobur – yo'lbars»). Sarguzasht-qissa. Toshkent, O'qituvchi, 2012.
51. Qamchibek Kenja. Boburiylardan biri. Hujjatli-ma'rifiy qissa. T.: Sharq, 2015. – 351 B.
52. Qodirov Pirimqul. Bobur. Yulduzli tunlar. T.: Sharq, 2018. – 543 B.
53. G'iyosiddin bin Humomiddin Xondamir. Buyuklik xislati (Habibus-siyar fi axbori bashar» – «Bashar ahli siyratidan xabar beruvchi do'st» kitobining Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti haqidagi boblari»), «Sharq» kompaniyasi Bosh tahririyati, Toshkent 2011.
54. Hasanxoja Nisoriy. Muzakkiri ahhob. Fors tilidan Ismol Bekjon tarjimasi, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent, 1993.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi:

№ 2792

2019-yil _____

"TASDIQLAYMAN"

o'quv ishlari bo'yicha prorektor

A.Soleyev " _____ " 2019-y



TANLON FAN

**(“Bobur va boburiylar davri adabiy muhiti”)
fanining**

ISHCHI O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar soha
Ta'lim sohasi: 120000 – Gumanitar fanlar
Ta'lim yo'nalishi: 5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish
(o'zbek tili)

3-kurs talabalari uchun, 6-semestr

Jami o'quv yuklamasi:	174 soat
Ma'ruza mashg'uloti:	26 soat
Amaliy mashg'ulot:	32 soat
Seminar mashg'uloti:	32 soat
Mustaqil ish:	84 soat

Samarqand – 2019

Fanning ishchi o'quv dasturi o'quv, ishchi o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

I.Sulaymonov – Mumtoz adabiyot tarixi kafedrası dotsenti, f.f.n.


Taqrizchilar:

E.Musurmonov – Mumtoz adabiyot tarixi kafedrası dotsenti, f.f.n.

U.Qobilov – Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrası dotsenti, f.f.n.

Fanning ishchi dasturi “Mumtoz adabiyot tarixi” kafedrasining 2019-yil 4 iyul 12-son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.


Kafedra mudiri:



prof. D.Salohiy


“Tanlov fan”ning ishchi-o'quv dasturi Filologiya fakulteti ilmiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2019-yil 4 iyuldagi 11-son bayonnoma).

Fakultet ilmiy Kengash raisi:



prof. J.Eltazarov

✓ **Fakultet uslubiy Kengash raisi:**



prof. M. Abdiyev

Kelishildi:

**SamDU o'quv-uslubiy
boshqarma boshlig'i**



B. Aliqulov

KIRISH

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning ta'limning ijtimoiylashuvi bo'limida ko'rsatib o'tilgan talabalar-yoshlarning adabiy-estetik dunyoqarashini boyitish, ularda go'zallik tuyg'ularini qaror toptirish adabiyotning tarixiy va nazariy xususiyatlarini jamiyatimizda olib borilayotgan ishlar orqali amalga oshirishga qaratilganligi bilan belgilanadi.

Adabiy-estetik qadriyatlarning milliy va umumbashariy jihatlarini, turkiy xalqlar adabiyotining millat hamda jamiyat ravnaqidagi o'rnini talabalarga tushuntirish, ularda badiiy asarni chuqur tushunish, tahlil tadqiqi etish malakasini hosil qilishi, jamoatningchilikni turkiy xalqlar adabiyotidagi mazmun va shakl, mavzu va g'oyaning mohiyati bilan tanishtirishga ko'maklashish, jamiyatning ma'anaviy manzarasini adabiy-nazariy tafakkur orqali aks ettirishga, bozor iqtisodiyoti jarayonida badiiy adabiyotning mablag' va qiymat keltiruvchi hodisaga aylanib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun amaliy ko'rsatmalar beradi.

O'quv fanining maqsadi va vazifalari

“Tanlov fan” (“Bobur va boburiylar davri adabiy muhiti”) fanini o'qitishning maqsadi shuki, badiiy adabiyot tarixi va adabiy-nazariy tafakkur tadrijining shaxs va jamiyat hayotidagi o'rnini va ahamiyatini ko'rsatib berish, talabalarning adabiy-estetik tafakkurini, yuksaltirish, ilmiy mushohadaning vujudga kelishi ko'nikmalarini hosil qilish, faol ijodkorlik ruhi va mas'uliyatini shakllantirishdan iborat.

Hindistonda boburiylar davlatining tashkil topishi bilan Movarounnahr-Hindiston xalqlarining savdo-iqtisodiy, diplomatic va siyosiy munosabatlari kabi madaniy aloqalari ham rivojlandi. Bu davr hind badiiyati mulkida turkiyzabon adabiyotining bunyod etilishi, shakllanishi va rivojlanishi uzoq o'tmishdan mavjud adabiy aloqalarimizning amaliy tantanasi edi.

Boburiylar sulolasi yirik vakillarining mahalliy va xorijiy ijodkorlarga ko'rsatgan iltifoti va homiyliklari saltanatda “hind-musulmon madaniyati”dagi o'zaro mushtarak jihatlarining jadallashuvini ta'minladi. Aftidan, bu jarayonada boburiylar davlatidagi madaniy muhit va ijod uvhun mavjud imtiyozlar, ko'plab movarounnahrlik shoir, fozil, muarrix, musavvir, xattot va boshqa soha san'atkorlarining Hindistonga kelishida yetakchi rol o'ynadi. Yana, mamlakatda hind va musulmonlarning o'zaro birlashuviga da'vat etuvchi bhaktiy va tasavvuf g'oyalarining jamiyatdagi ustuvorligi ichki siyosatning g'oyaviy jihatdan mustahkamlanishi va ma'rifatning ravnaq topishida hal qiluvchi omillardan biri vazifasini o'tadi.

Bobur, Bayramxon, Humoyun, Komron, Forig'iy, Diyda, Johila, Yusuf Faryobiy, Fahm, Abdurahmon xoni xonon, Azfariylar ijodiy merosining yaxlit ilmiy asosda tadqiq etilishi, mazkur shoirlar salafining hind va turkiy xalqlar adabiyoti tarixida yangi bir bob sifatida o'rganilishi ushbu kursning maqsadini tashkil etadi.

Fan bo'yicha talabalarning bilimi, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

Badiiy adabiyotga jamiyat tarixi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, insonni ezgulik va manaviy barkamollikka boshlovchi g'oyalar hamda inson ruhiyatiga aloqador eng pok tuyg'ular va kechinmalarni in'ikosi sifatida munosabatda bo'lishga o'rganish shuningdek, ushbu ijod namunalarini adabiy-estetik hamda ilmiy-nazariy nuqtai nazar tahlil va talqin qilish malakasini hosil qilishdan iborat.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Fanning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi – adabiyot tarixi, tilshunoslik, folklor, tasavvuf, tarix, estetika, falsafa, psixologiya, san'atshunoslik sosiologiya kabi fanlardagi umumiy qonuniyatlar bilan bog'liqligi kuzatiladi.

Dasturda ko'rsatilgan mavzular ma'ruza, seminar shaklida olib boriladi, shuningdek, fanning dolzarb masalalari talabalarga mustaqil ish sifatida o'zlashtirish uchun beriladi. Fan zamonaviy pedagogik texnologiyaning turli metodlari orqali o'tkaziladi

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

Talabalarda Bobur va boburiylar davri adabiy muhiti, mazkur muhit ijodkorlari, ularning lirik merosi, bu davr adabiy muhitida janrlar taraqqiyoti, an'ana va ijodiy o'ziga xoslik, xalqlar o'rtasidagi adabiy, madaniy aloqalarning shakllanishi kabi masalalarni o'rganish hamda egallangan malaka va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llay olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

“Tanlov fan” (“Bobur va boburiylar davri adabiy muhiti”) fanini o'zlashtirishda o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informasion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Dasturda ko'rsatilgan mavzular ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar mashg'ulotlari shaklida olib boriladi, shuningdek, fanning dolzarb masalalari talabalarga mustaqil ta'lim sifatida o'zlashtirish uchun beriladi. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, texnik vositalardan foydalaniladi. Ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari zamonaviy pedagogik texnologiyaning “Keys stadi”, “Insert jadvali”, “Baliq skeleti”, “Idrok xaritasi” konferensiyasi” singari metodlari orqali hamda slaydlar, multimedia namoyishlari bilan o'tkaziladi.

“Tanlov fan” (“Bobur va boburiylar davri adabiy muhiti”) fanidan mashg'ulotlarning mavzular va soatlar bo'yicha taqsimlanishi:

TG 'n	Mavzular nomi	Jami soat	Ma`r uza	Amaliy	Seminar	Mustaq il ta`lim
1.	Kirish. “Tanlov fan”ning predmeti, maqsadi va vazifalari. Hindistonda turkiy zabon adabiyot tarixi.	10	2	2	2	4

2.	Bobur – hind turkiyzabon adabiyotining asoschisi.	12	2	2	2	6
3.	Bobur hayoti va ijodi. Boburshunoslik tarixi.	16	2	4	2	8
4	Bobur lirikasining janriy ko'lami. Bobur lirik devonlari nusxalarining ilmiy tavsifi.	18	2	4	4	8
5	“Boburnoma” – memuar janrning nodir namunasi	18	2	4	4	8
6.	“Mubayyin”, “Validiya” va “Muxtasar” asarlari.	14	2	2	2	8
7.	Bayramxon hayoti va ijodi. Bayramxon devoni nusxalarining ilmiy tavsifi.	12	2	2	2	6
8	Mirzo Komron hayoti va ijodi. Komron devoni nusxalarining ilmiy tavsifi.	12	2	2	2	6
9	Gulbadanbegim hayoti va ijodi, “Humoyunnoma” asarining adabiy qimmat	12	2	2	2	6
10	Forig'iy hayoti va ijodi, lirikasining janriy ko'lami. Diyda hayoti va ijodi. Devoni nusxalari tavsifi.	12	2	2	2	6
11	Johila hayoti va ijodi. Yusuf Faryobiy hayoti va ijodi.	12	2	2	2	6
12	Saminiy-Fahm hayoti va ijodi. Humoyun hayoti va ijodi, lirikasining janriy ko'lami.	12	2	2	2	6
13	Hindiston turkiyzabon adabiyotida zullisonaynlik an'anasi	14	2	2	4	6
Jami		174	26	32	32	84

Asosiy qism, fanning uslubiy jihatdan ketma-ketligi

Asosiy qismda (ma`ruza) fanni mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo'yicha talabalarga DTS asosida yetkazilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar to'la qamrab olinadi.

“Tanlov fan” (“Bobur va boburiylar davri adabiy muhiti”) fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Hindistonda turkiy zabon adabiyot tarixi

Mazkur tanlov fanda ko'zda tutilgan asosiy maqsad Hindistonda turkiyzabon adabiyotning shakllanishi, Bobur va boburiylar davri adabiy muhitini o'rganish, bu adabiy muhit ijokorlari hayoti va ijodiy merosi haqida atroflicha ma'lumot berishdir.

Bobur – hind turkiyzabon adabiyotining asoschisi

Boburning “Hind yurishi”ga qadar Hindistondagi ijtimoiy-ma'naviy muhit. Hindistonada turkiy adabiyotning paydo bo'lishi, shakllanishi, turkiyzabon ijodkorlar. Bhaqtiy va turkiyzabon adabiyotida mushtrak mavzular. Hindiston turkiygo'y shoirlarining lirikasi, badiiyati va qo'lyozma manbalar tavsifi.

Bobur hayoti va ijodi. Boburshunoslik tarixi

Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, faoliyati va merosini o'rganish XVI asrning avvalidan boshlangan edi. Boshqacha qilib aytganda, bu qutlug' ishni Z.M.Boburning o'zi «Boburnoma»da boshlab bergan edi. Shundan so'ng Movarounnahr, Afg'oniston va Hindistonda yozilgan tazkira va tarixiy asarlarda Bobur haqida ma'lumot berish kuzatiladi. Bu jihatdan Boburning qizi Gulbadanbeginning «Humoyunnoma», Muhammad Haydarning «Tarixi Rashidiy» kabi asarlari, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Chunki bu mualliflar Bobur bilan bevosita muloqotda bo'lib, uning faoliyati, shaxsiyati va fazilatleri to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni keltirganlar. Bunday ma'lumotlar shu asrda Buxoroda Hasanxoja Nisoriy tomonidan yozilgan «Muzakkiri ahbob» da ham bor. Hindistonda Akbarshoh, Jahongirshoh, Shoh Jahon hukmdorligi davrida yaratilgan tarixiy asarlar va tazkiralarda Bobur haqida ham ma'lumotlar keltirilgan («Akbarнома» va boshqalar).

Keyinchalik, xususan, XVII asrdan boshlab, Bobur hayoti, faoliyati va merosi bilan qiziqish Evropada ham jonlanib ketdi. Uning «Boburnoma»siga bo'lgan ehtirom tufayli XIX asrda u ingliz (Elfinston, Erskin, Beveridj), frantsuz (Pave de Kurteyl) tillariga tarjima qilinib bosildi. Rus olimi N.Ilminskiy esa «Boburnoma»ning asl nusxasini nashr ettirdi. Bunday hol XX asrda ham davom etdi. Jumladan, frantsuz adibi Fernand Grenard «Bobur», Amerikalik yozuvchi Harold Lamb «Bobur-she» asarlarini yaratdilar. Fernand Grenardning asari keyinchalik nemis (1931 y.) va turk tillariga (1970 y.) tarjima qilinib, nashr ettirildi. «Boburnoma»ning bevosita o'zbek tilidan frantsuz (Bake Grammon, 1980y.) va ingliz (V.M.Sekston, 1996 y.) tillariga yangi tarjimalari maydonga keldi.

Afg'onistonlik olimi Shafiqa Yorqin Bobur she'riy merosining nisbatan to'liq nusxasini tuzib, katta tadqiqot bilan birga 1983 yilda «Devoni Zahiriddin Bobur» nomi

bilan Kobulda nashr ettirdi. Rus olimasi I.V.Stebleva Bobur she'riyati (g'azallari) ga oid risolasini yaratdi.

XX asrning 20-80 yillari orasida mamlakatimiz-O'zbekistonda ham Bobur hayoti, faoliyati va merosini o'rganish sohasida ma'lum ishlar amalga oshirildi: 3-jildlik asarlari nashr ettirildi, tadqiqotlar yaratildi. Bu sohada Yahyo G'ulomov, Vohid Zohidov, Homil Yoqubov, Porso Shamsiev, Sabohat Azimjonova, Aziz Qayumov, Hamid Sulaymon, Saidbek Hasanov, B.Valixo'jaev va boshqalarning katta hissasi bor. Pirimqul Qodirov, Barot Boyqobilovlar esa Bobur haqida roman va dostonlar yaratdilar.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, Bobur va uning boy merosiga milliy istiqloq g'oyasi asosida munosabat bildirilmoqda; oldin nashr ettirilmagan asarlari, jumladan, «Mubayyin», to'liq nashr ettirilmoqda. Boburshunoslik sohasidagi ishlar yanada rivojlanib bormoqda. Bu jihatdan Xalqaro Bobur jamg'armasining tuzilgani va uning serqirra faoliyati alohida e'tiborga molikdir.

Bobur lirikasining janriy ko'lam. Bobur lirik devonlari nusxalarining ilmiy tavsifi

Zahiriddin Muhammad Boburning manzum asarlari turli adabiy nav'larda, ya'ni g'azal, ruboiy, tuyuq, qit'a, muammo, fard, masnaviy-nomalarda yozilganlari devon holiga keltirilgan bo'lsa, masnaviy (doston) tarzida yozilgan «Mubayyin», «Volidiya»lar alohida-alohida asarlardir.

Boburning rang-barang janrlarda yozilgan manzum asarlarining mavzu doirasi ham xilma-xildir. Bu asarlarning barchasiga xos xususiyat shundan iboratki, ular sodda tilda, ravon uslubda yozilgan bo'lib, ma'rifiy va dunyoviy-hayotiy masalalardan bahs yuritadilar. Ularda Boburning shoirlik mahorati nihoyatda yaqqol namoyon bo'lganidan Boburning zamondoshi va muxlisi Mirzo Haydar o'zining «Tarixi Rashidiy» asarida shunday yozgan edi: «Turkiy she'riyatda Amir Alisher Navoiydan so'ng hech kim Boburga teng kela olmaydi». Bunday fikr boshqa mualliflar, jumladan, Hasanxoja Nisoriyning «Muzakkiri ahbob» tazkirasida ham o'ziga xos tarzda bayon etilib, misollar ham keltirilgan (Muzakkiri ahbob, 53-54-betlar).

Bobur o'zining lirik merosini ikki devonga to'plagan. Ulardan birinchisi 1519-yilda Kobulda tartib berilib, bir nusxasi o'sha vaqtning o'zida Samarqandga yuborilgan. Ikkinchisi esa 1528-1529 yilda Hindistonda tuzilgan. Bu ikki devonga kiritilgan she'rlar keyinchalik bir devon holiga keltirilgan. Bu haqda «Boburnoma»ga ilova yozgan kotib shunday xabar beradi: «(Bobur) nazm va nasr va turkiy va forsiyni bebadal aytur edi. Alalxusus turkiy devoni bordurkim, anda toza mazmunlar topib aytibdur» (Boburnoma, 460-bet). Demak, Boburning turkiy-o'zbek tilida yozilgan lirik she'rlari alohida devon shakliga keltirilgan. Bu devonga kiritilgan she'rlarni ingliz sharqshunosi Denison Ross (1910 y.), turk olimi Fuod Kupruluzoda (1912-1913 y), rus sharqshunosi A.N.Samoylovich (1917y), o'zbek olimlari S.Azimjonova va A.Qayumov (1958, 1965), Saidbek Hasanov (1982 y)lar nashr ettirdilar.

“Boburnoma” – memuar janrning nodir namunasi

«Boburnoma» Boburning jahoniy shuhratini ta'minlagan shoh asarlaridan hisoblanadi. Shuning uchun u XVI asrning o'zidan hozirga qadar fors, urdu, ingliz, frantsuz, rus va boshqa tillarga to'liq yoki ayrim namunalari tarjima qilindi, uning haqida turli xildagi ilmiy tadqiqotlar yaratildi. Bu sohada Abdurahim Xonixonon (Hindiston), A.Beveridj xonim (Angliya), B.Sakston (AQSh), Pave de Kurteyl, Bakke Grammon (Frantsiya), N.Ilminskiy (Rusiya), Mirzo Nasriddin Haydar Kuragoniy, Rushan Oro begim (Pokiston), Homil Yoqubov, Porso Shamsiev, Sabohat Azimjonova (O'zbekiston) va boshqalarning xizmatlari e'tiborga sazovordir.

Bobur o'z asarini «Tarix» va «Vaqoe'» deb tilga oladi hamda uning tarjimai hollik xususiyatini alohida ta'kidlaydi. Shunday bo'lsa-da, mazkur asar avvalida «Voqeoti Boburiy», «Tuzuki Boburiy», «Tavorixi Boburiy», «Boburiya» tarzida ishlatilib kelingan bo'lsa, keyinchalik «Boburnoma» deb nomlandi va shu tarzda shuhrat qozondi.

“Mubayyin”, “Volidiya” va “Muxtasar” asarlari

Zahiriddin Muhammad Bobur turli tabiiy va gumanitar ilmlar bilan bir qatorda, islomshunoslik sohasida ham katta ishlarni amalga oshirdi. Ulardan biri «Volidiya»ning tarjimai bo'lsa, ikkinchisi «Mubayyin» asaridir.

Bobur 1520-1521-yilda o'g'illari Humoyun va Komron mirzolariga bag'ishlab, ilohiyot va islom huquqshunosligi- fiqhidan bahs yurituvchi «Mubayyin» masnaviysini yaratdi. Bu asar «Fiqhi Boburiy» yoki «Fiqhii mubayyin» nomlari bilan ham yuritiladi.

«Mubayyin» Boburning «din ishig'a ko'p ehtirom kerak»,-degan aqidasi mahsuli bo'lib, u «E'tiqodiya», «Kitob us-salot», «Kitob uz-zakot», «Kitob us-savm» va «Kitob ul- haj» deb ataladigan bo'lim- kitoblardan iborat.

1528-yilda Bobur isitma kasaliga uchrab, ancha qiynaladi. Kasallikdan qutulish maqsadida Xoja Ahrori Vali ruhiga murojaat qilib, uning «Volidiya» nomli nasriy asarini o'zbek tiliga she'r bilan tarjima qila boshlaydi. Bu ish jarayoni 10-12 kun davom etadi. Shu orada Bobur kasallikdan ham shifo topgan. Shunisi diqqatga sazovorki, asarning yaratilish tarixi «Boburnoma»da batafsil bayon qilingan. Undan ma'lum bo'ladiki, Bobur asarni yaratish jarayonida uzluksiz ijod qilgan va hattoki, bir kuni ellik ikki baytni qog'ozga tushirgan ekan.

«Volidiya» ikki yuzu qirq uch bayt bo'lib, ilohiyot va odob-axloq masalalaridan bahs yuritadi. Asar «hamd», «Rasulluloh na'ti», «Risola nazmining sabablari», «Risola shuro'i»-boshlanishi, «Risola xotimasi» bo'limlaridan tashkil topgan.

Boburning nasriy asarlaridan biri turkiy she'riyat va aruz masalalaridan bahs yurituvchi «Aruz risolasi»dir. Asar 1523-1525-yillar orasida yozilgan. Bobur ilmiy risolasi muallif dastxati bo'lgan nusxasi taqdiri noma'lum bo'lsa-da, ammo uning 1533-yilda samarqandlik Hoji Muhammad kotib tomonidan ko'chirilgan nusxasi bizgacha etib kelgan. Bu nusxa Parij Milliy kutubxonasida saqlanadi. Ana shu nusxadan olingan fotonusxa asosida «Aruz risolasi» Sayidbek Hasanov (Toshkent, 1970) va I.V.Stebleva (Moskva, 1970) tomonidan nashr ettirilgan.

«Aruz risolasi» XVI asrdayoq Samarqand va Buxoroda ma'lum bo'lganidan Hasanxoja Nisoriy o'zining 1565 yilda yozgan «Muzakkiri ahbob» tazkirasida uni «durru gavharga to'la dengiz» deb yuqori baholagan edi.

Bayramxon hayoti va ijodi. Bayramxon devoni nusxalarining ilmiy tavsifi

Zahiriddin Muhammad Boburdan keyin Hindistonda turkiy-o'zbek tilida ijod qilgan shoirlardan biri Bayramxondir. Xoni xonon (xonlar xoni) unvoniga ega bo'lgan Muhammad Bayramxon nomi (taxallusi Bayram) XVI asrning birinchi yarmi Hindiston tarixi, madaniyati va adabiyotiga bag'ishlangan deyarlik hamma manbalarda tilga olinadi, uning harbiy- siyosiy faoliyati va adabiy ijodiga yuqori baho beriladi. Jumladan, Xo'ja Nizomiddin Ahmad Hirotiy (1550-1604)ning «Tabaqoti Akbariy», Abdulqodir Badayuniyning «Maosiri Rahimi», Abul Fazl Allomiy (1551-1602)ning «Akbnoma»si va boshqa tarixiy-memuar asarlar hamda tazkiralarda Bayramxonning hayoti va ijodiy faoliyatiga doir ma'lumotlar ko'p uchraydi.

Mirzo Komron hayoti va ijodi. Komron devoni nusxalarining ilmiy tavsifi

Zahiriddin Muhammad Boburning adabiy faoliyatini Hindistonda muvaffaqiyat bilan davom ettirib, xuddi Bayramxondek forsiy va turkiy tillarda ijod etgan shoirlardan biri Boburning o'g'li Komron Mirzodir. Komron Mirzo g'azal, ruboiy, qit'a, fard va masnaviy janrlarida ijod qilib, o'z davri adabiy hayotida ko'zga tashlangan va shoir sifatida tan olingan. Uning hayoti va ijodi haqida Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» va boshqa asarlarida, Gulbadanbegimning «Humoyunnoma»sida, Abul Fazl Allomiyning «Akbnoma»si va boshqa manbalarda ma'lumotlar uchraydi. Komron Mirzo hayoti va ijodini o'rganishda keyingi yillarda O'zbekistonda ancha ishlar amalga oshirildi. Jumladan, N.Nizomiddinov, N.Rahimov, R.Inomxo'jaev, J.Jo'raev, S.Do'stov, Saidbek Hasanov va boshqalarning kitoblari va ilmiy maqolalari e'lon qilindi, devoni nashr ettirildi. O'zbekistonda yashab turgan afg'on olimasi Shafiqa Yorqin Komron Mirzo davri, hayoti, ijodi va badiiy mahoratiga doir nomzodlik dissertatsiyasi yoqladi.

Gulbadanbegim hayoti va ijodi, «Humoyunnoma» asarining adabiy qimmat

Boburiylar tomonidan XVI asrda Hindistonda shakllangan madaniyat va adabiyotning ko'zga ko'ringan namoyandalardan biri Gulbadanbegimdir. U Bobur xonadonidan chiqqan ayol ijodkorlar orasida otasining tarix (voqea)navislik sohasidagi faoliyatini davom ettirib, XVI asr o'rtalarida Hindiston, Afg'oniston va qisman Movarounnahrda bo'lib o'tgan voqealarni qalamga olib, kelajak uchun muhim xizmat qilgan madaniyat namoyandasidir. Gulbadanbegimning shoiraligi haqida ba'zi ma'lumotlar bo'lsa ham, undan faqatgina «Humoyunnoma» nomli asari yetib kelgan. Bu asarning yagona qo'lyozma nusxasi ma'lum. Bu nusxa Londondagi Britaniya muzeyida saqlanadi. Bu haqda dastlab ingliz olimi Charlz Riyo xabar bergan va 1879 yilda katalogida uning dunyoda yagona nusxa ekanligini qayd etgan. Riyoning bu ma'lumotiga hozirgacha o'zgarish kiritilgan emas. Asarning qo'lyozmasi 83 varaqdan iborat. Uni ingliz olimasi Annet Beverij ingliz tiliga tarjima qilgan va so'z boshi yozib, chop etdirgan. Ana shu nashr ustida uzoq yillar davomida ishlagan o'zbek olimasi akad.

Sabohat Azimjonova 1959 yilda uni o'zbek tiliga tarjimasi bilan faksimilini birga nashr qildirdi. Nashr ko'rsatkichlar va ilova bilan ta'minlangan. Sabohat Azimjonova va N.B.Baykova tomonidan yozilgan so'z boshida asarning topilishi, o'rganilishi, mazmuni va ahamiyati haqida ancha keng ma'lumot berilgan.

Forig'iy hayoti va ijodi, lirikasining janriy ko'lami. Diyda hayoti va ijodi. Devoni nusxalari tavsifi.

Hindiston turkiyzabon adabiyotiga xos badiiyat tushunchasi Forig'iy, Yusuf Faryobiy, Fahm, Diyda va Johila qalamida ba'zi shunday originalikka da'vogar xususiyatlar kasb etganki, bu borada ular ijodida e'tiborga loyiq misollar yetarlicha topiladi.

Agar poeziyada badiiylilikni shartli ravishda g'azalxon ruhiyatini junbushga keltirish deb bilsak, bu hol Forig'iy she'rlari mutolaasida paradoksal xarakterda kechishi bilan diqqatni o'ziga tortadi.

Manbalardan ma'lumki, agar Forig'iy nomi "Boburnoma"ning ikki yerida qayd qilingan bo'lsa, boshqa bir manbada xuddi shu taxallusli shoir Abdurahim xoni xononning shogirdi ekanligi zikr etilgan. Lekin Hindistonda topilgan Forig'iy devonidagi she'rlarning birorta bayti ham XVI asrga oid tazkiralarda namuna sifatida hatto zikr etilmagan.

Diyda hayotiy faoliyati haqida deyarli ma'lumot uchramaydi, lekin uning lirik merosi jamlangan devoni nusxalari yetib kelgan.

Johila hayoti va ijodi. Yusuf Faryobiy hayoti va ijodi

Boshqa turkiy xalqlar qatori turk ijodkorlari ham "hind-musulmon madaniyati" taraqqiyotiga o'z asarlari bilan salmoqli hissa qo'shganlar. Johila "Devoni hikmat"ining hind kitob javonidan topilishi umumiy turkiy badiiyat uchun yangilik hisoblansada, ammo bu "yangilik" o'z davri mahalliy adabiy muhiti uchun odatdagi bir hol.

Johila haqida hozircha shuni aytish mumkinki, shoira shubhasiz o'z ijod uslubida til imkoniyatlaridan to'la foydalanish tajribasiga ega va tanlagan mavzuiga ruhan vobasta qalam sohibasidir.

Hindistondagi turkiyko'y qalamkashlardan yana biri Yusuf Faryobiy hisoblanadi. U haqda ma'lumotlar deyarli yetib kelmagan. Undan meros qolgan devonidagi she'rlardan u Ozarbayjondan ekanini anglash mumkin.

Saminiy-Fahm hayoti va ijodi. Humoyun hayoti va ijodi, lirikasining janriy ko'lami

Hindistonda forsiy va turkiy tilda ijod qilgan shoirlardan yana biri Saminiy-Fahmdir. Keying tadqiqotlar natijasida uning g'azal va ruboiylardan iborat bir devoni topiladi. Uning hayotiy faoliyati haqida ma'lumotlar unchalik ko'p emas.

Zahiriddin Muhammad Boburning to'ng'ich o'g'li Humoyun ijodi haqida ham ba'zi ma'lumotlar aniqlandi. Uning lirik she'rlari jamlangan to'plam yoki devoni mavjudligi haqida hozircha aniq mag'lumotlar mavjud emas.

Hindiston turkiyzabon adabiyotida zullisonaynlik an'anasi

Hindistonga Bobur bilan yoki uning da'vatidan keyin kelgan nufuzli zotlar, qavmu qarindoshlar, xesh-aqrabolar va ilm hamda qalam ahli orasida ikki va uch tilde ijod etuvchi shoirlar bo'lgan. Shuningdek, saroy va boshqa davlat idoralari mulozimlari ichida ham yetuk zullisonayn ijodkorlar faoliyat ko'rsatgan. Bu davr adabiy muhitida zullisonayn an'anasida ijod qilgan shoirlardan Bayramxon, Forig'iy, Mirzo Komron kabi ijodkorlarni alohida ta'kidlab ko'rsatish mumkin.

“Tanlov fan” (“Bobur va boburiylar davri adabiy muhiti”) fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlarining kalendar tematik rejasi

T/r	Ma`ruza mavzulari (barchasi)	Soat
I. Mavzu. Boburiylar davri adabiy muhitining oʻziga xos xususiyatlari		
1.1	Fanning predmeti, maqsadi va vazifalari	2
1.2.	Hindistonda turkiyzabon adabiyot tarixi.	
II. Mavzu. Bobur – hind turkiyzabon adabiyotining asoschisi		
2.1.	Hind-turkiyzabon adabiyotining shakllanish jarayoni.	2
2.2.	Bu davr adabiy jarayonining oʻziga xos jihatlari	
2.3.	Boburiylar davri adabiy muhitida lirik janrlar taraqqiyoti	
III. Mavzu. Bobur hayoti va ijodi		
3.1.	Bobur hayotiy faoliyati haqida	2
3.2.	Boburshunoslik tarixi	
IV. Mavzu. Bobur lirikasining janriy koʻlami		
4.1.	Bobur devonlari tavsifi, oʻrganilishi, nashrlari.	2
4.2.	Bobur lirikasining janr va mavzu koʻlami	
V. Mavzu. “Boburnoma” – memuar janrning nodir namunasi		
5.1.	“Boburnoma”ning topilishi, oʻrganilishi, nusxalari, tarjimalari	2
5.2.	“Boburnoma”da tarixiy shaxslar tasviri	
5.3.	“Boburnoma”da shaharlar tasviri	
5.4.	“Boburnoma” asari boʻyicha amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlili	

VI. Mavzu. Boburning “Mubayyin”, “Volidiya” va “Muxtasar” asarlari		
6.1.	“Mubayyin” asarida diniy ruknlar talqini	2
6.2.	“Volidiya” – Bobur tarjomonligining yorqin namunasi	
6.3.	Muxtasar” – adabiyotshunoslik haqidagi asar	
6.4.	“Xatti Boburiy” haqida	
VII. Mavzu. Bayramxon hayoti va ijodi.		
7.1.	Bayramxon hayoti va ijodining o’rganilishi	2
7.2.	Bayramxon devoni nusxalarining ilmiy tavsifi.	
7.3.	Shoir lirikasining janriy va mavzu ko’lami	
VIII. Mavzu. Mirzo Komron hayoti va ijodi.		
8.1.	Komron Mirzo hayoti va ijodining o’rganilishi	2
8.2.	Komron devoni nusxalari, nashrlari	
IX. Mavzu. Gulbadanbegim hayoti va ijodi		
9.1.	Gulbadanbegim hayoti va ijodi haqida	2
9.2.	“Humoyunnoma” asarining adabiy qimmati	
X. Mavzu. Forig’iy hamda Diyda hayoti va ijodi.		
10.1.	Forig’iy hayoti va ijodi.	2
10.2.	Diyda hayoti va ijodi.	
XI. Mavzu. Johila va Yusuf Faryobiy hayotiy faoliyati		
11.1.	Johila hayoti va ijodi	2
11.2.	Yusuf Faryobiy hayoti va ijodi	
XII. Mavzu. Saminiy-Fahm hayoti va ijodi. Humoyun hayoti va ijodi, lirikasining janriy ko’lami.		
12.1.	Fahm hayoti va ijodi	2
12.2.	Humoyin ijodi haqida ba’zi ma’lumotlar	
XIII. Mavzu. Hindiston turkiyzabon adabiyotida zullisonaynlik an’anasi		
13.1.	Zullisonaynlik an’anasining shakllanishi, zullisonayn ijodkorlar	2
	Jami	26

Amaliy mashg’ulotlarda tavsiya etiladigan mavzular

Amaliy mashg’ulotlarda talabalar ayrim ijodkorlarning hayoti va ijodi bilan bog’liq muammolarni mavjud matn, manbalar hamda ilmiy adabiyotlardan unumli foydalangan holda o’rganadilar. Amaliy mashg’ulot mavzulari:

Hindistonda turkiy zabon adabiyot tarixi.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *diologik yondoshuv, davra suhbat, aqliy hujum va boshqalar.*

Adabiyotlar: A2; A5; A6; A9; A12; A20; A22; A25.

Boburiylar davri adabiy muhiti: an'ana va o'ziga xoslik

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *keys usuli, mini ma'ruza, davra suhbat, aqliy hujum, klaster usuli va boshqalar.*

Adabiyotlar: A6; A8; A10; A11; A14; A24.

Bobur hayoti va ijodi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *keys usuli, aqliy hujum, klaster usuli va boshqalar.*

Adabiyotlar: A6; A8; A10; A11; A14; A24; A35.

Bobur lirikasining janriy ko'lami, mavzusi, g'oyasi

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *munozara usuli, muammoli ta'lim, dialogik yondoshuv, davra suhbat va boshqalar.*

Adabiyotlar: A2; A5; A6; A9; A12; A20; A26.

"Boburnoma" asarining jahoniy shuhrati

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *muammoli ta'lim, dialogik yondoshuv, davra suhbat, o'z-o'zini nazorat, aqliy hujum va boshqalar.*

Adabiyotlar: A2; A5; A6; A9; A12; A20; A26.

Boburning nasriy va nazmiy asarlari

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *keys usuli, muammoli ta'lim, dialogik yondoshuv va boshqalar.*

Adabiyotlar: A8; A11; A7; A12; A13; A22; A36; A41; A43.

Bayramxon hayoti va ijodi

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik ta'lim, keys usuli, o'z-o'zini nazorat, aqliy hujum va boshqalar.*

Adabiyotlar: A8; A11; A12; A13; A17; A20; A29; A33.

Komron Mirzo hayoti va ijodi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik ta'lim, keys usuli, aqliy hujum, klaster va boshqalar.*

Adabiyotlar: A8; A10; A11; A12; A13; A27; A28; A29; A33.

Gulbadanbegim hayoti va ijodi

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *keys usuli, diologik yondoshuv, davra suhbat, aqliy hujum va boshqalar.*

Adabiyotlar:A4; A7; A8; A14; A22; A29; A37; A39;

Forig'iy hayoti va ijodi

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *diologik ta'lim, keys usuli, o'z-o'zini nazorat, klaster va boshqalar.*

Adabiyotlar: A4; A7; A20; A21; A27; A28; A29;

Diyda hayoti va ijodi

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *keys usuli, diologik yondoshuv, davra suhbat, aqliy hujum va boshqalar.*

Adabiyotlar:A4; A7; A8; A14; A22; A29; A37; A39;

Johila hayoti va ijodi

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *diologik ta'lim, keys usuli, aqliy hujum, klaster va boshqalar.*

Adabiyotlar:A8; A10; A11; A12; A13; A27; A28; A29; A33.

Yusuf Faryobiy hayoti va ijodi

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *diologik ta'lim, keys usuli, o'z-o'zini nazorat, aqliy hujum va boshqalar.*

Adabiyotlar:A8; A11; A12; A13; A17; A20; A29; A33.

“Tanlov fan” (“Bobur va boburiylar davri adabiy muhiti”) fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarining kalendar tematik rejasi

T/r	Amaliy mashg'ulot mavzulari	Soat
1.	Hindistonda turkiy zabon adabiyot tarixi.	2
2.	Bobur – hind turkiyzabon adabiyotining asoschisi.	2
3.	Bobur hayoti va ijodining o'rganilish tarixi	2
4.	Bobur lirikasining janriy ko'lami.	2
5.	Bobur lirik devonlari nusxalarining ilmiy tavsifi.	2
6.	“Boburnoma”ning topilishi, o'rganilishi, nusxalari, tarjimalari	2
7.	“Boburnoma”da tarixiy shaxslar, shaharlar tasviri	2
8.	“Mubayyin” asarida diniy ruknlar talqini	2
9.	“Volidiya” – Bobur tarjomonligining yorqin namunasi	2
10.	Bayramxon devoni nusxalarining ilmiy tavsifi.	2

11.	Mirzo Komron hayoti va ijodi.	2
12.	Gulbadanbegim hayoti va ijodi	2
13.	Forig'iy lirikasining janriy ko'lami	2
14.	Diyda hayoti va ijodi	2
15.	Johila hamda Yusuf Faryobiy hayoti va ijodi.	2
16.	Zullisonaynlik an'anasi	2
	Jami	32

**“Tanlov fan” (“Bobur va boburiylar davri adabiy muhiti”) fani bo'yicha seminar
mashg'ulotlarining kalendar tematik rejasi**

T/r	Amaliy mashg'ulot mavzulari	Soat
1.	Hind-musulmon adabiyoti: mushtaraklik va o'ziga xoslik	2
2.	Boburiylar davrigacha Hindistonda adabiy jarayon	2
3.	Boburshunoslik tarixi	2
4.	Bobur g'azallari tahlili.	2
5.	Bobur ruboiylari tahlili.	2
6.	“Boburnoma”da ijodkorlar tasviri	2
7.	“Boburnoma”dagi adabiy parchalar tahlili	2
8.	“Boburnoma”dagi maqollar tahlili	2
9.	“Mubayyin” asari tahlili	2
10.	“Volidiya” asarining badiiy qimmatini	2
11.	Bayramxon g'azallari tahlili	2
12.	Mirzo Komron lirikasi tahlili	2
13.	“Humoyunnoma” asari haqida	2
14.	Forig'iy va Diyda lirikasi tahlili	2
15.	Johila hamda Yusuf Faryobiy lirikasi tahlili.	2
16.	Boburiylar davri tarixiy asarlar tahlili	2
	Jami	32

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik;
- seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik;
- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy ta'lim.

“Tanlov fan”dan mustaqil ish majmuasi fanning barcha mavzularini qamrab olgan va quyidagi 6 ta katta mavzu ko'rinishida shakllantirilgan.

Talabalar mustaqil ta'limining mazmuni va hajmi

T/r	Mustaqil ta'lim mavzulari	Berilgan topshiriqlar	Bajarilish muddati	Hajmi (soatda)
1.	Zahiriddin Muhammad Bobur g'azallari tahlili	Boburning 5 ta g'azalini tahlil qilish, yod olish	1- hafta	10
2	Zahiriddin Muhammad Boburning ruboiylari tahlili	Bobur ruboiylaridan 10 tasini tahlil qilish, yod olish	2- hafta	8
3.	“Boburnoma”da berilgan adabiy parchalar tahlili	“Boburnoma”da berilgan adabiy parchalarning yozilish tarixi o'rganish	3- hafta	10
4.	“Mubayyin”, “Volidiya” va “Muxtasar” asarlari.	Boburning ushbu asarlarini o'qib, tahlil etish	4- hafta	10
5.	Bayramxon g'azallari tahlili	Bayramxon g'azallaridan 4 tasini tahlil qilib, yod olish	5- hafta	8
6.	Komron Mirzo g'azallari tahlili	Komron Mirzo g'azallaridan 4 tasini tahlil qilib, yod olish	6- hafta	8
7.	Gulbadanbegimning “Humoyunnoma”	“Humoyunnoma” asarini o'qib, fikrlarni	7- hafta	6

	asarini o'qish	qisqacha yozish		
8.	Forig'iy g'azallari tahlili	Forig'iy g'azallaridan ikkitasini tahlil qilib, yod olish	8- hafta	6
9.	Diyda she'riyati tahlili	Diyda g'azallaridan 2 tasini tahlil qilib, yod olish	8- hafta	6
10.	Johila she'riyati tahlili	G'azallaridan 2 tasini tahlil qilib, yodlash	9- hafta	6
11.	Yusuf Faryobiy g'azallari tahlili	Yusuf Faryobiy g'azallaridan 2 tasini tahlil qilib, yod olish	9- hafta	6
	Jami			84

Dasturning informatsion uslubiy ta'minoti

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy uslublari, pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan, ovozli yozuvdan, video ko'rsatuvlardan, hujjatli filmlardan, multimediya namoyishlari kabilardan, Adabiyot muzeyi ekspozitsiyasidan foydalaniladi.

“Tanlov fan”idan talabalar bilimni reyting tizimi asosida baholash mezonlari.

Fan bo'yicha talabalarning bilimi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

- **joriy nazorat (JN)** – talabalarning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikmalari darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat amaliy mashg'ulot davomida og'zaki so'rov, suhbat, nazorat ishi, uy vazifalarini tekshirish, test o'tkazish va boshqa shu kabi shakllarda o'tkaziladi.

- **oralik nazorat (ON)** – semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oralik nazorat semestrda bir marta o'tkaziladi va shakli (yozma yoki test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

- **yakuniy nazorat (YN)** – semestr yakunida fan bo'yicha nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan **“Yozma-og'zaki”** sinov tarzida o'tkaziladi. Shunda talabalarning ham og'zaki, ham yozma nutqi sinovdan o'tkaziladi.

ON o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **ON** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday **ON** qayta o'tkaziladi.

Universitet rektorining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida YNni o'tkazish jarayoni muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilganda YN natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda YN qayta o'tkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida uning "Turkiy adabiyotning qadimgi davri" fani bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi. Talabaning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi **100** ballik tizimda baholanadi. Bu ball baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi: **JN – 35 ball, ON – 35 ball, YN – 30 ball.**

Ball	Baho	Talabalarning bilim darajasi
86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushihada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
71-85	Yaxshi	Mustaqil mushihada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
55-70	Qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
0-54	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik. Bilmaslik.

- fan bo'yicha saralash bali 55 balni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasiga qayd etilmaydi;

- talabalarning "Turkiy adabiyotning qadimgi davri" fanidan mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegisli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi;

- Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

- Joriy **JN** va oraliq **ON** turlari bo'yicha 55 bal va undan yuqori balni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yiladi.

- Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.

- **ON** va **YN** turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi.

- **JN** va **ON** nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

- Talabaning semestrda **JN** va **ON** turlari bo'yicha to'plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari yig'indisi 55 balidan kam bo'lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.

- Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi.

Talabalar JN dan to'playdigan ballar mezonlari

T.r.	Ko'rsatkichlar	JN ballari		
		Maks.	1-JN	2-JN
1.	Amaliy mashg'ulot va seminar darslarilarida reja asosida nazariy savollarga javob berish (10 x 2).	20	14	6
2.	Amaliy mashg'ulot va seminar darslarilarida reja asosida badiiy asar tahlili (2 x 4).	8	4	4
3.	Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi. Mavzular bo'yicha uy vazifalarining bajarilishi va o'zlashtirish darajasi.	7	-	7
	Jami	35	18	17

Talabalarning ON da to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari

Oraliq baholash uchun variantlar test savollari va yozma topshiriqlari shaklida tuzilib o'quv yili boshida tasdiqlanadi. Bunda:

1. Test savollarining har bir to'g'ri javobi yarim (0,5) balndan baholanadi.
2. Yozma ish topshiriqlari nol (0) balndan uch (3) balgacha baholanadi.

Jami	Test	Yozma topshiriqlar		
		1 ta topshiriq	Jami	Baholash mezonlari
0	0	0	0	Topshiriq umuman bajarilmagan
1 – 12	1-7	0-1	1-5	Topshiriq mohiyati tushunilmagan, bajarishga intilgan
13 – 24	8-14	1-2	6-10	Topshiriq bajarilgan, biroq xatolar bor
25 – 35	15-20	2-3	11-15	Topshiriq to'g'ri va to'liq bajarilgan
35	20	15		

Yakuniy nazorat (YN) ni o'tkazish tartibi va baholash mezonlari

YN "Yozma ish" shaklda belgilanib, 30 ballik tizimda baholash tarzida o'tkaziladi.

YN fan bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy ma'lumotlar, amaliy va seminar mashg'ulotlarida tahlil etilgan materiallarning mazmunini aks ettiruvchi "Yozma ish" savollari va topshiriqlari asosida tashkil etilib, ko'p variantli usulda amalga oshiriladi.

Har bir variantda 5 (besh) tadan savol va topshiriq kiritilib, har bir topshiriq 0-6 ball oraligida baholanadi. Variantlardagi 6-(oltinchi) savol albatta mustaqil ish topshiriqlari asosida tuziladi.

Topshiriqlarning bajarilishi va savollarga berilgan yozma javoblar quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

№	Ko'rsatkichlar	YN ballari
---	----------------	------------

		1-savol	Um. ball
1	Talaba YNga qatnashmagan yoki yozma ish topshirig'ini umuman bajarmagan	0	0
2	Talaba topshiriq mazmunini tushunmagan yoki nazariy ma'lumotlarga ega emas	1	1-5
3	Yozma ishda qo'pol xatolarga yo'l qo'yilgan, nazariy ma'lumotlar juda oz	2	6-10
4	Fan bo'yicha nazariy ma'lumotlari oz, bilimlarini amaliyotda qo'llay olmaydi.	3	11-15
5	Fan bo'yicha qisman nazariy ma'lumotlarga ega, bilimlarini amaliyotda qisman qo'llay oladi.	4	16-20
6	Fan bo'yicha nazariy ma'lumotlarga ega, bilimlarini amaliyotda qisman qo'llay oladi, mustaqil fikr yuritishga intiladi.	5	21-25
7	Fan bo'yicha nazariy ma'lumotlarga ega, bilimlarini amaliyotda qo'llay oladi, mustaqil fikr yurita oladi.	6	26-30
	Maksimal ball	6	30

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Siyosiy adabiyotlar

- 55.Mirziyoev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016
- 56.Mirziyoev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: O'zbekiston , 2017
- 57.Karimov I. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008
- 58.Karimov I. Istiqlool va ma'naviyat. – T.: O'zbekiston, 1994. – 160 b.

Asosiy adabiyotlar

- 59.Abdullaev V.A. O'zbek adabiyoti tarixi. Ikkinchi kitob. Toshkent: O'qituvchi, 1980. – 345 bet.
- 60.Abdullaev V. Bobur va Navoiy. Bobur va uning zamondoshlari ijodini o'rganish masalalari: Ilmiy maqolalar to'plami. – Samarqand, SamDU.
- 61.Abdug'afurov A. Qalb qa'ridagi qadriyatlar. Toshkent: «O'qituvchi», 1998.
- 62.Azimjonova S. «Boburnoma» qanday yozilgan G'G' Guliston. 2001, 8-son.
- 63.Bobur va boburiylar bibliografiyasi. Andijon.: «Andijon nashriyot-matbaa» MJCh, 2014. – 481 B.
64. Valixo'jaev B. XV-XIX asr o'zbek adabiy-tanqidiy qarashlari tarixidan. «O'zbek she'riyati va adabiyotshunoslik tarixidan». SamDU asarlari, Yangi seriya, 138-nashr. Samarqand, 103-117 betlar.
65. Valixo'jaev B. Zahiriddin Muhammad Bobur. O'zbek adabiyoti tarixi. Besh jildlik. 3-jild. – T.: 1978.

66. Valixojayev B. «Boburnoma»ning yangi tarjiması. «Guliston», 1998, 6-son.
67. Jalilov S. Bobirning Farg'ona davlati. Toshkent: «Fan» nashriyoti, 1995.
68. Jalilov S. Bobir va Yuliy Tsezar. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001.
69. Ibrohimov A. Boburiylar merosi. – T.: Fan, 1998.
70. Yorqin Muhammad Halim, Yorqin Shafiqa. Bobur manguligi. G'G' Afg'oniston Milliy islomiy junbushi; M.H.Yorqin nashrga tayyorlagan. Shibirg'on. Javjizon madaniy kengashi, 1993. – 57 B.
71. Mashrabov Z. Bobur va boburiylar merosi. – T.: «Fan», 2008.
72. Mirzaev I. Bobur ma'rifati. Monografiya. T.: «O'qituvchi», 1996. – 87 B.
73. Nizomiddinov N. Qadimgi Hindiston tarixi, diniy e'tiqodi va madaniyati. T.: Fan va texnologiya, 2014. – 461 B.
74. Nizomiddinov N.G'. Buyuk boburiylar tarixi (XVI-XIX asr). Monografiya. Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
75. Ochilov E. Zahiriddin Muhammad Bobur. T.: «O'zbekiston», 2013. – 134 B.
76. Ochilov E. Bobur. Risola. T.: Abu matbuot konsalt, 2011. – 32 B.
77. Salohiy D. Boburning buyuk e'tiqodi. Samarqand, 2019. – 88 B.
78. Shayxzoda M. Zahiriddin Bobur Asarlar. 6 jildlik, 5-jild Toshkent: G'.G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1973. – 327 bet.
79. O'zbek adabiyoti tarixi. V tomlik. III tom. XVI asrdan XVIII asrning 70-yillarigacha. Toshkent: Fan, 1978. – 380 bet.
80. Qayumov A. Asarlar 5- jild, Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiyoti, Toshkent, «Mumtoz so'z» nashriyoti, 2009.
81. Qudratullaev H. Boburning adabiy-estetik olami. T.: Ma'naviyat, 2018. – 271 B.
82. Qudratullaev H. Boburning davlatchilik siyosati va diplomatiyasi. T.: Sharq, 2011. – 431 B.
83. Qudratullaev H. Bobur armoni – Toshkent: Sharq, 2005. 384 bet.
84. Hasanov S. Zahiriddin Muhammad Bobur. T.: «O'zbekiston», 2011. – 84 B.
85. Hasanov S. Bobirning «Aruz risolasi» asari – Toshkent: «Fan», 1981. – 96 bet.

Adabiy manbalar

86. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa'dayn va majmai bahrayn. Fors tilidan A.O'rinboev tarjiması. – T.: «Fan».
87. Azimjonova S. Indiskiy divan Babura. Toshkent: - Fan 1966, s.85
88. Volidiya. O'zR FA ShI qo'lyozmalar bo'limida inv. № 890 – IV raqami ostida saqlanayotgan nusxa 8 varaqdan iborat. Bu asar fors tilida yozilgan bo'lib, 1240G'1825 yilda kuchirilgan (SVR. III. Toshkent: № 2443.
89. Vilyam Rashbruk, «O'n oltinchi asr bunyodkori. (inglizchadan G'ofurjon Sotimov va Xolida So'fieva o'zbek tilida tarjiması). Toshkent: Sharq nashriyot matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2011.
90. Gulbadanbegim. Humoyunnoma. – Toshkent: Fan, - 1959.
91. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma I,II,III, kitob, Toshkent: O'zdav nashr, 1948 (249 bet), 1949 (309 bet), 1966 (301 bet).
92. Zahiriddin Muhammad Bobur. Bobirnama. – T.: O'z R FA nashr, 1960. -512 bet.
Dyevon - shoirning o'zi tomonidan, shuningdek, boshqalar tomonidan ham tuziladi. Unda biror shoirning qofiya va radiflari ma'lum harflar bilan tugallangan shye'rlari alifbo tartibida (qofiyalanib kyeluvchi so'zlarning oxirgi harflari asosida) joylashtirilgan. Arab yozuvida 28 harf mavjud bo'lganligi uchun dyevonlarda ham ana shu harflarni ma'lum miqdordagi shye'rlar bilan to'ldirish asosiy qoidalardan hisoblangan. Dyevon tartib byerish forsiy adabiyotda turkiy adabiyotga nisbatan ancha avval kuzatiladi. Jumladan, XI asrda yashagan Nosir Xisrav (1004-1088) kabi forsiygo'y shoirlar sohibi dyevon bo'lganlar.

Doira - Aruz metodikasida bahrlarni yaxshi tushunish va eslab qolish uchun bir-biriga yaqin bo'lgan bahrlar kiritiladigan chizma. Unda misra, uning afo'illari hamda bahr nomlari kiritiladi. Misrani qaysi so'zdan boshlab o'qishga ko'ra turli bahrlar hosil bo'ladi. Masalan:

Doirai muttafiqa - muta'qorib (fa`uvlun), mutadorik (fo`ilun).

Yu'zi rashki xurshidi anvar bo'lubtur

Etuk - hikoya, ertak (DLT)

Fard – arabcha so'z bo'lib, yolg'iz, yakka, yagona ma'nolarini anglatadi. Fardning ko'pligi mufradot deyiladi. Lirikaning eng kichik janri bo'lgan fard *a-a* yoki *a-b* shaklida qofiyaladadi.

Fosila - (arabcha palos) Aruzda eng katta juzvning nomi. To'rt va undan ortiq harfli juzv. Fosila ikki xil bo'ladi:

1. Fosilai sug'ro (kichik fosila) - uch harakatli va bir sokin harfdan iborat.
2. Fosilai kubro (katta fosila) - to'rt harakatli va bir sokin harfdan iborat.

Furu' - Asl ruknlarning turli tarzda o'zgarishi natijasida hosil bo'lgan yangi ruknlar.

Gurizgoh - qasida janrida lirik kirishdan so'ng keluvchi qism.

Hajviy g'azal - hayotda uchraydigan kamchilik va qusurlarni kulgu vositasi bilan tanqid qilish usulida yozilgan shye'rlardir.

Hazaj – Aruz tizimidagi bahrlardan birining nomi. **Hazaj** bahri **mafo'iylun** ruknining takrorlanishidan hosil bo'ladi. Bu bahrning ikki shakli dostonchilikda qo'llanadi

I. Hazaji musaddasi mahzuf (maqsur) (Mafo'iylun mafo'iylun fa`uvlun (mafo'iyl)). Nizomiyning "Xusrav va Shirin" dostoni tufayli shuhrat qozongan bu vazn "Xamsa"lardagi ikkinchi dostonlarga xos bo'lib, unda ishqiy-sarguzasht

syujetlar bayon etiladi. Amir Xusrav Dehlaviyning "Shirin va Xusrav", Jomiyning "Yusuf va Zulayho", Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonlari ham shu vaznda yozilgan. Mazkur vazn turkiy adabiyotda keng iste`molda bo'lgan. Jumladan, Xorazmiy "Muhabbatnoma"si va uning naziralari, Sayfi Saroyining "Suhayl va Guldursun", Haydar Xorazmiyning "Gul va Navro'z" dostonlari shu vaznda yozilgan.

II. Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf (maqsur) (Maf`uvlu mafo`ilun fa`uvlun (mafo`iyl)). Xamsalarning uchinchi dostonlari shu vaznda bo'lib, ko'proq ishq iztiroblari, dard va mahzun ohanglarni ifodalashga mo'ljallangan. Nizomiy, Amir Xusrav, Jomiy va Alisher Navoiyning Layli va Majnun haqidagi dostonlari, Hoju Kirmoniyning "Gavharnoma"si shu vaznda yozilgan.

Hashv (hashvayn) - Aruz vaznida baytdagi ruknlarning maxsus nomi. Birinchi va ikkinchi misralarning o'rtadagi ruknlari.

**Husni ta`lil** - (arabcha chiroyli dalillash). Tasvir etilayotgan hodisaga aslida unga bog'liq bo'lmagan biror go`zal sabab ko`rsatish. Shu bilan fikrni kuchaytirish, bo`rttirish.

Ibtido – (arabcha – boshlanish). Aruz vaznida baytdagi ruknlardan birining maxsus nomi. Ikkinchi misraning birinchi rukni.

Intoq - (arabcha nitqlantirish, gapirtirish) *Tashxis*ning bir turi bo'lib unda insongagina xos bo'lgan jihatlardan bittasi ya'ni nutqga ega bo'lish hodisasi aslida bunday xislatga ega bolmagan jonli va jonsiz predmetlarga ko'chiriladi.

Janr - (fransuzcha renhre – xil) atamasi o'rniga Sharq shye'rshunosligida "shye'r navi" istilohi ishlatilib kyelingan. Adabiy turlar muayyan janrlardan tashkil topadi. Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarida o'sha davr adabiy tajribasida kyeng qo'llanilgan tur va janrlar xususida juda muhim ma'lumotlar kyeltiriladi. Byesh qismdan iborat bu asarning birinchi qismida shye'riyatning o'n turi, navi borligi qayd etilgan

Juzv - Arab tilida qism ma`nosini bildirib, jonsiz predmetlarga nisbatan qo'llanadi. Aruz she'riy tizimida arab alifbosidagi harakatli (fatha, kasra, zamma) yoki sokin harflarning birga qo'llanishidan hosil bo'ladigan *ruknninning* kichik bo'lagi. Juzvlar uch xil: *sabab*, *vata*d va *fosila*.

Ko'g - shye'r, maqom, kuy, ashula vazni (DLT)

Laff va nashr – (arabcha laff – yig'ish, nashr – yoyish). She'riy san'atlardan biri. XV asr adabiyotshunosi Atoulloh Husayniy uni shunday tushuntiradi: Laffu nashr andin iboratdurkim, bir nechani zikr qilur, andin so`ng ul bir nechaga aloqador bir necha nimani bu nimalarning har biri ul bir nechaning qaysi birig'a taalluqlug' erkonin aniq bilmay zikr qilurlar".

Lafziy san'atlar - so`zlarning shakliy xususiyatlari ya'ni ularning tarkibidagi tovushlar va harflar bilan bog'liq hodisalar asosida yuzaga keladigan

she'riy san'atlarning umumiy nomi. Jumladan, tarse`, tajnis, saj`, musajja`, zulqofiyatayn, takrir (mukarrar), qaytarish (radd) ishtiyoq, mulamma`, muvashshah, kitobat (harf san`ati) kabilar lafziy san'atlar sirasiga kiradi.

Lirika - Qadimgi Yunonistonda "lira" dyeb ataluvchi torli musiqa asbobi nomidan kyelib chiqqan bo'lib, lira jo'rligida kuylash ma'nosini anglatadi. Aristotyelning fikricha, bu atama miloddan avvalgi ibtidoiy jamoa davrida myehnat quroli, ayollardagi qo'l va quloq taqinchoqlari harakati natijasida paydo bo'lgan ritmik ohanglar mahsulidir.

Madh - Qasida janrining asosiy qismiga nisbatan qo'llanuvchi termin.

Marsiya – arabcha soz bolib, yiglamov, aza tutmoq, qayg'urmoq ma'nolarini bildiradi. Adabiy atama sifatida vafot etgan biror shaxs sifatlarini ta'riflovchi, uni maqtovchi, unga bo'lgan shoir munosabatlarini ifodalovchi, lirik qahramonning qayg'u-hasratlarini tasvirllovchi asar. O'zbek adabiyotidagi ilk namunasi "DLT" asaridagi "Alp Er To'nga marsiyasi" she'ridir.

Masal – arabcha so'z bo'lib, o'rnak, namuna. Ma'nolarini bildiradi. Adabiy istilohda majoziy obrazlar asosida insonga xos xususiyatlarni ochib beruvchi, qissadan hissa chiqarib mohiyatiga ega didaktik asardi. Masal she'riy yoki nasriy shaklda yoziladi.

Masnaviy – (arabcha "ikki" sanoq sonini bildiruvchi "isnani" so'zidan yasalgan bo'lib ikkilik ma'nosini ifodalaydi). Sharq mumtoz she'riyatida har juft misra o'zaro butunlikni hosil qiluvchi, ya'ni qofiyalanuvchi she'riy shakl. O'rta asrlarda yirik hajmli dostonlarga nisbatan ham, ikkilik shaklida yozilgan kichikroq hajmdagi she'rlarga nisbatan ham masnaviy atamasi qo'llangan. Hozirgi adabiyotshunoslikda bu atama janr va she'riy shakl ma'nosida qo'llanadi.

Maxlas band - taxallusli band hisoblanadi. Musammatlarning birinchi band ibtido band, so'ngi band – maxlas yoki muhr dyeb yuritiladi.

Ma'naviy san'atlar - so'z, jumla, misra, bayt yoxud undan kattaroq birliklarning ma'no qirralari, mazmuniga xos hodisalardan ustalik bilan foydalanish, shu yo'l bilan badiiylik, go'zallik yaratish natijasida hosil bo'ladigan she'riy san'atlarning umumiy nomi.. Tashbeh, istiora, kinoya, mubolag'a, tablig', ig'roq, g'uluv, sifatlash, tazod, iyhom, tafsir, laffu nashr, ta'did, ruju`, tashxis, talmeh, irsoli masal, tazmin, husni matla`, ta'rix, muammo, tajohilul orif, husni ta'lil kabilar ma'naviy san'atlar sirasiga kiradi.

Muammo – arabcha so'z bo'lib, yashirilgan, berkitilgan ma'nolarini anglatadi. Adabiy termin sifatida bir so'z, ko'pincha ism yashirinib berilgan kichik lirik janr. Muammo, odatda, bir, ba'zan ikki baytdan tashkil topadi. U *a-a* yoki *a-a*, *b-b* shaklida qofiyalanadi.

Muashshar - mashru' (arabcha - o'nlik) har bandi o'n misralik kam uchraydigan musammat shakli. Qofiyalanishi: *a-a-a-a-a-a-a-a-a-a*, *b-b-b-b-b-b-b-b*

b-b-a, d-d-d-d-d-d-d-d-a yoki a-a-a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-b-b-a-a, d-d-d-d-d-d-d-d-a-a Fors-tojik adabiyotshunoslari uni “musammati muashshar-mashro’x” istilohi bilan nomlaydi.

Munozara – arabcha tortishuv, fikr olishuv ma’nolarini bildiradi. Adabiy termin sifatida fors-tojik va o’zbek she’riyatidagi ma’lum janr nomi. Munozarada turli narsa, voqea, hodisa, tushuncha, holat va boshqalar tortishuvga kirishadi. Obrazlar ko’pincha ramziy xarakterli bo’ladi.

Muzdaviy musammat - bandlaridagi oxirgi misralar birinchi banddagi bilan qofiyadosh bo’ladi. Bu musammatning oddiy shakli hisoblanadi.

Murabba’ - (arabcha - to’rtlik) eng qadimiy shye’riy janrlardan bo’lib, har bandi to’rt misradan iborat shye’r shakli. Uning shakllanishi melodiylar boshlariga borib bog’lanadi. Qofiyalanishi: *a-a-a-a, b-b-b-a, d-d-d-a* va h.

Musabba’ - (arabcha - yettilik) har bandi yetti misradan iborat shye’r shakli bo’lib, u musammatning kam uchraydigan turidir. Qofiyalanishi: *a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-a, d-d-d-d-d-d-a yoki a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-a-a, d-d-d-d-d-a-a* va h.

Musaddas - (arabcha - oltilik) har bandi olti misra bo’lgan aruzning turli bahr va vaznlarida, turli mavzularda yoziluvchi musammat shakli. Qofiyalanishi: *a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-a, d-d-d-d-d-a yoki a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-a-a, d-d-d-d-a-a* va h. Musaddas namunalari o’zbek adabiyotida XV asrning birinchi yarmida, so’ngroq Navoiy va Boyqarolar adabiy muhitida yaratildi.

Musallas - (arabcha - uchlik) har bandi uch misradan iborat bo’lib, musammatning kam uchraydigan turi. Qofiyalanishi: *a-a-b, d-d-b, f-f-b yoki a-a-a, b-b-b-b, d-d-d* va h. Shye’rning bu shakli G’arbda tyersina (ital.) dyeb ataladi.

Musalsal g’azal - tarkibidagi lirik voqea, manzara, fikr va kyechinma satrlar silsilasida darajama-daraja rivojlanish xususiyatiga ega bo’lgan g’azaldir. Mumtoz shye’riyatdagi tadrij usulining butun g’azal davomida faol qo’llanishi musalsal (silisilali) g’azalning xususiyatlaridandir. Navoiyning “Yordin ayru ko’ngul mulkyedurur sultoni yo’q”, “Jong’a chun dyerman: “Nye erdi o’lmakim kayfiyati?” misralari bilan boshlanuvchi asarlari musalsal g’azallardir.

Musamman - (arabcha - sakkizlik) har bandi sakkiz misradan iborat musammat shye’r shakli. Qofiyalanishi: *a-a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-b-a, d-d-d-d-d-d-d-d-a yoki a-a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-a-a, d-d-d-d-d-d-a-a* va h.

Musammat - arabcha “tasmit” so’zidan olingan bo’lib, ipga tizilgan marvarid dyegan ma’noni bildiradi. Musammat va uning shakliy elyemyentlari islomgacha bo’lgan shye’riyatda ham uchraydi. Uning janr sifatida shakllanishi, adabiy ijodda ko’proq qo’llanila boshlashi XI asrga to’g’ri kyeladi. Musammat haqida Rashidi Votvot, Qays Roziy, Vohid Tabriziy, Qabul Muhammad, Atoullloh Husayniy asarlarida ma’lumotlar bor.

Mustaqil musammat - barcha misralar bir muallif qalamiga mansub musammat. Bunday musammat “tab’i xud” (o’z tab’i) dyeb yuritiladi. Bunday shye’rlar musammatning uchlikdan o’nlikkacha shakliy turi asosida yaratiladi.

Mustazod - arabcha «zoid», “zodi” so’zlaridan yasalgan bo’lib, orttirilgan ma’nosini bildiradi. Bir misrasi g’azalning bir yarim misrasiga teng bo’lib, yagona vazngda yoziladigan she’riy janr. Uning to’liq misralari **hazaji musammani sadru ibtido axrab, hashvayn makfuf, aruz va zarb mahzuf** yoki **maqsur** vaznida, orttirilgan misralari esa **hazaji murabbai sadru ibtido axrab, aruz va zarb mahzuf** yoki **maqsur** vaznida yoziladi. Boshqacha qilib aytganda, misradagi **sadr** va **ibtido, aruz** va **zarb** orttiriladi.

Mutakorir musammat - birinchi banddagi so’nggi misra yoki bayt har band oxirida naqorat bo’lib takrorlanib boradigan she’r shakli. Bu holat musammatning barcha xillarida uchraydi. Takrorlanadigan misra yoki misralar “mukarrar”, “takror”, “tarjye”, “qoplama misra” (V.Rahmonov), hozirgi zamon adabiyotshunosligida “ryefryen” atamasi bilan yuritiladi.

Mutassa’ - tasnye’ (to’qqizlik) har bandi to’qqiz misrali juda kam uchraydigan shye’r shakli. Qofiyalanishi: *a-a-a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-b-b-a, d-d-d-d-d-d-d-d-a* yoki *a-a-a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-b-b-a, d-d-d-d-d-d-d-d-a*

Mutaqorib - Aruz tizimidagi bahrlardan birining nomi. **Mutaqorib** bahri **fa’uvlun** ruknining takrorlanishidan hosil bo’ladi. Bu bahrning **Mutaqoribi musammani mahzuf (maqsur)** (Fa’uvlun fa’uvlun fa’uvlun fa’ul (fa’uvl)) shakli dostonchilikda qo’llanadi. Bu vazn Firdavsiyning "Shohnoma" asari tufayli mashhur bo’lib, keyinchalik, Nizomiyning "Iskandarnoma" dostonidan boshlab "Xamsa"lardagi beshinchi doston vazni maqomiga ega bo’ldi. Amir Xusravning "Oinai Iskandariy", Jomiyning "Xiradnomai Iskandariy", Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonlari ham shu vaznda yaratilgan. Mazkur vazn jangnoma dostonlarga xos deb qaraladi. Biroq didaktik ruhdagi qator asarlar ham shu vaznda yaratilgan. Xususan, turkiy adabiyotdagi ilk dostonlar - "Qutadg’u bilig" (Yusuf Xos Hojib) va "Hibat ul-haqoyiq" (Ahmad Yugnakiy), Sa’diyning mashhur asari "Bo'ston" shular jumlasidan.

Muxammas - (arabcha - byeshlik) har bir bandi byesh misradan iborat bo’lib, musammatning eng ko’p tarqalgan turi. Qofiyalanishi: *a-a-a-a-a, b-b-b-b-a, d-d-d-d-a* va h. O’zbyek mumtoz adabiyotida muxammasning dastlabki namunalari XV asrning birinchi yarmi shoirlari ijodida uchraydi.

Nasib – qasidaning kirish qismi.

Nazira - arabcha so’z bo’lib, lug’aviy ma’nosi o’xshash, tyeng, misl dyemakdir. Adabiy istilohda esa, bir shoirning ikkinchi bir shoir asariga javob aytishi, avvalgi asar shakliga o’xshash asar yaratishidir. Biroq nazirada muallif o’z

nazirasiga asos qilib olgan asarning g'oyaviy mazmuni orqasidan butunlay ergashuvi shart emas.

Noma – arabcha xat. Adabiy termin sifatida maktub tarzida yozilgan badiiy asar. Turkiyidagi ilk noma Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asari hisoblanadi (1353).

Orifona g'azallar - yetakchi mavzusi tasavvufiy-falsafiy g'azallardir. Orifona g'azallarning mazmuni vujud butunligi (Tangri) bo'lib, tasavvufning ma'naviy tayanchini tashkil etadi. Vahdati vujud (yoki vujud vahdati) butun g'azaliyotga tafsilot, suratlar, dyetallar baxsh etadi.

Otkunch – hikoya (DLT)

Oshiqona g'azallar-g'azalning mavzu jihatdan eng ko'p tarqalgan turi bo'lib, uning katta qismi uchun yor va uning jamoli tasviri, uning jafokorligi, haqiqiy oshiqqa shafqatsizligi, olijanob, yuksak muhabbatga munosib bo'lmagan raqibga myehribonligi, unga muhabbat qo'yganligi, chin oshiqning alam va rashkdan yonishi tavsir etilgan. Oshiqona g'azallarda odatda uch an'anaviy obraz (oshiq, ma'shuqa, raqib) kuzatiladi.

Paradigma – (yunoncha - shartli belgilar). Aruzda hijoning vazni, o'lchovi, ya'ni qisqa, cho'ziq yoki o'ta cho'ziq ekanligini ko'rsatuvchi shartli belgilar.

Parokanda g'azal - har bir bayt o'zicha mustaqil, tugallangan bir mazmunga ega g'azal bo'lib, unda umumiy badiiy mazmun parokanda – tarqoq bo'ladi. Bunday g'azaldagi baytlar bir ipga tizilgan qimmatbaho har xil gavharlarga o'xshaydi. Ammo har bir bayt tashqi ko'rinishidan mustaqildiyek ko'rinsa-da, ular orasidagi g'oyaviy-badiiy birlik bilinib turadi.

Pyeyzaj g'azallar - tabiat, byepayon qir-adarlar, dala-bog'lar, yulduz to'la osmon, qorli tog'lar, buloq va daryolar, yashil vodiylar tasviri va unga lirik qahramonning otashin muhabbati o'z ifodasini topadigan g'azallar.

Publitsistik g'azallar - shu mazmundagi shye'rlar kabi eng jangovar, eng ta'sirchan poeziya turidir. U o'zining otashinligi, hozirjavobligi bilan ajralib turadi.

Qasida – arabcha “qasd” co'zidan olingan, niyat, intilish ma'nosini beradi. Adabiy termin sifatida lirik tur janrlaridan biri. Qasida muhim tarixiy voqealar va mashhur tarixiy shaxslar haqida tantanali uslubda yozilgan asardir. Mumtoz adabiyotda tabiat lavhalari, cholg'u asboblari va boshqalarga bag'ishlab ham qasidalar yozilgan.

Qasd – Qasida janrinig so'nggi xulosaviy qismi.

Qit'a – arabcha so'z bolib, qism, parcha ma'nolarini anglatadi. Qit'a ikki yoki undan ortiq baytlardan iborat bo'lib, matlasiz g'azaldek (*b-a, d-a, f-a, h-a* va *h.*) qofiyalanadi. Ba'zan masnaviy tarzida (*a-a, b-b, d-d, h-h* va *h.*) qofiyalanishi ham mumkin. Qit'alar asosan ijtimoiy, didaktik maznunda bo'ladi. Qit'aning ko'pligi muqattaot deb yuritiladi.

Qoshug' - shye'r, qasida, qo'shiq (DLT)

Rajaz - Aruz tizimidagi bahrlardan birining nomi. **Rajaz** bahri **mustafilun** ruknining takrorlanishidan hosil bo'ladi. Mazkur bahr asosan she'riyatda qo'llanadi. O'rta asrlarda ilmiy she'rlar shu bahrda yozilganligi uchun "urjuza" deb nomlangan.

Ramal - Aruz tizimidagi bahrlardan birining nomi. **Ramal** bahri **fo'ilotun** ruknining takrorlanishidan hosil bo'ladi. Bu bahrning ikki shakli dostonchilikda qo'llanadi:

I. Ramali musaddasi mahzuf (maqsur) (Fo'ilotun fo'ilotun fo'ilun (fo'ilon)). Bu vazn ko'proq tasavvufiy dostonlarda qo'llanadi. Uning shuhrat qozonishi Fariduddin Attorning "Mantiq ut-tayr" hamda Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy" dostonlari bilan bog'liq. Alisher Navoiy "Lison-ut tayr" dostonini mazkur vaznda yaratgan. Jomiy esa bu vaznni "Salomon va Absol" dostonida qo'llagan.

II. Ramali musaddasi maxbuni abtar (Fo'ilotun fa'ilotun fa'lan (fa'lon, fa'ilun, fa'ilon)). Boburning qayd etishicha bu vazn "**g'oyat latif**" bo'lsa-da, masnaviylarda ko'p qo'llanmaydi. Xusrav Dehlaviyning "No'h spehr" asaridagi bir fasl (spehr) hamda Jomiyning "Sabhat ul-abror" dostoni shu vaznda yozilgan.

Rindona g'azal - mazmunini hayotga muhabbat, shodlik va baxt-saodatga, quvnoqlikka intilish, zulm va zo'rlikka qarshi norozilik, shayx va zohidlarni fosh qilish, isyonkorlik tashkil etadigan g'azal. Rindona g'azallar **qalandarona g'azallar** ham dyeb yuritiladi.

Ruboiy - She'riy janr nomi. Arabcha (رباعى) so'z bo'lib, to'rtlik dyegan ma'noni anglatadi. Forsiylar uni "dubaytiy" dyeb ham ataydilar. Tort misradan iborat bo'lgan mustaqil she'r. Aruz tizimining hazaj bahriga tegishli bo'lgan 24 xil vaznda yoziladi. Bu vaznlar qaysi rukn bilan boshlanishiga ko'ra shartli ravishda axram (maf'uvlun, - - -) va axrab (maf'uvlu - - V) shajaralariga bo'linadi. Har bir *shajarada* 12 tadan vazn mavjud bo'lib, ularda mafo'iylun aslining solimi hamda quyidagi zihof va furu'lari ishtirok etadi: maf'uvlu – axrab; maf'uvlun – axram; mafo'ilun – maqbuz; mafo'iylu – makfuf; fo'ilun – ashtar; fa' - axrami majbub; fo' - azall; fa'ul – majbub; fa'uvl – axtam. Ruboiy qofiyalanishiga ko'ra xosa va *tarona* kabi turlarga bo'linadi. Ruboiy asosan falsafiy, ba'zan ishqiy va didaktik mavzularda yoziladi. Uning birinchi misrasi **tyezis** bo'lib, unda shoir mazkur ruboiyda aytmoqchi bo'lgan fikrini o'rta tashlaydi. Ikkinchi misrasi **antityezis**. Bunda birinchi misraga qarama-qarshi fikr aytiladi. Uchinchi misra **moddayi ruboiya** dyeb ataladi. Bu misra shoirning to'rtinchi misrada aytmoqchi bo'lgan xulosasi uchun ko'prik vazifasini o'taydi. Ruboiyning to'rtinchi misrasi **sintyez** hisoblanib, bunda shoir avvalgi uch misradan g'oyaviy xulosa chiqaradi. Ruboiy ko'proq falsafiy, ijtimoiy, axloqiy, shuningdek, ishqiy mavzularda yoziladi.

Rukn – (arabcha – ustun). Aruzda *juzv*larning qoʻshilishidan hosil boʻluvchi baytning ritmik boʻlaklari. Ruknlar baytda toʻrtta (murabbaʼ), oltita (musaddas) va sakkizta (musamman) boʻlishi mumkin.

Sabab – (arabcha qoziq) Aruzda eng kichik *juzv*ning nomi. Sabab - ikki harfli *juzv*. Sabab ikki xil boʻladi:

1. Sababi xafif (yengil sabab) - bir harakatli va bir sokin harfdan iborat.
2. Sababi saqiyl (ogʻir sabab) - ikki harakatli harfdan iborat.

Sadr – (arabcha – rais). Aruz vaznida baytdagi ruknlardan birining maxsus nomi. Birinchi misraning birinchi rukni.

Sandrush – munozara (DLT, “Qish va yoz” munozarasi),

Sanʼat – (arabcha sunʼ (صنع) oʻzagidan, yaratmoq degan maʼnoni ifodalaydi). “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lugʼati”da hunar, kasb, ustalik, mohirlik maʼnolarida sharhlangan "Sanʼat" soʻzi Navoiy asarlarida, shuningdek, sanʼatgar, sanʼatgariy, sanʼatnamoy, sanʼatoyin, sanʼatsoz, sanʼatfosh kabi lugʼaviy va grammatik shakllarda ham qoʻllangan. "Farhangi zaboni tojik" kitobida "sanʼat" soʻzining quyidagi maʼnolari ham sharhlangan:

- takalluf dar suxan, suxanoroyi, hunarnamoyi dar nazmu nasr.

Mazmuni: soʻzda lutf (goʻzallik, nozik maʼno) yaratish, nasr va nazmda soʻzni mahorat bilan qoʻllash, hunar koʻrsatish.

"Sanʼat" soʻzi zamonaviy adabiyotshunoslik atamasi sifatida "...voqelikni obrazlar va yorqin manzaralar orqali badiiy ifodalashdan iborat" hodisani ifodalaydi.

Sariʼ - Aruz tizimidagi bahrlardan birining nomi. **Sariʼ** bahri Mustafʼilun Mustafʼilun Mafʼuvlotu ruknlarining takrorlanishidan hosil boʻladi. Bu bahrning **Sariʼi musaddasi matviyi makshuf** (Muftaʼilun muftaʼilun foʼilun) shakli dostonchilikda qoʻllanadi. Nizomiyning "Maxzan ul-asror" dostoni tufayli bu bahr xamsanavislikdagi dastlabki doston vazni sifatida qatʼiy maqomga ega boʻldi. "Matlaʼ ul-anvor" (Amir Xusrav), "Tuhfat ul-Ahror" (Jomiy) va "Hayrat ul-abror" (Navoiy) dostonlari ham shu vaznda. Turkiy adabiyotda yaratilgan mashhur dostonlardan Mavlono Haydar Xorazmiyning "Maxzan ul-asror" hamda Durbekning "Yusuf va Zulayho"si shu bahrda yaratilgan. Mazkur vazn falsafiy-didaktik mavzularni ifodalash uchun qulay deb hisoblanadi.

Segona ilm ("uchlik ilm") – Qadimda filologiyaga oid ilmlar uchligi. Bular "Ilmi aruz" (aruz vazni qonuniyatlari va shakllari haqidagi ilm), "ilmi qofiya" (qofiya va uning turlari, qofiya tarkibi haqidagi ilm) hamda "ilmi badeʼ" (sheʼriy sanʼatlar haqidagi ilm).

Soqiynoma – Sharq sheʼriyatidagi janrlardan biri. Soqiynoma ham tarjeʼband, tarkibband singari bir necha bandlardan tashkil topadi. Har bir band

masnaviy kabi qofiyalanadi. Soqiynoma aksar soqiyga murojaat bilan boshlanuvchi falsafiy mazmundagi she'r.

Sov - qissa, hikoya, risola, so'z, otalar so'zi, payg'ambar ("DLT")

Tanosub - She'riy san'atlardan biri. Baytda, umuman, she'riy bandlarda ma'no jihatidan bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni qo'llash orqali hosil qilinadi. Masalan, "bulbul" so'zi gul, bog', chaman, navo so'zlari bilan; "Ka'ba" esa haj, farz, Tengri, ziyorat so'zlari bilan mazmuniy bog'lanib, yaxlit tushuncha, tugal ifoda va jonli lavha yaratadi.

Taqte' - (arabcha – "qata'a" fe'lidan yasalgan bo'lib, bo'lmoq, parchalamoq degan ma'noni ifodalaydi) Aruz istilohlaridan biri sifatida baytni ritmik bo'laklar-ruknlarga ajratish qonuniyatlarini ifodalovchi yoxud o'rgatuvchi fasl.

Tarje'band – arabcha so'z bo'lib, lug'aviy ma'nosi qaytish, ilgarigi narsani takrorlash. Tarje'band har bir bandning oxirida bir xil baytning takrorlanish usulidan foydalanib yaratilgan asar. Har band oxirida birinchi band maqta'i takrorlanib keladi. Mazkur maqta misralari o'zaro qofiyalangan bo'ladi.

Tarkibband – arabcha so'z bo'lib, biriktirish, bir qancha narsani biriktirib bir narsa hosil qilish ma'nosini anglatadi. Tarkibbanddagi bandlar soni turlicha bo'lib, har banddagi misralar g'azal shaklida qofiyalanadi. Bandning maqta'I o'zaro qofiyalangan bo'ladi. Bu qofiya bandlardagi asosiy qofiyalardan farq qiladi. Bandlarning har qaysisi har xil vaznda bo'lishi mumkin.

Ta'rix – arabcha so'z bo'lib, sodir bo'lgan biror voqeani anglatadi. Sharqda ana shu voqeaning sanasini sh'erda harflar vositasida berish usuli ta'rix deyiladi. Ta'rix maxsus janr sifatida mustaqil asar ham bo'ladi, boshqa asar tarkibiga ham kiritilishi mumkin.

Tatabbu' - arabcha so'z bo'lib, bir narsaning izidan tushish, izlash, tyekshirish, ergashish ma'nolarini bildiradi. Tatabbu' g'azalda bir shoir tomonidan badiiy qolipga solingan bir mazmun boshqa shoir tomonidan davom ettiriladi, unga ergashib, uni yangi shaklga, yangi ifoda qolipiga solinadi. Natijada bir mazmun turli badiiy shaklga tushadi, turli variantdagi shye'riy asarlar vujudga kyeladi.

Tazmin - arabcha so'z bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi bir nimani ikkinchi bir nima orsiga qo'ymoqdir. Adabiy istiloh sifatida g'azal yoki musammat shye'rlarda bir shoirning ikkinchi bir shoir shye'ridan parcha olib, uning izidan borib shye'r yaratishidir.

Tashbeh (o'xshatish) – Adabiyotda keng ho'llanadigan she'riy san'atlardan biri. T.da narsa, belgi va harakat kabilar boshqasiga o'xshatish, qiyoslash orqali tasvirlanadi. Tashbehning yuzaga kelishida to'rt unsur ishtirok etishi mumkin:

1. Mushabbih ya'ni o'xshamish - tasvirda fikr qaratilgan narsa yoki tushuncha.

2. Mushabbihun bih ya'ni o'xshatilmish - tasvirda qiyoslanayotgan narsa yoki tushuncha.

3. Vajhi shaboh ya'ni o'xshatish asosi - o'xshatishning qanday belgi yoki xususiyatga ko'ra chiqqanligi.

4. Odoti tashbeh ya'ni o'xshatish vosita - o'xshatilishning lug'aviy yoki grammatik belgisi.

Tashxis – (arabcha "shaxs" o'zagidan, "shaxslantirish" degan ma'noni anglatadi) Mumtoz she'riyatimizda keng qo'llangan badiiy tasvir vositalaridan biri. T. insongagina xos bo'lgan jismoniy va ruhiy holatlarni (o'ylash, fikrlash, gapirish, quvonosh yoxud iztirob chekish, xastalanish, jarohatlanish, musobaqalashish, sevish, rashk qilish vahokazo) tabiat unsurlari, jonzotlar, borliqdagi narsa-buyumlar hamda hodisalarga ko'chirish san'ati.

Turkiy (turkona) – G'azalchilikdagi uslublardan biri. Navoiyning "Mezon ul-avzon"ida **ramali musammani mahzuf (maqsur)** vaznida yozilgan g'azallar shunday atalgan. Asosan mazmunga e'tibor beriladigan, soda, xalqona uslubda yoziladigan g'azallar.

Tuyuq – Turkiy she'riyatga xos bo'lgan janr nomi. Aruzning ramali musaddasi maqsur (mahzuf) yoki foilotun, foilotun, foilon (foilon) vaznida yoziladigan to'rt misrali she'riy janr. Odatda tuyuqlarda qofiya o'rnida *tajnis* (omonim) so'zlar qo'llanadi. Navoiy va Boburning fikriga ko'ra tajnis qo'llanishi, qo'llanmasligi yoki ularning soni tuyuqning alohida turlarini tashkil etadi. Tuyuq asosan ishqiy mavzularda yoziladi. Tuyuq so'zi adabiy tyermin sifatida XIV asr oxiri va XV asr boshlarida ishlatila boshlangan. Tuyuqning dastlabki kitobiy namunalari sivaslik hukmdor va shoir Burhoniddin Ahmad (XIV asr) ijodi bilan turkiy poeziyada taraqqiy eta boshlagan.

Vatad - (arabcha ustunlarni bog'laydigan arqon) Aruzda *juzv*ning nomi. Uch harfli juzv. Vatad ikki xil bo'ladi:

1. Vatadi majmu' (jamlangan vatad) - ikki harakatli va bir sokin harfdan iborat.

2. Vatadi mafruq (ajratilgan vatad) - bir harakatli, bir sokin va yana bir harakatli harfdan iborat.

Voqyeaband g'azal - lirik qahramon kyechinmalari bilan bog'liq voqyea-hodisalar ixcham shaklda, lirik manzarada ifodalanadigan g'azal. Bunday g'azallarni kichik bir lirik lavha dyeb bilmoq lozim. Yakpora g'azallar zimnida vujudga kyelgan voqyeaband g'azallar Lutfiy ijodidan boshlanib, Navoiy ijodida kamol topdi

Xafif - Aruz tizimidagi bahrlardan birining nomi. **Xafif** bahri Fo'ilotun Mafo'iylun Foilotun ruknlarining takrorlanishidan hosil bo'ladi. Bu bahrning **Xafifi musaddasi maxbuni abtar** (Fo'ilotun mafo'ilun fa'lan) shakli dostonchilikda qo'llanadi. Bu vaznda yozilgan ilk masnaviylardan biri mashhur

so'fiy shoir Sanoiyning "Hadiqat ul-haqoyiq" dostonidir. Falsafiy-tasavvufiy pandnoma ruhidagi bu doston Nizomiyning "Maxzan ul-asror" dostoniga ilhom bag'ishlagan deb aytiladi. Biroq bu vaznda Nizomiy o'zining to'rtinchi dostoni "Haft paykar"ni yaratdi. Shundan boshlab, Bahrom haqidagi ishqiy-sarguzasht dostonlar shu vaznda yoziladigan bo'ldi. Xususan, "Hasht bihisht" (Amir Xusrav), "Sab'ayi sayyor" (Navoiy), "Haft avrang" (Ashraf) vahokazo. Abdurahmon Jomiy esa Sanoiy izidan borib, bu vaznda yana bir falsafiy-didaktik dostoni "Silsilat uz-zahab"ni yaratdi.

Yakpora g'azal - har baytning mazmuni o'zidan oldingi yoki kyeyingi baytlarga izchil bog'langan g'azaldir. Bunday g'azalning mazmuni matlada ko'tarilgan bir mavzuni izchil yoritish jarayonida vujudga kyeladi. Razg'uziyning "Kun hamalga kirdi ersa, kyeldi olam navruzi", Navoiyning "Qaro ko'zum, kyelu mardumlig' emdi fan qilg'il", "Kyecha kyelgumdur dyebon ul sarvi gulro' kyelmadi", "kabi g'azallari kompozitsiyasiga ko'ra yakporadir.

Yir - g'azal, kuy, maqom (DLT)

Zarb (ajuz) – Aruz vaznda baytdagi ruknlardan birining maxsus nomi. Ikkinchi misraning oxirgi rukni.

Zihof va furu'lar – Aruz she'riy tizimida asl ruknlarning turli tarzda o'zgarishi (zihof) hamda o'zgarish natijasida hosil bo'lgan yangi ruknlar (furu').

O'tluk - o'git va nasihat, ma'viza (DLT)

G'azal - (غزل) arabcha so'z bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi xotin kishiga xushomad qilmoq, oshiqona munosabatda bo'lmoqdir. Adabiy tyermin sifatida ishq-muhabbat kuylangan lirik shye'rga nisbatan qo'llanadi. «G'azal» so'zi xalq orasida, umuman, shye'r, shye'riyat va qo'shiq ma'nosida ham qo'llangan.

G'azali husni matla' - G'azalning ikki bayti qofiyadosh bo'ladi, matla' qo'sh kyelsa zyebi matla' (matlaning yarashig'i, zyebi), husni matla', husni ibtido dyeyiladi va quyidagicha qofiylanadi: *a-a, a-a, b-a, d-a, f-a* va *h*. Bunday g'azallarning dastlabki namunalari Navoiy ijodida kuzatiladi.

G'azali qit'a - shakliy jihatdan qit'aga o'xshab kyetadi. Bunday g'azalning matlasi qit'adagidyek o'zaro qofiylanmagan bo'ladi. Qofiylanishi: *b-a, d-a, f-a, h-a* va *h*.

G'azali musajja' - (sajli g'azal) asosiy qofiyadan tashqari, ichki qofiyaga ega bo'lgan g'azaldir. Bunday g'azallarning shoirlar kamolot bosqichida yaratganlar.

G'azali mulamma' - ikki yoki undan ortiq tilda yozilgan g'azaldir. Mulamma' arabcha (مطلع) so'z bo'lib, turli rangga bo'yalgan ma'nosini byeradi. Ba'zi adabiyotshunoslar mulamma'ni "shiru shakar", agar uch tilda bo'lsa "shahdu shiru shakar" dyeb ataydilar.

G'azali muvashshah - bayt yoki misralaridagi birinchi harflar olib tizilsa, ularning birikmasidan ma'lum bir ism yoki so'z hosil bo'ladigan g'azal. Bu usul g'azal, murabba', muxammas va boshqa janrdagi shye'rlarda qo'llanishi mumkin.

G'azali mushoira - ikki yoki undan ortiq ijodkorning birgalikda yozgan g'azalidir. Mushoira arabcha shoirning o'zaro shye'riy suhbaty dyemakdir.

G'azali zulqofiyatayn - baytlarida boshdan oyoq ikkitadan qofiya uchraydigan g'azal. Bunday g'azalning ilk namunasi Alishyer Navoiy ijodida uchraydi:

Ko'zing nye balo qaro bo'luptur,

Kim jong'a qaro balo bo'luptur.

G'azali zyebofiya - g'azalning eng kam uchraydigan turi bo'lib, undagi hamma baytlar xuddi matla' kabi (*a-a, a-a, a-a, a-a, a-a* va h.) qofiyalanadi.

G'azal-chiston - topishmoq mazmunidagi g'azal bo'lib, uning ilk namunasi Huvaydo ijodida ("zulfi ishq") uchraydi.

Chiston - fors-tojikcha "chist" – nima, "on" – u ma'nosini bildiruvchi she'riy topishmoq. U lug'z deb ham ataladi. Chistonda biror predmet yoki hodisaning xarakter va belgilarini ta'rif-tavsif etish orqali o'quvchini o'sha predmet yoki hodisani topishga ishora qiladigan she'rdir.

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
MUMTOZ ADABIYOT TARIXI KAFEDRASI

TANLOV FAN
(“Bobur va boburiylar davri adabiy muhiti”)

FANIDAN O`QUV MATERIALLARI
(MA`RUZALAR MATNI)

1-MAVZU

BOBURIYLAR DAVRI ADABIY MUHITINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Reja:

- davr va adabiy muhitni o'rganish manbalari;
- adabiy muhit: tarkibi, nav'lari, xususiyat va tamoyillari; uslubiy rang-baranglik.

Tayanch so'z-iboralar:

Shayboniylar sulolasi; «Boburnoma», «Badoe' ul-vaqoe'», «Muzakkiri ahhob», «Tazkirat ush-shuaro»; zullisonaynlik; ma'rifiy va dunyoviy-hayotiy tamoyillar; Shayboniy, Bobur, Ubaydiy, Muhammad Soleh, Bayramxon, Komron mirzo; «Shayboniynoma», «Qissai Sayfulmuluk», «Miftohi ul-adl», «Humoyunnoma»; taxayyul va hayotiy uslublar.

XVI asrdagi adabiy jarayon shu davrga qadar mavjud bo'lgan ilmiy-adabiy an'analarni uzluksiz tarzda davom ettirish bilan bir qatorda, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'zgarish va voqealar, adabiy-estetik qarashlardagi ma'lum siljishlar tufayli o'ziga xos xususiyat va tamoyillarni ham ifoda etdi.

Ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'zgarishlarga hukmron sulolalarning almashuvi, o'lkada yaxlitlikdan ko'ra mintaqaviylashuv jarayonining kuchayishi, mintaqalarning o'zida ham markazlashishdan uzoqlashishga intilish kayfiyatining ustunlasha borishini misol sifatida keltirish mumkin. Masalani aniq tasavvur etish uchun quyidagilarga e'tibor berish lozim.

Agar XIV asr oxiri va XV asrning boshlarida Sohibqiron Amir Temurning say'-harakatlari bilan markazlashgan saltanatning maydonga kelganligi kuzatilsa, Sohibqiron Amir Temur vafotlaridan so'ng bu markazlashgan saltanatdan Xuroson va Movarounnahr gina temuriyzodalar ixtiyorida qolgan edi. XV asrning ikkinchi yarmida esa Xuroson va Movarounnahr ham alohida-alohida boshqariladigan bo'ldi: Samarqand markazligidagi Movarounnahrda Sulton Ahmad mirzo hokimiyati; Hirot markazligidagi Xurosonda esa Sulton Husayn Boyqaro hokimiyati.

XVI asrning boshida Movarounnahrda temuriyzodalar saltanati o'rnida Shayboniylar hukmronligi o'rnatilib, u XVI asrning oxirigacha davom etdi. Ammo xuddi shu davrda Movarounnahr ham ikki mintaqaga bo'lindi: biri avvalida Samarqand, keyinchalik Buxoro markazligidagi shayboniylar hukmronligi mintaqasi, ikkinchisi esa Xiva markazligidagi elborslar hukmronligi mintaqasi. Movarounnahrning bunday mintaqalarga bo'linishi o'lkadagi yaxlitlikka ziyon etkazdi, hokimliklar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni yuzaga keltirdi. Bunday holatning mavjudligi Abulg'oziy Bahodurxonning «Shajarai turk» asarida o'z ifodasini topgan. Shuning bilan bir qatorda, har bir mintaqaning o'zida ham ichki

beqarorliklarga sabab bo'ldi. Bunday holning sabablari Muhammadiyor Arab qatag'onning «Musaxxir ul-bilod» asarida yoritilgan.

Shunday bo'lsa-da, shayboniylar qaramog'idagi mintaqada hokimlik qilgan Ubaydulloxon (vaf. 1539 yil) va Abdulloxon II lar (vaf.1598 yil) mintaqada markazlashish, barqarorlikni ta'minlash, ilmiy, madaniy, adabiy kuchlarni birlashtirish sohasida sezilarli hissa qo'shdilar. Bu ishlarni amalga oshirishda ma'naviy hayotda katta mavqega ega bo'lgan Maxdumi A'zam Dahbediy, Jo'ybor xojalari (xoja Islom, xoja Sa'd), shayx Xudoydodi Vali va boshqalar hokimiyatlarga ma'naviy jihatdan ko'maklashdilar.

Ijtimoiy-siyosiy hayotdagi bunday vaziyat o'lkadagi ilmiy hayot va adabiy jarayonning ham mintaqaviy bo'lishiga olib keldi. Shuning natijasida hozirgi kunda shayboniylar hukmronligi mintaqasidagi ilmiy hayot va adabiy jarayon xususiyatlaridan bahs yurituvchi manbalar bizgacha ko'proq etib kelgan. Elborslar hukmronlik qilgan mintaqada ham ilmiy-adabiy muhit davom etgan bo'lsa-da, bu haqda xabar beruvchi manbalar oz. Shunisi ham borki, Shayboniylar hukmronlik qilgan mintaqada poytaxtlari-Samarqand, keyinchalik Buxoroda Xorazmning turli joylaridan kelgan va shu erlarda faoliyat ko'rsatgan olim va shoirlar anchagina. Bunga misol qilib, Shayx Husayn Xorazmiy, Shohzoda Muhammad Rahimiy, Sharafiddin Sharifiy va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Shayboniylarga qarashli mintaqada ilmiy-adabiy hayot, madaniy muhitni shakllantirishda ta'lim tizimi, xususan, madrasalarning o'ziga xos mavqei borligi e'tiborga olinib, shu davrgacha mavjud bo'lgan madrasa va madrasai oliyalar (Samarqandda-Mirzo Ulug'bek madrasai oliyasi, Amir Shohmalik, Bibixonim, Ahmad Hojibek, Xoja Ahror Vali madrasalari; Buxoroda-Mirzo Ulug'bek madrasasi, Toshkentda – Xoja Ahror Vali madrasasi va b.) faoliyatini qo'llab – quvvatlash bilan birga, yangi-yangi madrasa va madrasai oliyalar (jumladan, Samarqandda – Shayboniixon va Mehrubonxonimlarning madrasai oliyasi, Abu Sa'idxon madrasasi; Buxoroda-Miri Arab, Modari xon, Abdulloxon madrasalari; Toshkentda-Ko'kaldosh madrasasi va b.) bino qilindi, ular o'sha zamon talablari nuqtai nazaridan etuk mutaxassislar-mudarrislar bilan ta'minlandi. Madrasalarda naqliy (jumladan, diniy) va aqliy (dunyoviy) bilimlar o'qitilardi. Ana shu ta'lim maskanlarida tarbiya olgan juda ko'p ziyolilar XVI asrdagi ilmiy hayot va adabiy jarayonni shakllantirish va rivojlantirishda o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar. Shuning natijasida ham diniy, ham gumanitar hamda tabiiy fanlar sohasining etuk olimlari, tanilgan tilshunos, adabiyotshunos, tarixshunoslari, shoir va adiblari etishib chiqdilar. Aytilganlarning guvohi sifatida ulardan ayrimlarinigina eslatish mumkin:

- Mavlono Abulxayr o'sha davrda Samarqandda falsafada Arastuga (Aristotelga) monand, tibbiyotda Abu Ali ibn Sinoga yaqin, shoirlikda «Oshiq» taxallusi bilan she'rlar yozgan alloma-shoir sifatida mashhur bo'lgan;
- Hofiz Tanish Buxoriy ham shoir, ham tarixchi sifatida shuhrat qozonib, mashhur «Sharafnomai shohiy» yoki «Abdullonoma» asarini yozgan;
- Mavlono Sulton Muhammad o'z asrining Aristotolisi deb e'tirof etilgan, tabiblik-tibbiyot sohasida mashhur bo'lgan siymolardan biri.

- Mavlono Boqiy Samarqandiy shoir va jarrohlikda ham shuhrat qozongan etuk shaxs.
- Muhammad Husayn al-munajjim Buxoriy astronomiyaning etuk bilimdoni bo'lib, Samarqand - Buxoro va Makka - Madina koordinatlari haqida alohida risola yozib, uni turli chizmalar bilan ta'minlagan alloma.
- Hasanxoja Nisoriy, Sulton Muhammad Noiy Mutribiylar ham shoir hamda adabiyotshunos - tazkiranavis sifatida shuhrat qozonganlar (bular haqida yana so'z boradi).

Bu davrda etishgan ko'pgina san'at ahli, ya'ni musiqa, xattotlik, rassomlik sohasining bilimdonlari va mohir ustalari ham ilmiy-adabiy muhit bilan uzviy bog'liq holda faoliyat ko'rsatardilar. Jumladan, Hasan Kavkabiy, ustod Alishoh, Abdusattor Qonuniy kabi mumtoz musiqa arboblari; Mir Husayn Husayniy, Sulton Mirak Munshiy kabi xattotlar; Mahmud Muzahhib, Rustam naqqosh, Yusuf naqqosh, Muhammad Murod Samarqandiy kabi rassomlar o'zlarining nodir va go'zal asarlari bilan shuhrat qozonganlar, rassomlik, xattotlik va musiqada mahalliy maktablar an'alarini muvaffaqiyat bilan davom ettirganlar.

Eng diqqatga sazovor joyi shundaki, mazkur xattotlar tomonidan ko'chirilib, rassomlar tomonidan go'zal miniatyura va zarvaraqlar bilan ziynatlangan ko'pgina kitoblar shayboniylardan bo'lgan Abdulazizxon (vaf.1550 yil) buyrug'i bilan bino qilingan o'sha vaqtda mashhur bo'lgan kitobxonada saqlangan. Bu kitobxonani shaxsan ko'rgan va undagi kitoblardan bahramand bo'lgan mashhur adib va shoir Hasanxoja Nisoriyning quyidagicha yozganlariga ishonmoq kerak:

«Xonning (Abdulazizxonning) bir kitobxonasi bor edikim, o'sha paytda er yuzida unga o'xshash kitobxona bo'lganmi, yo'qmi, bilmadik. Bu kitobxona kotiblarining podshohsi Amir Ali Husayniy edi... va kitobdori (ya'ni kitobxona boshlig'i) fozilsifat mavlono Sulton Mirak Munshiy edi». (Muzakkiri ahhob, 46-47-betlar)

Yuqorida eslatilgan omillar tufayli mazkur davrda adabiy jarayon ham uzluksiz davom etib, ko'pqirrali adabiy muhitni maydonga keltirgan edi.

Davr adabiy muhiti haqida o'sha vaqtda yozilgan tarix, esdalik va tazkira kabi manbalarda qimmatbaho ma'lumotlar keltirilgan. Ulardan ayrimlari quyidagilardir:

- «Boburnoma». Zahiriddin Muhammad Boburning bu mashhur asarida XVI asrning avvalida faoliyat ko'rsatgan ko'pgina shoir va adiblar, jumladan, Husayniy, Hiloliy, Muhammad Soleh va boshqalar haqida ma'lumotlar bor.
- «Badoe' ul-vaqoe'». Zayniddin Mahmud Vosifiy (tav.1485-Hirot-vaf.1551-Toshkent) qalamiga mansub mazkur esdalik asarida XVI asrning birinchi yarmida Samarqand, Buxoro, Savron, Toshkentda faoliyat ko'rsatgan olim va shoirlar (jumladan, Hoji Tabreziy, Matla'iy, Vosifiy, Ali O'bahiy) haqida qiziqarli ma'lumotlar, ularning asarlaridan ayrim namunalar ham mavjud. Shuning bilan birga, asardan o'tmishning mashhur shoir va olimlari, jumladan, Firdavsiy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Husayniy kabilar haqida turli xildagi rivoyat va hikoyatlar ham o'rin olgan.

- «Muzakkiri ahbob»- do'stlarning zikri. Bu tazkiraning muallifi Hasanxoja Nisoriy Buxoriy (vaf.- 1596-1597 yil) bo'lib, u o'z davrining keng bilimli adabiyotshunosi, tazkiranavisi va shoiri edi.
«Muzakkiri ahbob» 1566-1567 yilda Buxoroda, Jo'ybor xojalaridan shayx Muhammad Islomga bag'ishlab yozilgan. Asarda XU asr oxiri va XU1 asrning birinchi yarmida yashab, turkiy va forsiy tillarda ijod etgan 261 (Hindistondagi nusxasida 275) shoir haqida ma'lumot keltirilgan. Mazkur tazkira fors-tojik tilida yozilgan bo'lsa-da, Alisher Navoiy «Majolis un-nafois» tazkirasining ta'sirida tartib berilgan.
- «Tazkirat ush-shuaro»- shoirlar tazkirasi. Bu asarning muallifi mavlono Sulton Muhammad Noyi Mutribiy Samarqandiy (tav. 1559-Samarqand-vaf.1630 yillar-Samarqand) bo'lib, u 1605 yilda Samarqandda yozilgan. Asarda XU1 asrning ikkinchi yarmida faoliyat ko'rsatgan 328 shoir haqida ma'lumot va asarlaridan namunalar keltirilgan. Shu jihatdan Mutribiyning tazkirasi ustoz Hasanxoja Nisoriyning «Muzakkiri ahbob» asari ta'sirida yozilib, uning davomi sifatida qaraladi. Keyinchalik Mutribiy o'z tazkirasini qayta ishlab, qo'shimchalar kiritib, Bobur mirzoning evarasi, Hindiston podshohi Jahongirshohga bag'ishlab, «Nusxai zeboi Jahongir» deb atadi.
Shunday qilib, bu ikki tazkira (Nisoriy va Mutribiy) XU1 asrda yashab faoliyat ko'rsatgan 590-600 shoir haqida ma'lumot beradi, asarlaridan namunalarni keltiradi.

Shunisi muhimki, bu davrda yaratilgan tarixiy, esdalik, tazkira va manoqiblar davr adabiy muhiti xususiyatlari, uning asosiy tamoyillarini belgilashda qimmatli fikr-mulohazalarga ham boydir.

Qayd qilingan manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra, mazkur davr adabiy muhitida qatnashganlar jamiyatning turli toifalariga (sulton, vazir, tasavvuf ahli, hunarmand, ziyoli, talaba va b.) mansub bo'lganidan hamda ijodiy tajriba va ko'nikmalari har xil ekanligi tufayli unda yaratilgan adabiy asarlar ham mazmun va badiiyat nuqtai nazaridan rang - barangdir.

Shunday bo'lsa-da, adabiy jarayon yaxlit holda Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy va boshqa siymolarning badiiy ijod va uning xususiyatlari haqida bildirilgan adabiy-estetik tafakkurlariga asoslanib, ularni davom ettirar hamda barcha ijod ahli oldida mazmunan yuksak, badiiy jihatdan puxta asarlar yozish talablarini qo'yardi. Xuddi shu ma'noda Hasan Nisoriyning badiiy so'z va she'r yozishning naqadar mas'uliyatli ekanligi haqida bildirgan fikrlari («Muzakkiri ahbob»ning muqaddimasida), mavlono Mutribiyning Abdulloxon P bilan qilgan suhbatida she'r va uning xususiyatlariga doir mulohazalari («Tazkirat ush-shuaro» Abdulloxon P haqidagi zikr-bob); Hofiz Tanishning esa she'r yozuvchilarga murojaat qilib, «go'zal ma'nolarni marg'ub lafzlar bilan bezash» lozimligi; Zahiriddin Muhammad Boburning shoir va yozuvchi o'z asarlarida «bayoni voqeini ... rost bitishi» kerakligi to'g'risidagi aqidalari nihoyatda diqqatga sazovordir.

Shuning uchun adabiy muhitda qatnashganlar she'riyat nazariyasiga doir aruz, qofiya va san'atlar haqidagi bilimlarni, ilmi bayon, ilmi maoni va ilmi

mantiqlarni chuqur o'rganishga; mumtoz adabiyotning nodir yodgorliklari, jumladan, Abulqosim Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, XoXoja Ahmad Yassaviy, Sa'diy Sheroziy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy va boshqalar yaratgan mumtoz asarlarni muntazam ravishda mutolaa qilishga kirishib ketgan edilar. Bunday say'-harakatlar esa o'zining ijobiy samaralarini berardi.

Mazkur davrdagi adabiy jarayon yuqorida uqtirilgan omillar asosida shakllanib, rivojlanib borar hamda quyidagi xususiyatlarga ham ega edi:

-adabiy jarayonning qatnashguvchilari doirasi faqat Movarounnahr bilan cheklanib qolmay, balki Zahiriddin Muhammad Bobur faoliyatining Afg'oniston va Hindiston bilan bog'liq bo'lgani tufayli o'zbek tilida ijod qiluvchilar Afg'oniston va Hindistonda ham o'z faoliyatlarini davom ettirar edilar. Bunga misol qilib, Zahiriddin Muhammad Boburning o'zi, Bayramxon Xoni xonon, Hajriy Andijoniy, Komron mirzo va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

-adabiy jarayonda an'anaviy tarzda ikki tilda –o'zbek va fors-tojik tillarida asarlar yaratildi.

-adabiy jarayonda o'zbek tilida yozilgan asarlarda soddabayonlik uslubi, ya'ni keng kitobxonlar ommasi uchun tushunilishi oson bo'lgan uslubda asar yaratish tamoyili kuchaydi. Bu fikrning isboti uchun Bobur, Muhammad Soleh, Ubaydiy, Majlisiy, Xoja, Komron mirzo, Bayramxonlarning she'riy va nasriy asarlarini eslatish mumkin. Jumladan:

Boburdan:

Ko'rgach seni, ishqingdin afsona bo'lubturmen,

Ko'rmay seni, hajringdin devona bo'lubturmen.

Bayramxondan:

Ey, chamani jon aro, sarvi xiromonginam,

Umr gulistonida g'unchai xandonginam.

Ubaydiydan:

Ey do'stlar, jondin kechib, ishq etogin tutdum mano,

Vahdat mayin ichguncha, ne xunobalar yutdum mano.

Muhammad Solehdan:

Keldi xotirgaki, topsam fursat,

Tilabon hazrati xondan nusrat...

Aylagan ishlarini nazm qilay,

Masnaviy shevasini dog'i bilay...

Har ne ko'rdum cherikida bir-bir,

Barchasin nazm ila qildim tahrir.

Majlisiydan:

Qiling bir qissa paydo ovunoyin,

O'qib, ondin zamone sevunoyin.

Ki man eshitmagan bo'lg'aymen oni,

Yana ham ko'rmagan bo'lg'aymen oni.

Xojadan:

«Bir kun hakimlar Aristolis hakimdin savol qildilar: Na hikmat erdi, Iskandarga etti iqlim mute' bo'ldi? Aristolis hakim aytdi: Miskinlarga rahm qilur edi, taqi o'zi odil edi».

- adabiy jarayonda kuzatiladigan xususiyatlardan biri unda taxayyul (romantik) tasvir uslubidan hayotiy (realistik) tasvir uslubining etakchiligidir. Buning natijasida ko'pgina mashhur asarlar, jumladan Boburning «Boburnoma», Muhammad Solehning «Shayboniynoma»si, Hofiz Tanishning «Abdullanoma»sida o'sha davr tarixiy voqealari, shaxslari badiiyat qonuniyatlari asosida tasvirlandi; shoirlar she'rlarida esa hasbi hollik, hayotiy voqealardan olingan taassurotlarning badiiy tasviri muhim mavqeni egalladi. Shuning bilan bir qatorda, taxayyul uslubida ijod etish an'anasi ham davom etar edi. Bunday hol Majlisiy dostoni, Xoja hikoyalari, Komron mirzo, Bayramxon va boshqalarning she'riyatida kuzatiladi. Ayrim asarlarda esa, masalan, Vosifiyning «Badoe' ul-vaqoe'»sida bu har ikkala uslubning qorishiq holda kelishi ham uchraydi.
- adabiy jarayonda quyidagi adabiy nav'lardan foydalanilgan edi: she'riy asarlar – g'azal, ruboiy, qit'a, tuyuq, qasida, masnaviy, fard va boshqalar (Bobur, Komron mirzo, Ubaydiy, Shayboniy, Bayramxon va b. she'riyati); doston va uning turli xillari: ma'rifiy pand-nasihati, sarguzasht, tarixiy va b. (Bobur, Xoja, Majlisiy, Muhammad Soleh, Muhammad Rahimiy dostonlari); nasriy asarlar – esdalik, tarix, hikoya, manoqib; ilmiy risolalar: aruz, tibbiyot, astronomiya va b. (Bobur «Risolai aruz», Ali Tabib «Dastur al-iloj», Yusuf Kuhhol «Zubdat ul-kuxholayn»...). Bu davrdagi o'zbek nasri «Boburnoma» misolida yangi xildagi nodir adabiy-tarixiy yodgorlikka ega bo'ldi.
- mazkur davrning adabiy muhiti Samarqand va Buxoroda markazlashgan bo'lib, bu markazlarda faqat Movarounnahrlik qalam ahli to'planib qolmasdan, balki Xorazm va Xurosonning turli mavzalaridan tashrif buyurgan qalam ahli ham faoliyat ko'rsatar edilar. Bunday hol Hasanxoja Nisoriy va mavlono Mutribiylarning yuqorida eslatganimiz tazkiralarda o'z ifodasini topgan.

Qayd etilgan xususiyatlarga ega bo'lgan mazkur davr adabiy jarayonida yaratilgan asarlar asosan ma'rifiy va dunyoviy-hayotiy tamoyillardan bahs yuritadilar.

Ma'rifiy tamoyilga mansub turli adabiy nav'larda yozilgan asarlarda shariat masalalari, ilohiyot muammolari hamda ijtimoiy axloq muammolaridan so'z yuritilgan. Xoja Ahmad Kosoniy-Maxdumi A'zam Dahbediy risolalari, Shayx Husayn Xorazmiy, Shayx Xudoydodi Vali she'riyatlari, Zahiriddin Muhammad Boburning «Mubayyin»i, Ubaydiy she'rlari ana shu tamoyildagi asarlardir.

Ma'lumki, XVI asrda naqshbandiya, husayniya-ishqiya va yassaviya-jahriyai sultoniya tariqatlarining murshidlari bo'lmish Maxdumi A'zam Dahbediy (1461-1542), Shayx Husayn Xorazmiy (1465-1551), Shayx Xudoydodi Vali (1461-1532), hamda Jo'ybor xojalari ijtimoiy va ma'naviy hayotda katta mavqega ega edilar. Bu murshidlarning ta'sir doirasi Movarounnahr bilan cheklanib qolmay, Xuroson, Sharqiy Turkiston, Hindistongacha tarqalgan edi. Shuning uchun shayboniylardan Ubaydulloxon, Abdulazizxon, Sulton Saidxon va Abdulloxon soniylar, temuriyzodalardan Zahiriddin Muhammad Bobur, Humoyun va Komron mirzolar ham ularni ehtirom qilar, turli masalalar bo'yicha maslahatlarini olar edilar. Chunki mazkur murshidlar tinchlik-osoyishtalik, bahamjihatlik, adolat va qonunlarning (albatta, shariat qonunlarining) ustuvor bo'lishligini targ'ib qilibgina qolmay, balki insonlarning o'zligini tanishi, imon-e'tiqodli bo'lishi, komillikka erishuv yo'llaridan ham so'zlardilar, shu haqdagi fikrlarini turli navlarda yozilgan asarlarida ham bayon etardilar. Shuni ham eslatish joizki, naqshbandiya suluki murshidlari ham ma'naviy va ham ijtimoiy hayotda faol qatnashishga moyil bo'lsalar, husayniya-ishqiya va yassaviya-jahriyai sultoniya suluklarining murshidlari esa ko'proq ma'naviy ta'sir ko'rsatishga moyil edilar. Murshidlarning ayrimlari nasriy risolalar yozishga ko'proq moyil bo'lsalar, jumladan, Maxdumi A'zam Dahbediy o'ttizdan ortiq risola muallifidir, ba'zilar o'zbek va tojik tillarida she'rlar ham yozganlarki, biz ana shular haqida qisqacha ma'lumot berishni ma'qul deb bildik.

Shayx Xudoydodi Vali (tav. 1461-Karmina-vaf. 1532- Samarqand, G'azira) – xojagon tariqati aqidalarini yassaviya-jahriyai sultoniya sulukida targ'ib va takmil qilib, ijtimoiy ma'naviyatni shakllantirish, insonlarning komillikka erishuv mezon va shartlarini ham shaxsiy namuna hamda badiiy asarlari – she'rlari orqali bayon etishda mukammallik darajasiga erishgan murshidlardandir.

Shayx Xudoydodi Valining hayoti, faoliyati, shaxsiyati va she'rlari «Manoqibi shayx Xudoydodi Vali» (XVI asr), Muhammad Sharif Husayniy al-Alaviy Buxoriyning «Hujjat uz-zokirin», Nisoriyning «Muzakkiri ahbob» tazkiralari va boshqa manbalarda bayon etilgan.

Shayx Xudoydodi Vali o'zbek va tojik tillarida g'azal va hikmatlar yozganlar. Hazrat g'azallarining ko'pchiligi 5-7 baytdan iborat bo'lib, bundan ko'p baytli g'azallari ham bor. G'azallar shu nav'ning an'anaviy qonun-qoidalariga (vazn, qofiya, radif, matla', maqta', taxallus...) muvofiq bo'lib, ularda ma'rifiy mavzu – Alloh taolaga nisbatan ishq mavzusi etakchi mavqedadir..

Jumladan:

Xoliqim sevdi mani, man nega sevmasman ani,

Ikki olam do'stlugin tashlab chu sevdurdi mani...

Man sani sendin tilurmen o'zlugumdin uzulub,
O'zlugumdin uzmayin hargiz topa olmon sani.

Yana:

Husnidin qildi tajalli ko'nglumi olmoq uchun,
Ma'dani asror qildi lutfini yoymoq uchun...
O'zini ko'rsatmagin qildi taayyun Odama,
Toki fahm etgay bu Odam xulqini yoymoq uchun.

Shayx Husayn Xorazmiy (tav. 1465 - Xorazm, vaf.-1551-Shom) –husayniya-ishqiya suluki murshidi sifatida tanilgan hazratning hayot va faoliyati Xorazm, Buxoro, Samarqand, Makka, Madinada davom etib, Shomda (Suriya) nihoyasiga etgan.

Shayx Husayn Xorazmiy hayotining ko'p qismi Samarqandda o'tgan va shuning uchun bu hazrat yashagan mahalla Maxdumi Xorazmiy (Siyob tumanida) nomi bilan mashhurdir.

Shayx Husayn Xorazmiyning hayoti, faoliyati va qarashlari Kamoliddin Mahmud G'ijduvoniyning «Miftoh ut-tolibin», Sharafiddin Sharifiyning «Jodat ul-oshiqin» (XVI asr) manoblarida umumlashtirilgan. Zamondoshlari Hasanxoja Nisoriy ham o'z «Muzakkiri ahbob»ida bu hazrat to'g'risida ma'lumot keltirgan. Jumladan:

«Janob shayx Husayn Xorazmiy yoshlik ayyomida o'zining nafis nafasini xilvatda jahdu jadal qolipiga solib, dil zikri sayqali bilan purfutuh ruhi oinasini shunday tip-tiniq va yarqiratgan edilarki, yashirin sirlar va ko'rinmas nurlar oshiq-talabgorlarning ko'rish ko'zgusiga aylangan ekan... Ba'zan g'oyibdan keluvchi fikr durlarini nazm ipiga tizardilar» (Muzakkiri ahbob», 48-bet).

Ana shunday she'rlardan quyidagi namunalarni keltirish mumkin:

Ruboiy: Demakim bu ishq yo'li osondur,
 Bu ishq yo'linda bas jigarlar qondur.
 Ulkim, bu yo'l ichra qadam urdi durust,
 Bu barcha xaloyiq ichinda sultondur.

Bayt:

Meravam so'i adam ishq tu hamrohi man ast,
Zor jon medihamu hamnafasam ohi man ast.

Mazmuni:

Boruram yo'qlik sari ishq mani hamrohimdur,
Zor jon bermoqdaman hamnafasim ohimdurur.

Shuni eslatish joizki, shayx Husayn Xorazmiyning Makka va Madinaga safar qilish xabari Zahiriddin Muhammad Boburga etgach, u hazratga ixlos nomasi va tuhfarlar yuborib, Hindiston orqali safar qilishni taklif etgan. Ammo Boburning orzusi amalga oshmagan ko'rinadi. Shayx Husayn Xorazmiyning husayniya-ishqiya qarashlari o'sha davrdagi ko'pgina shoirlarning qasida, g'azal va boshqa nav'dagi asarlarida targ'ib qilinganki, ularning namunalari «Jodat ul-oshiqin»da keltirilgan.

Ma'rifiy tamoyilda Zahiriddin Muhammad Bobur, Ubaydulloxon Ubaydiy, Xoja, Abulfazl Sulaymon («Jam' ul-asror» dostoni) va boshqa shoiru adiblar ham asarlar yozganlar. Jumladan, Ubaydiyning bu sohadagi xizmatlari haqida zamondoshi Hasanxoja Nisoriy shunday yozadi:

«(Ubaydiyning) tasavvufda fikrlari mazmuni asosli va kuchli namoyon bo'lar, baland ma'nolarni dilpisand iboratlar bilan bayon qilar edi» («Muzakkiri ahbob», 23-bet).

Bu va boshqa mualliflarning, jumladan, Boburning, mazkur tamoyilga oid asarlari haqida ularga bag'ishlangan keyingi boblarda kengroq yoritiladi.

Mazkur davr adabiy jarayonida ikkinchi, ya'ni dunyoviy-hayotiylikka moyil bo'lgan tamoyil ham mavjud edi. Albatta, bu tamoyilni ma'rifiy tamoyildan tamoman xoli yoki uzoq deb bo'lmaydi. Ular orasida uzviy bog'liqlik kuzatiladi. Shunday bo'lsa-da, dunyoviy-hayotiylikka moyil yo'nalishda o'sha zamon tarixiy voqea-hodisalari va shaxslarining badiiylik qonuniyati asosidagi tasviri, badiiy to'qima asosida yaratilgan voqea va timsollar, hasbi hollik namoyon bo'lib turadi. Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammad Soleh, Zayniddin Vosifiy, Xojalarning ijodlarida bunday holni kuzatish mumkin.

Shoir Bobur, Komron, Bayramxon, Majlisiylarda taxayyulning kuchliligi mumtoz she'riyat an'anasi bilan bog'liq bo'lsa-da, Bobur she'riyatida hasbi hollik, hayotiy voqealardan olingan taassurotlarning badiiy in'ikosi ham mavjud. Jumladan, Boburning Hindistondaligi holati, kayfiyatining quyidagi g'azalda tasviriga e'tiborni qaratish mumkin:

G'urbatta ul oy hajri meni pir qilibtur,
Hijron bila g'urbat manga ta'sir qilibtur.
Maqdur borincha qiluram sa'yi visoling,
To Tengrini, bilmon ki , ne taqdir qilibtur.

Taqdirdur ul yonu bu yon solg'uchi, yo'qsa,
Kimga havasi Sanbalu Tatyir qilibtur.
Bu hind eri hosilidin ko'p ko'ngul oldim,
Ne sudki, bu er meni dilgir qilibtur.
Sendin bu qadar qoldi yiroq o'lmadi Bobur,
Ma'zur tut, ey yorki, taqsir qilibtur.

(Bobur. Devon.T. Fan, 1994,29-30-betlar)

Aytilganlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, davrning adabiy jarayonida turli tamoyilda uslub jihatdan rang-barang asarlar yaratilgan. Shuning tufayli Boburning «Boburnoma», Vosifiyning «Badoe'-ul-vaqoe'», Hofiz Tanishning «Abdullonoma», Xojaning «Gulzor» va «Miftohi ul-adl», Gulbadanbegimning «Humoyunnoma» kabi nasriy tarixiy, esdalik va badiiy asarlari; Muhammad Solehning «Shayboniynoma», Majlisiyning «Qissai Sayfulmuluk», Xojaning «Maqsad ul-atvor», «Layli va Majnun», Boqiy Buxoriyning «Yusuf va Zulayxo», Fazoyining «Nozu Behnoz», Muhammad Rahimiyning «Layli va Majnun», Badriddin Kashmiriyning «Haft ganj», Shodiyning «Fathnoma» kabi doston va dostonlar turkumi- ettiliklar maydonga keldi. Ular tarixiy, ma'rifiy, sarguzasht, pand-nasihat mavzulariga bag'ishlangan; ularda tarixiy shaxslar (Shayboniy, Abdulloxon soniy), an'anaviy (Layli, Majnun, Yusuf, Zulayxo) va to'qima timsollar yaratilgan.

She'riyatda esa Bobur, Ubaydiy, Bayramxon, Shayboniy, Komron, Afzaliy, Mushfiqiy, Nisoriy kabi yuzlab sohibdevon shoirlar faoliyat ko'rsatdilar.

Mazkur davrda adabiy hamkorlik va aloqalar ancha jonlandi. Natijada mashhur Ozarboyjon shoiri Fuzuliyning (1498-1556) asarlari (devoni) o'lkamizga kirib keldi; Movarounnahrlik Qosim Kohiy, Mir Do'stiy, Naziriy Samarkandiyalar Hindiston zaminida faoliyat ko'rsatdilar. Ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy ijodiy maktabi tajriba va an'analari shu davrdagi turkiygo'y va forsiygo'y o'lkalarda davom ettirildi, asarlari tarjima qilindi. Shuning natijasida ozarboyjonlik ko'pgina shoirlar o'z ijodlarida bu maktabning an'anasidan bahramand bo'lganliklarini kamoli ehtirom va ixlos bilan ta'kidladilar. Jumladan, Kishvari shunday yozadi:

Navoiy himmatindin Kishvari ahli nazar bo'ldi,

Jahon mulkin tutar she'ri nazir bo'lsa Navoiyga.

Yana:

Xusravi Tabrezdan chun bo'lmadi komim ravo,

Ayb emas, gar mayli turkoni Samarqand aylasam.

Kishvari, bo'lsam Navoiy she'ri birla hamnafas,

So'ng jigar pargolasin jon birla payvand aylasam.

Turkiyada ham bunday hol kuzatiladi. Jumladan, turk sayyohi va shoiri Sayid Ali Rais Kotibiyning bir g'azali shunday tugaydi:

Zulfi yori vasf etib qilding muattar olami,

Ko'rsa ayturdi Navoiy Kotibiy attor emish.

Demak, XU1 asrdagi adabiy jarayon o'zining keng ko'lamliligi, mumtoz an'analarni davom ettirish bilan birga yangiliklari, hayotiylikning ustuvor bo'lib borishi, adabiy hamkorlik va aloqalarni turli tarzda amalga oshirgani bilan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Unda ma'rifiy va dunyoviy-hayotiy yo'nalishlarda yaratilgan mumtoz asarlar maydonga keldiki, ular orasida jahoniy shuhratga ega bo'lgan «Boburnoma» ham bor.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. XVI asr adabiy jarayonida qanday uslublar qo'llanilgan?
2. Adabiy jarayonning xususiyatlari haqida fikringiz?
3. Adabiy hamkorlik va aloqalarning holati qanday?
4. Bu davrda yaratilgan asarlardan qaysilari jahoniy shuhratga ega?
5. Ma'rifiy tamoyilning mashhur namoyandalari kimlar?

Adabiyotlar

1. Ҳасанхожа Нисорий. Музакири аҳбоб. Форс тилидан Исмоил Бекжон таржимаси.-Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги ХМН, 1993.
2. Мутрибий. Тазкират уш-шуаро.- Техрон: Оинаи мерос, 1999.
3. Фазлуллоҳ Рӯзбеҳон. Меҳмонномаи Бухоро. –Москва: Наука,1976.
4. Махдуми Аъзам Дахбедий. Зубдат ус–соликин. Танбеҳат ус-салотин. Самарқанд: Суғдиён, 1994.
5. Бобо Худододи Вали. Ғазаллар ва ҳикматлар.-Самарқанд: 1993; иккинчи наشري 1995.
6. Ҳазрати азизон шайх Худойдоди Вали (қисқа лавҳалар). – Самарқанд: 2002.
7. Б.А.Ахмедов. Историко-географическая литература Средней Азии XV1-XVIII вв. Письменные памятники.- Ташкент: Фан, 1985.
8. Б.Валихўжаев. XV1 асрда Мовароуннаҳрда ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаёт. Қаралсин: Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик, 3- том, -Тошкент: Фан, 1978, 7-44 бетлар.
9. Б.Валихўжаев. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи.-Тошкент: Ўзбекистон, 1993.

10. Б.Валихўжаев. Махдumi Хоразмий. Қаралсин: Б.Валихўжаев. Хожа Аҳрор тарихи. –Тошкент: Ёзувчи, 1994, 77-80- бетлар .
- 11.Osman Fikri Sertkaya. Osmanli sairlerinde Ali Sir Nevayi tarzi ve Nevaiye Anadoluda yazilan nazireler. Istandul, 2001.

2-MAVZU

BOBUR – HIND TURKIYZABON ADABIYOTINING ASOSCHISI

Reja:

- boburshunoslik tarixi; hayoti, faoliyati
- ilmiy-adabiy merosi; jahoniy ahamiyati.

Tayanch soʻz - iboralar:

Umarshayx, Qutlugʻ Nigor xonim, Andijon, Samarqand, Kobul, Agra; Humoyun, Komron, Gulbadanbegim; Devon, Boburnoma, Aruz risolasi, Mubayyin, Volidiya, Xatti Boburiy.

Jahon madaniyati xazinasiga oʻzining munosib hissasini qoʻshgan siymolardan biri Zahiriddin Muhammad Boburdir.

Boburshunoslik tarixidan lavhalar. Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, faoliyati va merosini oʻrganish XVI asrning avvalidan boshlangan edi. Boshqacha qilib aytganda, bu qutlugʻ ishni Z.M.Boburning oʻzi «Boburnoma»da boshlab bergan edi. Shundan soʻng Movarounnahr, Afgʻoniston va Hindistonda yozilgan tazkira va tarixiy asarlarda Bobur haqida maʼlumot berish kuzatiladi. Bu jihatdan Boburning qizi Gulbadanbegimning «Humoyunnoma», Muhammad Haydarning «Tarixi Rashidiy» kabi asarlari, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Chunki bu mualliflar Bobur bilan bevosita muloqotda boʻlib, uning faoliyati, shaxsiyati va fazilatlari toʻgʻrisida qimmatli maʼlumotlarni keltirganlar. Bunday maʼlumotlar shu asrda Buxoroda Hasanxoja Nisoriy tomonidan yozilgan «Muzakkiri ahbob» da ham bor. Hindistonda Akbarshoh, Jahongirshoh, Shoh Jahon hukmdorligi davrida yaratilgan tarixiy asarlar va tazkiralarda Bobur haqida ham maʼlumotlar keltirilgan («Akbarнома» va boshqalar).

Keyinchalik, xususan, XUSH asrdan boshlab, Bobur hayoti, faoliyati va merosi bilan qiziqish Evropada ham jonlanib ketdi. Uning «Boburnoma»siga bo'lgan ehtirom tufayli XIX asrda u ingliz (Elfinston, Erskin, Beveridj), frantsuz (Pave de Kurteyl) tillariga tarjima qilinib bosildi. Rus olimi N.Ilminskiy esa «Boburnoma»ning asl nusxasini nashr ettirdi. Bunday hol XX asrda ham davom etdi. Jumladan, frantsuz adibi Fernand Grenard «Bobur», Amerikalik yozuvchi Harold Lamb «Bobur-she'r» asarlarini yaratdilar. Fernand Grenardning asari keyinchalik nemis (1931 y.) va turk tillariga (1970 y.) tarjima qilinib, nashr ettirildi. «Boburnoma»ning bevosita o'zbek tilidan frantsuz (Bake Grammon, 1980y.) va ingliz (V.M.Sekston, 1996 y.) tillariga yangi tarjimalari maydonga keldi.

Afg'onistonlik olim Shafiqa Yorqin Bobur she'riy merosining nisbatan to'liq nusxasini tuzib, katta tadqiqot bilan birga 1983 yilda «Devoni Zahiriddin Bobur» nomi bilan Kobulda nashr ettirdi. Rus olimasi I.V.Stebleva Bobur she'riyati (g'azallari) ga oid risolasini yaratdi.

XX asrning 20-80 yillari orasida mamlakatimiz-O'zbekistonda ham Bobur hayoti, faoliyati va merosini o'rganish sohasida ma'lum ishlar amalga oshirildi: 3-jildlik asarlari nashr ettirildi, tadqiqotlar yaratildi. Bu sohada Yahyo G'ulomov, Vohid Zohidov, Homil Yoqubov, Porso Shamsiev, Sabohat Azimjonova, Aziz Qayumov, Hamid Sulaymon, Saidbek Hasanov, B.Valixo'jaev va boshqalarning katta hissasi bor. Pirimqul Qodirov, Barot Boyqobilovlar esa Bobur haqida roman va dostonlar yaratdilar.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, Bobur va uning boy merosiga milliy istiqlol g'oyasi asosida munosabat bildirilmoqda; oldin nashr ettirilmagan asarlari, jumladan, «Mubayyin», to'liq nashr ettirilmoqda. Boburshunoslik sohasidagi ishlar yanada rivojlanib bormoqda. Bu jihatdan Xalqaro Bobur jamg'armasining tuzilgani va uning serqirra faoliyati alohida e'tiborga molikdir.

Hayoti, faoliyati va merosi. Zahiriddin Muhammad Bobur 1483 yil 14 fevralda Farg'ona viloyatining hokimi temuriyzoda Umarshayx mirzo oilasida dunyoga keldi. Bu vaqtda Umarshayx mirzoning poytaxti Axsi (qadimiy Axsikat) edi. Umarshayx mirzo (tav.-1455-Samarqand-vaf. 1494-Axsi) Movarounnahr va Xuroson podshosi Abu Said Mirzoning o'g'li bo'lib, Boburning yozishicha, «ravon savodi bor edi. Xamsatayn (ya'ni, Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy «Xamsa»lari-B.V.) va masnaviy kitoblarni o'qub edi. Aksar «Shohnoma» o'qur edi. Tab'i nazmi bor edi, vale she'rg'a parvo qilmas edi.» Shunday bo'lsa-da, Boburning ta'kidiga ko'ra, Umarshayx mirzoda «mulkgirlik dag'dag'asi» kuchli edi.

Boburning onasi Qutlug' Nigor xonim bo'lib, u Yunusxonning qizi edi. Bobur Umarshayx mirzo oilasidagi sakkizta farzandning (uch o'g'il va besh qiz) kattasi bo'lib, temuriyzodalarning o'sha davrdagi udumiga ko'ra tarbiyalandi, Andijonda tahsil oldi. Shuning uchun otasi 1494 yilda Axside fojiali tarzda olamdan o'tganda Bobur Andijonda edi. Bobur yozadi: «Umarshayx mirzog'a bu voqea (ya'ni, fojiali o'lim) dast berganda men Andijonda chahorbog'da edim» (Boburnoma, 72-bet).

1494 yilda 12 yoshida Farg'ona viloyati taxtiga o'tirgan Bobur umrining oxirigacha (1530) viloyatdorlik (Farg'ona), mamlakatdorlik (Kobul) hamda saltanatdorlik (Agra-Hindiston) bilan mashg'ul bo'lib, Hindistonda boburiylar saltanatiga (1526-1858) asos soldi.

Albatta, bunday davlatdorlik ishlari o'z-o'zicha bo'lgan emas: turli xildagi ixtiloflar, ba'zan suiqasd uyushtirishlar, gohida g'alaba nash'asi, gohida esa mag'lubiyat o'kinchlari; uni tushunmasliklar va boshqalar ham sodir bo'lgan edi. Bunday hollarni «Boburnoma»ni sinchiklab mutolaa qilgan har bir kishi aniq tasavvur eta oladi. Bobur bularning hammasini mustahkam irodasi va ezgulikka erishish uchun chin ko'ngildan va g'ayrat bilan harakat qilgani tufayli engib o'tdi. Natijada Bobur yirik va qobiliyatli davlat arbobi sifatida tinchlik-osoyishtalik, bahamjihatlik, adolatni o'rnatish, obodonchilik, madaniyat, ilm va adabiyotni rivojlantirish uchun o'zining nodir qobiliyatini va tashabbuskorligini safarbar etdi.

Shuning uchun Boburning davlat arbobi sifatidagi ulug' ishlari XVI asrning o'zidayoq Faxriy Hirotiy («Ravzat us-salotin»), Abulfayz Allomiy («Akbarнома»), Gulbadanbegim («Humoyunnoma»)lar tomonidan yuqori baholandi. XX asr zabardast jamoat arbobi, Hindistonning bosh vaziri Javohirla'l Neru ham Boburning faoliyatini yuksak darajada taqdirlab, o'zining «Jahon tarixiga bir nazar asarida» shunday yozadi:

«Boburning 1526 yilda Dehlida g'alaba qozonishi bilan Hindistonda yangi bir davr maydonga kelib, yangi bir saltanat tashkil bo'ldi...

Bobur eng donishmand va dilbar shaxslardan biri edi. U mazhabiy taassub, qoloqliq va qisqa fikrlikdan tamoman uzoq edi... Bobur san'at va adabiyotni qo'llab-quvvatlagan kishilardandir».

Zahiriddin Muhammad Bobur Afg'oniston va Hindistonda obodonchilik ishlarini shunchalik rivojlantirdiki, natijada Kobul va uning atrofida ko'pgina shinam bog'lar, Agrada esa go'zal qasr va imoratlar maydonga keldi. Ammo Hindistonda to'rt yilgina (1526-1530) umr kechirdi. Zahiriddin Muhammad Bobur 1530 yil 26 dekabrda Agrada vafot etgach, vasiyatiga ko'ra uning jasadini Kobulga keltirib, o'zi yaxshi ko'radigan bog'da dafn etdilar.

Boburning o'g'illaridan Humoyun, Hindol, Askariy va Komron mirzolar, qizi Gulbadanbegimlar o'z faoliyatlari bilan donishmand otalarining an'alarini davom ettirib, adabiyot sohasida ham o'zlaridan she'riy va nasriy asarlar qoldirdilar (bular haqida keyinchalik fikr yuritiladi).

Zahiriddin Muhammad Bobur o'z umrining qarib 25 yilini tug'ilgan vatanidan uzoqda o'tkazdi. Ammo u qayerda bo'lmasin hamisha vatan sog'inchi va vatan mehri bilan yashadi. Vatandan uzoqda podshoh bo'lishidan qat'iy nazar o'zini g'arib sezardi. Shuning uchun ona-vatanidan kelgan har bir kishini qardoshiday ko'rar, ona-vatanidagilarga doimo murojaat etib turardi.

Ma'lumki, Boburning bobosi-Abu Said mirzo, otasi Umarshayx mirzolar naqshbandiya tariqatining o'sha davrdagi peshvosi Xoja Ahror Valini o'zlarining ma'naviy murshid-pirlari deb bilardilar. Zahiriddin Muhammad Bobur ham bu murshidning xonadoniga ixlos qo'ygan va bu tariqatning ona-vatanidagi murshidlarini ehtirom qilardi. Shundan-da, u Xoja Ahror Valining «Validiya» risolalarini o'zbek tiliga nazm bilan o'girib, maslahat olish uchun bu asarni Xoja

Ahmad Kosoniy – Maxdumi A'zam Dahbediy hazratlariga yuborgan edi. Bu hazrat ham asarni ma'qullab, unga javoban «Boburiya» risolalarini yozib yuboradilar. Ammo bu asarning Boburga etib borgani-bormagani hozircha noma'lum. Shuning bilan bir qatorda Bobur Shayx Husayn Xorazmiyning Hindiston orqali Makka va Madinaga safar qilishlarini iltimos qilib, bu hazratga ixlosnoma va to'hfalar yuborgan edi. Bobur o'zining ilk she'rlar devonini Kobuldan Samarqandga yuborgan edi...

Bularning hammasi shundan dalolat beradiki, Bobur vatanidan uzoqda bo'lgan bo'lsa-da, ammo vatan yodi uning bilan hamisha birga edi. Vatanni ardoqlash, uning muqaddasligini doimo e'zozlashda Boburga teng keladigani kam. Bu jihatdan ham Boburning shaxsiyati yoshlarga ibrat va namuna bo'la oladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur taniqli davlat arbobi bo'lish bilan birga, nihoyatda qobiliyatli va sermahsul ijodkor-shoir, yozuvchi, faylasuf, adabiyotshunos, tarix va boshqa fanlarning ham etuk allomasi edi. Bobur hammasi bo'lib, 47 yil umr ko'rgan bo'lsa-da, ammo u qoldirgan ilmiy-adabiy meros o'z salohiyati va ahamiyati jihatidan shunchalik buyukki, ana shu buyuklik Boburning jahoniy shuhrati va abadiyatini ta'minladi.

Bobur qoldirgan ilmiy-adabiy meros o'rganilar ekan, Bobur bilim doirasining nihoyatda kengligi, o'zigacha mavjud bo'lgan va o'z zamonasidagi boy ilmiy-adabiy merosni naqadar chuqur bilganligi kishini hayratda qoldiradi.

Darhaqiqat, Boburning she'riy va nasriy asarlari har jihatdan etukligi hamda badiiy-ilmiy ijod tarixida o'ziga xos mavqega ega bo'lganligi bilan ajralib turadi.

Zahiriddin Muhammad Boburdan bizgacha etib kelgan ilmiy-badiiy asarlar quyidagilardan iborat: 1. Devon; 2. Boburnoma; 3. Aruz risolasi; 4. Mubayyin; 5. Volidiya; 6. Xatti Boburiy.

Ma'lumotlarga ko'ra, Bobur musiqa va harbiy bilimga doir risolalar ham yozgan ekan, ammo ularning taqdiri hozircha noma'lum bo'lib qolmoqda.

4-MAVZU

BOBUR LIRIKASINING JANRIY KO'LAMI

Zahiriddin Muhammad Boburning manzum asarlari turli adabiy nav'larda, ya'ni g'azal, ruboiy, tuyuq, qit'a, muammo, fard, masnaviy-nomalarda yozilganlari devon holiga keltirilgan bo'lsa, masnaviy (doston) tarzida yozilgan «Mubayyin», «Volidiya»lar alohida-alohida asarlardir.

Boburning rang-barang janrlarda yozilgan manzum asarlarining mavzu doirasi ham xilma-xildir. Bu asarlarning barchasiga xos xususiyat shundan iboratki, ular sodda tilda, ravon uslubda yozilgan bo'lib, ma'rifiy va dunyoviy-hayotiy masalalardan bahs yuritadilar. Ularda Boburning shoirlik mahorati nihoyatda yaqqol namoyon bo'lganidan Boburning zamondoshi va muxlisi Mirzo Haydar o'zining «Tarixi Rashidiy» asarida shunday yozgan edi: «Turkiy she'riyatda Amir Alisher Navoiydan so'ng hech kim Boburga teng kela olmaydi». Bunday fikr boshqa mualliflar, jumladan, Hasanxoja Nisoriyning «Muzakkiri ahbob» tazkirasida ham o'ziga xos tarzda bayon etilib, misollar ham keltirilgan (Muzakkiri ahbob, 53-54-betlar).

Bobur o'zining lirik merosini ikki devonga to'plagan. Ulardan birinchisi 1519 yilda Kobulda tartib berilib, bir nusxasi o'sha vaqtning o'zida Samarqandga yuborilgan. Ikkinchisi esa 1528-1529 yilda Hindistonda tuzilgan. Bu ikki devonga kiritilgan she'rlar keyinchalik bir devon holiga keltirilgan. Bu haqda «Boburnoma»ga ilova yozgan kotib shunday xabar beradi: «(Bobur) nazm va nasr va turkiy va forsiyni bebadal aytur edi. Alalxusus turkiy devoni bordurkim, anda toza mazmunlar topib aytibdur» (Boburnoma, 460-bet). Demak, Boburning turkiy-o'zbek tilida yozilgan lirik she'rlari alohida devon shakliga keltirilgan. Bu devonga kiritilgan she'rlarni ingliz sharqshunosi Denison Ross (1910 y.), turk olimi Fuod Kupruluzoda (1912-1913 y), rus sharqshunosi A.N.Samoylovich (1917y), o'zbek olimlari S.Azimjonova va A.Qayumov (1958, 1965), Saidbek Hasanov (1982 y)lar nashr ettirdilar.

1983 yilda esa afg'onistonlik olim Shafiqa Yorqin ularni to'plab, to'ldirib, «Devoni Zahiriddin Muhammad Bobur» nomi bilan Kobulda nashr ettirdi. Ana shu nashrlar asosida Abdurashid Abdug'afurov «Zahiriddin Muhammad Bobur. Devon» (Toshkent; Fan, 1994) asarini e'lon qildi. Ammo Boburning forsiy tilda yozgan she'rlari parokanda-parishon holatda etib kelganki, ulardan yangi topilgan ayrim namunalarni afg'onistonlik boburshunos Shafiqa Yorqin yaqinda nashr ettirdi (Ovozi tojik, 2001, 14 fevral).

Boburning o'zbek tilidagi devonidan 120 ga yaqin g'azal, 210 ruboiy hamda qit'a, fard, tuyuq, masnaviy-nomalar, muammo va masnu'lar o'rin olgan. Ular orasida son jihatidan ko'pchilikni g'azal va ruboiylar tashkil etadi.

Boburning lirik she'rlari an'anaviy g'azal, ruboiy, tuyuq, fard va boshqa janrlarning shakliy xususiyatlarini davom ettirishi bilan bir qatorda, o'ziga xos ayrim xususiyatlarga ham ega. Bularidan biri ko'pchilik g'azallarning 5-7 baytlik bo'lishidir. Ruboiylarda taxallusni ko'proq ishlatish kuzatilsa, tuyuqlarda esa ba'zan qit'a shaklida qofiyalanishlar ham uchraydi.

Masalan:

Qilmasa ul oy nazar manga ne tong?
Tengri tole' chun manga yorotmadi.

O'qi yorar erdi ko'nglum dardini,
Netayin, ko'nglum uchun, yor otmadi.

(Bobur. Devon, 106-bet).

Bular Boburning an'anaviy janrlar xususiyatlarini saqlagan holda ularga ayrim yangiliklar kiritishga ham harakat qilganidan dalolat beradi.

Bobur yoshligidan she'riyat olamiga kirib kelgan bo'lsa-da, o'zining birinchi tugal g'azalini 18 yoshida, ya'ni 1501 yilda yozgan. Bu g'azalning matla'i quyidagicha:

Jonimdin o'zga yori vafodor topmadim,
Ko'nglumdin o'zga mahrami asror topmadim.

(Bobur. Devon, 37-38-betlar).

Bu g'azalning Toshkent va Xo'jand oralig'idagi Turoq chorbog'ida yozilishi sabablari «Boburnoma»-da (907 h.yil voqealari) bayon etilgan. Keyinchalik

umrining oxirigacha turli janrlarda she'r yozgan. Boburshunos Sabohat Azimjonovanning ma'lumotiga ko'ra, Boburning umri oxirida yozgan so'nggi to'rtligi fors tilida bo'lib, uni mazkur olima shunday tarjima qilgan:

Umrim hama firoqu hijronda o'tdi g'amu g'ussa bila,
Bu qimmatbaho umr arzon o'tdi ranju alamla,
Samarqandu Hirotida o'tmagan umr ayshu ishratla,
Afsus, Agrada vayrona bo'ldi jabru sitamla.

(Xalq so'zi, 1993, 16 mart, 3-bet).

Bobur lirik she'riyatining, jumladan, g'azaliyotining mavzusi, bir tomondan, mumtoz g'azalchilikda etakchi o'rin egallagan ishq mavzusi bo'lsa, ikkinchi tomondan, shoirning hayot hodisa-voqealaridan olgan taassurotlari: muvaffaqiyatlar shodiyonasi, muvaffaqiyatsizlik tufayli zamon va uning jafakorligidan nolish; o'zi tug'ilgan vatandan uzoqlashgani tufayli vatan va vatandoshlarini qo'msash, o'rni bilan pand-nasihat berish kabi mavzulardan iborat. Shuning natijasida Bobur she'riyati, jumladan, g'azallari mutolaa qilinar ekan, shoir hayotiy va falsafiy mushohadalari, quvonchi, zavqi, muhabbati, o'kinch va sog'inishlari, g'azabi va nafratining ifodalanganligi guvohi bo'ladi kishi. Ulardagi samimiylik o'quvchini o'ziga maftun etadi. Masalan, oshiqona mavzudagi quyidagi g'azalda yor-mahbubaning yog'lig'i-boshga o'raydigan ro'molchasi tasvirlangan. Bu tasvir shunchalik go'zalki, uni o'qigan kishi shoirning yog'liq-ro'molcha bahonasida yoriga bo'lgan samimiy muhabbatini anglay oladi. G'azalning matla' va maqta'i quyidagichadir:

Matla':

Yog'lig'ingkim, jon bila men xastadurmen zor anga,
Xasta jonlar rishtasidindur, magar har tor anga...

Maqta':

Ko'nglum istar yog'lig'ingni, balki andin bir nasim,
Etsa Boburga erur jon birla minnatdor anga.

Mazkur g'azalda an'anaviy tasvirlar yangicha talqin qilinadi, ya'ni ma'shuqa go'zalligi tasviri uning yog'lig'i-ro'molchasi orqali amalga oshadi. Buning natijasida Bobur xossa tasvirni, ya'ni yangi poetik timsolni (yog'lig') yaratib, ham uning tashqi go'zalligini tasvirlaydi hamda uni jonlantirib, go'zal ma'shuqaning yuzlab-minglab oshiqalaridan biri sifatida gavdalantiradi. G'azalda to'rtta timsol ko'rinadi: birinchisi-faol bo'lmagan ma'shuqa ma'shuqaning yog'lig'i-bu faol; uchinchi-oshiqning ko'ngli-u ham uncha faol emas; to'rtinchisi – voqeani bayon etuvchi oshiq-shoir-kuzatuvchi, mushohada yurituvchi shaxs.

G'azalda yog'lig'-ro'molcha tasviri etakchi bo'lganidan unda gullar, binafshalar ko'rinadi; qizil va binafsha rang jilolari ko'zlarni qamashtiradi; ularning muattar hidi anqib turadi. G'azal o'qilar ekan, o'quvchi o'zini go'zal tabiat manzaralari og'ushida his etadi, ulardan zavqlanadi. Bularning hammasi shoir Boburning nihoyatda baland mahoratidan dalolat beradi. Agar bu g'azalning Alisher Navoiy va Boburning o'zi ta'riflagan turkiy g'azal guruhiga mansubligi, ramali musammani maqsur (mahzuf) bahrida yozilganligi, musiqiyliги e'tiborga

olinsa, unda masala yanada oydinlashadi. Bu mavzu Boburning o'ziga ham ma'qul bo'lib qolganidan uni bir ruboiysida shunday davom ettiradi:

Yor yog'lig'idin ko'ngulni xursand ettim,
Ruhum qushini tori bila band ettim,
Ko'nglumni ne nav' uzay o'shal yog'lig'din,
Jon rishtasini torig'a payvand ettim.

(Bobur. Devon, 85-bet).

Bobur devonida oshiqona mavzudagi g'azallar anchagina.

Jumladan:

Matla':

Ko'ngulga bo'ldi ajoyib balo qaro soching,
Shikasta ko'ngluma ermish qaro balo soching
(Bobur.Devon, 34-35-betlar).

Yana:

Ko'rmagay erdim jamoli olamoro koshki,
Bo'lmag'ay erdim bori olamg'a rasvo koshki.
(Bobur.Devon, 63-bet).

Bu g'azallar Alisher Navoiydan ilhomlanish natijasida maydonga kelgan. Ma'lumki, Alisher Navoiyning «Badoe' ul-bidoya» devonida:

Ko'zung ne balo qaro bo'lubtur,
Kim jonga qaro balo bo'lubtur,-

matla'li 7 baytlik g'azali bor (MAT, 1-tom, 140-141-betlar).

Alisher Navoiyning do'sti Mirzobek baytini davom ettirib yozgan tazmin g'azalidan ilhomlangan Bobur yuqorida keltirilgan birinchi matla' bilan («soching» radifli) boshlanadigan g'azalini yozgan. Boburning g'azali besh baytli bo'lib, unda ma'shuqaning sochi tavsif asosini tashkil etgan. Alisher Navoiy g'azalida esa yor chehrasining partonimlari (ko'z, yuz) tilga olinadi, shuning bilan birga, ishq dardi, oshno-begona, boqiy-foniy, rahrav masalalaridan mulohaza yuritiladi. Bobur g'azalida esa asosiy diqqat «soch» va unga bog'liq masalalarga qaratilgan. Alisher Navoiy g'azalidagi tardi aks san'ati (balo-qaro, qaro-balo) Bobur g'azalida «soch»ga nisbatan birinchi baytda qo'llanilgan bo'lib, bu san'at boshqa baytlarda ishlatilmagan. Ammo unda tazod (bosh-oyoq, dilband-dilkusho) san'ati ko'proq kuzatiladi. Ko'rinadiki, Bobur Alisher Navoiydan ilhom olgan bo'lsa-da, o'zining boburona g'azalini yaratgan. Ilhomlanish tufayli yaratilgan g'azallaridan yana biri Alisher Navoiyning «koshki» radifli mashhur g'azaliga javobiyasidirki, uning matlai yuqorida keltirilgan. Bu g'azalni o'zaro qiyosiy tahlil va talqin qilganda shu narsa ma'lum bo'ladiki, Boburning javobiyasi nazirai benazir, ya'ni «o'xshash-o'xshamas» uslubida yozilgan.

Bobur g'azallarida shoirning hayotiy voqealardan olgan taassurotlari, hasbi holi, kayfiyati bilan bog'liq bo'lgan mavzulardan bahs yuritish ham ko'zga tashlanadi.

Jumladan:

Charxning men ko'rmagan javru jafosi qoldimu?

Xasta ko'nglum chekmagan dardu balosi qoldimu?

(Bobur. Devon, 51-52-betlar).

Yana:

Keldi ul vaqteki, boshimni olib ketgaymen,

Olam ichra ayog'im etganicha etgaymen...

Dema Boburga netarsen, bosh olib ketmak ne?

Tangrining xosti mundoq esa, men netg'aymen?

(Bobur. Devon. 48-49-betlar).

Bunday kayfiyat Boburning ruboiylarida ham o'z aksini topgan:

Tole' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,

Har ishniki ayladim, xatolig' bo'ldi.

O'z erni qo'yib, Hind sori yuzlandim,

Yo rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.

(Bobur. Devon, 101-bet)

Shuni ham eslatish joizki, Boburning she'riyatida hayot zavqi, tabiat go'zalliklaridan zavqlanish, inson va insoniylikni ulug'lash, vatan va vatandoshlarni sevish, avaylash ham katta o'rin egallaydi. Bunday she'rlarda xushchaqchaq, hayotsevar Bobur namoyon bo'lib turadi:

Yoz fasli, yor vasli, do'stlarning suhbatlari,

She'r bahsi, ishq dardi, bodaning kayfiyati.

Yoz faslida chog'ir ichmakning o'zga holi bor,

Kimga bu nash'a muyassar bo'lsa, bordur davlati.

Ishq dardini chekib, har kimki topsa vasli yor

Ul zamon o'lg'ay unut yuz yilg'i hijron shiddati.

Do'stlarning suhbatida ne xush ulg'ay bahsi she'r,

To bilingay har kishining tab'i birla holati.

Gar bu uch ishni muvofiq topsang ul uch vaqt ila,

Mundin ortuq bo'lmag'ay, Bobur, jahonning ishrati.

(Bobur. Devon, 66-bet)

G'azalda hayotga, tabiatga, insonga oshiqlik va samimiy muhabbat kayfiyati mahorat bilan tasvirlangan. G'azalning matlai shohbayt bo'lib, unda se dard se san'ati, ya'ni uch vaqtda: «yoz fasli, yor vasli, do'stlarning suhbatida»da bajarilishi lozim bo'lgan uchta ish: «she'r bahsi, ishq dardi, bodaning kayfiyati»ni mutanosib tarzda keltiradi. Baytda lafu nashri nomutanosibni ishlatgan Bobur g'azal davomida tasvirning mantiqiy mutanosibligini maydonga keltiradi. Natijada «vaqt-ish» mutanosibligi tufayli do'stlar suhbatida bodaning kayfiyati bilan go'zal emas, balki she'r bahsi, bilimdonlik maydoni bo'lgani bilan go'zaldir, degan olijanob g'oya ilgari suriladi va buni «jahonning ishrati» deb biladi. Ko'rinadiki, Bobur mayparastlikni emas, balki bilimdonlik, she'rdonlikni insonning eng go'zal fazilatlaridan biri deb hisoblaydi:

Do'stlarning suhbatida na xush o'lg'ay bahsi she'r,

To bilingay har kishining tab'i birla holati.

Shunday qilib, Boburning turli-tuman mavzulardan bahs yurituvchi g'azallari o'zining o'ynoqiligi, samimiy hissiyot va taassurotlarning badiiy in'ikosi bo'lganligi jihatidan Alisher Navoiydan keyingi o'zbek g'azalchiligida o'ziga xos mavqega ega.

Boburning lirik asarlari orasida ruboiy janri ham diqqat va e'tiborga sazovordir. Boburning ruboiylari an'anaviy xususiyat va mavzuga ega bo'lsa-da, ammo ularda, xuddi g'azallarida bo'lgani kabi, shoirning ko'rgan-kechirganlari ko'proq o'z aksini topgan, ruboiylarida ham soddabayonlik va samimiylik bo'rtib turadi. Boburning ruboiylari shoir hasbi holi, kayfiyati, botiniy kechinmalarini ko'zgusidek bo'lib tuyuladi. Bu jihatdan Boburning:

Har vaqtiki, ko'rgasen mening so'zumni,

So'zumni o'qub, sog'ing'asen o'zumni,-

(Bobur. Devon, 102-bet)

baytida bayon etgan fikri ruboiylariga ham daxldordir. Bobur ruboiylaridan ayrimlarini keltirishning o'zi ularning qandayligini tasavvur etishga va tahlilu talqin etishga ko'maklashadi:

Kim yor anga ilm tolibi – ilm kerak,

O'rgangali ilm- tolibi ilm kerak.

Men tolibi ilmu tolibi ilme yo'q,

Men bormen ilm tolibi – ilm kerak.

(Bobur. Devon, 78-bet).

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur.
Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlik hargiz,
Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidur.

(Bobur. Devon, 72-bet).

Bobur devonida kichik masnaviy janridagi she'rlar ham bor. Ularning ayrimlari «sabo»ga murojaat etib, oshiq holini yorga etkazish iltimosi bilan boshlanadi:

Sabo, ul gul harimiga guzar qil,
Mening holimdin ul gulga xabar qil.

(Bobur. Devon 110-bet).

Ey sabo, elmakni qo'yg'il, hazm qil,
Sarvinozim ko'yi sori azm qil.

(Bobur, Devon, 116-bet).

Boshqalari esa Boburning hasbiholi bayonidan iborat. Birinchi xil masnaviylar o'zbek adabiyoti tarixidagi nomanavislik an'anasini o'ziga xos tarzda davom ettiradi. Bu o'ziga xoslik ularning aniq tarixiy shaxs (jumladan, Bobur) holatining ifodasi ekanligi bilan belgilanadi.

Ikkinchi guruh masnaviylari esa Bobur hayoti va faoliyati bilan bog'liq bo'lgan voqeaning she'riy bayonidan iborat. Masalan:

Qarosin yog'ining ko'rubturlar,
Dangu hayron boqib turubturlar.
Men etib tez ul sori yurudum,
Yuru-yuru, deb ilgari yurudum...

Uchinchi guruh masnaviylariga xos xususiyat shundan iboratki, unda Boburning falsafiy-ijtimoiy mushohadalari umumlashtirilgan:

Bir kecha xotirim mushavvash edi,
Ko'zda suv, ko'nglim ichra otash edi.

(Bobur. Devon, 118-bet).

Bu masnaviyda insonni o'zligini tanish, o'zining yaratilishidan asl muddao nimaligini anglash, Tangri taolo ma'rifatini dark qilish va iymon-e'tiqodni mustahkamlashga da'vat etish kabi muhim masala qalamga olingan.

5-MAVZU

“BOBURNOMA” – MEMUAR JANRNING NODIR NAMUNASI

Boburning bizgacha etib kelgan mansur-nasriy asarlari «Boburnoma» va «Aruz risolasi»dir.

«Boburnoma» Boburning jahoniy shuhratini ta'minlagan shoh asarlaridan hisoblanadi. Shuning uchun u XVI asrning o'zidan hozirga qadar fors, urdu, ingliz, frantsuz, rus va boshqa tillarga to'liq yoki ayrim namunalari tarjima qilindi, uning haqida turli xildagi ilmiy tadqiqotlar yaratildi. Bu sohada Abdurahim Xonixonon (Hindiston), A.Beveridj xonim (Angliya), B.Sakston (AQSh), Pave de Kurteyl, Bakke Grammon (Frantsiya), N.Ilminskiy (Rusiya), Mirzo Nasriddin Haydar Kuragoniy, Rushan Oro begim (Pokiston), Homil Yoqubov, Porso Shamsiev, Sabohat Azimjonova (O'zbekiston) va boshqalarning xizmatlari e'tiborga sazovordir.

Bobur o'z asarini «Tarix» va «Vaqoe'» deb tilga oladi hamda uning tarjimai hollik xususiyatini alohida uqtirib, shunday yozadi:

Bu olam aro ajab alamlar ko'rdum,

Olam elidin turfa sitamlar ko'rdum.

Har kim bu «Vaqoe'»ni o'qur, bilgaykim,

Ne ranju ne mehnatu ne g'amlar ko'rdum.

Shunday bo'lsa-da, mazkur asar avvalida «Voqeoti Boburiy», «Tuzuki Boburiy», «Tavorixi Boburiy», «Boburiya» tarzida ishlatilib kelingan bo'lsa, keyinchalik «Boburnoma» deb nomlandi va shu tarzda shuhrat qozondi.

Bobur «Boburnoma»ni 925 hijriy- 1518-1519 melodiyl yilda yozishga kirishib, shu vaqtdan boshlab keyingi yillarda sodir bo'lgan voqealarni ketma-ket yozib borgan. 934 hijriy – 1527 melodiyl yildan so'ng, ya'ni Rano Sango ustidan g'alaba qozonib, shimoliy Hindistonda o'z saltanatini mustahkamlagan Bobur o'z kitobida boshdan kechirgan sarguzashtlarini, ya'ni 899 hijriy – 1494 melodiyl yildan 925 hijriy – 1518-1519 melodiyl yilgacha bo'lgan voqealarni ham kiritishni ma'qul deb bilib, ularni esdalik uslubida yozib borgan. Shuning natijasida «Boburnoma»da 899 hijriy – 1494 melodiyl yildan 936 hijriy – 1529 melodiyl yillarda sodir bo'lgan voqealarning sanaviy tartibdagi bayoni o'z aksini topgan. Shuni ham nazarda tutmoq lozimki, «Boburnoma»da ana shu yillar orasida o'n olti yil (910, 915-924, 927, 928, 930, 931 va boshqa hijriy yillar) voqealarining alohida bayoni uchramaydi. Ammo bu «Boburnoma»ning yaxlitligiga katta ta'sir ko'rsatmaydi.

Shunday qilib, «Boburnoma»da Boburning Farg'ona viloyati hokimi bo'lib, Kobulda o'zini podshoh deb e'lon qilgani va nihoyat. Hindistonda o'z saltanatiga asos solgani bilan bog'liq voqealar tizmasi o'z aksini topgan.

«Boburnoma»ning mazmuni unda tasvirlangan hodisa-voqealar shunchalik boy va ko'pqirraliki, buning natijasida u Movarounnahr, Afg'oniston va Hindistonning XV asr va XVI asr boshlaridagi tarixiy, madaniy, urf-odatlar, ilmi va adabiyoti, o'simliklar va hayvonot dunyosi, shahar, qishloq, meva va gullarining boy manzarasini chizuvchi nodir manbaga aylanib qoldi. Bu sohadagi ma'lumotlarning qimmatbaholigi shundan ham bilinadiki, unda tasvirlangan ko'pgina shaharlar, me'moriy yodgorliklar, bog'lar, hayvonot va o'simliklar olami hozirgi kunda tanib bo'lmas darajada o'zgargan yoki saqalanmagan. Shu jihatdan «Boburnoma» noyob ma'lumotlarga boy qomusiy asar sifatida nihoyatda qadrlanadi va o'rganiladi.

«Boburnoma» o'qilar ekan, o'quvchi voqealar girdobiga tushib qoladi, o'zini yuzlab tarixiy shaxslar orasida his etadi; tabiat manzaralari, shaharlar, qishloqlar, tog'lar, vodiylar, me'moriy yodgorliklar, bog'lar, meva va gullarning go'zal tasviri uni maftun etadi. Asarni o'qigan kishi Movarounnahrning Andijon, Xo'jand, Samarqand shaharlari, Afg'onistonning Kobul va boshqa joylarida sayohat qilganday bo'ladi; go'yoki Bobur bu sayohat jarayonida unga yo'lboshchilik qilib borayotgandek tuyuladi. Bu esa asardagi jonli tasvirning, sodda, turkona va samimiy bayonning natijasidir. Yana shuni ham ilova qilish o'rinliki, asarda XV asrning oxiri va XVI asr boshlaridagi hodisa-voqealar bayoni, tarixiy shaxslar tasviri o'zining rasmiyatdan xoliligi, ba'zan achchiq haqiqatning ro'yi rost ifoda etilgani bilan ham kishini hayratda qoldiradi.

Asarning bosh qahramoni-hikoya qiluvchisi Zahiriddin Muhammad Boburdir. «Boburnoma»ni o'qigan kishi bosh qahramonning achchiq-chuchuk sarguzashtlari, o'ziga xos fazilatli shaxsiyati, nihoyatda hassos, qiziquvchan, o'tkir zehn va serqirra idrokli, keng dunyoqarashli ekanligi, mard va jasur, to'g'ri so'z va mustahkam iymon-e'tiqodli bo'lganligining guvohi bo'ladi. Shunisi muhimki, bosh qahramon-Bobur o'zgalar aybini axtarishga intilmaydi, balki o'z aybi va xatosini ham, o'zining «gunohlarini ham shafqatsiz bo'lib qalamga oladi. Shundan-da, Bobur ba'zan qiyin ahvolga qolganini ham yozib, shunday deydi: «Manga bisyor dushvor keldi, beixtiyor g'alaba (ko'p) yig'ladim» (Boburnoma, 113-bet).

Masalaning bu tomoni asarni yozishga muallifning haqqoniylikka, haqiqatgo'ylikka intilganidan dalolat beradi. Bu fazilat esa «Boburnoma»ni o'sha davrda va keyingi davrlarda yaratilgan ko'pgina tarixiy-esdalik asarlaridan ajratib turadi. Chunki boshqa asarlarda dabdabali uslub etakchilik qilsa, «Boburnoma» - da hayotiylik, haqqoniylik, haqgo'ylik va sodda-turkona bayon etakchilik qiladi. Boburning quyidagicha yozganlari ham bu fikrlarni qo'llab-quvvatlaydi:

«Chun bu tarixda andoq iltizom qilinibdurkim, har so'zning rostini bitilgay va har ishning bayoni voqeini tahrir etilgay» (Boburnoma, 292-bet).

Asarda o'sha davrning tarixiy shaxslari-otasi Umarshayx mirzo, amakisi Sulton Mahmud mirzo, Sulton Husayn Boyqaro, Shayboniyxon va boshqa ko'plab tojdorlar, hokimlar qalamga olingan. Ularning tasviri esa bir xil emas, balki har birining tashqi siymosi-surati, ichki dunyosi, urf-odat, qilmishlari, afzaliyat va kamchiliklari boburona ko'rish va qarash asosida o'ziga xos tarzda tasvirlanadi. Masalan, Sulton Husayn Boyqaroning tasvirini nazardan o'tkazaylik:

«**Shakl va shamoyili:** qiyiq ko'zlik, sher andom bo'yliq kishi edi. Belidin quyi inchka edi. Bovujudkim, ulug' yosh yashab, oq soqollik bo'lub edi, xushrang qizil-yashil abrishimni kiyar edi. Qora qo'zi bo'rk kiyar edi yo qalpoq. Ahyonan iydarda kichik sepech dastorni yap-yassi yomon chirmon chirmab, qarqara o'tag'asi sanchib, namozga borur edi...

Axloq va atvori: harrof (so'zamol) va xush xulq kishi edi... Ba'zi muomalotga shar'ni bisyor rioyat qilur edi. Bir qatla bir o'g'li bir kishini o'lturgan uchun qonliqlarig'a topshurub, dor ul-qazog'a yibordi...

Qirq yilg'a yovuqkim, Xurosonla podshoh edi, hech kun yo'q edikim, namozi peshindan so'ng ichmag'ay, vale hargiz sabuhiy qilmas edi.

Shujo' va mardona kishi edi... Temurbek naslidin hech kim ma'lum emaskim, Sulton Husayn mirzocha qilich chopmish bo'lg'ay. Tab'i nazmi bor edi. Devon ham tartib qilib edi. Turkiy aytur edi. Taxallusi «Husayniy» edi... Bovujudkim, ham yosh va ham saltanat bila ulug' podshoh edi, kichiklardek qo'chqor saxlab, kabutar o'ynar edi, tovuq ham urushqa solur edi...» (Boburnoma, 222-223-betlar).

Keltirilgan misolda yozuvchi Bobur tarixiy shaxs – Husayn Boyqaro surati va siyrati, fazilatlarini va shaxsiyatini shunday mahorat bilan, sodda gaplar bilan chizgan va bayon etganki, u sharhga muhtoj emas. Shunisi ham borki, Sulton Husayn Boyqaro haqida zamondoshlari ham ko'p yozganlar, ammo Boburning tasviri ularnikidan tubdan farq qiladi va bunday tasvir faqat Boburdagina uchraydi, xolos. Ana shuning natijasida go'yo tirik Husayn Boyqaro o'zining butun bo'y-bisoti, borligi bilan kishi ko'z o'ngida gavdalanib turadi.

Asarda keltirilgan tarixiy shaxslar faqat tojdorlar, hokim va amirlar emas, balki ular orasida jamiyatning turli toifasiga mansub erkak va ayollar ham bor. Jumladan, shoirlar, olimlar, turli hunarmandlar haqida so'z yuritilganda birinchi navbatda Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy va boshqalarning siymolari ko'z oldiga keladi.

Bobur Mir Alisher Navoiy haqida ham alohida to'xtalgan. Ammo bunda ulug' shoirning tashqi siymosi (portreti) chizgilari ko'rinmaydi, balki shoirning siyrati, fazilat va xizmatlari ko'proq tasvirlanadi.

Demak, tarixiy shaxslarning surat va siyratlari ham yozuvchi Bobur tomonidan turli-tuman uslubda tasvirlanib, har biri o'ziga mos tarzda amalga oshiriladi. Shuning uchun Alisher Navoiy haqidagi quyidagi tasvir ulug' shoirga xos va mos tarzda ekanligining guvohi bo'lamiz:

«Alisherbek naziri yo'q kishi edi. Turkiy til bila to she'r aytubdurlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas... Ahli fazl va ahli hunarg'a Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma'lum emaskim, hargiz paydo bo'lmish bo'lg'ay... Muncha binoyi xayrkim, ul qildi, kam kishi mundoqqa muvaffaq bo'lmish bo'lg'ay...

Mirzodin (Sulton Husayn Boyqarodin) nima (hech narsa) olmas, balki yilda Mirzog'a kulliy mablag'lar peshkash qilur edi». (Boburnoma, 233-bet).

Bu ikki tarixiy shaxs (Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy) haqidagi tasvirlar qiyoslanganda Boburning tarixiy shaxslar surat va siyrati, fazilat va shaxsiyati, xizmat va faoliyatlarini tasvirlashda mohir yozuvchi sifatidagi mahorati yaqqol

ko'zga tashlanadi. Ularda har bir tarixiy shaxsning o'ziga xos fazilat, odat va faoliyatlari idrok etilib, tasvirlangani kishini lol qoldiradi.

«Boburnoma»dagi tabiat mo''jiza va manzaralari tasvirlari ham Boburning yozuvchi sifatidagi nozik didi, shoirona idroki, qiziquvchan va hassosligidan dalolat beradi. Jumladan, Kobulning sharqi-shimolidagi Ko'histon tasvirida chilg'o'za daraxti haqida shunday yozadi: «Ko'histon elining chirog'lari tamom chilg'o'za yig'ochindindur, sham'dey yonar, xele g'arobati bordur» (Boburnoma, 193-bet).

Yoki, Dashti shayx deb ataladigan mavze tasvirida quyidagicha yozganlari qiziqarlidir:

«Bu domanada (tog' etagida) rango-ranga har nav' lola bo'lur. Bir qatla sanattim, o'ttiz ikki-o'ttiz uch nav' g'ayri mukarrar lola chiqti. Bir nav' lola bo'lurkim, andin andak (ozgina) qizil gul hidi kelur, lolai gulbo'y, der eduk» (Boburnoma, 193-bet).

Asarda bunday nozik va shoirona idrok bilan tasvirlangan hodisa-voqea, me'moriy yodgorlik va boshqalar shunchalik ko'b va shunchalik xo'bki, ular Boburning yozuvchi sifatidagi ulkan mahorati va noyob qobiliyatini namoyish etadilar. Masalan, Mirzo Ulug'bekning Samarqanddagi rasadxonasi, Abulqosim Bobur mirzo va Abu Said mirzolarining Hirotdagi Tarabxona qasri tasviri va boshqalar.

«Boburnoma» o'zining sodda bayoni, turkona uslubi bilan nihoyatda qadrlidir. Unda forsiy, turkiy-o'zbek she'riy parchalar, xalq maqol va hikmatli so'zlari o'rnida ishlatilgan. Jumladan: «ishonmag'il do'sting'a, somon tiqar po'sting'a», «yomon ot bila tirilgandin, yaxshi ot bila o'lgan yaxshiroq», «deh-kujo, daraxton-kujo», «qopidag'ini qopmasa, qarig'uncha qayg'urur», «az in jo ronda va az on jo monda», «dushman ne demas, tushga ne kirmas» va hokazo. Shuning bilan bir qatorda Boburning ayrim iboralari ham, o'z navbatida, hikmatli so'zlar darajasiga ko'tarilgan. Masalan: «har kimdin yaxshi qoida qolg'on bo'lsa, aning birla amal qilmoq kerak. Agar ota yomon ish qilg'on bo'lsa, yaxshi ish birla badal qilmoq kerak».

«Boburnoma»da Hindiston bilan bog'liq voqea-hodisa, joy hamda tabiat manzaralari va boshqa tasvirlarda urdu tilidagi so'zlardan foydalanish ham ko'zga tashlanadi. Shunisi borki, Bobur urdu tilini o'rgana boshlagan va hatto o'zbekcha-urducha ayrim baytlarni ham yozgan:

Mango na havoi kuch-u havasi monak-u mutti,

Faqr ahlig'a bas bo'lg'usidur poni-yu rutti.

Baytda ishlatilgan urducha so'zlarning izohi: kuch-hech narsa; monak-qasr; mutti-marvarid; poni-suv; mutti-non.

Agar diqqat qilinsa, mazkur o'zbekcha-urducha baytda «faqr-mening faxrim», degan hadisning mazmuni Boburona uslubda bayon etilgan.

Shunday qilib, «Boburnoma» tarixiy-esdalik va badiiy asar sifatida Boburning yozuvchilik mahoratini o'zida mujassam etgan ko'pqirrali va teran ahamiyatga molik yodgorlik bo'lib, faqat o'zbek nasrininggina emas, balki jahoniy nasrning shoh asarlaridan biridir.

Agar diqqat qilinsa, mazkur o'zbekcha-urducha baytda «faqr-mening faxrim», degan hadisning mazmuni Boburona uslubda bayon etilgan.

Shunday qilib, «Boburnoma» tarixiy-esdalik va badiiy asar sifatida Boburning yozuvchilik mahoratini o'zida mujassam etgan ko'pqirrali va teran ahamiyatga molik yodgorlik bo'lib, faqat o'zbek nasrininggina emas, balki jahoniy nasrning shoh asarlaridan biridir.

Shuning uchun Yangi Dehli'dagi milliy muzeyning mutasaddisi janob G.N.Pantning «Boburnoma»ga oid maqolasini quyidagicha yakunlashida hikmat ko'p:

«Hindiston tarixida uning (Boburning) qutlug' xizmatlari chinakam buyukdir, ammo solnomachilik bobidagi xizmati esa undan ham buyuk. «Boburnoma» ajoyib adabiy va tasviriy san'at asaridir, tarixiy hujjat sifatidagi qiymati esa aslo beo'lchov. Amir Temur tarjimai holi (ya'ni, «Temur tuzuklari») kashfiyot bo'lsa, Boburning tarjimai holi (ya'ni «Boburnoma») bu kashfiyotning oliy nuqtasidir» (O'z AS, 1990, 16 fevral).

6-MAVZU

BOBURNING «MUBAYYIN», «VOLIDIYA» VA «MUXTASAR» ASARLARI

«Volidiya». 1528 yilda Bobur isitma kasaliga uchrab, ancha qiynaladi. Kasallikdan qutulish maqsadida Xoja Ahrori Vali ruhiga murojaat qilib, uning «Volidiya» nomli nasriy asarini o'zbek tiliga she'r bilan tarjima qila boshlaydi. Bu ish jarayoni 10-12 kun davom etadi. Shu orada Bobur kasallikdan ham shifo topgan. Shunisi diqqatga sazovorki, asarning yaratilish tarixi «Boburnoma»da batafsil bayon qilingan. Undan ma'lum bo'ladiki, Bobur asarni yaratish jarayonida uzluksiz ijod qilgan va hattoki, bir kuni ellik ikki baytni qog'ozga tushirgan ekan.

«Volidiya» ikki yuzu qirq uch bayt bo'lib, ilohiyot va odob-axloq masalalaridan bahs yuritadi. Asar «hamd», «Rasulluloh na'ti», «Risola nazmining sabablari», «Risola shuro''i»-boshlanishi, «Risola xotimasi» bo'limlaridan tashkil topgan. «Volidiya»dan kuzatilgan asosiy maqsad «uyqulik (g'aflatda qolgan) ko'ngullarni bedorlig'ga etkazishdan, ya'ni insonni o'zligini tanish orqali Haq taolo ma'rifatidan ogoh bo'lishga hidoyat qilishdan iborat. Ogohlik, o'zni tanish, Haq ma'rifatini idrok etish insonni har qanday yomon fazilatlardan uzoqlashtiradi, uni komillik sari boshlaydi:

G'iybatu yolg'onu muziy so'zdin,

Ehtiroz et, yiroq etgil o'zdin.

Har yamon qavlarni o'zdin dur et,

Tilingga bir nima mazkur et.

Bo'lg'ay aqvolu kaloming bu sifat,
Ko'nglunga boisi nuroniyat...
Yana mo'min ishida yorlig' et,
Alu til birla madadkorliq et...
Zohiru botin adab mar'iy tut,
Beadabliq ravishu rohin unut.

(«Volidiya»)

Xoja Ahror Valining «Volidiya» nasriy risolasidagi ana shu asosiy g'oyani ilg'ab olgan Bobur ham insonning ma'naviy jihatdan pokiza-barkamol bo'lmog'i uchun zarur bo'lgan bilimdan xabarsiz qolmasin deb, asarni forsiydan o'zbek tiliga nazm bilan o'giran. Boburning ezgu maqsadi ana shu g'oyalarni turkiygo'ylar orasiga ham targ'ib qilish, ularga tushuntirishdan iborat. Shuning uchun tarjima sodda, tushunarli, ortiqcha badiiy bezaksiz amalga oshirilgan. Bu asar istiqlolimiz sharofati bilan Saidbek Hasanov tomonidan nashr ettirildi.

«Mubayyin». Zahiriddin Muhammad Bobur turli tabiiy va gumanitar ilmlar bilan bir qatorda, islomshunoslik sohasida ham katta ishlarni amalga oshirdi. Ulardan biri «Volidiya»ning tarjimasi bo'lsa, ikkinchisi «Mubayyin» asaridir. Bobur 1520-1521 yilda o'g'illari Humoyun va Komron mirzolariga bag'ishlab, ilohiyot va islom huquqshunosligi- fiqhidan bahs yurituvchi «Mubayyin» masnaviysini yaratdi. Bu asar «Fiqhi Boburiy» yoki «Fiqhii mubayyin» nomlari bilan ham yuritiladi.

«Mubayyin» Boburning «din ishi'ga ko'p ehtirom kerak», -degan aqidasiining mahsuli bo'lib, u «E'tiqodiya», «Kitob us-salot», «Kitob uz-zakot», «Kitob us-savm» va «Kitob ul- haj» deb ataladigan bo'lim- kitoblardan iborat. Bu bo'lim- kitoblarda islom dinining ruknlari-iymon, namoz, zakot, ro'za, haj haqida so'z yuritiladi; ularning qonun-qoidalari, bajarish usul va tartiblari sodda tarzda bayon qilinadi. Bular, bir tomondan, o'g'illari Humoyun va Komron mirzolar bilishi uchun yozilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa kelajak avlodni ham ulardan xabardor qilish maqsadida yozilgan. Boburning kitobni yaratishdan asosiy maqsadi ham iymonli-e'tiqodli, insof va diyonatli, adolatli kishilarni tarbiyalashda o'z hissasini qo'shishdan iboratdir. Bu esa barcha davrlar, jumladan, bizning davrimizdagi yosh avlodni komil inson bo'lish ruhida tarbiyalashga xizmat qiladigan ezgu niyatdir.

«Mubayyin» istiqlool sharofati bilan Saidbek va Hamidbek Hasanlar tomonidan birinchi marta to'liq nashr ettirildi.

Shunday qilib, Zahiriddin Muhammad Boburning manzum asarlari o'zining janriy rang-barangligi, mavzu doirasining kengligi va badiiy mahoratning namoyon etilgani bilan o'zbek she'riyati tarixida o'ziga xos mavqega ega.

«Aruz risolasi». Boburning nasriy asarlaridan biri turkiy she'riyat va aruz masalalaridan bahs yurituvchi «Aruz risolasi»dir. Asar 1523-1525 yillar orasida yozilgan. Bobur ilmiy risolasining muallif dastxati bo'lgan nusxasi taqdiri noma'lum bo'lsa-da, ammo uning 1533 yilda samarqandlik Hoji Muhammad kotib tomonidan ko'chirilgan nusxasi bizgacha etib kelgan. Bu nusxa Parij Milliy kutubxonasida saqlanadi. Ana shu nusxadan olingan fotonusxa asosida «Aruz risolasi» Sayidbek Hasanov (Toshkent, 1970) va I.V.Stebleva (Moskva, 1970) tomonidan nashr ettirilgan.

«Aruz risolasi» XVI asrdayoq Samarqand va Buxoroda ma'lum bo'lganidan Hasanxoja Nisoriy o'zining 1565 yilda yozgan «Muzakkiri ahbob» tazkirasida uni «durr gavharga to'la dengiz» deb yuqori baholagan edi.

Ma'lumki, aruz haqida arab, fors she'riyati asosida ko'pgina risolalar yaratilgan. Bobur risolasi yozilgunga qadar turkiy she'riyat va aruz masalalaridan bahs yurituvchi Shayx Ahmad Taroziyning «Funun ul-balog'a», Alisher Navoiyning «Mezon ul-avzon» asarlari mavjud edi. Shu jihatdan Boburning risolasi o'zbek aruzshunosligi taraqqiyotining qonuniy mahsuli va Alisher Navoiy an'alarini davom ettirgan asar sifatida diqqatga sazovordir.

Boburning «Aruz risolasi»da turkiy she'riyatning XVI asr boshlarigacha bo'lgan holati va forsiy she'riyat tajribalarini umumlashtirish asosida aruzning xususiyatlari ancha keng yoritilgan. «Aruz risolasi»da aruzning 21 bahri va undagi 537 vazn haqida ma'lumot berilib, ular misollar bilan isbotlangan. Shuni ham eslatish joizki, Boburgacha aruzga bag'ishlangan forsiy va turkiy risolalarda, jumladan, Alisher Navoiyning «Mezon ul-avzon»ida, aruzning 19 bahri tilga olingan. Bobur esa o'z risolasida ana shularga yana ikki bahrni – «amiq» va «ariz»larni ham qo'shib, bahrlar sonini 21 taga etkazdi. Boburning bu ishi aruzning ichki imkoniyatlaridan ijodiy foydalanish asosida har bir she'riyat, jumladan, o'zbek she'riyati uni- aruzni boyitishi mumkin, degan ilmiy xulosadan kelib chiqib amalga oshirilgan.

Bobur har bir bahrni Alisher Navoiyga nisbatan ancha mufassal sharhlaydi. Masalan:

«Hazaj bahri yuz besh vazn: oltmish bir musta'mal, qirq to'rt muxtare', o'n to'qquz vazn musta'mali matbu.

Avvalg'i vazn:

Takalluf har necha suratta bo'lsa, ondin ortuqsan,

Seni jon derlar, ammo betakalluf jondin ortuqsan.

Mafoilun mafoilun mafoilun mafoilun...

Bu vaznda musajja' g'azal kam aytibdurlar.

Mir Alisher Navoiy bir necha g'azal aytibtur, ul jumladin bu bir lo'li yigitning ta'rifida bu g'azal tavre voqe' bo'lubtur:

Ne lo'livashdur ul qotilki, qon to'kmakkadur yaksar

Qiyο boqmoqlari poki, itik mijgonlari nashtar.

Yuzidinkim xijildur gul, parishon har taraf kokul

Sochin gulbarg uza sunbul to'kub kofur uza anbar...

Musajja' g'azallarning matlaida saj' kamroq rioyat qilibturlar. Agar rioyat qilinsa, yaxshiroq bo'lg'usidur, nechukkim:

Qaro zulfung firoqida parishon ro'zgorim bor,

Yuzungning ishtiyoqida ne sabru ne qarorim bor.

Labing bahrimni qon qildi, ko'zumdin qon ravon qildi,

Nega holim yamon qildi, men andin bir so'rorim bor.»

Hazaj bahri haqidagi Boburning bu bayoni Alisher Navoiy «Mezon ul-avzon»idagi bayon bilan qiyoslansa, shu narsa ma'lum bo'ladiki, Boburning sharhi ancha mufassal bo'lib, unda muallif faqat vazn va bahr masalasi bilan cheklanib qolmay, balki shu munosabat bilan badiiy san'atlar haqida ham fikr yuritgan hamda ularni o'zining (Boburning) va Alisher Navoiyning g'azallaridan misollar keltirish bilan isbotlagan.

Boburning risolasida bunga o'xshash holatlarni ko'p uchratish mumkin. Jumladan, Boburning aruz bahrlari vazniga oid doiralar bayonida aniqlik va batafsillikni qo'llagani ham kuzatiladi. Masalan, Alisher Navoiyda mu'talifa, Boburda mujtaliba doirasining sharhi aytilganlarga misol bo'la oladi.

Boburning risolasida aruz masalalari o'zbek tili fonetikasi xususiyatlari bilan bog'langan tarzda bayon etilgan. Shuning natijasida aruzning o'zbek she'riyatida ifodalanishining o'ziga xosliklari (assimilyatsiya, «alif», «vov», «yoy» harflarining yozilishi kabilar) aniqlangan.

«Aruz risolasi»da aruz qonun-qoidalari, uning juzvlari (taqte', rukn...) sharhi bilan bir qatorda yozma va xalq og'zaki she'riyati o'rtasidagi hamkorlik tufayli maydonga kelgan adabiy nav'lar haqida ham fikr yuritilgan. Ma'lumki, bu muhim masala Alisher Navoiy «Mezon ul-avzon»ida birinchi bo'lib qalamga olingan edi. Bobur esa uni yanada rivojlantirdi va boyitdi. Bunday holni, xususan tuyuq to'g'risidagi mulohazalarda yaqqol kuzatish mumkin. Bobur tuyuqning turli nav'-xillari-to'rt qofiyada tajnisni qo'llash, tajnis-radif, tajnisdan oldin hojibning bo'lishi, tuyuq-qit'a va nihoyat, tajnissiz tuyuqlar to'g'risida yangi mulohaza va misollarni keltirgan. Masalan:

To'rt misrada tajnis:

Vaslidin so'z derga yo'q yoro manga,

Hajr aro rahm aylagil yoro manga,

O'qung etti ko'b yomon yoro manga,

Marhami lutfing bila yoro manga.

Izoh: birinchi misradagi «yoro» - jur'at ma'nosida.

Ikkinchi misradagi «yoro» - ey, yor» ma'nosida.

Uchinchi misradagi «yoro» - yara, jarohat ma'nosida.

To'rtinchi misradagi «yoro» - yaramoq, yordam bermoq ma'nosida.

Tuyuq yozish tajribasida bunday nav' kam ishlatiladi, ammo ular uchrab turadi.

Boburning tuyuq nav'lari – xillari haqidagi mulohazalari va keltirgan misollari tuyuq janrining xalq og'zaki she'riyatidagi xususiyatlari bilan yozma she'riyat qonun-qoidalarini (aruz vazni, qofiya, radif, hojib...) bilan qorishuvi jarayonida tadriijiy takomillashib borganini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boburning «Aruz risolasi»da she'riyatning nazariy masalalari bilan bir qatorda adabiy tanqid va adabiyot tarixini yoritishga oid bir qancha muhim mulohazalar mavjud. Jumladan, «Gul va Navro'z» dostonining muallifi Haydar Xorazmiy deb ko'rsatilishi.

Bobur turkiy va forsiy she'riyatining etuk bilimdoni bo'lganidan o'zining risolasida Alisher Navoiy, Haydar Xorazmiy, Hajriy kabi turkigo'ylar bilan bir qatorda Ro'dakiy, Firdavsiy, Nizomiy, Shohiy Sabzavoriy, Abdullo Hotifiy kabi forsiygo'ylarning she'riyatidan ham namunalar keltirgan. Bu bilan Bobur bu adabiyotlardan mushtaraklik va o'zaro hamkorlikning azaliy ekaniga ishora qilganday bo'ladi.

Shunday qilib, Boburning «Aruz risolasi» o'zbek adabiyotshunosligining nodir manbai sifatida katta ilmiy-adabiy ahamiyatga ega.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Boburshunoslik tarixi – qachon boshlangan va u qanday rivojlangan?
2. Bobur hayoti va faoliyati o'zi tomonidan qaysi asarida bayon qilingan?
3. Bobur davlat arbobi sifatida qanday e'tirof etilgan?
4. Bobur manzum asarlarining janriy ko'lamini qanday?
5. Boburning islom arkonlariga bag'ishlangan asarlari bormi?

A D A B I Y O T L A R

1. З.М.Бобур.Бобурнома.-Тошкент: Фан,1960.
2. З.М.Бобур.Девон.-Тошкент: Фан,1994.
3. Ҳазрати Хожа Убайдулло Ахрор.Волидия. Бобур таржимаси. -Тошкент, Ёзувчи,1991.
4. З.М.Бобур. Мубаййин.- Тошкент: А.Қодирий номидаги ХМН, 2000.
5. Б.Валихўжаев. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик, 3 том – Тошкент: Фан, 1978, 42-88- бетлар.
6. Саидбек Ҳасан. «Волидия» ҳақида (сўз боши).

7. Б.Валихўжаев. Хожа Аҳрори Вали.-Самарқанд: Зарафшон, 1993, 129-141-бетлар.
8. А.Абдуғафуров. Бобур шеърляти.Бобур. Девон. –Тошкент: Фан, 1994, 3-14 –бетлар.
9. Ҳ.Ҳасанов. Бобур ва унинг «Мубаййин» асари. Бобур. Мубаййин. – Тошкент: 2000, 3-5- бетлар.

7-MAVZU

BAYRAMXON HAYOTI VA IJODI

Zahiriddin Muhammad Boburdan keyin Hindistonda turkiy-o'zbek tilida ijod qilgan shoirlardan biri Bayramxondir. Xoni xonon (xonlar xoni) unvoniga ega bo'lgan Muhammad Bayramxon nomi (taxallusi Bayram) XU1 asrning birinchi yarmi Hindiston tarixi, madaniyati va adabiyotiga bag'ishlangan deyarlik hamma manbalarda tilga olinadi, uning harbiy- siyosiy faoliyati va adabiy ijodiga yuqori baho beriladi. Jumladan, Xo'ja Nizomiddin Ahmad Hirotiy (1550-1604)ning «Tabaqoti Akbariy», Abdulqodir Badayuniyning «Maosiri Rahimi», Abul Fazl Allomiy (1551-1602)ning «Akbarнома»si va boshqa tarixiy-memuar asarlar hamda tazkiralarda Bayramxonning hayoti va ijodiy faoliyatiga doir ma'lumotlar ko'p uchraydi.

Muhammad Bayramxonning fors-tojik va turkiy-o'zbek tillarida yozilgan she'rlari devonini dastlab 1910 yilda Kalkuttada ingliz sharqshunos olimi Denison Ross nashr ettirdi.

Denison Ross Bayramxonning forsiy va turkiy devonini bir kitob qilgan. U ikki qo'lyozmaga asoslangan bo'lib, ulardan birini unga hind olimi Xarinat De sovg'a qilgan. Bu nashrga Bayramxonning 979 bayt she'ri kirgan.

Bayramxon hayoti va ijodiga oid birinchi maxsus ilmiy tadqiqot hind olimi Hakimali Kavsar Chandpuri qalamiga mansub. U 1931 yilda Agrada «Muhammad Bayramxon turkman» nomli monografiyasini nashr qilgan.

Shoir she'rlarining eng mukammal nashri 1971 yilda Karochida amalga oshirilgan devonidir. U Said Husomiddin Roshidiy va Muhammad Sobir tomonidan bosmaga tayyorlangan hamda doktor Mahmud Hasan Siddiqiy unga kirish so'z yozgan. Noshirlar Ross nashridan tashqari, boshqa manbalardan ham foydalanishgan. Unga forsiy 618, turkiy 388 bayt she'rlari kiritilgan.

Uning forsha qismi 5 qasida, 39 g'azal, 20 fard, 7 qit'a, 19 ruboiy, bir masnaviy va bir tarixdan iborat. Turkiy qismi esa 47 g'azal, 2 qit'a, 13 ruboiy va 5 fardni o'z ichiga olgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning nevarasi Akbar saroyida xizmat qilgan tarixchi Abdulboqi Nihovandiyning «Maosiri Rahimi» asarida Bayramxonning o'g'li Abdurahimning kutubxonasida Bayramxonning ikki ming bayt she'ri o'z ichiga olgan devoni bo'lganligi haqida ma'lumot bor. Nihovandiy ana shu devondan 419 baytni tanlab o'z kitobiga kiritgan.

O'rta Osiyo xalqlari adabiyotida Bayramxonning hayoti va ijodi bilan dastlab turkman adabiyotshunoslari qiziqdilar. Atoqli turkman yozuvchisi Berdi Kerboboev Hindiston taassurotlariga bag'ishlangan maqolasida Javoharlal Neru va hind olimi Mannarama bergan ma'lumotlarga asoslanib, turkman adabiyotshunosligi oldiga Bayramxon ijodini o'rganish vazifasini qo'ydi. Shundan keyin Turkmanistonda S.Ataev, B.Axundov, R.Alievlarning Bayramxon haqidagi maqolalari e'lon qilindi. Ashxobodda chiqadigan «Edebiyat va sungat» gazetasi bir necha sonida Bayramxon she'rlaridan namunalar berdi. Turkman olimlari Mati Ko'saev va Ruhi Alievlar 1970 yilda Ashxobodda Bayramxon she'rlarini turkman tilida nashr ettirdilar. Bu kitobdan shoirning 281 bayt turkiy she'rlari joy olgan va 171 bayt forsiy she'rlarining tarjimai berilgan. Kitob Bayramxon davri va hayoti haqida ma'lumot beruvchi muhim ocherk bilan boshlanadi. Unda Hindiston nashrlaridan ilova qilingan illyustratsiyalar ham mavjud.

Keyingi yillarda Bayramxon ijodi o'zbek adabiyotshunoslarining ham diqqatini o'ziga jalb etmoqda. Jumladan, O'zFA Sharqshunoslik instituti tomonidan 1975 yilda nashr qilingan to'plamda berilgan maqolada Muhammad Bayramxon haqidagi ilmiy manbalar ustida fikr yuritilgan. Shoirning siyosiy va ijtimoiy faoliyatiga doir ayrim noaniqliklarni bartaraf qilishga harakat qilingan, mavjud ilmiy adabiyotlar tanqidiy baholangan.¹

Bayramxon ijodiga doir ba'zi muhim fikrlar akad. B.Valixo'jaev asarlarida ham uchraydi.²

Bayramxon asarlarini ommalashtirish bo'yicha ham ma'lum ishlar qilindi. 1982 yilda chiqqan «Asrlar nidosi» majmuasiga uning turkiy she'rlaridan 249 bayt kiritilgan. Ular 38 g'azal, 10 ruboiy va 5 farddan iborat.³ Muhammad Bayramxon she'rlarini har tomonlama tahlil etilgan yirikroq bir ish hali e'lon qilingan emas.

Yuqorida qayd qilingan ilmiy va adabiy manbalarga asoslanib, uning hayot yo'li va ijtimoiy faoliyati haqida quyidagilarni qayd qilish mumkin.

Muhammad Bayramxonning qachon tug'ilganligi aniq ma'lum emas. Eslatilgan manbalardagi qaydlarga ko'ra, u 1500-1505 yillar orasida dunyoga kelgan. Tug'ilgan joyini ko'pchilik mualliflar Badaxshon deb ko'rsatadilar. Ayrimlar esa uni G'azna shahrida tug'ilgan, deydilar. Bayramxonning otasi Sayfalibek turkmanlarning Bahorli urug'idan. U G'azna hokimi bo'lib, keyinchalik Boburga qo'shilgan, uning yurishlarida ishtirok etgan. Yosh Bayramxon avval

¹Р.Имомхўжаев «Муҳаммад Байрамхон ва унинг ижодий мероси ҳақидаги айрим манбалар», тўпл.

«Ҳиндистон ҳақлари адабиётидан очерклар», - Тошкент: Фан-1975й.

²Ўзбек адабиёти тарихи, беш томлик, III том, -Тошкент: Фан-1978.

³ Asrlar nidosi, -Тошкент: 1982.

G'aznada, so'ng Balxda ta'lim olgan, madrasalarda o'qib, ayni zamonda, harbiy mashg'ulotlar bilan ham shug'ullangan. U fors va arab tillarini mukammal egallagan, o'tmish shoirlarning asarlarini qunt bilan mutolaa qilgan va she'riyatga muhabbat qo'ygan. Bayramxon 16 yoshida Boburning o'g'li Shahzoda Humoyunning xizmatiga kirgan va shundan boshlab umrininng oxirigacha Boburiylar saroyida harbiy mansablarda ishlagan. Ma'lumotlarga ko'ra, Bayramxon o'zining sadoqati, jasurligi va shoirliği bilan Boburning diqqatini o'ziga jalb etgan va Zahiriddin Muhammad Bobur Humoyunga Bayramxonni ta'riflab, ularning do'st bo'lib qolishlarini maslahat bergan.

Zahiriddin Muhammad Bobur vafoti (1530) dan keyin taxtga chiqqan Humoyun Bayramxonni o'ziga eng yaqin maslahatchi qilib oladi hamda Bayramxon Humoyunning vafotiga qadar doimo u bilan birga bo'ladi. Boburiylarning Hindiston va Afg'onistonda yirik markazlashgan davlatining qaror topishida uning xizmatlari katta, deb hisoblashadi. Muhammad Bayramxon Humoyun bilan uning ukalari Komron Mirzo, Mirzo Askariy, Hindol Mirzolar orasidagi janjallarni bartaraf qilish, ularni yarashtirish va shu orqali markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun ham ko'p kuch sarflaydi.

Humoyun Bayramxonga Xoni xonon unvonini berib, o'z o'g'li Akbarning otalig'i qilib tayinlaydi. Akbar tarbiyasi butunlay Bayramxonning nazorati ostida amalga oshiriladi. Bayramxon Humoyunning jiyani va Boburning nevarasi Salima Sultonbegimga uylanadi. Salima Sultonbegim shoira bo'lib, «Maxfiy» taxallusi bilan she'rlar ham yozgan, go'zalligi uchun uni Zebunniso deb ataganlar. 1556 yilda Bayramxonning o'g'li Abdurahim dunyoga keladi. Abdurahim ham otasi vafotidan so'ng Akbar (1556-1605) podshohligi davrida Xoni xonon unvonini olgan. U arab, fors, urdu, sanskrit tillarini ham mukammal bilgan. O'z davrining iste'dodli shoiri, olimi sifatida tanilgan, Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma»sini fors tiliga tarjima qilib, uning jahoniy sho'hrat kasb etishiga o'z hissasini qo'shgan. Humoyun 1556 yilda vafot etgandan keyin taxtga 14 yashar Akbar o'tiradi. U yosh bo'lganligi sababli mamlakatni boshqarish Bayramxon ixtiyorida edi. Biroq, 1560 yilda saroyda Bayramxonga nisbatan uyushtirilgan fitna sababli Akbar bu otaliqni hokimiyatdan chetlatib, podsholikni o'z qo'liga oladi. Bundan norozi bo'lgan Bayramxon o'ziga tegishli odamlari bilan Akbarga qarshi chiqadi. Lekin Akbar qo'shinlari tomonidan engilib, Tilvar qal'asiga qamaladi. U kechirim so'rab, qal'adan Akbarga maktub yo'llaydi. Akbar uni kechiradi va saroyda qabul qilib, unvonlarini qayta tiklaydi. Dushmanlar fitnasi kuchayib borayotganligi sababli Bayramxon saroyda qolishni istamaydi. 1560 yil 31 dekabrda Bayramxon Gujaratda o'ldiriladi. U dastlab Gujaratning Patna degan joyida ko'miladi, 1578 yilda qabri Mashhadga olib kelinadi. Bayramxonning o'g'li Abdurahim Akbar tarbiyasiga olinadi.

Muhammad Bayramxon o'z davrining yirik davlat arbobi, harbiy sarkardasi bo'lishi bilan birga, zavqi baland shoir, yirik so'z ustasi ham edi. Uning yoshlik paytlarida aytgan she'rlari Zahiriddin Muhammad Bobur e'tiborini o'ziga jalb etgan. Shunga ko'ra, umrining asosiy qismi urushlar, davlatni boshqarish, diplomatiya kabilar bilan band bo'lganligiga qaramay, anchagina salmoqli adabiy meros ham qoldirgan. Bizgacha etib kelgan she'rlari uning qalamiga mansub

asarlarning hammasi emas, albatta. XU1 asr oxirlarida Alouddavla binni Yahyo as-Sayfi al-Hasaniy tomonidan tuzilgan «Nafoyis al-maosir» asarida Bayramxonning turli ustoz shoirlar va zamondoshlar asarlariga qilgan o'xshatma hamda naziralari alohida to'plam etilgani aytilgan. Uning bu majmuasi ham boshqa asarlari kabi hali topilgan emas.

Bayramxonning bizga ma'lum she'rlari ham uning qay darajada salohiyatli, iste'dodli shoir, mohir so'z ustasi, nozik ma'nolarni turli poetik san'atlar orqali ramziy ishoralarda ifodalay oladigan «Mo'shikof» (qilni yoruvchi) ekanligiga ishonch hosil qildiradi.

Bayramxon forsiy she'riyatida ko'proq Hofiz Sheroziy, Amir Xusrav Dehlaviy, Shayx Sa'diy, Abdurahmon Jomiy, turkiy she'rlarida esa Mavlono Lutfiy, Alisher Navoiy va ayniqsa, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ulug' ijodkorlar - so'z ustalariga ergashgan. Zahiriddin Boburga izdoshlik qilish O'rta Osiyodan Hindistonga borib qolgan boshqa shoirlar ijodida ham ko'proq ko'zga tashlanib turadi. Bayramxon har ikkala tildagi ijodida Bayram taxallusini qo'llagan. Uning devonlari devon tartib berish qoidalariga moslab tuzilgan. Ularda she'rlar janrlar bo'yicha dastlab qasidalar, g'azallar, keyin ruboiy, qit'a, fardlar tarzida joylashtirilgan, mazmun bo'yicha esa avval tavhid, hamd, munojot, na't, me'roj, shoh va shohzodalar madhi; keyin ishq-muhabbat, pand-nasihat, axloq-odob mavzuidagi asarlar o'rin olgan. Bayramxonning Denison Ross nashr etdirgan devonidagi birinchi she'r hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf vaznida aytilgan

Ey fitnada mastona ko'zung mazhari ashyo,

Kundek bori zarroti jahon aynida paydo.

Matlai bilan boshlanuvchi hamddir. Barcha shoirlar devonlaridagidek, bunda ham olamning yaratuvchisiga tavhid aytilgan. Shoir borliqdagi hamma narsa uning mazhari va mavjudligi nishonasi, deydi. Bu ma'no yuzlab shoirlarda bir xilda uchrasada, ammo uni har bir iqtidorli shoir o'zicha, o'ziga xos shakl va uslubda aytishga harakat qilgan, jumladan, Bayram ham. U deyarli har bir baytda go'zal poetik san'atlar yaratadi. Masalan, quyidagi baytlarda talmeh san'atidan foydalanib, Vomiq, Uzro, Majnun, Laylo obrazlarini ishlatish orqali lirik baytlar tarkibida katta epik syujetlar mazmunini singdira olgan bo'lsa, o'z navbatida, bu afsonalar qahramonlari orqali olamning bir butunligini ta'kidlagan.

Rindona qading jilvasidin fitnada Vomiq,

Mastona ko'zung shevasidin g'amzada Uzro.

Ul la'li shakarxo bila maftun sanga Shirin

Ul husni diloru bila Majnun sanga Laylo.

Vomiq Uzroda, Farhod Shirinda, Majnun Layloda uni (ollohni) ko'radi, ayni zamonda Uzro, Shirin va Laylolar ham Vomiq, Farhod, Majnunda uni ko'radi.

Yaratuvchining borligi va birligiga u yaratgan olam guvoh, shohid, olamning borligi esa yaratuvchi borligining isbotidir, deydi shoir.

Ko'pgina baytlarda esa tardu aks san'atini qo'llab, bulbul tili til bulbuliga aylanib seni vasf etadi, nargis ko'zi esa ko'zlaring nargisi bo'lib senga mushtoqona tikiladi,- deydi.

Bulbul tili til bulbulidek vasfingga notiq,

Nargis ko'zi ko'z nargisidek ayningga bino.

Bayramning munojot, na't, me'roj xarakteridagi she'rlari ham ana shu uslubda aytilgan. Masalan, payg'ambar na'tiga aytilgan she'rda shoir

Sendek jahonda bo'lg'oli mavlid koinot,

Tug'maydur ummahot onosi bir ato o'g'ul

Baytini keltiradiki, unda jahonda koinot tug'ilgan, ya'ni yaratilgan zamonlardan beri Ummahot onasi (chor unsur) ikkinchi bir sendek ota-o'g'il (ya'ni, ham ota, ham o'g'il) tuqqan emas, degan fikr bildirilgan. Keyin esa boshdan oxir tardu aks asosiga qurilgan quyidagi bayt berilgan:

Ojizdurur kamoli sifotingda kulli aql

Qosirdurur sifoti kamolingda aqli kull.

Bunda kamoli sifoting-sifoti kamoling, kulli aql- aqli kull tardu aksning go'zal namunasi bo'lib, baytda sening sifatlarining barkamolligini ta'riflashda barcha aql ojiz, kamoloting sifatlarini bayon etishda etuk aql ham qusurlidir, degan ma'no ifodalangan. Bayramxonning Humoyunga bag'ishlangan madhiyasi esa boshdan-oxir tashbeh va istiora asosiga qurilgan.

Yo'qturur ushshoq aro men benavodek bedile,

Chun mening yorim kabi olamda kimning yori bor...

Dilbari no'shinlabe, siymin tane, sangin dile,

Nozanine, mahjabine, sarv qaddu guluzor...

Shohi Jamjohu Sikandar hashmatu Qaysar shukuh,

Xusrav Rustam dilu Sultoni Xoqon iqtidor.

Bunda Bayram «Humoyunni shaxs sifatida dilbar (dilni oluvchi) no'shinlab (shirinlab), siymin tan (kumush tan), sangin dil(dili tosh), nozanin (chiroyli), mahjabin(peshonasi oydek yarqiragan) sarv qad(qomati sarv daraxtidek tik), guluzor (gul yuzli) kabi tashbeh va istioralar bilan ta'riflagan bo'lsa, uning shohlik sifatlarini Jamshed, Iskanlar, Qaysar, Xusrav, Rustam, Sulton, Xoqon kabi Eron, Hind, Yunoniston, Rum, Turk va Xo'tan hukmdorlari hashmatu azamatiga qiyos qilgan, uni ustun qo'ygan, shu bilan birga, bu baytlarda ma'nosi bir-biriga yaqin so'zlarni, turli tarixiy shaxslar va olimlar nomlarini keltirish bilan ta'dil va talmeh san'atlari namunalarini ham yaratgan. Madhiyaning quyidagi bayti Bayramxonning shoir sifatidagi san'atkorlik mahoratini yana ham to'laroq, ishonchliroq tasavvur etish imkoniyatini beradi.

Tushgali ko'z ravzanidin ul quyoshning partavi,

Raqs etar ko'nglum havoyi mehrin aylab zarravor.

Uyning tuynugidan tushayotgan quyosh nurida son-sanoqsiz zarralarning raqsi yaqqol ko'rinadi. Shoir ana shu manzaradan go'zal poetik lavha yaratgan. Go'yo Humoyun yuzidagi nur shoirning ko'z tuynugidan ko'ngliga kirgan zamondan boshlab shoirning qalbi Humoyunga mehrini bildirib zarra kabi raqs etadi, ya'ni Humoyun yuzining sho'lasida shoirning qalbi raqsga tushadi. Bu mazmun tashxis

(raqs etish), tashbeh(zarravor), istiora (ul quyosh) san'atlari orqali o'z go'zal ifodasini topgan.

Bayramxon she'rlari mardlik, jasorat, qahramonlik kabi harbiy kishilarga xos fazilatlarini madh etib, sotqinlik, xiyonat, qo'rqqoqlik kabi xususiyatlarni qoralash mavzularida ham bitilgan. Bunga shoirning Yormuhammat ismli yigitga bag'ishlangan g'azali va tojik tilida aytilgan masnaviysini misol tarzida ko'rsatish mumkin. «Inonma» radifli g'azalida esa xiyonatchi g'arazgo'ylarni qoralab, shohni unday kishilarni o'ziga yaqinlashtirmaslikka da'vat etadi.

Har so'zki g'arazgo' desa, ey yor, inonma,

Arbobi g'araz so'ziga zinhor inonma

Gar aytsaki zohir qiladur ishqini elga,

Billoh, kishiga qilmadim izhor, inonma.

Har dam sanga yuz so'z mani mahrumdin aytib,

Har so'zda aning yuz g'arazi bor, inonma.

Bu baytlarda shoir o'zi bo'lmagan paytlarda shohga uning haqida har xil fitna-fasodlar to'qib etkazgan saroy amaldorlari-shoirning raqiblari kirdi kori fosh etilgan. Bunda ham «so'zni g'arazgo'», «g'araz so'ziga» «zohir qiladur», «qilmadim izhor», «yuz so'z», «yuz g'araz» singari birikmalarni ishlatib tardu aks san'ati namunalarini hosil qilgan. Bayramning quyidagi g'azali uning ijodiy mahorati haqida tasavvur hosil qilishga ma'lum darajada xizmat qila oladi. Uni to'la keltiramiz:

Xush ulkim, sarvi nozim rahm qilg'ay benavolarga,

Nechukkim podsholar marhamat aylar gadolarga.

Agar ul shohi xubon lutf ila bo'lsa xaridorim,

Gadoyimen, ki istig'no sotarmen podsholarga.

Latofatlik yigitlar umr yang'lig' bevafo durlar,

Mening jonimdur ul kim, o'xshamaydur bevafo larga.

Dame kim noz ila ikki labi vasfin ado qilg'ay,

Masiho bo'lsa ham jon bergay ul nozik adolarga.

Balolardur manga ul ko'z bila zulfu qadu kokul,

Balolig' ko'y edi kim, uchradim mundog' balolarga.

Yuzun ko'rsatdiyu ko'nglum olib yoshurdi ruxsorin,

Ki mundin so'ng ko'ngulni bermagaymen dilrabolarga

Gadoyi benavodur Bayramu yo'linda xok o'lg'on,

Tariqi mehr ila komi guzar qil benavolarga.

G'azal aruzning hazaji musammani solim (mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun) vaznida yozilgan. Birinchi baytdagi mazmun: shunisi yaxshiki podsholar gadolarga shafqat, marhamat qilganidek, mening sarvi nozim ham o'ziga zor bo'lganlarga rahm-shafqat qiladi. Bu mazmun yangi emas, deyarlik hamma shoirlarda uni ko'rish mumkin. Ammo Bayram bu mazmunni o'ziga xos usulda, badiiy libosda ifodalashga harakat qilgan va bunga erishgan. Birinchi misradagi sarvi nozim mafhumida ham o'xshatish, ham istiora ishlatilgan. Yor, mahbub yoki do'st so'zlari o'rniga «sarvinozim» so'zining ishlatilishi-bu istioradir. Yor qomatini engilgina tebranib, jilvalanib turgan sarv daraxtiga monand qilinishi- bu to'la ma'nodagi o'xshatish- tashbehdir, birinchi misradagi «rahm» so'zi bilan ikkinchi misradagi «marhamat» o'zakdosh, ma'nodosh so'zlar bo'lib, ular ishtiyoq san'ati namunasidir. «Podsholar» va «gadolar» so'zlari esa tazod- qarama-qarshi qo'yish san'ati mahsulidir.

Ikkinchi bayt mazmuni: Agar u go'zallar podshosi menga lutf-iltifot qilib, o'ziga kerakli deb bilsa, gadoyligimga qaramay o'zimni podsholarga boylik sotayotgan badavlat bir kishi his qilardim. Bunda ham istiora (shohi xubon), tazod (xaridorim-sotarmen, gadoyimen-podsholarga, lutf-istig'no) san'atlari qo'llanilgan.

Uchinchi bayt mazmuni: go'zal yoshlik umr kabi bevafo, ya'ni yoshlik ham, umr ham tez o'tib ketadi, faqatgina mening yorim u bevafolarga o'xshamaydi. Bunda go'zal yoshlik- latofatli yigitlar umrga o'xshatilib, ular bevafo. (ya'ni, bu olamdan o'tib ketuvchi)-iyhom san'ati, Mening jonim, ya'ni yorim (istiora) esa u yigitlarga o'xshamaydi, degan ma'no bor. Birinchi misradagi «bevafo» so'zi dunyo foni, o'tkinchi ma'nolarida qo'llanilgan bo'lsa, ikkinchi misradagisida esa latofatlik yigitlar nazarda tutilgan va iyhom san'ati yuzaga kelgan. To'rtinchi bayt mazmuni: (Yorning) nozi va ikki labi ta'rifini bayon qilayotgan paytida, masiho ham uning nozik ma'nolariga jonini berardi. Baytdagi «ado» so'zi ikki misrada ikki ma'noda qo'llanilgan. Birinchisida «bayon qilish», «so'zlash», ikkinchisida «go'zal» ma'nosi» mazmunida qo'llangan va iyhom san'ati hosil qilingan. «Masiho» so'zi esa «talmih va iyhom», «noz» va «nozik» so'zlari esa o'zakdosh bo'lib ishtiyoq san'ati namunasidir. Beshinchi bayt mazmuni : Uning (yorning) ko'zi bilan zulfi, qaddu kokuli shu darajada go'zallik hosil qilganki, men u xavfli yo'lni tanlamay ilojim yo'qligi uchun bunday balolarga duchor bo'ldim. Baytdagi «balolardur» so'zi jozibali, g'oyat go'zal, «balolig' ko'y» birikmasi xavfli yo'l, «balolarda» so'zi azob, mashaqqat ma'nolarida ishlatilgan va tajnis hamda iyhom san'ati yuzaga kelgan. Ko'z, zulf, qad, kokil so'zlarining ketma-ket keltirilib, ularning hammasi balolar(go'zallik unsurlari) tarzida izohlanishi ham baytning badiiy bezagi bo'lgan.

Oltinchi bayt mazmuni: yuzini ko'rsatdiyu ko'nglimni zabt etib, qaytadan ruxsorini yashirdi. Endi men bundan keyin ko'nglimni dilrabolarga oldirmayman. Baytda ishlatilgan tajnis (yuzin-ruxsorin, ko'nglum olib- dilrabo), tazod(ko'nglum olib- ko'ngulni bermagayman, ko'rsatdiyu- yoshurdi) kabi san'atlar ma'noning jozibali, go'zal chiqishiga xizmat qilgan. Ettinchi bayt mazmuni: Bayram sening yo'lingda tuproq bo'lgan bir benavo gadoydir, endi bu benavolar maqsadi uchun

mehribonlik bilan ular tomon yur. Baytda ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan tariq, yo'l, guzar, benavo (yo'lsiz) so'zlari yig'ilib ta'dil san'ati hosil bo'lgan. Bularning hammasi g'azalning go'zal ma'noli bo'lishiga xizmat qilgan. Bayramxonning ko'pchilik g'azallari ana shunday boshdan oxir bir yoki bir-biriga yaqin san'atlarni ishlatish yo'li bilan yaratilgan. Bu shoirning badiiy so'z aytishda ko'pchilik olimlar tan olgan o'ziga xos yo'li borligidan dalolat beradi.

Bayramxon ijodida Mavlono Lutfiy, Alisher Navoiy va Zahiriddin Boburga ergashish yo'li bilan aytilgan she'rlar ham uchraydi. Bunga uning «Xoh inon, xoh inonma» (Lutfiyga), «Yor dardi joni bemorimda bo'lgay koshki» (Alisher Navoiyga), «Men zorga sendek yana bir yor topilmas» (Zahiriddin Boburga) singari g'azallari misol bo'la oladi.

Shunday qilib, Bayramxon XU1 asrda Hindistonda Zahiriddin Muhammad Bobur sababli shakllangan turkiy tildagi she'riyatning zabardast namoyandalardan biri bo'lib, uni o'zbek mumtoz adabiyoti vakili sifatida ham o'rganish lozimdir.

8-MAVZU

MIRZO KOMRON HAYOTI VA IJODI

Zahiriddin Muhammad Boburning adabiy faoliyatini Hindistonda muvaffaqiyat bilan davom ettirib, xuddi Bayramxondek forsiy va turkiy tillarda ijod etgan shoirlardan biri Boburning o'g'li Komron Mirzodir. Komron Mirzo g'azal, ruboiy, qit'a, fard va masnaviy janrlarida ijod qilib, o'z davri adabiy hayotida ko'zga tashlangan va shoir sifatida tan olingan. Uning hayoti va ijodi haqida Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» va boshqa asarlarida, Gulbadan begimning «Humoyunnoma»sida, Abul Fazl Allomiyning «Akbarнома»si va boshqa manbalarda ma'lumotlar uchraydi. Komron Mirzo hayoti va ijodini o'rganishda keyingi yillarda O'zbekistonda ancha ishlar amalga oshirildi. Jumladan, N.Nizomiddinov, N.Rahimov, R.Inomxo'jaev, J.Jo'raev, S.Do'stov, Saidbek Hasanov va boshqalarning kitoblari va ilmiy maqolalari e'lon qilindi, devoni nashr ettirildi. O'zbekistonda yashab turgan afg'on olimasi Shafiqa Yorqin Komron Mirzo davri, hayoti, ijodi va badiiy mahoratiga doir nomzodlik dissertatsiyasi yoqladi.

Komron Mirzo 1509 yili Zahiriddin Muhammad Bobur oilasida dunyoga keldi. Gulbadanbegim Shafiqa Yorqinning ma'lumotiga ko'ra, Uning onasi Gulruxbegim bo'lib, bekchik qabilasi amirining qizi bo'lgan¹ Komron Mirzo yaxshi tarbiya ko'rdi. Bobur Humoyunga yozgan xatida Komron Mirzoga e'tibor berishni, u bilan kelishib ish qilishni maslahat bergan. Garchi tengdosh bo'lsalar ham, Bobur Humoyunni o'z davlatining merosxo'ri hisoblab, Komronga Humoyunning maslahatidan chiqmaslikni buyurgan. Ammo, Zahiriddin Muhammad Bobur vafoti (1530) dan so'ng ular o'rtasida kelishuv uzoq davom etmadi. Humoyun o'z amirlari bilan chiqisha olmadi, mamlakatda tarqoqlik yuz

¹ Шафика Ёркин. Комрон Мирзонинг ҳаёти ва ижодий мероси ф.ф.н. диссертацияси автореферати, Тошкент-1999, сах.7. яна: Гулбаданбегим. Сах.28.

bera boshladi. Ayrim amirlar Komron tomon o'taboshladilar. U Afg'onistonda o'z hokimiyatini mustahkamlay boshladi. Humoyun Eron podshosi Shoh Tahmosbdan yordam so'radi. Komron Mirzo ikki marta safaviylar qo'shinlariga zarba berdi. O'zini Shoh deb e'lon qildi. Humoyun 1546 yilda Erondan katta yordam olib, Komron Mirzoga qarshi qo'shin tortti. Ayrim Amirlar uning tomoniga o'tdilar. Urushda Komron engildi, xiyonat tufayli asir tushdi va Humoyun Mirzoning farmoni bilan ko'ziga mil tortilib ko'r qilindi. Komron Mirzoning Humoyunga munosabati o'ta salbiy bo'lmagan, buni uning Humoyunga bag'ishlab yozgan she'rlaridan bilish mumkin. U Humoyunni shoh sifatida tan olgan, unga bo'ysunishni o'ziga burch deb bilgan. Ammo, hamma zamonlarda bo'lganidek, hokimiyat talashuv bu fojialarga sabab bo'lgan. Komron Mirzo aftidan o'z xatolarini tushunib, hokimiyatdan butunlay voz kechgan va Haj safarini ixtiyor qilgan. Komron Mirzo Hajni ado qilgandan so'ng, o'sha erda qolishga qaror qilgan. 1556 yilda Arafot marosimidan so'ng ahvoli yomonlashib vafot topgan. Jasadi Xadichai Kubro mazori yaqinida dafn etilgan. Hasanxoja Nisoriy o'z tazkirasida Komron Mirzoga munosib baho bergan. Uni «Mazlumlarning arz-dodini o'zi so'rardi va ularni devon mahkamasi oldida sarg'ayib turishlariga yo'l qo'ymasdi», deb ulug'lagan, Komron Mirzoning forsiy va turkiy g'azallaridan bittadan namuna keltirgan. Komron Mirzo deyarlik otasi Zahiriddin Muhammad Bobur umricha umr ko'rdi. U Hindistonda shakllangan turkiy tildagi adabiyotning so'nggi namoyandalaridan edi. Komron Mirzo fors va turkiy tillarni mukammal bilgan, turkiy tildagi she'rlarida forscha bayon uslubi sezilib turadi. Uning forsiy va turkiy she'rlarni o'z ichiga olgan devoni bizgacha etib kelgan. Unda jami 1500 baytdan ziyod she'rlar jamlangan. Hozircha uning uch nusxasi ma'lum. Ular Hindistonning Patna, Kalkutta va Rampur shaharlarida saqlanadi. Devon nusxalari bir-biriga juda yaqin bo'lib, ular Komron Mirzoning ijodiy faoliyatiga doir etarli ma'lumotlar bera oladi. Taniqli o'zbek olimi professor Saidbek Hasanov 1993 yili shu nusxalar asosida uning devonini Toshkentda nashr ettirdi. Devonidan namuna she'rlar to'plamlar sahifalarida ham e'lon qilingan. Komron Mirzoning fors tilidagi she'rlarini 1929 yili Hind olimi Muhammad Mahfuzulhaq alohida kitob qilib nashr etdirgan. Devondagi har ikkala tilda aytilgan she'rlarning miqdori 171ta bo'lib, shulardan g'azal 72ta, ruboiy 37ta, fard 44ta, masnaviy 3ta, qit'a 5ta, tarkibband 1ta, to'rtlik 1 tadir. Komron Mirzo she'rlarining ko'pchiligi tasavvufona ruhdagi she'rlardir. Ularda shoirning hayot, dunyo, inson, o'lim haqidagi mulohazalari falsafiy mazmun bilan sug'orilgan. Devondagi turkiy she'rlarning birinchisi, hamma shoirlarda bo'lganidek, borliqning yaratuvchisi va mohiyati – Parvardigori olamning maqtoviga bag'ishlangan hamddir. Shoir olamdagi har bir zarrada uning husni tajalliy etadi, namoyon bo'ladi, jamoli olamga oro beruvchi oftobdir, -deydi.

Zihi har zarradin husning huvaydo,

Jamoling oftobi olamoro.

Agar zohir, agar botinda sensen,

Ko'zu ko'nglum aro pinhonu paydo.

Agar yumsam ko'z, ar har sori ochsam,

Sening husningni aylarmen tamosho.

Gahi oshiq, gahe ma'shuq etarsen,

Bo'lub har suvrat ichra oshkoro.

G'azal hazaji musaddasi mahzuf (mafoiylun mafoiylun fauvlun) vaznida aytilgan. Birinchi baytda o'xshatish (jamoling oftobi olamoro) san'atini qo'llab, olamni yoritib, ziynat, oro berib turgan quyosh asl, haqiqiy nurning zohiran namoyon bo'lib turgan xossasi, sifati desa, ikkinchi baytda ma'no jihatidan zid bo'lgan (tazod san'ati) zohir (ko'zga ko'rinish) va botin (tasavvurda his etish) so'zlarini ishlatib» xoh zohirda bo'lsin, xoh botinda bo'lsin, ko'zimda paydou ko'nglimda pinhon faqat sensan, deydi. Baytda tazod san'ati bilan birga tanosib (zohir-paydo, botin-pinhon, hamda tardu aks (zohir botin – pinhonu paydo) san'atlari ham mahorat bilan qo'llangan. Keyingi baytlarda ko'zimni yumsam ham, ochib har tomonga qarasam ham faqat sening husningni tamosho qilaman. Har bir suvratda, manzarada, narsa – predmetda sen namoyon bo'lib, meni goh oshiq, goh ma'shuq etasan- deydi va bu baytlarda ham tazod (yumsam- ochsam), ishtiqoq (oshiq-ma'shuq) san'atlaridan foydalangan. Bular Komron Mirzoning ma'noni majoz yo'li bilan ifodalash, badiiy so'z aytishda mahorat kasb etganidan dalolat beradi. Komron Mirzo ijodda ko'proq Amir Xusrav Dehlaviy, Alisher Navoiy, Mavlono Haydar Xorazmiy, Zahiriddin Muhammad Boburga ergashgan.

Bir g'azalida:

Turkiyda Navoiyg'a etsam, ne ajab, G'oziy,
She'rimga quloq solsa mahbubi suxandonim,
deydi. Boshqa bir g'azalida tazmin san'atidan foydalanib, Alisher Navoiyning mashhur g'azalidagi matla':

Ne bo'ldi dardima, ey bevafo, davo qilsang,
Vafog'a va'da qilib, va'dag'a vafo qilsang,
baytini o'zining she'rida ikkiga bo'lib keltirgan:
Davo visoling erur ko'ngluma, tarahhum etib,
«Ne bo'ldi dardima, ey bevafo, davo qilsang».
Visol mujdasini etkurub, karam aylab,
«Vafog'a va'da qilib, va'dag'a vafo qilsang».

Navoiy baytida tazod (dard-davo, bevafo-vafo), tardu aks (vafog'a va'da – va'dag'a vafo) san'atlari vositasida go'zal ma'no ifoda etilgan. Komronning qo'shgan misralarida esa iyyom san'ati ishlatilib, dardning davosi visol ekanligi izohlangan.

Shuningdek, Komronning:

Sendan ayru har zamon ko'nglum mening g'amnokrok,
Ko'kragim hajr ilgidin pirohanimdin chokrok.

Matla'li g'azali ham Alisher Navoiyning Samarqandda aytilgan deb taxmin qilinadigan:

Ko'kragimdur subhning pirohanidin chokrok,
Kiprigim shabnam to'kulgan sabzadin namnokrok.

Matla'ini esga tushiradi. Komron Mirzoning masnaviylaridan birida Mavlono Haydar Xorazmiyning «Gulshani asror» asaridan tazmin qilingan.

Haydar –o'shal shoiri farxundafar,

Bir-iki so'z dedi ajab muxtasar:

«Er kishiga himmat agar to'sh bo'lur,

Ko'kni talashquchi agar qush bo'lur.

Er kishiga himmat agar bo'lsa yor,

Oqibatul-amr murodin topor»

Komron Mirzoning bu masnaviysida gap balandhimmat, dunyoga mehr qo'ymaslik ustida boradi. Shu mazmunni ifodalash uchun Mavlono Haydarning asaridan iqtibos olib, o'z qarashlarini mustahkamlagan.

Komron Mirzoning boshqa janrlarda aytilgan she'rlari ham ma'nodor va go'zal badiiy san'atlar bilan bezalgan. Xususan, Komron Mirzoning g'azal, ruboiy, fard, qit'a va masnaviylari Zahiriddin Muhammad Boburning shu janrlarda aytilgan she'rlariga juda yaqindir. Jumladan, uning Boburni eslatuvchi quyidagi qit'asini ko'raylik:

Toki g'ayr o'ldi mahrami haram,

Mani mahrumi ul haram qildi.

Mani, shoho, sipohi dardu g'am,

Olam eli aro alam qildi.

Qit'ada mahrami, haram, mahrumi, haram kabi o'zakdosh so'zlarning har biri ma'noni ifodalash uchun xizmat qilgan va ishtiyoq san'atini hosil etgan, «olam» va «alam» so'zlari tajnis san'ati namunasidir. Shaklan bir xil bu so'zlarning biri olam, dunyo ma'nosini bildirsa, ikkinchisi alam, ya'ni bayroq ma'nosida kelgan. Shuningdek, dardu g'am, alam so'zlari ma'nodosh bo'lib ta'dil san'ati yuzaga kelgan. Shohga murojaat - iltifot va alamni ikki (bayroq va alam qilish) ma'nosida ishlatishi iyyomni yuzaga keltirgan. Qit'aning mazmuni yangilik emas. Shoir, ey shoh, sening dargohingga begona kirib-chiqadigan bo'lgandan beri meni uyingdan begona qildi va bu bilan dardu g'am lashkari meni olam eliga bayroq qilib ko'rsatdi, demoqchi. Ammo ana shu mazmun bir necha tasviriy vosita va san'atlar orqali ifodalanganligi uchun go'zal so'z san'ati yuzaga kelgan.

Komron Mirzoning

Ag'yorga ko'p vafo qilursan,

Jonimga base jafo qilursan,

kabi misralari Zahiriddin Muhammad Boburning

G'ayriga necha vafo qilg'aysen,

Jonima necha jafo qilg'aysen.

bayti bilan ma'no jihatidan va badiiy san'atlarni qo'llash jihatidan ham juda yaqin. Komron Mirzoning masnaviylari Bobur masnaviylarini esga tushiradi. Ayniqsa, Boburning

Sabo, ul gul harimig'a guzar qil,

Mening holimdin ul gulga xabar qil.

bayti bilan boshlanuvchi masnaviysi Komron Mirzoning faqat masnaviylariga emas, g'azallariga ham ta'sir etgan.

Komron Mirzo she'riyati XVI asrda Hindistonda va Afg'onistonda bo'lib o'tgan voqealarning badiiy aksi, shoir qalbining kechinmalari ifodasi, so'z san'atining o'ziga xos namunalari sifatida o'rganishga loyiqdir.

9-MAVZU

GULBADANBEGIM HAYOTI VA IJODI

Boburiylar tomonidan XVI asrda Hindistonda shakllangan madaniyat va adabiyotning ko'zga ko'ringan namoyandalardan biri Gulbadanbegimdir. U Bobur xonadonidan chiqqan ayol ijodkorlar orasida otasining tarix (voqea)navislik sohasidagi faoliyatini davom ettirib, XVI asr o'rtalarida Hindiston, Afg'oniston va qisman Movarounnahrda bo'lib o'tgan voqealarni qalamga olib, kelajak uchun muhim xizmat qilgan madaniyat namoyandasidir. Gulbadanbegimning shoiraligi haqida ba'zi ma'lumotlar bo'lsa ham, undan faqatgina «Humoyunnoma» nomli asari etib kelgan. Bu asarning yagona qo'lyozma nusxasi ma'lum. Bu nusxa Londondagi Britaniya muzeyida saqlanadi. Bu haqda dastlab ingliz olimi Charlz Riyo xabar bergan va 1879 yilda katalogida uning dunyoda yagona nusxa ekanligini qayd etgan. Riyoning bu ma'lumotiga hozirgacha o'zgarish kiritilgan emas. Asarning qo'lyozmasi 83 varaqdan iborat. Uni ingliz olimasi Annet Beverij ingliz tiliga tarjima qilgan va so'z boshi yozib, chop etdirgan. Ana shu nashr ustida uzoq yillar davomida ishlagan o'zbek olimasi akad. Sabohat Azimjonova 1959 yilda uni o'zbek tiliga tarjimasi bilan faksimilini birga nashr qildirdi. Nashr ko'rsatkichlar va ilova bilan ta'minlangan. Sabohat Azimjonova va N.B.Baykova tomonidan yozilgan so'z boshida asarning topilishi, o'rganilishi, mazmuni va ahamiyati haqida ancha keng ma'lumot berilgan.

Gulbadanbegim 1522 yili Kobulda tug'ilgan. Uning onasi Salima Sulton begim bo'lib, Dildor begim nomi bilan shuhrat tutgan. U Boburning amakisi Sulton Mahmud Mirzoning qizi edi. Gulbadanbegim Boburning ko'satmasi bilan Humoyun Mirzoning onasi Mohim begim qo'lida tarbiyalanadi. Mohim begim Bobur xotinlari ichida eng bilimdoni bo'lib, Saroyda obro'si katta edi. Gulbadanbegim o'z asarida onasini ko'pincha Dildor begim, Mohim begimni esa onam hazratlari, deydi. Gulbadanbegim yoshligidan o'qish, yozishni o'rgangan, aqlli va o'tkir zehnli bo'lgan. Ko'p asarlarni mutolaa qilgan. Zahiriddin Bobur vafot etganda, u 8 yashar edi. U Mohim begim bilan ko'proq Kobulda yashagan, keyinroq Bobur taklifi bilan Agraga ko'chib borganlar. Gulbadanbegim Humoyun vafotigacha (1556) asosan Agra va Kobulda yashagan. Humoyunning o'g'li Akbar hokimiyat tepasiga kelgach (1556y.), 1557 yili Akbarning onasi Xadicha bonu begim va boshqalar bilan Dehliga qaytib kelgan. U 1575 yili Makkaga haj safariga otlangan. Bu haqda Abul Fazl Allomiyning «Akbarnoma» asarida ayrim ma'lumotlar uchraydi. Gulbadanbegim 1603 yili 80 yoshdan oshib vafot etgan.

Akbarshoh uni munosib izzat va hurmat bilan dafn etgan. O'zi tobutini ko'tarib, ko'mish marosimida o'g'illik vazifasini bajargan.

Gulbadanbegimning uzoq muddatlik hayot yo'li haqida ma'lumot etarli emas. Yoshlik paytlaridan boshlab to Komron Mirzo ko'ziga mil tortilganigacha davrlardagi hayoti haqida, ozmi ko'pmi ma'lumotlar uning o'z asarida uchraydi. Keyin Akbarshohning unga murojaat qilgani va bobosi Bobur hamda otasi Humoyunshoh tarixiga doir bilgan narsalarini yozib berishni so'ragani haqida ma'lumot bor. Nihoyat, vafoti bilan bog'liq ayrim qaydlar Akbarshoh kotibi va tarixchisi Abul Fazl Allomiyning «Akbarnoma» asarida keltirilgan Bulardan boshqa ma'lumotlar hozircha ma'lum emas.

Ingliz olimasi Annet Beverij «Humoyunnoma» 1585-1587 yillar orasida yozilgan, deydi. Chunki shu yillarda Akbarshoh Abul Fazl Allomiyga o'z tarixini yozishni buyurgan. Buning uchun yozilajak kitobga material sifatida bobosi Boburdan boshlab bo'lib o'tgan voqealarni yozib berishni bundan xabardor kishilarga buyurgan. Jumladan, katta ammasi bo'lmish Gulbadanbegimga ham murojaat qilib, shu vazifani topshirgan.

Shunday qilib, Gulbadanbegimning «Humoyunnoma»si yozilajak «Akbarnoma» ga material sifatida dunyoga kelgan. Buni uning o'zi «Hukm shuda bud ki, onchi az voqeoti firdavsmakoni va hazrati jannat oshyoni medonista boshed, navised» (firdavsmakon va jannat oshyon voqealaridan nimaniki bilsangiz yozingiz, degan hukm bo'lgan edi) Bunda «firdavsmakon» deganda Zahiriddin Bobur va «jannat oshyoni deganda Humoyunshoh nazarda tutilgan. Shuning uchun ham «Humoyunnoma» yagona qo'lyozma sifatida qolib ketgan bo'lishi mumkin, Annet Beverij qo'lyozmani muallif dastxati deb ham aytgan. Agar asar 1585-1587 yillarda yozilgan bo'lsa (bu fikrning to'g'riligiga asos bor), unda Gulbadanbegim bu paytlarda 63-64 yoshlarda edi. Uning 35-55yillar avval bo'lib o'tgan voqealarni, ayniqsa, ayrim o'rinlarda o'zi 3-5 yoshlarda bo'lgan davrlardagi voqealarni eslab qolganligi va ularga o'z munosabatini bildirganligi otasi Zahiriddin Muhammad Boburni xotirga tushiradi. Gulbadan begimning «Boburnoma»ni o'qiganligi shubhasiz. Buni asarda qayta-qayta unga murojaat qilib turishidan bilish mumkin. Shuningdek, «Boburnoma»ning otasi tomonidan yozilgan asl nusxasini emas, balki Bayramxonning o'g'li Abdurahim Xoni xonon tomonidan forsiyga o'girilgan nusxasidan foydalangan bo'lishi ham mumkin. «Humoyunnoma»ning asl (forsiy) nusxasidagi ayrim uslubiy unsurlar shundan dalolat beradi. Boburning Husayn Boyqaro vafoti munosabati bilan Hirotga borgani va unda Badiuzzamon, Muzaffar Mirzo va amirlar bilan bo'lib o'tgan voqealar bayoni aynan «Boburnoma»dagi tasvirga o'xshab ketadi. Bu voqealar boburiylar xonadonida juda mashhur bo'lib, ular avloddan-avlodga o'tib kelgan va Gulbadan begim ulardan foydalangan bo'lishi ham haqiqatdan uzoq emas. Chunki u paytlarda Gulbadan begim hali dunyoda bo'lmagan va u voqealar uning tug'ilishidan 13-14 yillar ilgari bo'lib o'tgan. Gulbadan begim esa ularni xuddi o'zi ko'rgandek, hatto Boburning o'zidan ham batafsilroq hikoya qilgan. Bunday hol Boburning Xonzodabegimni Shayboniyxonga qoldirib Samarqanddan chiqib ketgani tasvirlangan sahifalarda ham ko'rinadi. Gulbadanbegim yozadi: «Oxir zarurat shud, Xonzodabegimro ba xoni mazkur (Shayboniyxon) nisbat karda xud

baromadand. Bo duvist kas piyoda va dar kitf chapon va dar poyonho choruq, iliglarida chubiq, bo in tavi hol beyaroq tavakkal ba hazrati haq subhona ...» (Oxiri zarurat bo'ldiki, Xonzodabegimni yuqorida aytilgan Xonga (Shayboniyxonga) nisbat qilib (topshirib), o'zlari ikki yuz kishi bilan hazrati haq subhonaga tavakkal qilib, piyoda elkalarida chopon oyoqlarida choruq, qo'llarida tayoq, qurol-yaroqsiz (Samarqanddan) chiqdilar. «Boburnoma»da tasvir bu darajada batafsil va mukkamal emas. Gulbadanbegim uni xuddi o'zi ko'rgandek tasvirlagan. Holbuki, bu voqealar uning tug'ilishidan 22-23 yillar ilgari bo'lib o'tgan. Demak, Gulbadanbegim bu voqealarni o'z xonadonidan bo'lgan va voqealar guvohi bo'lgan kishilardan eshitgan va eslab qolgan. Ba'zan-ba'zan turkiy so'zlarni ham ishlatgan. Masalan, «iliglarida chubiq» va hokazo. «Humoyunnoma» da voqealar vaqt-vaqti bilan avvalgi tarixga murojaat qilgan holda asosan Bobur hayotining oxirgi davrlaridan boshlab hikoya qilingan. Bu qism «Boburnoma»ning uzilib qolgan joyidan Bobur vafotigacha bo'lgan davrni to'ldirishga bebaho xizmat qiladi va go'yo «Boburnoma»ni yakunlaydi. Shu jihatdan «Humoyunnoma» Zahiriddin Muhammad Bobur hayot yo'li va ijodi, «Boburnoma» ning yaratilishiga doir ma'lumotlarni aniqlashda ham muhim ahamiyatga egadir. «Humoyunnoma» asosan Boburning o'g'illari Humoyun, Komron, Hindol va Askariy mirzolar o'rtasida bo'lib o'tgan taxtu toj talashuv voqealarini hikoya qiladi. Bu urushlar oqibatida Mirzo Askariy va Hindol Mirzolar o'ldiriladi va Komron Mirzoning ko'zi ko'r qilinadi. Asar ana shu erga etganda uzilib qoladi. Uning keyingi voqealarni bayon qiluvchi qismi yo'qligi sabablari ma'lum emas.

Gulbadanbegimning bu asari XVI asrning birinchi yarmi, ayniqsa, 30 va 40-yillarida Hindiston va Afg'onistonda boburiylar hukmronligi zamonida ro'y bergan voqealar haqida hikoya qiluvchi bebaho manbadir. Biz undan XVI asrda Hindiston va O'zbekiston o'rtasida mavjud bo'lgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy aloqalar, bu davrda Hindistonning madaniy hayoti, Boburiylar xonadonidagi muhit, marosim va an'analar haqida ham zarur ma'lumotlarni olishimiz mumkin.

«Humoyunnoma»da o'zbekcha so'z va hatto jumalarning mavjudligi XVI asrning ikkinchi yarmida ham boburiylar xonadonida o'zbek tilida gaplashish an'analari mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. Agar haqiqatdan ham asarning yagona nusxasi Gulbadanbegimning o'z dastxati bo'lsa, bunga to'la ishonch hosil qilish mumkin. Gulbadanbegim o'tmish nasrnavislaridan, jumladan, otasi Boburdan shunisi bilan farq qiladiki, u asarida deyarlik nazmdan foydalanmagan, faqat ikki joydagina she'r keltirilgan. Ularning bittasi ruboiy bo'lib, muallifi Humoyunshoh ekanligi ishora qilingan. Kimga qaratilganligi haqida ham ikki xil fikr bildirilgan. Bu ruboiyning o'zbekcha mazmuni quyidagicha:

Oynada o'zingni ko'rganing bilan,

Bu baribir o'zingdan boshqadir.

O'zingni boshqacha ko'rishing ajabdir,

Lekin bu ajablik (xudoning) qilgan ishidir.¹

Ikkinchisi esa

Hayhot, oh, ey, afsus,

Quyoshim bulutlar ostida berkildi!

marsiyasi bo'lib, bu Gulbadanbegimning o'zi tomonidan Hindol Mirzoning o'ldirilishi munosabati bilan aytilgan.

Gulbadanbegimning bayon uslubi fors- tojik nasrining bayon uslubiga o'xshab ketadi. U o'rni-o'rni bilan turli badiiy san'atlardan ham foydalanadi, ayniqsa, his-tuyg'ularni ta'sirchan ifodalay olgan. Jumladan, Hindol Mirzoning o'ldirilishi tasvirlangan o'rinlar, ayniqsa, o'quvchini hayajonlantiradi. Bulardan «Humoyunnoma» asarining badiiy fazilatlarini ham qadrli ekanligi ma'lum bo'ladi.

Gulbadanbegim o'zbek adabiyoti tarixidan o'ziga munosib o'rin egallashi lozim bo'lgan ijodkorlardandir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

- 1.XVI asrda Hindistonda shakllangan turkiy tildagi adabiyot haqida nimalarni bilasiz?
- 2.Bayramxon ijodi qaysi mamlakatlarda o'rganilgan va nima ishlar qilingan?
- 3.Komron Mirzoning hayoti va ijodi haqida ma'lumot beruvchi qaysi manba'larni bilasiz?
- 4.Gulbadanbegimning «Humoyunnoma»si bilan «Boburnoma» o'rtasida qanday o'xshashlik va farqlar bor?

A D A B I Y O T L A R

1. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик. 3 том,- Тошкент. Фан, 7-44 бетлар.
2. Асрлар нидоси, -Тошкент:1982, 42-83 саҳифалар.
3. Саидбек Ҳасанов. Комрон Мирзо. Девон.- Тошкент: Ёзувчи-1993й.
4. Заҳириддин Муҳаммад Бобур (Илмий мақолалар тўплами),-Тошкент: Ёзувчи - 1994.
5. Гулбаданбегим, Ҳумоюннома, Тошкент, Ўз Фан-1959.
- 6.Тоҳиров Қ. Муҳаммад Байрамхон шоир ва давлат арбоби, Ўзбек филологияси масалалари, №4, -Самарқанд, СамДУ нашри-2002 й, яна «Зиёкор» ойномаси – 2002 й. 11-сон.
- 7.Маърузалар матни.
- 8.Анвар Ҳожиаҳмедов. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: 1999, 9-114 саҳифалар.

¹ Гулбадан бегим. Ҳумоюннома,- Тошкент: ЎзФА нашриёти – 1959, Саҳ-61.

10-MAVZU

FORIG'iy HAMDA DIYDA HAYOTI VA IJODI

Adabiyotshunoslik fani vujudga kelibdiki, badiiyat va uning jihatlariga turli ta'riflar berilsa-da, ular muayyan davr asarlarining o'ziga xos xususiyatlari asosida shakllana boravergan. Va vaqt o'tishi, mavzularning boyishi va murakkablashuvi bilan badiiyatga munosabat ham o'zgara boshlagan.

Shu jumladan, Hindiston turkiyzabon adabiyotiga xos badiiyat tushunchasi Forig'iy, Yusuf Faryobiy, Fahm, Diyda va Johila qalamida ba'zi shunday originallikka da'vogar xususiyatlar kasb etganki, bu borada ular ijodida e'tiborga loyiq mysollar etarli-cha topiladi.

Agar poeziyadan badiiylilikni shartli ravishda g'azalxon ruhiyatini junbushga keltirish deb bilsak, bu hol Forig'iy she'rlari mutolaasida paradoksal xarakterda kechishi bilan diqqatni o'ziga tortadi. Shoirning lirik qahramoni yor jafosidan dard cheksa-da, iegadir, u fig'oni falakka ko'tarilib faryod etish o'rniga, aksincha, o'zini azobga solgan dardidan davo izlaydi. Go'yo sevish-sevilish kabi ishkidagi baxt mezoni faqat visol onlari emas, balki uzluksiz hijron damlari sinoviga bardosh-la, doimiy yorga sadoqatda bo'lishdek:

Bovujudi dardi ishqing naylayin darmon netay,

Chunki darding har nafas, ey do'st, darmondur yana.

Yana bir boshqa g'azalda «yor zulfiga giriftor» oshiq shunday bir ishq maskanini ixtiyor etadiki, unga hatto «tutqunlik»da ham taqdiridan mamnunligi bois shukronalar aytadi. Zero, yor «halqai zulfi» iskanjasidagina uning «dilu joni ikki jahondin ozoda»:

Ozoda bo'lubtur dilu jon ikki jahondin,

To xalqai zulfunga giriftor bo'lubtur.

Maxsus biror shoir devonini varaqlab, undagi hammashe'rlarni o'qib chiqilgani bilan, ular orasida faqat taqliddan xoli va o'z tabiiy badiiyatiga ega asarlarga e'tiborni o'ziga tortishi mumkin, kiroyi g'azalxon nuktadon bo'lsa!

Forig'iy devonida shunday xarakterli nuqtalardan biri «yo'qturur» radifli g'azali bo'lib, undagi ravon ohang, mazmundan maqsadga o'tishdagi uzviylik hamda maqta'da yashiringan sirli hulosa kishini befarq qo'ymaydi. Shunday qilib, avval, g'azalning odatdagi yorga murojaat misralari asosida ushbu «sevgi dostoni»ning muqaddimasi ochiladi:

Kelki sendin o'zga yoru mehribonim yo'qturur,

G'amdin o'zga mahrami rozi nihonim yo'qturur.

Keyingi baytda shoir sevgisi rad etilgan oshiqning tushkunlik va umidsizlik kabi holatlari epizodini, go'yo o'z makoni - gulshanidan mahrum «andalibi xasta» qiyofasida chizadi:

Ul guli ra'no g'amida andalibi xastadek,
Gulshane yo'kturki faryod figonim yo'qturur.

Odatda g'azalning finaliga yaqinlashgan sari oshiqning ishq dardida to'lganishi, bevafoining hasratu alamidan faryod chekishi, ag'yorlarga ko'rsatilgan mehr-muruvvatdan rashk o'tida kuyishi kabi kechinmalar avjga minsa, Forig'iyning lirik qahramonida esa, aksincha, go'yo uning orzu-umidlari cho'g'i asta so'nib kulga aylanayotgandek ... Va u - oshiq, faqat muqaddas sirlar siri «Lavhi mahfuz» ichra nomu nishoni yo'q»ligidan zorlanadi, xolos. Balki shuning uchundir, uni shu kuy- ga solgan ma'shuqa obrazi ham maqta'da nihon qoladi:

Ishq kuyida bolavu mehnatu gamdin yana,
Mushfiqi yoru rafiqim mehribonim yo'qturur.
Forigiy gar bo'ldi benomu nishon ayb etmangiz,
Lavhi mahfuz ichra ham nomu nishonim yo'qturur.

Bu erda, bizningcha, gazalning kompozitsion tuzilishiga asos qilib olingan sevishtganlar dil rozining «Lavhi mahfuz» darajasida ulug'lanishi, aslida, ishq-muhabbat sir-asrori mavjudligining mangulikka daxldorligiga bir ishora!

Insonga berilgan barcha ne'matlar guli - hayotning gulshani bo'lgan sevgi-muhabbatni nainki kuylash, ulug'lash, balki kezi kelganda uni ilohiylashtirish Hindiston turkiygo'y shoirlariga xos odat. Agar she'riyatda Boburning «ibodat vaqtidagi yor xayoli va tasavvuri» singari o'xshatishlari Hindiston turkiy- zabon adabiyotida bu pokiza tuyguning imon-e'tiqod me'roji darajasiga ko'tarilishiga sabab bo'lgan bo'lsa, bu tasodif emas, balki an'ana!

Misol uchun, Forig'iy birgina «muhaddis» so'zini radifga olish bilan, she'rga uning zamiridagi poklikka undovchi muqaddaslik ruhini singdirib, go'yo «Hadis» aytuvchi maqomidagi ma'shuqa obrazi orqali oshiqqa sevgidan saboq berilayotganligini bayon qila- di:

Yuz shukrki bo'ldi menga dildor muhaddis, Qildi karamu lutf yak bor muhaddis.

G'ame harf ne men g'amzadaye besarupog'a,
Ta'lim qilurdi qilur izhor muhaddis,
G'am yo'qturur agar bo'lsa (...) besarupog'a,
G'am kuyida har vaqtgi g'amxo'r muhaddis.
Chun ishq hadisini bayon aylasa nogoh,
Aylar manga g'am harfini takror muhaddis.
Chun Forig'iy g'amzada hargiz o'qug'um yo'q,
Men telbag'a bo'lmasa dildor muhaddis.

Manbalardan ma'lumki, agar Forig'iy nomi «Boburnoma»ning ikki erida qayd qilingan bo'lsa, boshqa bir manbada xuddi shu taxallusli shoir Abdurahim xoni xononning shogirdi ekanligi zikr etilgan. Lekin «Hindistonda topilgan Forig'iy devonidagi she'rlarning birorta bayti ham XVI asrga oid tazkiralarda namuna sifatida hatto zikr etilmagan»(3bb5b).

Biri ikkinchisini inkor etuvchi e'tirofu e'tiroz oralig'idagi bunday ma'lumotlar bizni yana bir karra shoir ijodiga sinchkolik bilan nazar solishga undab, fikrimizcha, shunday she'r muhim detalning yuzaga chiqishiga sabab bo'ldi. Ya'ni, shoir «hanuz» radifli she'rida «Tor sipoh hajr qilib umrin xarob» etganligidan afsuslanadi:

Tor sipoh hajr qildi nomai umrum xarob,

Ul xarob obod hajring ichra vayrondur hanuz.

Yoki, muallifning yigitlar madhiga bag'ishlangan g'azali ham ayni sarbozlarga sardor «sipoh sanosi» emasmikin?

Azaldin o'ldi ko'ngul muftalo yigitlarga

Ki, toabad qilayin jon fido yigitlarga.

Qilibsen ahli jahondin arzun, meni begona,

Oning uchunki bo'lg'ay oshno yigitlarga.

Jahonda toki tirikmen mudomi shavq bilan,

Ko'ngul duo qilur (har) on sano yigitlarga.

Jafoni qilmadi kam nechakim vafo qildim,

Vafo ne foyda bu bevafo yigitlarga.

Niyoz ahlidin, ey Forig'iy, agar ersang,

Fano bo'lub tila Haqdin baqo yigitlarga.

Qisqasi, yuqorida keltirilgan misralardan ko'ri- nib turibdiki, qo'limizdagi devon muallifining shaxsiyati va davri to'grisida apiq bir xulosaga kelishning hozircha imkoni yo'q. Va qolaversa, Hindiston qo'lyozma fondlaridan saqlanayotgan manbalar yangidan yangi shunday bir muammolarni ko'ndalang qo'ymokdiki, ularni faqat kelgusida maxsus plannlar orqali hal qilish mumkin. Lekin Forig'iy xususida yana shuni aytish kerakki, uning devon sahifalarda Dekan miniatyura maktabi uslubiga xostasvirlar bilan bezatilganligi na bu uslubning Akbar davriga taalluqli ekanligidan, har qalay shoirning Abdurahim xoni xonon zamondoshi yoki shogirdi bo'lganligi haqiqatga yaqinroq.

Forig'iy devonining ilmiy tavsifi

XVII asrga mansub Forig'iy devoni qo'lyozmasi xattotlik, musavvirlik va naqqoshlik san'atining barkamol namunasidir (137). Matnning dastlabki 6 misra lik ikki sahifasi naqsh va zarhal unvonlar bilan bezatilgan. She'rlar ikki ustunda yozilib, ularning o'zaro ajratilgan joylariga Dekan miniatyura maktabi- ga hos uslubda xilma-xil qushlar, tabiat manzaralari hamda erkak va ayol rasmlari chizilgan.

Nusxaning chiroyli nasta'liq xatidan kotibning mahorati sezilib turadi. «*Solorjang*» qutubxonasida saqlanayotgan mazkur 1098-inv. raqamli devonning 41 varakdan iborat sahifalari 1-36 gacha paginatsiya qilingan. To'plamga kiritilgan g'azallarning 15 tasi turkiyda va yana 2 tasi shiru shakar uslubida yozilgan.

Birinchi sahifaning chap tarafidan yuqorida «*Devoni Forig'iy*» xati va 145 raqami bitilgan. Qo'lyozmaning paginatsiyasi bo'yicha 2a sahifaning yuqorisida «*solahiy varaq*» xati va 3039 raqami ko'zga tashlanadi. Forsiy she'rlardan farqli o'laroq, turkiy g'azallar maxsus belgi orqali hoshiyada ko'rsatilgan.

Qo'lyozmada tarihiy ahamiyatga molik bir muhr bor, uning kotibi va tarixi noma'lum, saqlanishi yaxshi.

Diyda hayoti va ijodi

Hindiston turkiyzabon adabiyoti chinakam baynalmilal so'z san'atidir. Unda o'zbek, turkman, ozarbayjon, turk va boshqa millat shoirlari «hind-musulmon madaniyati»dek muazzam bir dargohga turkiy so'zi va badiiyatini olib kirib, xalqlarimizning asriy adabiy aloqalarini amaliy jihatdan yanada mustahkamladilar.

Mazkur o'lkada yaratilgan arab alifbosidagi turkiy she'riyat imlo va inshosining o'xshashligi sharofatidanmi, bu tildagi asarlarni o'qish, o'rganish baxti turkiyzabon xalqlarning barcha millatlariga barobar muyassar. Lekin shunisi ham haqiqatki, hindistonlik turkiygo'y shoirlar orasida ayrimlarining qalami nihoyatda o'zbek tiliga yaqin yo turdosh.

Diydaning mo'jazzina devonidan joy olgan g'azal va ruboiylarning dastlabki ko'zga tashlanuvchi eng xos tomoni, avvalo, undagi voqelik bayonining xalqchil va samimiyligi. U o'z hissiyoti, maqsad va maslaklarini iloji boricha oddiy tilda ifodalaydi va huddi shu uslubi bilan o'quvchi yuragiga eng yaqin yo'l topadi. Ammo shuningdek, shoirning sirtidan jo'n bo'lib ko'rinuvchi she'riy lavhalarida muayyan poetik murakkabliklar ham yo'q emas. Misol uchun, quyidagi to'rtlikni tahlilga olib ko'rsak:

Ko'zumga ko'rindi to jamolung,
Gulzori jahon kulib ochildi.
Oy, kun bila nur yulduzini,
Boshimga nisor deb sochildi.

She'rda dastlab yor jamolining ko'zga ko'ringanligi aytilsa-da, lekin bsvosita uning tasviri chizilmay, balki jahon gulzorining kulib ochilishiyu, «oy, kun bila nur»ning sochilishi ramzida «gulzori ja- hon» bo'lmish ma'shuqa husni oyga, otashin sevgisi kunga va mehr-muhabbat «nisor deb sochilgan» nurga nisbat beriladi. Bu muhtasar tahlildan ravshanki, «ko'zga ko'ringan jamol»ga qiyoslash uchun ob'ektlarning har biri o'z holiga alohida badiiy vosita ifodasi sifatida, albatta, yangilik emas. Lekin ularning «yor jamoli ko'rinishi» lahzasiga bir butun yaxlit mu- tanosiblikda o'zaro o'xshatilishi, she'rning hajmidan qat'i nazar, oddiy tashbih chizgilari majmuida ham anchagina katta polotno tasvirini ko'z oldiga keltira- di.

«O'zbek g'azaliyotining zamin ildizlaridan biri, bu xalqning boy og'zaki ijodidir». Bu ma'noda syujet, badiiy vosita, radifu qofiyalarning xalqchilli- gi hind turkiy she'riyati uchun ham begona emas. Masalan, Diydaning sevgi-muhabbat motivida yozgan g'azallari, odatda ertakka o'xshash tarzda boshlanib, so'ng ulardagi voqeaning ko'zlangan manzilga qarab izchillasha borishi asta-sekin misralarni ham dinamik ravishda harakatga keltiradi.

Deylik, shoirning o'z yorini izlab yo'lga chiqqan oshiq hikoyasiga bag'ishlangan «bilan» radifli g'azali dastlab xalq dostonlarining muqaddima qismi ruhida boshlanib, faqat shundan keyingina asosiy maqsadga ko'chadi:

Tamoshoga chiqtim chu bogim bilan,

Ravon bo'ldim oxir oyog'im bilan.
Adamning qorong'u uyinda kirib,
Yuzungni ko'rarmen chirog'im bilan.

She'rning yana bir original tomoni shundaki, agar dostonlardagi qahramonlar yo'l-yo'lakay o'z ro'paralaridan chiqqan raqiblariga qarshi kurashib olg'a intilsalar, Diyda qalamida oshiq o'z yo'lida uchragan g'ovlardan sevgisining sezgi kuchi bilan o'tib boradi:

Chu topdim o'zimni etishtim senga,
Bu manzilga ettim so'rogim bilan.
Guliston husnuing ichida ketib,
Toparmen isingni dimog'im bilan.
Ko'zung'a qo'rindi yuzung' behijob,
So'zung'ni eshittim qulog'im bilan.

Va faqat maqta'ga kelgach, oshiq-shoir o'z sevgisi deya chekkan azoblarining o'sha dostonlardagi qahramonlar qismatidan ham ayanchliroq ekanligining isbot- dalili sifatida, «Chu bog'dan to dog'igacha» bosib o'tgan yo'lini qon yig'lagan lola ko'z yoshi-la bo'yaydi:

Sen, ey ; Diyda, hayron ruxsori bo'l
Ki, qon yy^ladi lola dogim bilan.

Agar ushbu talqindagi she'r yakunini syujet zamiridagi yashirin iztiroblar larzasi deb qaralsa, Diyda ash'orida yana shunday g'azal namunalari ham borki, ularning il,k misralariyoq maqta' mazmun bilan yo'g'rilgan. Ya'ni, shoir qalbiga ayriliq solgan o't dastlab jismu jonga, qeyin «aqlu dinu dil tamome xonu- mon»ga va bora-bora ko'kka etgach «osmonu jahonga» tushib, so'ng uni butun Hindiston bilan tutashib ketganligining guvohi bo'lamiz:

Bir pariyning furqatidin jismu jong'a tushti o't,
Aqlu dinu dil tamome xonumong'a tushti o't.
Yiroq ohim shu'lasidur ko'kka etgan hajridin,
Bu shafaq yo'qturki bordur osmong'a tushti o't.
Ishqidinkim hajridin kuydum, tutashtum, ey ulus,
Oncha o'rtandumki oxir bu jahong'a tushti o't.
Ishq yo'lida matoim sabr edi jam aylag'an,
Oqibat ohim o'tidin goh olg'a tushti o't.
Diyda ul bir lola yuzlug' mohi paykar furqati,
Oncha kuydurdi seni, Hindustong'a tushti o't.

G'azal nihoyasida ko'rganimizdek, «osmonu jahonga» o't ketganidan keyingina Hindiston tilga olingan.

Holbuki, butun koinotu mavjudotni alanga o'z domiga olganidan so'ng Hindistonning zikr etilishi, ya'ni suyuqli yor makon topgan maskan oldida qolgan hamma erga o't ketishining ikkinchi planga o'tishi, aslini ol- ganda, mantiqdan emas.

Ammo muallif bu bilan, agar bir yoqdan, firoq va rashq o'tining zo'rligini «osmonu jahon»dan ham oshiq uchun muhim bo'lgan Hindistonga o't ketganligi orqali tasvirlasa, ikkinchi yokdan, ma'shuqaning butun bir mamlakat ahlini o'z

husniga mahliyo etganligini ko'rsatishda ham foydalangan. Ushbu xususda *iltizom* san'atining muvaffaqiyatli qo'llanganligi g'azal mazmunini yanada keng yoritgan.

Hindiston turkiyo'y shoirlari asarlarida, «Hind uslubi» ta'siridanmi, mubolag'a imkoni va turlaridan to'la foydalanishning an'anaviy tus olganligi- ni alohida ta'kidlash joiz. Vaholanki, «mubolag'aning har qandayi ham solim zavq nuqtai nazaridan ma'qul bo'lavermaydi».

Misol uchun, uning «g'uluv» deb ataluvchi aqlga sig'maydigan turi kishiga zavq bag'ishlamaydi. Lekin «bo'rttirish, - akad. A.Rustamovning Navoiy g'azalidan olingan quyidagi bir bayt misolida ta'riflaganidek -

Furqati za'fida qon yosh ichra yotmish paykarim,

Guluzorimdek qizil atlasin o'lmish bistarim.

voqeiy bo'lmasa ham mantiqan to'g'ri» bo'lishi mumkin (77:636). Jumladan, Diydaning«bas manga» radifli g'azalida ham shunday bir mubolag'a ishlatilgan:

Seli ashkim sho'rini eshitdi soldi bir nazar,

Yig'lamoqning davlatidin Diyda ushbu bas manga.

Shoir baytniig birinchi misrasidayoq kichik bir detal imkoniyatidan juda mohirona foydalangan; u yori nazariga «atk ssli»da (Temas, balki faqat «ashk seli»ning suronli «n|o'ri» - ovozi eshitilgandan so'ng sazovor bo'lganligini ko'rsatishga, ya'ni «bo'rttirish» bilan qaysar mahbubaning qahri naqadar qattiq ekanligimga o'quvchida to'la ishonch qosil qilishga erishgan. Bunday voqeiy emas, mantiqiy mubolagalar Diyda n1S1.rnya1ida mubqam fikr yoki mavqum qayolotdan xoli bo'lib, konkret, biroq bo'rttirilgan haqiqatga asoslanganligi bilan qimmatlidir. Shoir poeziyasining qazto mubolag'ada o'z tamoyiliga sodiqligi - samimiyatining kuchi ham ana shunda!

Diydaning ishqiy-lirik she'rlari aksariyatini ilk uchrashuv yoki ahd-paymondan ko'ngilda armon qolgan ssvgi tuyg'ulari tashkil qiladi. Ularda visol damiga intiq oshiqning arzu nolasidan ko'ra afsus va nadomat ohanglari ko'proq eshitiladi. Ba'zan esa, uning g'amnok xotiralari, ko'ngliga tinchlik bermas yor sifatlari xayolan qaytadan jonlantiradi. Va faqat «ahyon-ahyonda, ushalmas orzular gadosining nidosi ijobat bo'lib», u o'z sadoqati va vafodorligi uchun taq- dirlanib, g'azal ko'tarinki - optimistik ruhda poyoniga etadi:

Matla':

Holimni so'rma soqiyo to'ldir ayog'ni,

Men kimga ko'rsatay yuragimdagi dog'ni.

Maqta';

Husnung nazora qilg'ali jonim senga fido,

Yondirdi Diyda o'z yuragidin chirog'ni.

Matla':

Oyo qushimni olib ketgan nigorim bu kecha,

Qolmadi ko'ngluma har sabru qarorim bu kecha.

Maqta':

Bosh qo'yay, shukf qilay, Diyda qurboni

Jilvalar qildi kelib shahsuvorim bu qecha.

Insondagi ishq-muhabbat kechinmalari aniq biror ta'rifga sig'maganideq, ularning bayonu tavsifini ham she'riyatda muayyan qonun-qoidalarga bo'ysundirib bo'lmaydi. Ijodkor xayolini band etgan nozik va nodir sevgi his-hayajonlarini ifodalovchi «badiiy tasvirlash vositalari faqat shoirning voqelikni qanchalik obrazli idrok eta bilishi bilan belgilanadi». Chunonchi, deylik, agar biror qalam sohibi ma'shuqaning latofatini uning ro'yi ruxsoriga yo'yib, qaddi-qomatiyu bo'y-bastini sarv yo shamshodga yoxud sharmu hayo hamda iffat-ibosini pok, beg'ubor shabnam safosiga chog'ishtirsa, boshqasi shu uslub aksini qo'llab, dildorning bemisl husnu tarovati timsolida undagi noyob botiniy fazilatlariga tashbih beradi.

Diyda esa, ko'ksiga hijron o'tini solib ketgan yorining ichki dunyosi va tashqi qiyofasi ko'rkamligini, biz yuqorida ko'rib o'tgan har iqqala uslubdan farqli o'laroq, qalbida visol chog'laridan qolgan xotiralar yodi rohati va izzatoblari bayonida tasvirlaydi:

Yor ketti to qo'zumdin, oh jonim qani?

Qoldi holn mujdakim, ohu xudo, jonim qani?

Qomati ruxsoridek dunyoda bo'lmas har kishi,

Betakalluf rost-ro' sarvi xiromonim qani?

Hajring tiyg'u balodur yora qildi bag'rimni,

Dardiki o'ldi netay, jonima darmonim qani?

Pirovardida turkiy nazmda o'z mavzu va mahoratiga ega shoirning dastlabki topilgan she'rlar to'plami hind qo'lyozma xazinalarida bundan keyingi olib borilajak izlanish va tadqiqotlarga muqaddima bo'ladi degan umiddamiz. Mazkur xulosaga kelishimizga asosiy sabab, Diydaning ijodi qo'limizdagi devon nusxasi bilan chegaralanmagan.

Diyda devoiining ilmiy tavsifi

151-inv. raqamli Rampur shahri kutubxonasida saqlanayotgan qo'lyozma Diyda taxallusida ijod etgan shoir devoni nusxasi(135).

Uning hajmi mo''jaz - hammasi bo'lib 8 varaqdan iborat. Format 16x28sm. She'rlar qora siyohda yozilgan, xati esa chiroyli. 8ta g'azal, bta ruboiy va 5ta fardni o'z ichiga olgan devon unvonining o'ng tarafidagi 2 raqamiga qaraganda, ushbu nusxada Diydaning turkiy she'rlari tartib jihatdan yo uning forsiy she'rlaridan keyin kelgan yoki to'plam turli mualliflar asarlari majmuining bir qismini tashkil etgan.

Qo'lyozmaning birinchi sahifasi yuqorisida *Devoni Diyda*» hamda qavsning ichi va tashqarisida «*Na- vob Akbarxop Dilliy*» yozuvi o'qiladi.

Fikrimizcha, ushbu qayd yo «Diyda» taxallusli shoirning asl nomi, yoxud Dehliy shahrida istiqomat qilgan devon qo'lyozmasi egasining ismi. Nusxaning saqlanishi yaxshi, kotibi noma'lum.

Devonning boshlanishi:

Devonning oxirgi sahifasi ba'zi erlarini dog' bosgan va qisman ertilib ketgan.

11-MAVZU

JOHILA VA YUSUF FARYOBIY HAYOTIY FAOLIYATI

Boshqa turkiy xalqlar qatori turk ijodkorlari ham «hind-musulmon madaniyati» taraqqiyotiga o'z asarlari bilan salmoqli hissa qo'shganlar. Johila «Devoni hikmat»ning hind kitob javonidan topilishi umumiy turkiy badiiyat uchun yangilik hisoblansada, ammo bu «yangilik» o'z davri mahalliy adabiy muhiti uchun odatdagi bir hol.

Devon muallifi haqida hozircha faqat shuni aytish mumkinki, shoira shubhasiz o'z ijod uslubida til imkoniyatlaridan to'la foydalanish tajribasiga ega va tanlagan mavzuiga ruhan vobasta qalam sohibasidir. Johila tilidagi arab va fors so'zlarining usmonli turk adabky tili talaffuzi taqozosiga o'ta moslashgailigi bois, u so'zlar matni ma'nosini o'zlashtirishda ayrim kiyiichiliklarga duch kelindi. Shu sababdai, quyida faqat ikki g'azal mazmuniga mushtarak badiiylkning ba'zi xarakterli jihatlariga to'xtalib o'tishni maqul ko'rdik.

«Xok javharki o'ldi ayni zahab» deb boshlanuvchi g'azalida shoira «lirik qahramon»idagi komil fazilatlarini ta'riflar ekan, u dastlab diqqatii ma'naviy go'zallik - poklikning ramziy mo''jizalariga jalb etishga intiladi:

Xok javharki o'ldi ayni zahab,
Suyi sofiy nazarda netaki jam'.
Xok javhari bo'ldi ayni oltin,
Safo suvi nazarda go'yo ko'z yoshi.
Sirridur shak la'l rammoniy,
O'lmish anda komu latofat jam'.
Siridir shak, anori la'li,
Unda bo'lmish tobe latofat jami.
Obi daf' eda chun kasofatni,
Ayrugundin zallomiy aylar kam'.
Obi daf etadi chun kasofatni,
Keyingi kun daf etadi zulmatni.
Vasf zoti ul javhari pok,
Laynu purshu'la netaki sham'.
Ul javhari pokning vasf zoti,
Mayin purshu'ladur bamisoli sham.
Shu ila rakanki go'rmish go'zlar,
Ne xush avjfini eshitmish sam'.
Shu bilan ko'zlar ko'radi ravshan,
Ne xush, vasflarin eshitmish samo.
Sig'mas afoqa nuri etsa tulu',

Ne tulu ersa pur tundin lam'.
Tulu' etsa nuri sig'mas olamga,
Ne balqishki, u tunda ham porlaydi.
Johila jihad et uni kustarma,
Do'ksa toliblanuvini go'zdan lam'.
Johila jihat et, uni ko'rsatma,
To'ksa hamki hatto ko'zlaridan yosh.

Yoki, ikkinchi - «Ittihad etdi chun jamolu jalol» misrasi bilan boshlanuvchi g'azalda shoira sirli «mahbub»ning ichki dunyosi kamolotiga monand tashqi qiyofasi va uning ko'rsatishga qodir karomatlarini tas- virlaydi. Faqat g'azalning maqta'siga qelib, xayoliy «qahramon»ga «javon» sifatlari berilganidan keyingina she'r syujeti hayotiy voqelik sifatida anglanadi.

Sharq g'azaliyotidagi bu kabi «xayoliy va hayotiy bog'lanishlar» sir-asrori G'arb tadqiqotchilari tomonidan turlicha yo'nalishlarda izohlab qelinadi. Xususan, «muammo»ning quyidagi talqini masalaga birmuncha aniqlik kiritishi mumkin:

«Musulmon she'riyatini o'rganuvchi adabiyotshunoslikda sufiy va dunyoviy asarlarning birini ikkinchisidan ajratish borasida hamon birorta muayyan asos ishlab chiqilgapi yo'q. Unday asosni yaratishning mush- kulligiga sabab, baytlardagi an'anaviy ichki va tashqi ikki ma'nolilikni diniy va do'nyoviy motivlar doirasida yuzaga keltirishga imkon berilishidir»;

M gthod otdi chup jamolu jalol,
Ochildi bir xo'bro' uaorip arz.
Chunonchi, birlashib huspu buyuklik,
Qildi bir xo'bro'y uzorin bayon.
Yunub obi hayot-la ruhi,
Etdi afoqi nur bayzo arz.
Ruh poklanib obi hayotla,
Olamda er yuzin nur-la porlatdi.
O'ldi gunduzgacha chunki husni fizun,
Ani dundan sokinmoq o'ldi qarz.
Chunki husni orta bordi to kunduzgacha,
Tundan uni asramoqlik bo'ldi qarz.
Johila ul javonni kustarma,
Chashmi ag'yora jihat et, ayla arz.
Johila ul javonni ko'rsatma,
Ag'yor ko'zidin asrab, ayla arz.

Ilk tarjima jarayonida shunisi ayon bo'ldiki, shoira tilining nihoyatda boyligi va fikrlarining goh yashirin, goh oshkor ifodalanishi kishida «hikmat» ustida falsafiy mushohada qilib ko'rishga moyillik uyg'o- tadi. «Mahbub» obrazig'a mansub qo'shoq fazilatlar biri iqkinchisini inkor etmasa-da, ammo ularning o'zaro botindan zohirga o'tib turuvchi ilohiy va insoniy «mumkinot» siyatlarning namoyishi ancha muammoli ta'riflangaa

Shu zaylda Johila she'riyati uchun shaklan o'xshash, biroq mazmunan turli ma'nodagi *dam'*, *jam'*, *kam'*, *sham'*, *sam'*, *lam'* singari so'zlarning qofiyalanib bir

hilda qaytarilishi, go'yo satrlarga singdirilgan «mahfuz hikmat»lar hosiyati ta'kidlanayotgandek taassurot qoldiradi.

Ijodkorning aksariyat she'rlaridagi *tajpis* san'atining istifodasi, go'yo syujet qahramonining g'azalxon uchun so'nggi misragacha mavhum qolaverishiga mo'ljallangandek...

Xullas, Johila ash'oridan hosil qilingan ilk ma'lumot va uning badiiyati hususidagi ba'zi mushohadalar devondagi g'azallar haqidagi dastlabki mulohazalar. Bizning shoira to'g'risida to'laroq ma'lumotga ega bo'lish maqsadida Johila nomi zikr etilishi mumkin bo'lgan usmonli turk tili adabiyotiga doir Turkiyada chop etilgan ayrim nufuzli manbalarni ku- zatishimiz ham tegishli natija bermadi.

Demak, Johila adabiy merosi namunalari yuzasidan bildirilgan dastlabki fikr-mulohazalarni kelajakda bu iqtidorli shoira asarlari yuzasidan olib boriladigan tadqiqotlar uchun informatsion harakterdagi ma'lumot doirasida tushunmoq kerak.

Johila devonining ilmiy tavsifi

Qo'limizdagi «Devoni hikmat» asl manbadan kseronusxa uslubida ko'chirilgan bo'lib, uning' hajmi 16 varaq, formati 14x5,21sm.(131). She'rlar ikki ustunda chiroyli nasx xatida yozilgan, har bir sahifada 23 tadan misra bor. Muqovasi zamonaviy, qog'ozi sarg'ish. XVIII asrga oid ushbu qo'lyozmaning oxirgi varaqlari yirtilgan bo'lsa ham qolgan qismining saqlanishi yaxshi. 1-sahifadagi kirish so'zining tepasiga muhr bosilgan.

Yusuf Faryobiy

Hindistonda topilgan devon va bayoz mualliflari orasida ba'zi shundaylari ham borki, ularning hayoti yoki ijodi tugul, hatto yashab o'tgan davriga oid ma'lumotlarga ham ega emasmiz. Albatta, o'rganilayotgan mav- zuning endigina - tadqiqot ibtidosiga nisbatan qisqa bir vaqt ichida yaxlit ilmiy muomalaga kiritilganligini e'tiborga olganda, bunday muammolarga duch kelinishining tabiiy jihatlari ham bor.

Shuning uchun, to hali noma'lum» ijodkorlarning tarjimai holi va ijodi bo'yicha tegishli ma'lumotlar ko'lga kiritilmaguncha, ular to'g'risida ozmi-ko'pmi xabar bera olishi mumkin bo'lgan yagona ishonarli manba - bu qalamkashlarning bizga meros qolgan qo'lyozma asarlariga yo'g'rilgan ularning dunyoqarashlari. Zero, ijodkor qalbining pinhon kechinmalari va uning real hayotga bo'lgan munosabati, san'atning barcha turlari singari poeziyada ham, avvalo, shoirning tug'ma xarakteri va qobiliyati negizida yuzaga chiqadi.

Bu jihatdan Yusuf Faryobiy she'riyati ruhida shoirning siyrati o'zining shijoati, qat'iyati va sobit-qadam ekanligi bilan ajralib turadi. Unga go'yo mung, o'kinch va o'tinch hamda ohu nolalar begonadek...

Goh u dilozorga ko'nglidagi borini yashirmay-netmay to'kib soladi, gohida esa mubolag'aga berilib, zolim yorning g'amzasi hattoki «Tengri taoloning jahonini buzgan»ligiga tenglashtiradi. Shu ruhiyatda, go'yoki shoir tomonidan bevafo yor ta'rifida biror istiholaga borilishi sevgi pokligiga va she'r g'oyasiga putur etkazish bilan barobardek:

G'aming hujumi yor oshiyonini buzdi,
Matoi mehri qomating do'konini buzdi,
Bu turk zolim mast kushanda g'amzasi,
Ko'rungki, Tengri taoloning jahonini buzdi.

Poeziyada shoir va she'r o'rtasidagi mantiqiy birlik juda muhim ahamiyat kasb etuvchi samimiyat mezoni. Ijodu ijodkor o'rtasidagi mana shunday uyg'unlikgina, adibning she'riyatida mujassam shaxsiyati hususi- yatlaridan dalolat berishi mumkin.

Bu ma'noda Yusuf Faryobiy Hindistondagi turkiygo'y qalamkashlar salafiaing shubhasiz eng xarakterlisi. Uning g'azallarida keskin va ba'zan alamzada ichki bir dardning qalqib turishidan, bunga shoirning shaxsiy xayoti bilan bog'liq muayyan sabablar bordek tuyuladi. Balki shundanmi, u bot-bot «o'zi kabi» muhabbatdan pand eganlar qismatiga achinib, oshiqni «no zaninzodalar»ning asl yuziga parda tortgan ishvasiyu nozu qarashmalariga uchmay, bardosh sinovi soniyalarida ham yigitlik g'ururi pokligiga sodiq qolishga rag'batlantiradi:

Nozaninzodalarning ishvasiga aldanma,
So'zlari, va'dalari voricha yolondur deydilar.

Ammo shoirning bu qayfiyati uning ko'ngil qushi erkiga rahna solmaydi - o'tkinchi. Axir kim ham, mayli, qachonlardir bo'lsin, sevgi baxtidan bahramand onlarining izsiz yo'qolishini istardi, axir u o'tgan baxtiyor lahzalardan juda bo'lmasa saboq xotiralari qolgan-ku!

Shu bois, Faryobiy quyidagi misralarda ishq ahliga go'yo o'z muhabbati diliga muhrlagan afsusnok saboqlaridan so'zlaydi: «Ma'shuqaning naqdi jahonga teng dardiyu, jonbaxsh hasratlari evaziga neki qo'lingdan kelsa hech qiyishmay unga marhamatlar qil, bunday iltifotlar ko'rsatishga berilgan imkon uchun yordan yana minnatdor ham bo'l, zero, - deya uqtiradi u, ishqda sarhisobli savdodan topilgan foyda borki, koni ziyondir!» Va ushbu istakda sevgi fidoiylarini mangu vafodorlikka chorlovchi satrlar, ayni zamonda, Faryobiy ichki dunyosining noyob fazilati - kechirimliligi, tantiligidir:

Dardin ol, dardin aning naqdi jahondur deydilar,
Jon verib hasratini ol, hasrati jondur deydilar.

Harna voring veribon yo'qlig'i ol, minnat tut,
Ishq savdolarining sudi ziyondur deidilar.

Holbuki, yor o'sha-o'sha «bemori» dardiga beparvo, sadoqatiga bevafo, u nainki xastadil holidan xabar olmaydi, boz ustiga, aqalli ko'ngil uchun qiyo ham boq- maydi. Ammo shunda ham ma'shuq o'z qismatidan shikoyat yoki joiz erda ham kina-kudurat qilishdan uzoq. U faqatgina go'yo o'z-o'zi bilan dardlashgan kishidek, chuqur taassuflar bilan ozurda qo'ngliga umid uchqun- laridan tasalliy izlashga tutinadi:

Ozurdalarning hotirini so'rmaga kelmas,
Nargizlari bemorlarni ko'rmaga kelmas,
Jonima qilib qasd uchdi xayoling,
Ore kishi bahr ichida o'lturmaga kelmas...

Yusuf Faryobiyning tili va katalogda qayd qilingan qo'shimcha «qorabog'iy» taxallusiga qaraganda - agar u haqiqatdan ham shoirga tegishli bo'lsa, adib ozarbayjon millatiga mansubga o'xshaydi.

Lekin izlanishlar yuzasidan bildirilgan ayrim taqrizlarda «adib Hirotning shimoli g'arbida joylashgan Qorabog qishlogida tugilib, Faryobda yashagan»- degan taxminlar bor.

She'riyati ruhidan bevosita saroy muhitiga taallukdor ijodkorning hayoti va adabiy faoliyati bilan bog'liq mazkur xulosalar, hozircha, bor-yo'g'i taxmin, hujjat emas! Bizning nazarimizda, «hind-musulmon madaniyati» davri adabiyoti va san'ati o'z tamoyillariga ko'ra, bu buyuk madaniy-ma'rifiy jarayonda ishtirok etgan ijod ahlining qaerda kindik qoni to'kilganlygi bilan emas, balki taqdir taqozosi bilan maz kur ma'naviy ummonga bir jilg'a sifatida kelib ko'shilishi oqibatida uning qanday asarlar yaratganligi bilan e'tiborli.

Shunday ekan, Yusuf Faryobiyning asosiy qismi forsiy g'azallardan iborat devonidan joy olgan ona tilisidagi ash'ori, shubhasiz, yangi turkiy qalam namunasi bo'lib, uning ruhi, g'oyasi va mazmuniga monand o'ziga xos badiiy unsurlari shoirning hali bizga noma'lum adabiy merosi mavjudligiga ishora.

Yusuf Faryobiy devonlarining ilmiy tavsifi

«Solorjang» muzeyi kutubxonasida 1083.10-inv. raqami ostida saqlanayotgan Yusuf Faryobiy devoni 282 araqli o'ndan ortiq ijodqorlar to'plami orasidan joy olgan.

Formati I 1x19,8sm., xati yirik, saqlanishi o'rtacha. Forsiy ia turkiy she'rlar matni aralash tarzda ikki ustun qilib yozilgan.

Devondagi turkiy she'rlar forsiydan farqli o'laroq, surxda «turkiy» so'zi bilan belgilanib qo'yilgan va bundan fors tilidagi she'rlar tepasiga pala-partish yozilgan «turkiy» so'zi mustasno. Devonda turkiy she'rlar jami bo'lib 6 ta. Ulardan 4 tasi g'azal va ikkitasi ruboiy janriga tegishli.

Nusxaning 3-sahifasida «Solorjang» muzeyi kutubxonasining muhri bosilgan, oxirgi sahifalardagi dumaloq shaklli iqkinchi muhr esa, qo'lyozma egasiniki bo'lishi kerak.

Nusxadagi ma'lumotga ko'ra, to'plam 1640 yili ko'chirilgan, kotibi noma'lum.

SAMINIY-FAHM HAYOTI VA IJODI. HUMOYUN HAYOTI VA IJODI, LIRIKASINING JANRIY KO'LAMI.

Navbatdagi forsiy va turkiygo'y shoirlar ijodiga mansub bayozning ikkinchi qismidan joy olgai Fahm taxallusli adibning devoni Hindiston turkiygo'y adabiyoti bo'yicha keyingi aniqlangan manbalar ro'yxatiga kiradi. Bu qalam sohibining beixtiyor dilni rom etuvchi g'azal va ruboiylari, aslida doimo shoir zotiga hamroz sirli olam ruhiy iztiroblarining badiiy inkishofi - dardi, hasrati.

Chunki «lirikaning asl vazifasi kishilarning ayrim xos iztiroblarini hayotning konkret tasavvuriga aylantirishdir». Binobarin, shoir Fahm o'zining ushbu baytida ishqiy iztiroblarini «sham va parvona» obrazlari qiyosida ancha original uslubda - an'anaviy muqobila holatidan farqli ravishda she'rga solib, g'azalga sirli bir ruh baxsh etgan:

Ruhi ushshoq qilmadi parvona oso iztirob,
Uldi go'yo shu'lai sham' tajallo iztirob.
Kunda biyik do'zax, tavof eli xarim dillarim,
O'lmasunmi sinai ushshoq shaydo iztirob.

Ma'lumki, hayotning barcha jabhalaridagi kabi ishq-muhabbatda ham ezgulikning «kushandasi» - bevafoqlikning achchiq haqiqati. Poetik jarayonda mazkur musallam «qonun»ning kuchga kirishi esa, bu lirik qahramonning sinovlarda toblanib, azoblarga dosh berish davri desaq, xato bo'lmas. Ammo shuningdeq, goho she'riyatda oshiqni obdon taxqirlab, uni mankuf urgan mahbubaning husni tarovatida shu topgacha ma'lum bo'lmagan shunday bir benazir qirralar ko'zga tashlanib qoladiki, natijada jabru sitamlar nogohon unutilib, kishining sevgi sehriga tan berib taslim bo'lmay iloji qolmaydi.

Masalan, Fahm sevikli yor g'azabiga duchor oshiq tilidan «o'z nozik mijoziga» murojaat eta turib, ko'ksini nishonga olgan ma'shuqasining jabri xanjaridan ham kuchliroq husnining ajabtovur bir jilvasiga, ya'ni jafokorning ilkidagi jomda aks etgan la'li lablarining «axgari» - otashiga ko'zi tushib, g'azabnok va toqati toq yuragini yana yor xayoli chulg'aydi:

Xanjar urma siynama, ey dilbari nozik mijoz,
O'lmasun ziynat tabiat xanjari nozik mijoz.

Aksi la'ling jomida bir aks etmishki, garchikim,
Oyla kerak ulfat o'lmak axgari nozik mijoz.

Nazarimizda, tasvirlangan lavhadagi yana bir muhim detal shuki, shoir tomonidan berilgan «nozik mijoz» obrazida, undagi majoziy xanjar yanglig' beva- vafolik jafosidan daf'atan husn jozibasining ustun kelishi, ayni mahalda, o'zining xuddi shu jihati bilan zarbaga nishon yigit ko'ksini - ko'nglini himoya qilishga ham bakor keladi!

Taassufki, bayozdagi ma'lumot taqchilligidan shoir Fahmning hayoti va ijodiga taalluqli ko'pgina savollar ochiq qolmokda. Yoki bir so'z bilan aytganda, hozircha Fahm, to'plamdagi fan uchun noma'lum o'nlab hindistonlik forsiy va turkiy she'riyat namoyandalarining biri, xolos.

Lekin imonimiz komilki, kelgusida bayozning maxsus va mufassal o'rganilishi, nafaqat Fahmning adabiy merosi, balki uning qatorida Hindistonda yashab ijod etgan

Movarounnahr, Xuroson, Turkiya va Kavkazlik turkiy xalqlar adabiyotining yangidan yangi vakillari hamda ularning asarlarini kashf etilishi uchun yana bir imkon demakdir.

Saminiy devonining ilmiy tavsifi

Latna shahridagi «Xudobaxsh» kutubxonasi katalogida 6445-inv. raqam ostida ikki qismdan iborat devon qo'lyozmasi qayd qilingan. Garchi qo'lyozmaning birinchi sahifasida «*Devoni Saminiy*» deb yozilgan bo'lsa-da, ammo uning ikkinchi qismidagi devon she'rlari «Saminiy» emas, Fahm taxallusli bilan berilgan.

Devonga kiritilgan g'azal, fard, ruboiy, muammo va boshqa janrdagi she'rlar balki ikki taxallusda yozgan bir shoir ijodiga mansub asdrlardir? To'plamning umumiy hajmi 46 varaq, formati 16x21sm.

Muqova zamonaviy, yozuvi xushxat. Turkiy va fors tilidagi she'rlar aralash holda qiyalab hoshiyalarga chiqarib yozilgan, sarlavhalar surxda bitilgan.

Devonning birinchi qismi Fuzuliy, Safiy Kulixon Devona, Sulton Mahmud, Baqo, Hayot va Jamoliy kabi shoirlarning ijod namunalaridan tarkib topgan. Bayoz qo'lyozmasining kotibi va tarixi noma'lum.

HUMOYUN

«... podshohiing yoqimtoy zotida eng oliy sifatlar mujassam edi. Shirin nutqida «so'zning yaxshisi - qisqasi va dalillisidir» mazmuniga ra oz so'z bilan ko'n fikrni bayon qilardikim».

Kim bilsin, bu xislatning nafaqat shoir hayoti, balki uning ijodida ham muhrlanganligi, balki yuqorida zikr etilgan padari buzrukvori Bobur nasihati tufaylidir. Chunki, Hasanxoja Nisoriyning tazkirasida Humoyunning «shirin nutqi»dagi urg'u berilgan «so'zning yaxshisi - qisqasi» xususidagi fikri, aytay- taylik, ma'lum ma'noda shoirning adabiy-tarixiy manbalar orqali bizga yodgor qolgan olti misra – bir matla' va bir to'rtlikdan iborat «turkiy she'riyati» ga ham tegishlidir desak, balki xato bo'lmas?

Ammo hozir biz uchun eng muhimi, ijodkorning turkiy nazmidagi mahoratidan darak beruvchi misralari mazmunidir. Darvoqe, har qanday toza urug' hosilining sifati va kafolati, avvalo, uning oziqasi va parvarishiga bog'liq. Agar shoirona iste'dodni ham ana shu qonuniyatga muvofiq tahlil qilsak, Humoyunning ijodiy takdirini Tangri har ikki yoqlama yarlaqaganligining shohidi bo'lamiz, ya'ni tug'ma qobiliyat va ota o'g'itlari timsolida. Fikrning isbot-dalili uchun *«bu turkiy matla' ham podshohning oliy maqolotidandir:*

Menki bulbuldek guledin kuymisham ohang ila,
Ul solibtur jonima ruxsora Gulrang ila.

G'azal matla'sidan shunga ishonch hosil kilish mumkinki, shoir bor-yo'g'i bir baytning o'zida nasr yo'li bilan hatto bir necha satrga sig'dirish mushkul bo'lgan kichik, lekin tugal ma'noli «hikoya» bayonini joylashga muvaffaq bo'lgan.

O'quvchi dastlabki misradan «Gul ishqida ohang ila» faryod chekayotgan bulbulning o'z otashnok nolasi o'tida kuyganligini anglaydi. Biroq adib keyingi misrada lirik qahramon «joniga o't solgan» gul ruxsorning hatto olovga bas keluvchi - muqobil rangidan so'ylarkan, kishining ko'z o'ngida, muayyan bir voqea ibtidosidan to uning

intihosiga qadar bo'lgan, ya'ni gul rangining «alanga»ga aylanganligi tasviridagi tugallik holati jonlanadi.

Sodiq Kitobdor o'zining «*Majma ul-havvas*» tazkirasida Humoyunning quyidagi baytlari o'z davrida nihoyatda keng tarqalib mashhur bo'lganligini xabar qilgan:

G'ariblig' g'amidin mehnatu malolim bor,
Bu g'amdin o'lmaqqa etdum garib holim bor,
Visoli davlatidin ayrilubmen mahzun,
Tirikmen va bu tiriklikdin infiolim bor.

Tazkira muallifi ma'lumotidan shunday bir savol paydo bo'ladiki, «bu to'rt misra she'r nima sababdan yoqi qay jihati bilan o'z davrida shuhrat qozongan?». Mantiqan, bu savolga shunday javob berish mumkindek...

Agar ushbu to'rtliq mazmunining obdon tagiga etib, so'ng uning yozilishiga turtki bo'lishi mumkin bo'lgan sabablarini tarixiy nuqtai nazardan faraz qilib qo'rsaq, mazkur ruboiy shoir-hukmdorning quvg'inlik yillari g'ariblikda tortgan azob-uqubatlarining poetik aks-sadosi ekanligiga shubha qolmaydi. Qolaversa, ushbu satrlardan hazrat Navoiy va Boburning «g'ariblik g'urbati» va «yoru diyor» mavzuiga bag'ishlangan ruboiylariga yaqin hamohanglik eshitiladi.

To'g'ri, hali Humoyunning turkiy ash'ori badiiyati yuzasidan to'laqonli fikr yuritishga etarli manbalar yo'q. Ammo shoirning yuqoridagi ruboiy finali uchun tanlagan o'rinli bir ifoda uslubi - «o'lmakka etgan g'ariblik holidan infioli borligi», ya'ni shu ahvoldagi «tiriklikdan hijolat tortayotganligi» kabi inkor etib bo'lmas badiiy ifoda istifodasining o'zi, adibning turkiyda tuzgan devoni borligiga umid bag'ishlaydi.

Va yana ushbu umid xususida mutlaqo mubolag'asiz takror va takror shuni aytish keraqqi, hind qo'lyozma ganjinalari turkiy tilidagi manbalar borasida hali bamisoli ko'zi ochilmagan buloq. Zotan, Hindistonda boburiylar davlatining barpo bo'lishidan muqaddam davrlarga mansub turkiy qo'lyozma asarlar ro'yxatining yildan yilga kdagayib, uning hatto XIX asrning boshlarigacha etib kelganligining eng ishonchli omili, fanimizda borgan sari ilmiy asosda tavsiflangan yangi hind manbalari adadining ortib borayotganligidir. Bu xulosaning jonli misoli sifatida, nainki devon yoki bayozlar, balki ular qatorida hind sarzaminida turqiy tilini o'rganish maqsadida tuzilgan turkiy-forsiy va forsiy-turkiy lug'atlar qo'lyozma majmuini ham zikr qilish mumkin.

